SHIRINOV UCHKUN ABDUXALILOVICH

JAMOAT AHAMIYATIGA EGA TASHKILOTLARDA SEGMENTAR HISOB VA HISOBOT METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

MONOGRAFIYA



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining 95 yilligiga bag‘ishlanadi

SHIRINOV UCHKUN ABDUXALILOVICH

JAMOAT AHAMIYATIGA EGA TASHKILOTLARDA SEGMENTAR HISOB VA HISOBOT METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

MONOGRAFIYA

Samarqand – 2026 yil

UO‘K: 657.375
Sh64
KBK: 65.052.2

SHIRINOV UCHKUN ABDUXALILOVICH

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda segmentar hisob va hisobot metodologiyasini takomillashtirish *[Matn]: Monografiya / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2026 - 314 bet.*

Monografiyada jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda segmentar hisob va hisobotning nazariy, uslubiy hamda tashkiliy asoslari tadqiq etilgan, segmentar hisob va hisobotning iqtisodiy mazmuni, uning moliyaviy va boshqaruv hisobi tizimidagi o‘rni hamda ahamiyati yoritilgan. Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda operatsion, geografik va boshqa iqtisodiy segmentlarni identifikatsiya qilish, segmentlar bo‘yicha daromadlar, xarajatlar, aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy natijalarni hisobga olish, baholash, guruhlash, taqsimlash va umumlashtirishning uslubiy tartibi takomillashtirilgan.

Monografiyada MHXS talablariga, xususan, 8-son MHXS “Operatsion segmentlar” talablariga muvofiq segmentar hisobotni shakllantirish metodologiyasi rivojlantirilgan. Segmentlarni ajratish va hisobot segmentlarini belgilash mezonlari, segmentlararo operatsiyalarni hisobga olish va eliminatsiya qilish, bilvosita hamda korporativ xarajatlarni segmentlar o‘rtasida asoslangan taqsimlash, taqsimlanmagan moddalarni alohida aks ettirish bo‘yicha uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Taqrizchilar:

K.B.Urazov – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
A.I.Aliqulov - iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Monografiya institut Kengashining 2026-yil 02-Sentabrdagi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (2-sonli majlis bayoni).

ISBN: 978-9910-350-17-7

© Shitinov U.A., SamISI. 2026 y.
©“STEP-SEL” MChJ nashryoti. 2026 y.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kapital bozorlarining kengayishi, transmilliy va ko‘p tarmoqli kompaniyalar faoliyatining diversifikatsiyalashuvi moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarning tashkilot faoliyati natijalarini alohida biznes yo‘nalishlari, mahsulotlar va geografik hududlar kesimida baholash imkonini beruvchi segmentar axborotga bo‘lgan ehtiyojini oshirmoqda. World Federation of Exchanges ma’lumotlariga ko‘ra, “2025-yil yakunida jahon aksiya bozorlari kapitallashuvi 2024-yilga nisbatan 18,5 foizga o‘sib, 151,94 trln AQSh dollariga yetgan**,** bir yilda jahon fond bozorlariga 23 trln AQSh dollaridan ortiq qiymat qo‘shilgan.”[1] Bunday sharoitda investorlar, kreditorlar, davlat regulyatorlari va boshqa manfaatdor tomonlar uchun tashkilotning qaysi segmentlari qiymat yaratayotgani, qaysi segmentlarda risk va xarajatlar yuqoriligi, moliyaviy natijalarning qanday manbalar hisobiga shakllanayotganini ishonchli aniqlash imkonini beruvchi segmentar hisob va hisobot metodologiyasini takomillashtirish ob’ektiv zaruratga aylanmoqda.

Jahonda sug‘urta tashkilotlarida segmentar hisob va hisobotni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar operatsion segmentlarni identifikatsiya qilish va agregatlash, boshqaruv yondashuvi asosida segmentlarni belgilash, segmentlar kesimida moliyaviy ko‘rsatkichlarni shakllantirish hamda ichki boshqaruv axborotini tashqi moliyaviy hisobot ma’lumotlari bilan muvofiqlashtirishning nazariy-uslubiy asoslarini rivojlantirishga qaratilgan holda olib borilmoqda. Mazkur muammo doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari sifatida operatsion va geografik segmentlarni identifikatsiya qilish hamda asoslangan tarzda agregatlash usullarini takomillashtirish, daromadlar va bilvosita xarajatlarni segmentlar bo‘yicha taqsimlash, segmentlararo operatsiyalarni hisobga olish va eliminatsiya qilish, segmentar axborotning miqdori va sifatini baholash, 8-son MHXS talablari asosida segmentar axborotni shakllantirish va ochib berish mexanizmlarini rivojlantirish, sug‘urta tashkilotlarida 8-son MHXS talablarini 17-son MHXS bo‘yicha shakllantiriladigan ko‘rsatkichlar bilan o‘zaro

[1] https://www.world-exchanges.org/news/articles/new-wfe-data-public-markets-post-strong-growth-2025-despite-geopolitical-instability

muvofiqlashtirish, shuningdek, 18-son MHXSda belgilangan agregatlash va dezagregatlash tamoyillari hamda rahbariyat belgilagan samaradorlik ko‘rsatkichlarini inobatga olgan holda segmentar hisobotning axborot sifatini kompleks baholash masalalarini ko‘rsatish mumkin.

O‘zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish hamda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini oshirish segmentar hisob va hisobotni takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. Bu borada jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarni aniqlash mezonlarini belgilash, ularning maxsus reestrini shakllantirish, moliyaviy hisobotlarni MHXS asosida tayyorlash hamda moliyaviy axborotning shaffofligi va taqqoslanuvchanligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritish mezonlari hamda ularning reestrini shakllantirish va yuritish tartibi normativ jihatdan belgilab berilgan bo‘lib, reestrda tashkilotlarning faoliyat yuritadigan hududi, aktivlarining balans qiymati, mahsulot, tovar va xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan yillik tushumi kabi moliyaviy-iqtisodiy ma’lumotlarni aks ettirish nazarda tutilgan.”[2] Mazkur talablar jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda faoliyat yo‘nalishlari, mahsulot va xizmatlar hamda hududlar bo‘yicha segmentlarni yagona mezonlar asosida identifikatsiya qilish, daromadlar, xarajatlar, aktivlar va majburiyatlarni segmentlar kesimida shakllantirish, bilvosita xarajatlarni iqtisodiy asoslangan bazalar bo‘yicha taqsimlash hamda ichki boshqaruv axboroti bilan tashqi segmentar hisobot o‘rtasida o‘zaro muvofiqlikni ta’minlash zaruratini yuzaga keltiradi. 2026-yil iyun holatiga reestrda 425 ta jamoat ahamiyatiga ega tashkilot, jumladan 96 ta ommaviy savdodagi tashkilot va 226 ta bank hamda boshqa moliyaviy tashkilot qayd etilgan.[3] Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda segmentar hisob va hisobotni 8-son MHXS talablari asosida operatsion va geografik segmentlar kesimida moliyaviy natijalarni baholash imkonini beradigan zamonaviy hisob-axborot tizimi sifatida

[2] https://www.lex.uz/pdffile/7959764
[3] https://api-portal.gov.uz/uploads/3/2026/06/25/84710afe-d58f-fc76-9dfc-df5b5914aabc_media_.pdf

takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ–4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi va 2025-yil 15-sentyabrdagi PQ–282-son «Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 507-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori, shuningdek sohani tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda moliyaviy hisob tizimini xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish, MHXSni keng joriy etish, hisobotlarning shaffofligi va qiyoslanuvchanligini oshirish vazifalari belgilangan. Mazkur dissertatsiyada jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda segmentar hisobning konseptual-metodologik asoslarini rivojlantirish, 8-son MHXS va tarmoq standartlarini integratsiyalash, ko‘p o‘lchovli analitik hisob tizimini shakllantirish, segmentar axborot sifatini baholash hamda ichki va tashqi segmentar hisobotlarni o‘zaro muvofiqlashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar ushbu normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashga muayyan darajada xizmat qiladi.

I BOB. JAMOAT AHAMIYATIGA EGA TASHKILOTLARDA SEGMENTAR HISOB VA HISOBOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning iqtisodiyotdagi o‘rni va buxgalteriya hisobi sub’ektlari sifatidagi xususiyatlari

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlash, moliya bozorlarining samarali faoliyat yuritishi hamda keng doiradagi manfaatdor tomonlarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishda muhim o‘rin tutadi. Bunday tashkilotlar faoliyatining ko‘lami, moliyaviy operatsiyalar hajmi, jalb qilingan resurslar miqdori va ularning iqtisodiyotning boshqa subyektlari bilan uzviy bog‘liqligi sababli ular faoliyati nafaqat mulkdorlar va investorlar, balki kreditorlar, davlat organlari, mijozlar hamda umuman jamiyat manfaatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning moliyaviy barqarorligi, faoliyatining shaffofligi va hisobdorligini ta’minlash iqtisodiy xavfsizlik va investitsion muhitni yaxshilashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi subyektlari sifatida jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlardan moliyaviy axborotga bo‘lgan yuqori jamoatchilik ehtiyoji, hisob va hisobotning shaffofligiga qo‘yiladigan kuchaytirilgan talablar, murakkab moliyaviy operatsiyalar hamda manfaatdor tomonlar doirasining kengligi bilan ajralib turadi. Mazkur xususiyatlar ularda buxgalteriya hisobini xalqaro tan olingan tamoyillar asosida tashkil etish, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini izchil qo‘llash, samarali ichki nazorat va risklarni boshqarish tizimini shakllantirish, shuningdek, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini mustaqil audit orqali tasdiqlash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning iqtisodiyotdagi o‘rni va ularning buxgalteriya hisobi subyektlari sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish hisob va hisobot tizimini xalqaro talablar asosida takomillashtirishning muhim ilmiy-uslubiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

1.1-jadval

Dunyo mamalakatlarida jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning turlari

Davlat / Hudud	Qo‘llaniladigan tushuncha	O‘ziga xos xususiyatlari va talablari
Yevropa Ittifoqi	Jamoat ahamiyatiga molik tashkilotlar	Yevropa Ittifoqining 2014/56/EU Direktivasiga muvofiq, birjada listingdan o‘tgan barcha kompaniyalar, banklar va sug‘urta tashkilotlari JAMT hisoblanadi. Ularning auditini har 10 yilda almashtirish (*audit firm rotation*) majburiy.
AQSh	Ommaviy kompaniyalar / Emitentlar	AQShda JAMT atamasi o‘rniga asosan Ommaviy kompaniyalar qo‘llaniladi. Ularni Qimmatli qog‘ozlar va birja komissiyasi hamda Auditorlik nazorati kengashi tartibga soladi. Talablar Sarbanes-Oksli qonuni (SOX) qonuni bilan juda kuchaytirilgan.
Buyuk Britaniya	Jamoat ahamiyatiga molik tashkilotlar	Brexit'dan keyin ham JAMT statusi saqlanib qolgan. Moliyaviy hisobot bo‘yicha kengash tomonidan nazorat qilinadi. Hukumati so‘nggi yillarda yirik xususiy kompaniyalarni ham (xodimlari 750 dan ortiq va tushumi £500m dan yuqori) JAMT toifasiga qo‘shish islohotini amalga oshirmoqda.
Xalqaro standartlar	Jamoat ahamiyatiga molik tashkilotlar	Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (MHXS/MHXS) va Xalqaro audit standartlari (ISA)da JAMT alohida toifa sifatida ajratilgan. Ularning moliyaviy hisobotlari faqat MHXS asosida yuritilishi shart.

Jamoat ahamiyatiga molik tashkilotlar tushunchasi xalqaro amaliyotda turlicha nomlanishi hamda tartibga solinishi mumkin, ammo ularning barchasi uchun umumiy xususiyat - yuqori darajadagi shaffoflik, qat’iy moliyaviy nazorat va mustaqil audit talablarining mavjudligidir. AQShda bu toifa Sarbanes-Oksli qonuni (SOX) doirasida ommaviy kompaniyalar shaklida tartibga solinsa, Yevropa Ittifoqi va Buyuk Britaniyada audit rotatsiyasi hamda qat’iy korporativ boshqaruv standartlari orqali nazorat qilinadi. Xalqaro moliya va audit standartlari

(MHXS/ISA) ushbu tashkilotlar uchun yagona hisobot mezonlarini belgilayotgani sababli, global tendensiya JAMT doirasini faqat birja va moliya institutlari bilan cheklamay, yirik xususiy korxonalarga ham yoyishni taqozo etmoqda (masalan, Buyuk Britaniya islohotlari). Bu esa yirik korporatsiyalarda davlat va jamiyat oldidagi moliyaviy mas'uliyat hamda hisobdorlik darajasi ortib borayotganidan dalolat beradi.

O'zbekistonda 2025-yil 27-dekabrda "Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritish mezonlari, ularning moliyaviy hisobotlari va auditiga qo'yiladigan talablar hamda Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bank boshqaruvining qo'shma qarori qabul qilindi.

Qaror mamlakatimizda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga (MHXS) moslashtirish va yirik hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega korxonalarning moliyaviy shaffofligini oshirishga qaratilgan muhim huquqiy hujjat hisoblanadi. Nizom banklar, sug'urta va to'lov tashkilotlari, birjalar hamda muayyan moliyaviy va xodimlar soni ko'rsatkichlariga ega bo'lgan yirik tijorat hamda davlat ishtirokidagi korxonalarni aniq mezonlar asosida jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritishni tartibga soladi.

Xujjatning amaliy ahamiyati shundaki, u ushbu tashkilotlar uchun xalqaro standartlar bo'yicha hisobot yuritish, majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tish hamda ma'lumotlarni ochiq manbalarda e'lon qilish bo'yicha aniq muddat va talablarni belgilab beradi. Yagona Reyestrning shakllantirilishi va ochiq portallarda joylashtirilishi esa davlat, investorlar hamda keng jamoatchilik uchun moliyaviy axborotlarning ishonchliligi va qulayligini ta'minlaydi.

Qarorga asosan Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar faoliyat turi, aktivlari hamda yillik tushumi, dividend shaklidagi daromadlari miqdori yoki xodimlarining soni tufayli yuqori ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirga, shuningdek, keng doiradagi manfaatdor tomonlarga ega bo'lish kabi mezonlarga javob beradigan tijorat tashkilotlari kiradi.[4]

[4] https://lex.uz/uz/docs/7959764

1.2-jadval

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritish mezonlari[5]

№	Tashkilot toifasi / Mezonlar	Qamrab olingan subyektlar va asosiy shartlar
1	Birja va ommaviy savdodagi tashkilotlar	Qimmatli qog‘ozlari fond birjasining listingiga kiritilgan va ommaviy savdolarga chiqariladigan (*Publicly Traded Entity*) tashkilotlar.
2	Moliya-kredit va to‘lov tashkilotlari	Tijorat banklari, mikromoliya banklari, mikromoliya tashkilotlari, faktoring va ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari, kafolat berish tashkilotlari, to‘lov tizimi operatorlari hamda to‘lov tashkilotlari.
3	Investitsiya institutlari	Investitsiya fondlari
4	Infrastruktura subyektlari	Birjalar
5	Davlat ishtirokidagi yirik korxonalar	Ustav kapitalida davlat ulushi 50% va undan ortiq bo‘lgan va bir vaqtning o‘zida ketma-ket oxirgi ikki kalendar yil davomida: • Aktivlarining balans qiymati 1 mln BHM baravari va undan ortiq; • Mahsulot/xizmatlardan olingan yillik sof tushumi va dividend daromadlari birgalikda 1 mln BHM baravari va undan ortiq bo‘lgan korxonalar.
6	Yirik xususiy / umumiy toifadagi korxonalar	Ketma-ket oxirgi ikki kalendar yil davomida bir vaqtning o‘zida quyidagi 3 ta mezonga javob beradigan tashkilotlar: a) Aktivlar balans qiymati 1 mln BHM baravari va undan ortiq; b) Yillik sof tushumi 1 mln BHM baravari va undan ortiq; d) Xodimlarining o‘rtacha yillik soni 500 nafardan kam bo‘lmagan.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar iqtisodiyot va moliya tizimidagi o‘rni, faoliyatining ko‘lami hamda keng doiradagi manfaatdor tomonlarga ta’sir darajasidan kelib chiqib alohida toifalarga ajratiladi. Ushbu toifalarga qimmatli qog‘ozlari fond birjasida ommaviy savdoga chiqarilgan tashkilotlar, bank va boshqa moliya-kredit hamda to‘lov tashkilotlari, investitsiya fondlari, birjalar,

[5] https://lex.uz/uz/docs/7959764

davlat ishtirokidagi yirik korxonalar va belgilangan miqdoriy mezonlarga javob beruvchi yirik xususiy korxonalar kiradi. Bunda aktivlar qiymati, yillik sof tushum, dividend daromadlari, xodimlarning o‘rtacha yillik soni hamda davlat ulushining miqdori tashkilotni tegishli toifaga kiritishning asosiy mezonlari sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur mezonlarning qo‘llanilishi iqtisodiy jihatdan yirik va tizimli ahamiyatga ega subyektlarni aniqlash, ular faoliyatining shaffofligini oshirish, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlash hamda buxgalteriya hisobi, audit va korporativ boshqaruvga nisbatan yuqori talablarni qo‘llash uchun muhim metodologik asos yaratadi.

Quyidagi jadvalda keltirilgan xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, jamoat ahamiyatiga molik tashkilotlarni aniqlash va ularning faoliyatini tartibga solishda davlatlar o‘rtasida umumiy yondashuvlar mavjud bo‘lishi bilan birga, milliy iqtisodiyot va moliya bozorining xususiyatlaridan kelib chiqadigan sezilarli farqlar ham kuzatiladi. Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya va Germaniyada ushbu toifaga, avvalo, kapital bozorida faoliyat yurituvchi kompaniyalar, banklar va sug‘urta tashkilotlari kiritilsa, AQSh amaliyotida “ommaviy kompaniya” va “emitent” tushunchalari ustuvor bo‘lib, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi ishtirok hamda ayrim miqdoriy mezonlarga alohida e’tibor qaratiladi.

1.3-jadval

Jahon mamlakatlarining Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritish mezonlari[6]

Davlat / Hudud	Qo‘llaniladigan tushuncha	Asosiy mezonlar va qamrab olingan subyektlar	Tartibga soluvchi asosiy normativ hujjatlar
Yevropa Ittifoqi	Jamoat ahamiyatiga molik tashkilotlar (*Public Interest Entities*)	• Birja listingidagi barcha kompaniyalar; • Tijorat banklari va kredit tashkilotlari; • Sug‘orta kompaniyalari; • A'zo davlatlar tomonidan belgilangan boshqa strategik korxonalar.	YEIning 2014/56/EU Direktivasi hamda No 537/2014 Reglamenti

[6] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

AQSh	Ommaviy kompaniyalar / Emitentlar (*Public Companies / Issuers*)	• Qimmatli qog‘ozlari birjada savdo qilinadigan kompaniyalar; • Aktivlari $10 mln dan ortiq va aksiyadorlari 2000 dan oshgan aksiyadorlik jamiyatlari.	*Sarbanes-Oxley Act* (SOX), SEC va PCAOB qoidalari
Buyuk Britaniya	Jamoat ahamiyatiga molik tashkilotlar (*Public Interest Entities*)	• YEIdagidek birja kompaniyalari, bank va sug‘ortachilar; • Yangi mezon (islohot): Xodimlari 750 nafardan ortiq va yillik tushumi £500 mln dan yuqori bo‘lgan yirik xususiy kompaniyalar.	Moliyaviy hisobot bo‘yicha kengash (FRC) va Korporativ qayta qurish islohotlari hujjati
Germaniya	Jamoat ahamiyatiga molik subyektlar (*Unternehmen von öffentlichem Interesse*)	• Kapital bozori subyektlari (birjadagilar); • Kredit tashkilotlari va sug‘orta kompaniyalari; • (FISG qonunidan so‘ng mezonlar yanada kuchaytirilgan).	*Germaniya Savdo kodeksi* (HGB) va FISG (Moliya bozorini mustahkamlash to‘g‘risidagi qonun)
Qozog‘iston	Jamoat ahamiyatiga molik tashkilotlar (*Obщestvenno znachimыe organizatsii*)	• Moliya tashkilotlari (banklar, sug‘orta, pensiya fondlari); • Qimmatli qog‘ozlar birjasida (KASE/AIFC) savdo qiluvchilar; • Tabiiy monopoliya subyektlari va davlat korxonalari.	Qozog‘iston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot to‘g‘risida”gi Qonuni
Rossiya	Jamoat ahamiyatiga molik tashkilotlar (*Organizatsii, imeyuщie obщestvennыy interes*)	• Listingdagi kompaniyalar; •Banklar va sug‘orta tashkilotlari; • Nodavlat pensiya fondlari; • Ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan yirik korxonalar.	Federal qonun № 307-FZ ("Audit faoliyati to‘g‘risida") va № 208-FZ ("MHXS to‘g‘risida")

Qozog‘iston va Rossiya tajribasida esa moliya tashkilotlari bilan bir qatorda davlat iqtisodiy manfaatlari bilan bog‘liq, tabiiy monopoliya yoki yirik davlat ishtirokidagi subyektlarni qamrab olish yondashuvi ham shakllangan. Demak, xalqaro amaliyotda jamoat ahamiyatiga molik tashkilot maqomini belgilashning asosiy konseptual mezonlari sifatida kapital bozoridagi ishtirok, moliyaviy tizim uchun ahamiyat, faoliyat ko‘lami, manfaatdor tomonlar doirasining kengligi hamda davlat va jamiyat manfaatlariga ta’sir darajasi namoyon bo‘ladi. Mazkur tashkilotlarga nisbatan moliyaviy hisobot, majburiy audit, auditor mustaqilligi, korporativ boshqaruv va axborotlarni oshkor etish bo‘yicha kuchaytirilgan talablarning joriy qilinishi ularning faoliyatidagi yuqori jamoat manfaatidan kelib chiqadi. Shu jihatdan ushbu xalqaro tajribani qiyosiy o‘rganish O‘zbekistonda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarni tasniflash mezonlarini takomillashtirish hamda ular uchun buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot va auditning differensial tartibga solish mexanizmlarini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

1.4-jadval

O‘zbekiston, Yevropa Ittifoqi va AQShda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarni belgilash mezonlarining qiyosiy tavsifi

Mezon / Xususiyat	O‘zbekiston	Yevropa Ittifoqi (YEI)	AQSh
Asosiy tushuncha	Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar (JAMT)	Jamoat ahamiyatiga molik tashkilotlar (PIE)	Ommaviy kompaniyalar / Emitentlar
Birja va listing kompaniyalari	Birja listingiga kiritilgan va ommaviy savdoga chiqarilgan barcha subyektlar	Birjada listingdan o‘tgan barcha kompaniyalar	Birjalarda (NYSE, NASDAQ va h.k.) qimmatli qog‘ozlari savdo qilinadigan barcha kompaniyalar
Moliya-kredit va sug‘orta sektori	Banklar, MFT, faktoring, ipotekani qayta moliyalashtirish, to‘lov tizimlari operatorlari va to‘lov tashkilotlari	Tijorat banklari, kredit tashkilotlari va sug‘orta kompaniyalari	Barcha ommaviy banklar, sug‘orta va investitsiya fondlari

Son (miqdor) ko‘rsatkichlari (Aktiv, tushum, xodim)	Qat’iy belgilangan: • Aktivlar $\ge$ 1 mln BHM • Yillik tushum $\ge$ 1 mln BHM • Xodimlar soni $\ge$ 500 nafar *(ketma-ket 2 yil)*	Miqdoriy ko‘rsatkichlar (xodim, balans) asosan a’zo mamlakatlar ixtiyorida yoki yirik kompaniyalar islohotida qo‘llaniladi	Aktivlari $10 mln dan ortiq va aksiyadorlari soni 2,000 dan oshgan aksiyadorlik jamiyatlari
Davlat korxonalari sektori	Alohida ajratilgan: Davlat ulushi $\ge$ 50% bo‘lgan va tushum + dividendlar $\ge$ 1 mln BHM hamda aktivlari $\ge$ 1 mln BHM bo‘lgan korxonalar	Har bir a’zo mamlakat o‘z milliy qonunchiligiga ko‘ra strategik davlat korxonalarini qo‘shishi mumkin	Davlat mulki tushunchasidan qat’i nazar, faqat birja va aksiyadorlar soniga qarab belgilanadi
Asosiy tartibga soluvchi hujjat/organ	Buxgalteriya hisobi va audit to‘g‘risidagi milliy qonunchilik hamda MHXS/ISA standartlari	YEI Direktivasi 2014/56/EU, YEI Reglamenti No 537/2014	Sarbanes-Oxley Act (SOX), SEC (Qimmatli qog‘ozlar komissiyasi) va PCAOB

Jadval ma’lumotlarining qiyosiy tahlili O‘zbekiston, Yevropa Ittifoqi va AQShda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarni aniqlash yondashuvlari umumiy konseptual asosga ega bo‘lsa-da, ularni amaliy tasniflash mezonlarida muayyan farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Uchala tizimda ham kapital bozorida ishtirok etuvchi va qimmatli qog‘ozlari ommaviy savdoga chiqarilgan subyektlarga alohida e’tibor qaratiladi. Yevropa Ittifoqida jamoat ahamiyatiga molik tashkilotlar (PIE) konsepsiyasi, asosan, listing kompaniyalari, kredit tashkilotlari va sug‘urta korxonalarini qamrab oladi hamda a’zo davlatlarga jamoat manfaatidan kelib chiqib qo‘shimcha subyektlarni ushbu toifaga kiritish imkoniyati beriladi. AQSh modelida esa tartibga solishning markazida ommaviy kompaniyalar va emitentlar turib, kapital bozorida investorlar manfaatlarini himoya qilish, moliyaviy axborotlarning ishonchliligi va ichki nazorat samaradorligini ta’minlashga ustuvor ahamiyat beriladi. O‘zbekiston yondashuvining o‘ziga xos jihati JAMTlarni belgilashda institutsional mezonlar bilan bir qatorda aktivlar, yillik tushum, xodimlar

soni va davlatning ustav kapitalidagi ulushi kabi aniq miqdoriy ko‘rsatkichlardan foydalanilishidir. Ayniqsa, mezonlarning ketma-ket ikki kalendar yil davomida bajarilishi talabi tashkilotning JAMT maqomini vaqtinchalik iqtisodiy o‘zgarishlar emas, balki uning barqaror iqtisodiy ko‘lami asosida aniqlash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston modeli Yevropa Ittifoqining jamoat manfaatiga asoslangan institutsional yondashuvi hamda miqdoriy mezonlardan foydalanish elementlarini o‘zida uyg‘unlashtirgan tizim sifatida baholanishi mumkin. Bunday yondashuv JAMTlarda moliyaviy hisobotning shaffofligi, majburiy audit sifati, auditorlarning mustaqilligi, korporativ boshqaruv va manfaatdor tomonlar oldidagi hisobdorlikni kuchaytirish uchun muhim institutsional asos yaratadi.

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning iqtisodiyotdagi o‘rni va buxgalteriya hisobi subyektlari sifatidagi xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish, avvalo, ushbu tushunchaning iqtisodiy mazmuni, institutsional chegaralari hamda moliyaviy hisobot tizimidagi o‘ziga xos jihatlarini nazariy jihatdan aniqlashtirishni talab etadi. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar faoliyati kapital bozorlari barqarorligi, moliya tizimining ishonchliligi, investorlar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish, korporativ boshqaruv samaradorligi hamda iqtisodiy axborotlarning shaffofligini ta’minlash bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etiladi. Bunday tashkilotlarning iqtisodiyotga ta’sir ko‘lami, manfaatdor tomonlar doirasining kengligi va ular faoliyatidagi moliyaviy xatolar yoki nomuvofiqliklarning tizimli oqibatlarga olib kelishi mumkinligi ularga nisbatan buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, audit va axborotlarni oshkor etish bo‘yicha yuqori talablar belgilanishini taqozo etadi. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda mazkur tashkilotlarning mohiyatini faqat tashkiliy-huquqiy maqom nuqtai nazaridan emas, balki jamoat manfaatlari, iqtisodiy ko‘lam, tizimli ahamiyat va hisobdorlik kategoriyalarining o‘zaro bog‘liqligi asosida o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning buxgalteriya hisobi subyektlari sifatidagi xususiyatlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar va xalqaro me’yoriy-uslubiy manbalarni o‘rganish ushbu sohada bir nechta

asosiy ilmiy yondashuvlar shakllanganligini ko‘rsatadi. Xususan, bir guruh tadqiqotchilar ularni kapital bozori va investorlar manfaatlarini himoya qilish nuqtai nazaridan o‘rgansa, boshqa olimlar moliyaviy hisobot sifati, axborot assimetriyasini kamaytirish, korporativ boshqaruv va tashqi audit samaradorligiga e’tibor qaratadi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar va standart belgilovchi institutlar tomonidan ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlarda jamoat manfaatining darajasi, tashkilot faoliyatining hajmi va murakkabligi, manfaatdor tomonlar soni hamda tashkilotning moliyaviy tizimdagi o‘rni muhim mezonlar sifatida qaraladi. Shu munosabat bilan mazkur adabiyotlar sharhida xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari, xalqaro standartlar hamda ilg‘or xorijiy amaliyotdagi yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish asosida “jamoat ahamiyatiga ega tashkilot” tushunchasining iqtisodiy mohiyatini aniqlashtirish, ularning iqtisodiyotdagi funksional o‘rnini baholash va buxgalteriya hisobi subyektlari sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlarini tizimlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday tahlil mavjud ilmiy qarashlar o‘rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlash bilan birga, milliy hisob tizimida jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar faoliyatini hisobga olish va moliyaviy hisobotini tashkil etishni takomillashtirishning nazariy-uslubiy yo‘nalishlarini asoslash imkonini beradi.

Quyidagi jadvalni dissertatsiyaning “Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning xalqaro amaliyoti” qismida ishlatish mumkin. Muhim metodologik jihat shundaki, “jamoat ahamiyatiga ega tashkilot” tushunchasi barcha mamlakatlarda aynan bir xil nom bilan qo‘llanmaydi. Yevropa Ittifoqida PIE tarkibiga, avvalo, tartibga solinadigan bozorda qimmatli qog‘ozlari savdoga chiqarilgan kompaniyalar, kredit tashkilotlari va sug‘urta kompaniyalari kiradi. Buyuk Britaniyada ham listing kompaniyalari, banklar va sug‘urta tashkilotlari PIE hisoblanadi. AQSh va Kanadada esa mazmunan yaqin bo‘lgan emitent instituti qo‘llaniladi.

1.5-jadval

Jahon amaliyotida jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar va ularga tenglashtiriladigan yirik kompaniyalar[7]

№	Davlat	Kompaniya	Asosiy faoliyat sohasi	Jamoat ahamiyatiga egalik asosining mazmuni
1	Germaniya	Siemens AG	Sanoat, texnologiyalar	Qimmatli qog‘ozlari tartibga solinadigan bozorda savdo qilinadigan listing kompaniyasi
2	Fransiya	TotalEnergies SE	Neft-gaz, energetika	Ommaviy listing kompaniyasi; keng investorlar doirasiga ega
3	Italiya	Enel S.p.A.	Elektr energetikasi	Fond birjasida ro‘yxatdan o‘tgan strategik energetika kompaniyasi
4	Ispaniya	Banco Santander S.A.	Bank-moliya	Kredit tashkiloti va ommaviy listing kompaniyasi
5	Niderlandiya	ING Groep N.V.	Bank va moliyaviy xizmatlar	Kredit tashkiloti va fond bozorida savdo qilinuvchi kompaniya
6	Belgiya	KBC Group N.V.	Bank va sug‘urta	Bank hamda sug‘urta faoliyati tufayli PIE mezoniga mos
7	Avstriya	Erste Group Bank AG	Bank-moliya	Kredit tashkiloti va listing kompaniyasi
8	Irlandiya	AIB Group plc	Bank-moliya	Bank va ommaviy qimmatli qog‘ozlar emitenti
9	Portugaliya	Galp Energia SGPS S.A.	Energetika	Fond birjasida ro‘yxatdan o‘tgan yirik kompaniya
10	Finlandiya	Nokia Oyj	Telekommunikatsiya va texnologiya	Tartibga solinadigan bozorda savdo qilinuvchi emitent

[7] Muallif ishlanmasi

11	Shvetsiya	Volvo AB	Avtomobilsozlik va mashinasozlik	Ommaviy listing kompaniyasi
12	Daniya	Novo Nordisk A/S	Farmatsevtika	Fond bozorida ro‘yxatdan o‘tgan yirik xalqaro kompaniya
13	Polsha	PKO Bank Polski S.A.	Bank-moliya	Kredit tashkiloti va listing kompaniyasi
14	Chexiya	ČEZ, a.s.	Elektr energetikasi	Strategik energetika kompaniyasi va ommaviy emitent
15	Buyuk Britaniya	HSBC Holdings plc	Bank-moliya	UK PIE: bank va UK tartibga solinadigan bozorda listing kompaniyasi
16	AQSh	Apple Inc.	Axborot texnologiyalari	SECga hisobot taqdim etuvchi public company — “issuer”; PIEga funksional jihatdan mos
17	Kanada	Canadian National Railway Company	Temir yo‘l transporti	Reporting issuer; audit faoliyati CPAB nazorati doirasida
18	Avstraliya	Commonwealth Bank of Australia	Bank-moliya	Listing tashkiloti va yuqori jamoat manfaatiga ega moliyaviy institut
19	Yaponiya	Toyota Motor Corporation	Avtomobilsozlik	Ommaviy listing kompaniyasi, keng investorlar doirasiga ega yirik emitent
20	Janubiy Koreya	Samsung Electronics Co., Ltd.	Elektronika va texnologiya	Ommaviy listing kompaniyasi va kapital bozori uchun tizimli ahamiyatli emitent

Jadvaldan ko‘rinadiki, xalqaro amaliyotda jamoat ahamiyatini belgilashda faqat korxonaning hajmi emas, balki uning kapital bozoridagi ishtiroki, moliyaviy tizimga ta’siri, investorlar va kreditorlarning keng doirasi hamda faoliyatining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati asosiy omillar

sifatida qaraladi. Ayniqsa banklar, sug‘urta tashkilotlari va listing kompaniyalariga nisbatan moliyaviy hisobotning shaffofligi, auditor mustaqilligi va audit sifatiga kuchaytirilgan talablar qo‘yiladi. Avstraliya regulyatori ASIC ham listing va boshqa jamoat manfaatiga ega tashkilotlarning moliyaviy hisobotlari va auditlarini alohida nazorat qiladi.

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar (JAET) iqtisodiyotda moliyaviy resurslarning katta qismini boshqarishi, keng doiradagi manfaatdor tomonlar faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi hamda ularning moliyaviy hisobotlari asosida muhim iqtisodiy qarorlar qabul qilinishi bilan tavsiflanadi. Shu sababli mazkur tashkilotlarning nafaqat umumiy sonini, balki ularning hududiy joylashuvi, tashkiliy-huquqiy shakli, faoliyat sohasi va jamoat ahamiyatiga ega tashkilot sifatida e’tirof etilish mezonlari bo‘yicha tarkibini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar reyestrida tashkilotlar M1–M6 mezonlari asosida tasniflangan.



1.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning hududlar, faoliyat sohalari va reyestrga kiritish mezonlari bo‘yicha taqsimlanishi.[8]

[8] https://gov.uz/uz/imv/sections/view/121389

Jumladan, M1 mezoni qimmatli qog‘ozlari fond birjasi listingiga kiritilgan va ommaviy savdoga chiqariladigan tashkilotlarni, M2 mezoni tijorat banklari, mikromoliya va boshqa ayrim moliyaviy tashkilotlarni, M3 investitsiya fondlarini, M4 birjalarni, M5 yirik davlat ishtirokidagi korxonalarni, M6 esa belgilangan miqdoriy mezonlarga javob beruvchi yirik tashkilotlarni qamrab oladi. Mazkur tasnifdan kelib chiqib, quyidagi rasmda JAETlarning reyestrdagi tarkibi va hududiy xususiyatlarini tizimli ravishda aks ettirish ko‘zda tutilgan.

Rasm ma’lumotlari O‘zbekistonda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning hududiy va mezonlar bo‘yicha tarkibi bir xil shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Xususan, reyestrda bank-moliya tizimi, sanoat, energetika, transport, aloqa, qurilish va boshqa strategik ahamiyatga ega tarmoqlarda faoliyat yurituvchi tashkilotlar mavjud. Reyestrda faqat aksiyadorlik jamiyatlari emas, balki mas’uliyati cheklangan jamiyatlar, qo‘shma va xorijiy korxonalar hamda davlat tashkilotlari ham uchraydi. Masalan, M6 mezoni bo‘yicha Qashqadaryo, Farg‘ona, Namangan, Samarqand, Jizzax va Navoiy viloyatlarida joylashgan yirik sanoat korxonalari reyestrga kiritilgan. Shuningdek, reyestrning hududiy tarkibi jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning iqtisodiy faol hududlarda, ayniqsa Toshkent shahrida yuqori darajada konsentratsiyalashganligini ko‘rsatadi. Bunga mamlakatning yirik banklari, birjalari, davlat ishtirokidagi korxonalari va bosh ofislari Toshkent shahrida joylashganligi ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, M4 mezoniga mansub birjalarning asosiy qismi Toshkent shahrida joylashgan. Shu bilan birga, hududlarda M2 mezoniga kiruvchi mikromoliya tashkilotlari hamda M6 mezoniga javob beruvchi yirik ishlab chiqarish korxonalarining mavjudligi JAETlar instituti respublikaning turli hududlarini qamrab olayotganligini ko‘rsatadi. Demak, mazkur hududiy va tarmoq tarkibi JAETlarda moliyaviy hisobotning shaffofligi, MHXS talablarini qo‘llash, tashqi audit sifati va jamoatchilik oldidagi hisobdorlikni ta’minlash mexanizmlarini hududiy va tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar iqtisodiyotdagi o‘rni, moliyaviy resurslarni boshqarish ko‘lami hamda keng doiradagi manfaatdor tomonlarning iqtisodiy qarorlariga ta’sir ko‘rsatishi bilan boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlardan ajralib turadi. Bunday tashkilotlar faoliyati natijalaridan aksiyadorlar va mulkdorlar bilan bir qatorda investorlar, kreditorlar, omonatchilar, davlat organlari, biznes hamkorlar va boshqa moliyaviy axborotdan foydalanuvchilar manfaatdor hisoblanadi. Shu jihatdan jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarni buxgalteriya hisobi subyektlari sifatida tadqiq etishda ularning tashkiliy-huquqiy shakli, faoliyat ko‘lami, kapital bozoridagi ishtiroki, moliyaviy tizimdagi ahamiyati va jamoatchilik oldidagi hisobdorligi kabi xususiyatlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning buxgalteriya hisobi subyektlari sifatidagi o‘ziga xosligi, eng avvalo, ularda moliyaviy axborotning shaffofligi, ishonchliligi, taqqoslanuvchanligi va ochiqligini ta’minlashga nisbatan yuqori talablar qo‘yilishi bilan namoyon bo‘ladi. Mazkur tashkilotlarda xo‘jalik operatsiyalarining ko‘lami va murakkabligi, moliyaviy instrumentlar va investitsiya operatsiyalarining mavjudligi, konsolidatsiya jarayonlari hamda manfaatdor tomonlar doirasining kengligi buxgalteriya hisobini tashkil etishga alohida yondashuvni talab qiladi. Shu bois ularda buxgalteriya hisobini MHXS talablari asosida yuritish, hisob siyosatini xalqaro tamoyillarga muvofiq shakllantirish, moliyaviy hisobotlarni belgilangan tartibda tuzish va oshkor etish hamda ularning ishonchliligini mustaqil audit orqali tasdiqlash jamoatchilik ishonchini ta’minlashning muhim institutsional mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Xalqaro amaliyotda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar buxgalteriya hisobining tashkil etilishi ularning iqtisodiyot va moliya tizimiga ta’siri, manfaatdor tomonlar doirasining kengligi hamda moliyaviy axborotga bo‘lgan yuqori jamoatchilik ehtiyoji bilan belgilanadi. Bunday subyektlar tarkibiga, odatda, qimmatli qog‘ozlari tartibga solinadigan bozorlarda muomalada bo‘lgan kompaniyalar, banklar, sug‘urta tashkilotlari va milliy qonunchilik asosida jamoat manfaatiga daxldor deb e’tirof etilgan boshqa yirik tashkilotlar kiritiladi.

Shu sababli ularning buxgalteriya hisobi oddiy xo‘jalik yurituvchi subyektlarnikidan moliyaviy axborotning shaffofligi, ishonchliligi, taqqoslanuvchanligi va o‘z vaqtida taqdim etilishiga nisbatan kuchaytirilgan talablar mavjudligi bilan farqlanadi. Bunda buxgalteriya hisobi nafaqat korxona rahbariyatini axborot bilan ta’minlash vositasi, balki investorlar, kreditorlar, moliya bozori ishtirokchilari va boshqa manfaatdor tomonlar oldidagi hisobdorlik mexanizmi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Xalqaro tajribada jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar moliyaviy hisobotlarini tayyorlashda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS/MHXS) muhim metodologik asos hisoblanadi. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqida tartibga solinadigan bozorda qimmatli qog‘ozlari savdoga chiqarilgan kompaniyalarning konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarini MHXS asosida tuzishi belgilangan. Mazkur yondashuv aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromad va xarajatlarni tan olish hamda baholashning yagona tamoyillarini qo‘llash, shuningdek, moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining xalqaro miqyosda taqqoslanuvchanligini ta’minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda murakkab moliyaviy instrumentlar, adolatli qiymat bo‘yicha baholash, qadrsizlanish, rezervlar, bog‘liq tomonlar bilan operatsiyalar, biznes birlashmalari va konsolidatsiyalashgan hisobot kabi hisob obyektlarining salmog‘i yuqoriligi buxgalteriya hisobining professional mulohaza va asoslangan hisob baholariga ko‘proq tayanishini taqozo etadi.

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar hisobining yana bir muhim xususiyati moliyaviy hisobotlarda axborotni kengroq ochib berish va uning jamoatchilik uchun ochiqligini ta’minlash bilan bog‘liq. Xalqaro amaliyotda bunday tashkilotlardan faqat moliyaviy natijalarni aks ettirish emas, balki qo‘llanilgan hisob siyosati, muhim professional mulohazalar va baholashlar, moliyaviy risklar, likvidlik va kredit risklari, bog‘liq tomonlar bilan munosabatlar hamda boshqa muhim axborotlarni hisobotlarda tegishli darajada ochib berish talab etiladi. Natijada jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning buxgalteriya hisobi tizimi “xo‘jalik operatsiyasini qayd etish — baholash — umumlashtirish — moliyaviy

hisobot tuzish — axborotni ochib berish” kabi o‘zaro bog‘liq jarayonlarni qamrab oladigan yaxlit axborot tizimiga aylanadi. Bunday yondashuv axborot asimmetriyasini kamaytirish, investorlarning iqtisodiy qarorlari uchun zarur ma’lumotlarni shakllantirish va kapital bozorlarida ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, xalqaro amaliyotda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning buxgalteriya hisobi korporativ boshqaruv, ichki nazorat va mustaqil tashqi audit bilan uzviy bog‘langanligi bilan tavsiflanadi. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonida rahbariyatning javobgarligi, samarali ichki nazorat tizimi, audit qo‘mitasining nazorat funksiyasi hamda mustaqil auditor tomonidan moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini baholash bir-birini to‘ldiruvchi mexanizmlar sifatida amal qiladi. Ayniqsa, JAETlar auditida auditor mustaqilligi, auditorlik xizmatlarining sifati, ayrim noaudit xizmatlarini cheklash va auditorlik tashkilotlari rotatsiyasiga oid kuchaytirilgan talablarning mavjudligi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirishga qaratilgan. Demak, xalqaro amaliyot nuqtayi nazaridan jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar buxgalteriya hisobining asosiy xususiyati MHXSga muvofiqlik, kengaytirilgan axborot oshkor etish, professional mulohazaning yuqori darajasi, kuchaytirilgan ichki nazorat hamda moliyaviy hisobot va auditning jamoatchilik oldidagi hisobdorlikka yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda buxgalteriya hisobini tashkil etish jarayoni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida moliyaviy axborotning shaffofligi, ishonchliligi va taqqoslanuvchanligini oshirishga yo‘naltirilmoqda. Bunday tashkilotlarda buxgalteriya hisobining ahamiyati xo‘jalik operatsiyalarini qayd etish bilangina cheklanmay, aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromad va xarajatlarni xalqaro yondashuvlar asosida tan olish, baholash va moliyaviy hisobotlarda haqqoniy aks ettirishni ham qamrab oladi. Ayniqsa, hisob siyosatini MHXS talablariga muvofiq shakllantirish, professional mulohaza va hisob baholaridan asosli foydalanish, moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining izchilligi va taqqoslanuvchanligini ta’minlash hamda

manfaatdor tomonlar uchun muhim bo‘lgan axborotlarni to‘liq ochib berish buxgalteriya hisobining ustuvor yo‘nalishlariga aylanmoqda. Reyestrda ham tashkilotlarning oxirgi ikki yildagi e’lon qilingan moliyaviy hisobotlari va auditorlik xulosalariga havolalarni aks ettirish nazarda tutilganligi moliyaviy axborotning ochiqligiga alohida e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning buxgalteriya hisobini takomillashtirish nuqtayi nazaridan MHXS talablarini amaliyotga to‘liq integratsiya qilish, hisob siyosatining sifatini oshirish, hisob obyektlarini tan olish va baholash usullarini bir xillashtirish, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni shakllantirish hamda axborotni ochib berish sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tashkilotlarda xo‘jalik operatsiyalarining ko‘lami va murakkabligi buxgalterlardan xalqaro standartlarni chuqur bilish, professional mulohazadan foydalanish hamda hisob baholarini asoslash bo‘yicha yuqori malakani talab qiladi. Shu sababli zamonaviy bosqichda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar buxgalteriya hisobini rivojlantirishning asosiy vazifasi moliyaviy hisobot tuzish jarayonini MHXS talablariga muvofiqlashtirish bilan birga, buxgalteriya axborotining sifati, shaffofligi, ishonchliligi va foydalanuvchilar uchun qaror qabul qilishdagi ahamiyatini oshirishdan iborat.

1.6-jadval

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda buxgalteriya hisobining o‘ziga xos xususiyatlari[9]

№	Buxgalteriya hisobining xususiyati	Mazmuni	Amaliy ahamiyati
1	**MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzish**	Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar talablari asosida shakllantirishga ustuvor ahamiyat beriladi	Hisobotlarning xalqaro miqyosda tushunarliligi va taqqoslanuvchanligini oshiradi
2	**Moliyaviy axborotning yuqori darajadagi shaffofligi**	Hisobotlarda foydalanuvchilar qarorlariga ta’sir qiluvchi muhim moliyaviy	Investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning ishonchini oshiradi

[9] Muallif ishlanmasi

		axborotlar to‘liq va tushunarli aks ettiriladi	
3	**Kengaytirilgan axborotni ochib berish**	Hisob siyosati, risklar, baholash usullari, bog‘liq tomonlar va boshqa muhim ko‘rsatkichlar bo‘yicha qo‘shimcha axborotlar ochib beriladi	Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlarini to‘liqroq qondiradi
4	**Professional mulohazaning yuqori ahamiyati**	Standartlarni qo‘llashda buxgalter tomonidan iqtisodiy mazmun, mavjud sharoit va ishonchli axborot asosida professional qarorlar qabul qilinadi	Murakkab xo‘jalik operatsiyalarini haqqoniy aks ettirish imkonini beradi
5	**Hisob baholaridan keng foydalanish**	Rezervlar, qadrsizlanish, adolatli qiymat, aktivlarning foydali xizmat muddati kabi ko‘rsatkichlar hisob-kitob va baholash asosida aniqlanadi	Moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining iqtisodiy mazmunini aniqroq aks ettiradi
6	**Adolatli qiymat asosida baholashning ahamiyati**	Ayrim aktivlar va moliyaviy instrumentlarni baholashda joriy bozor ma’lumotlari va adolatli qiymat yondashuvlaridan foydalaniladi	Aktiv va majburiyatlarning hisobot sanasidagi iqtisodiy qiymatini haqqoniyroq ifodalashga xizmat qiladi
7	**Konsolidatsiyalashgan hisob va hisobot**	Bosh va sho‘ba tashkilotlar mavjud bo‘lganda guruh faoliyati yagona iqtisodiy subyekt sifatida umumlashtiriladi	Korporativ guruhning umumiy moliyaviy holati va natijalarini baholash imkonini beradi
8	**Hisob siyosatining yuqori darajada asoslanganligi**	Tanlangan hisob usullari va professional yondashuvlar tashkilot faoliyatining xususiyatlari hamda MHXS talablariga muvofiq belgilanadi	Hisob yuritishning izchilligi va moliyaviy hisobotlarning taqqoslanuvchanligini ta’minlaydi
9	**Muhimlik tamoyilining keng qo‘llanilishi**	Moliyaviy axborotni tan olish, taqdim etish va ochib berishda uning foydalanuvchilar qarorlariga ta’siri hisobga olinadi	Hisobotda muhim axborotlarning ajratib ko‘rsatilishini ta’minlaydi

10	**Moliyaviy instrumentlar hisobining murakkabligi**	Moliyaviy aktiv va majburiyatlarni tasniflash, baholash, qadrsizlanishini aniqlash va hisobdan chiqarish maxsus yondashuvlarni talab qiladi	Moliyaviy risklarning hisobotlarda to‘g‘ri aks ettirilishiga xizmat qiladi
11	**Bog‘liq tomonlar bilan operatsiyalarni alohida hisobga olish**	Bog‘liq shaxslar va tashkilotlar bilan amalga oshirilgan muhim operatsiyalar aniqlanadi va tegishli axborotlar ochib beriladi	Manfaatlar to‘qnashuvi va yashirin iqtisodiy munosabatlar bo‘yicha axborot shaffofligini oshiradi
12	**Uzluksizlikni baholashga alohida e’tibor**	Moliyaviy hisobotni tayyorlashda tashkilotning kelgusida faoliyatini davom ettirish imkoniyati baholanadi	Moliyaviy barqarorlik bilan bog‘liq muhim noaniqliklarni foydalanuvchilarga yetkazish imkonini beradi
13	**Buxgalteriya hisobi va ichki nazoratning integratsiyasi**	Hisob ma’lumotlarini shakllantirish jarayonlari nazorat tartib-taomillari bilan bog‘langan holda tashkil etiladi	Xatolar va noto‘g‘ri aks ettirishlar xavfini kamaytirib, hisob ma’lumotlari ishonchliligini oshiradi
14	**Hisob jarayonlarini raqamlashtirish**	Katta hajmdagi xo‘jalik operatsiyalarini qayta ishlashda integratsiyalashgan axborot tizimlari va avtomatlashtirilgan hisob vositalaridan foydalaniladi	Hisob ma’lumotlarini tezkor shakllantirish, nazorat qilish va umumlashtirish imkonini oshiradi
15	**Moliyaviy hisobotlarning jamoatchilikka ochiqligi**	Moliyaviy hisobotlar va ular bilan bog‘liq axborotlarni belgilangan tartibda e’lon qilishga yuqori talab qo‘yiladi	Jamoatchilik oldidagi hisobdorlik va moliyaviy axborotdan foydalanish imkoniyatini oshiradi

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda buxgalteriya hisobining asosiy farqlovchi jihati hisob tizimining faqat xo‘jalik operatsiyalarini qayd etishga emas, balki yuqori sifatli, shaffof va manfaatdor tomonlarning iqtisodiy qarorlari uchun foydali moliyaviy axborotni shakllantirishga yo‘naltirilganligidir. Shu sababli ushbu tashkilotlarda MHXSni qo‘llash, professional mulohaza, hisob baholari, konsolidatsiya, kengaytirilgan axborotni ochib berish va ichki nazorat mexanizmlarining

ahamiyati boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan yuqori hisoblanadi.

1.2. Segmentar hisob va hisobotning iqtisodiy mazmuni, rivojlanish bosqichlari va metodologik tamoyillari

Segmentar hisob va hisobot korxona faoliyatini alohida iqtisodiy segmentlar kesimida aks ettirish, ularning moliyaviy natijalari va resurslardan foydalanish samaradorligi to‘g‘risida axborot shakllantirishga yo‘naltirilgan hisob tizimining muhim tarkibiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Korxonalar faoliyatining diversifikatsiyalashuvi, hududiy va mahsulot bozorlarining kengayishi, boshqaruv tuzilmasining murakkablashuvi natijasida umumlashtirilgan moliyaviy ko‘rsatkichlar alohida faoliyat yo‘nalishlarining haqiqiy iqtisodiy holatini baholash uchun yetarli bo‘lmay qolmoqda. Shu jihatdan segmentar hisobning iqtisodiy mazmuni korxona faoliyatini mahsulot va xizmat turlari, geografik hududlar, mijozlar guruhlari, tarkibiy bo‘linmalar hamda boshqa iqtisodiy belgilar bo‘yicha ajratgan holda daromadlar, xarajatlar, aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi axborotni shakllantirishda namoyon bo‘ladi. Bunday axborot ichki boshqaruv qarorlarini asoslash bilan bir qatorda tashqi foydalanuvchilarga korxonaning alohida faoliyat yo‘nalishlari samaradorligi va ular bilan bog‘liq iqtisodiy risklarni chuqurroq baholash imkonini beradi.

Segmentar hisob va hisobotning shakllanishi hamda rivojlanishi boshqaruv hisobi, moliyaviy hisob va korporativ hisobot tizimlarining takomillashuvi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning metodologik asoslari vaqt o‘tishi bilan oddiy tarkibiy bo‘linmalar bo‘yicha xarajatlarni hisobga olishdan segmentlarning daromadliligi, rentabelligi, aktivlardan foydalanish samaradorligi va moliyaviy natijalarini kompleks baholash tizimigacha rivojlangan. Mazkur evolyutsiya segmentlarni aniqlash, daromad va xarajatlarni tegishli segmentlarga bevosita biriktirish yoki asoslangan mezonlar bo‘yicha taqsimlash, aktiv va majburiyatlarni segmentlar kesimida hisobga olish, ichki va tashqi segmentar hisobot ko‘rsatkichlarining o‘zaro muvofiqligini ta’minlash kabi metodologik

masalalarning ahamiyatini oshirdi. Shu sababli segmentar hisob va hisobotning iqtisodiy mazmunini ochib berish, uning rivojlanish bosqichlarini tizimlashtirish hamda **izchillik, taqqoslanuvchanlik, muhimlik, ishonchlilik, segmentlar bo‘yicha identifikatsiyalash va boshqaruv yondashuvi** kabi metodologik tamoyillarini tadqiq etish zamonaviy korxonalarda samarali axborot-hisob tizimini shakllantirishning muhim nazariy-uslubiy asosi hisoblanadi.

Segmentar hisobotning shakllanishi XX asrning 1960-yillaridan boshlab korxonalar faoliyatining diversifikatsiyalashuvi, yirik kompaniyalarning turli tarmoq va geografik bozorlarga kirib borishi hamda investorlarning umumlashtirilgan moliyaviy hisobotlardan tashqari alohida faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha axborotga bo‘lgan ehtiyojining ortishi bilan bog‘liq. 1960-yillarning o‘rtalaridan boshlab AQShda Moliyaviy tahlilchilar federatsiyasi, Moliyaviy rahbarlar tadqiqot fondi va Buxgalterlar milliy assotsiatsiyasi kabi professional tashkilotlar tashqi moliyaviy hisobotlarda biznes segmentlari bo‘yicha axborotni oshkor qilishning maqsadga muvofiqligi va amaliy imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshira boshladilar. Mazkur jarayonning muhim bosqichi sifatida 1967-yilda Buxgalteriya hisobi tamoyillari kengashi (APB) tomonidan 2-sonli “Diversifikatsiyalashgan kompaniyalar tomonidan qo‘shimcha moliyaviy axborotni oshkor qilish” bayonotining e’lon qilinishini ko‘rsatish mumkin. Unda segmentlar bo‘yicha daromad, foyda va boshqa moliyaviy ko‘rsatkichlarni taqdim etish dastlab majburiy talab sifatida emas, balki kompaniyalarning ixtiyoriy axborot oshkor qilish amaliyoti sifatida tavsiya etilgan. Keyinchalik 1969-yilda AQSh Qimmatli qog‘ozlar va birjalar komissiyasi (SEC) ro‘yxatdan o‘tkazish hujjatlarida biznes yo‘nalishlari bo‘yicha axborotni taqdim etish talabini joriy etdi, 1970-yildan ushbu talab 10-K shaklidagi yillik hisobotlarga, 1974-yildan esa qimmatli qog‘ozlar egalari uchun taqdim etiladigan yillik hisobotlarga ham tatbiq qilindi.

Segmentar hisobotni mustaqil moliyaviy hisobot yo‘nalishi sifatida me’yoriy jihatdan shakllantirishda Moliyaviy hisob standartlari kengashi (FASB) faoliyati alohida ahamiyat kasb etdi. Korxonalar faoliyat

ko‘lamining kengayishi, moliyaviy hisobot foydalanuvchilarining umumlashtirilgan korporativ axborotni alohida segmentlarga ajratilgan holda olishga bo‘lgan talabining kuchayishi va amaliyotda segmentlar bo‘yicha turlicha hisobot usullarining qo‘llanilishi natijasida FASB 1973-yil aprel oyida “Xo‘jalik yurituvchi subyekt segmentlari bo‘yicha moliyaviy hisobot” loyihasini o‘zining texnik kun tartibiga kiritdi. 1973-yil may oyida sanoat, davlat organlari, jamoat buxgalteriyasi, moliya sohasi va akademik doira vakillaridan iborat 16 kishilik maxsus ishchi guruh tuzildi. FASB tomonidan segmentar hisobotning amaliy asoslarini aniqlash maqsadida segment ma’lumotlarini oshkor qilayotgan 100 ta kompaniyaning yillik hisobotlari o‘rganildi hamda 30 ta kompaniya rahbarlari bilan bevosita intervyular o‘tkazildi. Ushbu tadqiqotlar asosida 1974-yil 22-mayda Muhokama memorandumi e’lon qilinib, avgust oyida ochiq tinglovlar tashkil etildi; Kengash 144 ta pozitsion hujjat va sharhlarni qabul qildi. Keyingi bosqichda, 1975-yil 30-sentabrda “Xo‘jalik yurituvchi subyekt segmentlari bo‘yicha moliyaviy hisobot” standartining muhokama uchun loyihasi e’lon qilinib, unga manfaatdor tomonlardan 233 ta sharh xati kelib tushdi. Bu jarayon segmentar hisobot konsepsiyasining ilmiy tadqiqotlardan amaliy va me’yoriy tartibga solish bosqichiga o‘tganligini ko‘rsatadi.

Segmentar hisobotning rivojlanishi faqat AQSh doirasida qolib ketmasdan, 1970-yillarning o‘rtalaridan xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan xalqaro ahamiyat kasb eta boshladi. Xususan, 1976-yil iyun oyida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan qabul qilingan “Xalqaro investitsiyalar va ko‘p millatli korxonalar to‘g‘risidagi deklaratsiya”da transmilliy kompaniyalarga geografik hududlar bo‘yicha faoliyat natijalari, sotish hajmi, asosiy biznes yo‘nalishlari, kapital investitsiyalar, transfert narxlari va qo‘llaniladigan hisob siyosati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish tavsiya etildi. Shu tariqa, 1960-yillarda investorlarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan ixtiyoriy segmentar axborotlarni oshkor qilish amaliyoti 1970-yillarga kelib tartibga solinadigan moliyaviy hisobot institutiga aylana boshladi. Mazkur tarixiy rivojlanish segmentar hisobot konsepsiyasining asosiy maqsadini ham belgilab berdi: korxona

bo‘yicha umumlashtirilgan moliyaviy ko‘rsatkichlarni uning tarmoq, biznes va geografik segmentlari kesimida qismlarga ajratish orqali investorlar va boshqa manfaatdor foydalanuvchilarga korxonaning o‘tgan davrdagi faoliyat natijalari, segmentlarning rentabelligi va kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini yanada asosli baholash imkonini berish.

Ahmed Aboud, Akrum Helfaya va Ahmed Diab tomonidan tayyorlangan “Corporate Segmental Reporting: A literature review and future research agenda” nomli tadqiqot segmentar hisobotning nazariy va amaliy rivojlanishini tizimli yoritib beradi. Mualliflar segmentar hisobotga bo‘lgan ehtiyojni zamonaviy korxonalarning diversifikatsiyalashuvi bilan izohlaydi. Ya’ni, korxonalar bir vaqtning o‘zida turli mahsulotlar, xizmatlar, bozorlar va geografik hududlarda faoliyat yuritishi natijasida umumlashtirilgan moliyaviy hisobotlar alohida faoliyat yo‘nalishlarining rentabelligi, risk darajasi va rivojlanish imkoniyatlarini yetarli darajada aks ettira olmaydi. Shu sababli segmentlar kesimida axborot taqdim etish investorlar va boshqa manfaatdor foydalanuvchilarga korxonaning turli faoliyat yo‘nalishlarini alohida baholash, kelgusidagi iqtisodiy natijalarni prognoz qilish hamda resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi. Mualliflar segmentar hisobot standartlarining shakllanishini aynan ushbu axborot ehtiyojining ortishi bilan bog‘laydilar.[10]

Tadqiqotda segmentar hisobotning rivojlanishi me’yoriy-huquqiy o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilingan. Mualliflar 1977–2019-yillardagi ilmiy tadqiqotlarni uchta asosiy davrga ajratadi. Birinchi davr 1977–1997-yillarni qamrab olib, segmentar axborotni ixtiyoriy oshkor qilish amaliyotidan majburiy segmentar hisobot talablariga o‘tish bilan tavsiflanadi. Mazkur bosqichda SFAS 14 va IAS 14 segmentar hisobotning dastlabki institutsional asoslarini shakllantirgan. Ikkinchi davrda, ya’ni 1998–2006-yillarda, AQSh amaliyotida SFAS 131 orqali boshqaruv yondashuvi, xalqaro amaliyotda esa IAS 14R doirasida risk va daromadlilikka asoslangan yondashuv rivojlangan. Uchinchi davr 2007-yildan keyingi bosqich bo‘lib, MHXS 8ning joriy etilishi natijasida

[10] https://www.researchgate.net/publication/370741138_Corporate_Segmental_Information_A_Literature_Review_and_Future_Research_Agenda

boshqaruv yondashuvi xalqaro segmentar hisobotning asosiy metodologik tamoyiliga aylangan.[11]

Segmentar hisobotning rivojlanish jarayonida AQSH va xalqaro standartlashtirish amaliyotida qabul qilingan me'yoriy hujjatlar muhim o'rin tutadi. Mazkur evolyutsiya segmentlarni aniqlash va ular bo'yicha axborotni oshkor qilishdan boshlab, boshqaruv yondashuviga asoslangan MHXS 8 talablarigacha, keyingi bosqichlarda esa raqamli texnologiyalar, integratsiyalashgan va barqarorlik hisobotlari bilan uyg'unlashuv yo'nalishigacha rivojlanib borgan. Ushbu tarixiy va metodologik rivojlanish bosqichlarini tizimli ravishda umumlashtirish maqsadida quyidagi rasmda segmentar hisob va hisobot evolyutsiyasining asosiy bosqichlari hamda zamonaviy tadqiqot yo'nalishlari keltirilgan.



1.2-rasm. Segmentar hisob va hisobotning xalqaro rivojlanish bosqichlari va zamonaviy tadqiqot yo'nalishlari (1967–2025-yillar).[12]

Xorijiy va mamlakatimiz olimlari tomonidan segment hisobini yuritish tartibi, segmentar hisobotlarni tuzish ketma-ketligi, tamoyillari va

[11] https://www.researchgate.net/publication/370741138_Corporate_Segmental_Information_A_Literature_Review_and_Future_Research_Agenda

[12] Muallif ishlanmasi

afzalliklari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Chunonchi, xorijiy olimlardan Berton L., Boersema John M., Susan J., Emmanuel C., Garrod N., Frost C., Clive R., Stanley J., Valoshina S.V., Bakaev A.S., Baxrushina M.A., Klinov N.N., Rametov A.X., Sokolov A.A., Suys V.P., Shank Djon K. mamlakatimiz olimlaridan esa Urazov K.B., Tashnazarov S.N., Pardaev A.X., Xasanov B.A., Xasanova R.B. va boshqalar.

Iqtisodchi olim A.A.Sokolov **Biznes segmentlari** korxona faoliyat turlari sifatida, tarkibiy bo‘linmalar, javobgarlik markazlari yoki tashqi muhitning qismlari, segmentar hisob uchun belgilangan deb mulohaza yuritgan. **Segmentar hisobot** bu faoliyatning segmentlari tomonidan tuzilgan va ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qiladigan tashkilot moliyaviy hisobotining bir qismi bo‘lib, hisobotning manfaatdor foydalanuvchilariga tashkilotga nisbatan maqbul boshqaruv qarorlarini qabul qilish, shuningdek amalga oshirish uchun kerakli ma’lumotlarni taqdim etish hamda moliyaviy natijalarni, aktiv va majburiyatlarni kelajakdagi bashoratlarini qilishga xizmat qiladi.

Professor A.X.Pardaev **Biznes segmenti** – bu korxonaning ma’lum qismini yoki nisbatan mustaqil bo‘linmasini muayyan vakolatlar va mas’uliyat berish maqsadida ajratishdir deb ta’riflagan.

Rus iqtisodchisi N.Yu.Bazaleyning ta’kidlashicha **Segmentar hisobot** ichki va tashqi hisobotning ajralmas qismi bo‘lgan va moliyaviy hisobotni batafsilroq va puxta o‘rganishga imkon beradigan va shu asosda tijorat tashkiloti faoliyatining ayrim segmentlarida ratsional va samarali operatsion boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tuziladi.

Iqtisodchi olim Beloglazovaning fikricha, **Segmentlar buxgalteriyasi** bu o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tannarx va xarajatlar, daromadlar va tashkilotning o‘z faoliyatini amalga oshirishdagi faoliyat natijalarini hisobga olishdir.

Professor B.A.Hasanovning fikricha **Geografik segment** – bu muayyan iqtisodiy muhitda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi, risk va foyda kabi iqtisodiy shart sharoitlar ta’sirida, ma’lum makonda harakat qiluvchi ajratib qo‘yilgan komponentlardir.

Tadqiqotlarimiz natijasida, **segment (lotincha segmentum**)ning bir bo‘lak, yaxlit narsaning bir qismi ekanligidan kelib chiqib, segmentar hisob va segmentar hisobot quyidagicha ta’riflar berildi:

***Segmentar hisob** deganda xo‘jalik yurituvchi subyektning tashkiliy-boshqaruv tuzilmasiga muvofiq ajratilgan operatsion, geografik yoki boshqa iqtisodiy segmentlar kesimida daromadlar, xarajatlar, aktivlar, majburiyatlar, pul oqimlari va moliyaviy natijalarni identifikatsiya qilish, tan olish, o‘lchash, guruhlash, taqsimlash, umumlashtirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish va segmentar hisobotni shakllantirish uchun axborot taqdim etuvchi integratsiyalashgan hisob tizimi tushuniladi.

***segmentar hisobot** deganda yaxlit iqtisodiy birlikning tarkibiy qismlari faoliyat turlari, ular daromadlari, xarajatlari, foyda va boshqa muhim ko‘rsatkichlari bo‘yicha tuziladigan hisobot tushuniladi.

Xalqaro moliyaviy hisob amaliyotida segmentar hisobotning turlari, tarkibi, uni tuzish va taqdim etish tartiblari maxsus 8-son MHXS «Operatsion segment»da belgilangan. Bundan tashqari rivojlangan mamlakatlarda alohida segmentlar hisob va hisoboti bo‘yicha standartlar, nizomlar va qoidalar mavjud. Chunonchi, Rossiya Federatsiyasida “Segmentlar haqida ma’lumot” PBU 12/2000, AQShda SFAS 131 “Biznes segmentlari va tegishli ma’lumotlarni oshkor etish”, Xitoy Halq Respublikasida 35 son “Segment bo‘yicha hisobot”. Mamlakatimizda esa, boshqaruv segmentar hisobotining turlari, tarkibi, uni tuzish va taqdim etish tartiblari maxsus me’yoriy hujjatlar bilan belgilanmagan.

Segmentlarni hisobga olish yagona buxgalteriya xujjatlari, yagona ma’lumot bazasiga asoslangan bo‘lib, unda batafsil ma’lumot, kelib chiqish joylari, xarajatlar omillari va daromad olish uchun unga qo‘shimcha talablar qo‘yiladi. Agar bunday ma’lumotlar buxgalteriya hisobi va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun keyingi guruhlash uchun qo‘shimcha tafsilotlarni talab qilmasa, bunday tafsilotlar yetarli bo‘ladi.

Axborot bazasiga segment bo‘yicha buxgalteriya hisobiga qo‘yiladigan talablar umuman buxgalteriya hisobiga qaraganda ancha muhimroq bo‘lishi kerak. Shuning uchun segmentlarni hisobga olish va

hisobotlarni nafaqat ichki foydalanuvchilar uchun, balki butun tashkilot uchun buxgalteriya hisobi uchun ma’lumot ishlab chiqaradigan tizim sifatida talqin qilish mumkin.

Shunday qilib, bir tomondan, segment buxgalteriyasi bir tomondan tashkilot uchun umuman buxgalteriya tizimi doirasida ma’lumotlarni umumlashtirish uchun ma’lumotlarni qayta ishlashga tayyorgarlik bosqichi sifatida talqin etiladi. Boshqa tomondan, segmentlarni hisobga olish va hisobot berish natijalari asosida boshqaruv qarorlari qabul qilinadi, alohida tuzilmalar-tashkilot segmentlari va umuman tashkilot faoliyati samaradorligi tahlili amalga oshiriladi.

Boshqaruv hisobida yaxlit iqtisodiy birlik hisoblangan korxonaning tarkibiy qismlari sifatida uning javobgarlik markazlari, masalan, ta’minot bo‘limi, asosiy va yordamchi ishlab chiqarish sexlari, sotish bo‘limi, savdo shahobchalari yoki markazlari (uylari), turli boshqa xizmat ko‘rsatuvchi bo‘linmalari qaraladi. Yaxlit biznesning tarkibiy qismlari sirasiga asosiy faoliyat, investitsiya faoliyati, moliyaviy faoliyat, ijtimoiy faoliyat kabilar kiradi.

Mos ravishda, biznesdan olingan daromadning o‘zi alohida faoliyat turlaridan, shu jumladan, odatiy faoliyat, yangi innovatsion faoliyat, tugatilayotgan faoliyatdan olingan daromad, ichki bozor va eksport faoliyatidan olingan daromad, alohida tovarlarni sotishdan olingan daromad kabilardan tashkil topadi. Boshqaruv uchun har bir faoliyatning, mahsulot turining xarajatliligi, foydaliligi o‘ta muhim hisoblanadi. Shu bois ham har bir faoliyat, mahsulot turi bo‘yicha «daromad-xarajat-foyda» ko‘rsatkichlari zanjirini o‘zida mujassamlashtiruvchi hisobot shakllarini tuzish va ulardan samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda bevosita foydalanish o‘ta muhim hisoblanadi.

Zamonaviy qarashga ko‘ra xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimida segmentar hisob va hisobotning o‘rnini quyidagicha belgiladik (1.3-rasm).



1.3-rasm. Korxonalarning yaxlit hisob tizimida segmentar hisob va hisobotning o‘rni.[13]

Rasmda korxonalarda hisob va hisobot tizimining tarkibiy tuzilishi hamda segmentar hisobning alohida hisob tizimi sifatidagi o‘rni aks ettirilgan. Taklif etilayotgan yondashuvga ko‘ra, segmentar hisob moliyaviy, boshqaruv va soliq hisobi bilan o‘zaro axborot aloqasiga ega bo‘lib, ushbu tizimlarda shakllantirilgan ma’lumotlarni segmentlar kesimida qayta guruhlash, tasniflash va umumlashtirish imkonini beradi. Jumladan, moliyaviy hisobdan aktivlar, majburiyatlar, daromadlar, xarajatlar va pul oqimlari; boshqaruv hisobidan budjetlar, mas’uliyat markazlari, reja va haqiqiy ko‘rsatkichlar hamda operatsion ma’lumotlar; soliq hisobidan esa soliq bazasi, soliqqa tortiladigan daromad, soliq imtiyozlari va hisob-kitoblarga oid axborotlar segmentar hisobning axborot bazasini shakllantiradi. Mazkur ma’lumotlarning yagona tizimda

[13]Muallif ishlanmasi

integratsiyalashuvi korxona faoliyatini alohida segmentlar bo‘yicha kompleks baholash imkoniyatini yaratadi.

Taklif etilayotgan segmentar hisob tizimida olingan axborotlar asosida segmentatsiya belgilarini aniqlash, daromad va xarajatlarni segmentlar kesimida tasniflash, aktiv va majburiyatlarni tegishli segmentlarga taqsimlash, segmentlar bo‘yicha moliyaviy natijalarni aniqlash hamda ichki va tashqi segmentar hisobotlarni shakllantirish nazarda tutiladi. Natijada har bir segment bo‘yicha daromadlar, xarajatlar, foyda yoki zarar, aktiv va majburiyatlar, pul oqimlari hamda boshqaruv ko‘rsatkichlari to‘g‘risida tizimlashtirilgan axborot shakllanadi. Bu esa rahbariyatga alohida segmentlarning samaradorligi va rentabelligini baholash, resurslarni optimal taqsimlash va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini berishi bilan birga, investorlar, kreditorlar, auditorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning korxona faoliyati to‘g‘risidagi axborot ehtiyojlarini yanada to‘liq qondirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilar va boshqa omillar korxonalarda tashqi axborot foydalanuvchilar uchun tuziladigan moliyaviy hisobotdan tashqari o‘zlari uchun samarali boshqaruv qarorlarini o‘z vaqtida qabul qilish maqsadida atroflicha axborotlarni beruvchi ichki boshqaruv sementar hisobotlarni tuzishni ham ob’ektiv zarurat qilib qo‘yadi. Bunday boshqaruv segmentar hisobotlarning bosh maqsadi bo‘lib barcha ichki axborot foydalanuvchilarning korxona faoliyati samaradorligini yanada oshirish uchun eng zarur bo‘lgan atroflicha axborotlarga bo‘lgan talabini qondirish hisoblanadi.

Xalqaro adabiyotlarda **“segment accounting”** va **“segmental accounting”** terminlari uchraydi. Masalan, Wiley’ning buxgalteriya lug‘atida “departmental (segmental) accounting” tashkilotning alohida segmentlari yoki bo‘linmalarining moliyaviy natijalarini baholash uchun zarur hisob tartib-taomillari sifatida izohlangan.[14]

IAS 14ning tarixiy qoidalaridir. Unda “segment accounting policies” atamasi ishlatilgan va segment daromadlari, xarajatlari, aktivlari va majburiyatlarini aniqlashda korxonaning ichki moliyaviy hisobot

[14] https://www.johnwiley.com.au/highered/accounting/aia5e/student-res/glossary.html

tizimi boshlang‘ich nuqta sifatida olinishi belgilangan. Segment hisob siyosati segmentlarni aniqlash, segmentlararo transfert narxlarini belgilash hamda daromad va xarajatlarni segmentlarga taqsimlash asoslarini ham qamrab olgan.[15]

Ayrim boshqaruv hisobi tadqiqotlarida esa segmental accounting yanada aniqroq - tashkilotning alohida tarkibiy bo‘linmalari (segmentlari) faoliyati to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish, aks ettirish va umumlashtirish tizimi sifatida ta’riflangan va uning ma’lumotlari segmentar hisobot tuzish, xarajatlar va natijalarni boshqaruv darajalari bo‘yicha nazorat qilish uchun xizmat qilishi ta’kidlangan.[16]

Segmentar hisobotning shakllanishi ichki hisob axborotlarining segmentlar kesimida identifikatsiya qilinishi, o‘lchanishi, guruhlanishi va umumlashtirilishini talab etishini inobatga olib, mazkur jarayonlarni yagona metodologik tizimda ifodalovchi “segmentar hisob” tushunchasini buxgalteriya hisobi fanining alohida ilmiy kategoriyasi sifatida joriy etish taklif etiladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining diversifikatsiyalashuvi, turli mahsulot va xizmat yo‘nalishlari hamda geografik hududlarda faoliyat olib borishi umumlashtirilgan moliyaviy hisobot ma’lumotlarining axborot imkoniyatlarini ma’lum darajada cheklaydi. Chunki alohida faoliyat yo‘nalishlari rentabellik darajasi, risk ko‘lami va kapitalning o‘sish imkoniyatlari jihatidan bir-biridan farq qilishi mumkin. Bunday sharoitda korxona faoliyatining umumiy moliyaviy natijalarini aks ettirish bilan bir qatorda, ushbu natijalarni shakllantiruvchi alohida segmentlar to‘g‘risidagi axborotni shakllantirish zarurati yuzaga keladi. Tadqiqotlarda ham konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarda turli segmentlar ko‘rsatkichlarining umumlashtirilishi natijasida ularning individual iqtisodiy xususiyatlari yetarli darajada ko‘rinmasligi qayd etilgan.

Shu nuqtai nazardan, segmentar hisob va hisobotning nazariy-metodologik asoslarini shakllantirishda, birinchi navbatda, “segment”, “operatsion segment”, “hisobot segmenti”, “segmentar hisob”,

[15] https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32003R1725
[16] https://sciresol.s3.us-east-2.amazonaws.com/IJST/Articles/2016/Issue-5/Article57.pdf

“segmentar axborot” va “segmentar hisobot” tushunchalarining iqtisodiy mazmunini aniqlashtirish hamda ular o‘rtasidagi konseptual chegaralarni belgilash maqsadga muvofiq. Mazkur kategoriyalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, ularning hisob-axborot tizimidagi funksional vazifalari bir xil emas. Xususan, segment korxona faoliyatining muayyan iqtisodiy jihatdan ajratilgan qismini ifodalasa, operatsion segment boshqaruv tomonidan muntazam ravishda kuzatiladigan faoliyat komponentini, hisobot segmenti esa belgilangan mezonlar asosida tashqi moliyaviy hisobotda alohida axborot taqdim etilishi lozim bo‘lgan segmentni anglatadi. MHXS 8 konsepsiyasida operatsion segmentning muhim xususiyatlaridan biri uning faoliyat natijalari bosh operatsion qaror qabul qiluvchi shaxs - CODM tomonidan resurslarni taqsimlash va faoliyat samaradorligini baholash maqsadida muntazam ko‘rib chiqilishidir.

Fikrimizcha, ushbu tushunchalar tizimida “segmentar hisob” alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Chunki segmentar hisobotda taqdim etiladigan daromad, xarajat, aktiv, majburiyat va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar hisobot tuzish jarayonining o‘zida vujudga kelmaydi. Mazkur ko‘rsatkichlar dastlab xo‘jalik operatsiyalarini tegishli segmentlarga identifikatsiya qilish, ularni o‘lchash, tegishliligi bo‘yicha guruhlash, umumiy ko‘rsatkichlarni asoslangan mezonlar yordamida segmentlarga taqsimlash hamda tegishli analitik kesimlarda umumlashtirish orqali shakllantirilishi lozim. Demak, segmentar hisobotni shakllantirishdan oldin segmentlar kesimida tegishli hisob axborotlarini hosil qiluvchi hisob jarayoni mavjud bo‘lishi obyektiv zarurat hisoblanadi.

Mazkur holat 8-son MHXS da qo‘llaniladigan “management approach” - boshqaruv yondashuvi bilan yanada asoslanadi. Ushbu yondashuvda hisobot segmentlarini aniqlash korxonaning ichki tashkiliy tuzilmasi hamda rahbariyat tomonidan resurslarni taqsimlash va faoliyat natijalarini baholash uchun foydalaniladigan axborot tizimiga bog‘langan. Shu tariqa, 8-son MHXS segmentar hisobotning tashqi shaklini korxonaning ichki boshqaruv axboroti bilan yaqinlashtiradi. Tadqiq etilgan adabiyotlarda ham management approach tashqi segmentar hisobotni korxonaning ichki tashkiliy tuzilmasi bilan

muvofiqlashtirishi ta’kidlangan. 14-son BHXSga xos risk va daromadlilik yondashuvidan 8-son MHXSdagi boshqaruv yondashuviga o‘tilishi natijasida segmentlarni aniqlashda aynan korxonaning ichki tuzilmasi, resurslarni taqsimlash va faoliyat natijalarini baholash mexanizmi ustuvor ahamiyat kasb etgan.

Shundan kelib chiqib, bizning fikrimizcha, “segmentar hisob”ni segmentar hisobot bilan aynan bir tushuncha sifatida emas, balki uni shakllantiruvchi hisob-axborot quyi tizimi sifatida talqin qilish lozim. Segmentar hisobning vazifasi xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga oid hisob obyektlarini segmentlar kesimida identifikatsiya qilish, baholash, guruhlash, taqsimlash va umumlashtirish orqali ichki boshqaruv hamda keyinchalik segmentar hisobotni shakllantirish uchun zarur axborot bazasini yaratishdan iborat. Segmentar hisobot esa ushbu jarayon natijasida shakllangan axborotning belgilangan mezonlar asosida foydalanuvchilarga taqdim etilishini ifodalaydi. Bunday yondashuv “segmentar hisob” va “segmentar hisobot” tushunchalarini hisob jarayonining o‘zaro bog‘langan, biroq funksional jihatdan farqlanuvchi bosqichlari sifatida ajratish imkonini beradi.

“Segmentar hisob va hisobot”ni mustaqil ilmiy-o‘quv yo‘nalishi sifatida shakllantirishda uning obyekti, predmeti va metodlarini nazariy jihatdan chegaralash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday iqtisodiy fanning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatidagi o‘rni, avvalo, u o‘rganadigan obyekt va predmetning xususiyatlari hamda ularni tadqiq etishda qo‘llaniladigan metodlar majmui bilan belgilanadi. Segmentar hisob va hisobotning zarurati, ayniqsa, faoliyati bir nechta mahsulot va xizmat turlari, geografik hududlar, mijozlar guruhlari yoki biznes yo‘nalishlarini qamrab oluvchi diversifikatsiyalashgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki bunday subyektlarning umumlashtirilgan moliyaviy ko‘rsatkichlari alohida faoliyat yo‘nalishlarining rentabelligi, risk darajasi va iqtisodiy samaradorligini to‘liq tavsiflash imkonini bermaydi. Tadqiqotlarda ham turli sanoat va geografik segmentlarning rentabellik, risk va kapital o‘sishi imkoniyatlari bir-biridan farq qilishi, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot esa ushbu tafovutlarni yetarli darajada ochib bermasligi ta’kidlangan.

Shundan kelib chiqib, segmentar hisob va hisobot fanining obyekti sifatida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning boshqaruv maqsadlarida iqtisodiy jihatdan ajratilishi mumkin bo‘lgan operatsion, geografik, mahsulot, xizmat, mijozlar guruhi va boshqa segmentlari faoliyatini belgilash maqsadga muvofiq. Bunda segment tushunchasi faqat korxonaning tashkiliy bo‘linmasi bilan cheklanmasligi lozim. MHXS 8ga asoslangan yondashuvda segmentlarni mahsulot va xizmatlar, geografik hudud, yuridik shaxs, mijozlar turi yoki korxonaning ichki boshqaruv tuzilmasiga mos keluvchi boshqa mezonlar bo‘yicha shakllantirish mumkinligi qayd etiladi. Demak, fanning obyekti korxona faoliyatining oddiy tarkibiy qismlari emas, balki alohida daromad va xarajatlarni shakllantiradigan, faoliyat natijalari boshqaruv tomonidan muntazam baholanadigan hamda ular bo‘yicha alohida moliyaviy axborot shakllantirish imkoniyati mavjud bo‘lgan iqtisodiy segmentlar hisoblanadi.

JATlarda segmentar hisob yaxlit buxgalteriya hisobining aniq predmeti, ob’ektlari, metodi, usullari va natijalariga ega ega bo‘lgan tarkibiy qismidir (1.4-rasmga qarang).



1.4-rasm. Segmentar hisobning predmeti, ob’ektlari, metodi, usullari va natijalari[17]

[17] Muallif ishlanmasi

1.4-rasmda segmentar hisobning predmeti, ob’ektlari, metodi, usullari va natijalari yagona tizimda ko‘rsatilgan. Predmet segmentlar bo‘yicha resurslar harakati, majburiyatlar va natijalar shakllanishiga oid munosabatlarni qamrab oladi. Ob’ektlar esa mazkur munosabatlarning hisobda o‘lchanadigan elementlaridir. Risklar to‘g‘risidagi nomoliyaviy ma’lumotlar pulda baholangan ob’ektlarning mazmunini tushuntiruvchi tahliliy axborot vazifasini bajaradi.

Segmentar hisob va hisobot fanining predmeti esa ushbu obyektlarga nisbatan torroq va mazmunan chuqurroq iqtisodiy munosabatlar hamda hisob jarayonlarini qamrab oladi. Fikrimizcha, uning predmetini xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining alohida segmentlari kesimida aktivlar, majburiyatlar, daromadlar, xarajatlar va moliyaviy natijalarni identifikatsiya qilish, tan olish, baholash, guruhlash, taqsimlash va umumlashtirish, segmentlar faoliyati samaradorligini baholash hamda ular asosida ichki boshqaruv va tashqi segmentar hisobot axborotini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan hisob-iqtisodiy munosabatlar majmui sifatida belgilashni taklif etamiz. Mazkur ta’rif segmentar hisobni faqat yakuniy hisobotni tayyorlash vositasi sifatida emas, balki segmentlar bo‘yicha axborotning shakllanishidan boshlab undan boshqaruv maqsadlarida foydalanishgacha bo‘lgan yaxlit jarayon sifatida qarash imkonini beradi.

Bunday yondashuv 8-son MHXSning management approach konsepsiyasi bilan ham uyg‘unlashadi. Chunki ushbu yondashuvga ko‘ra, segmentlarni aniqlash korxonaning ichki tashkiliy tuzilmasi va bosh operatsion qaror qabul qiluvchi shaxs (CODM) tomonidan resurslarni taqsimlash hamda segmentlar faoliyati natijalarini baholash uchun foydalaniladigan ichki axborotga asoslanadi. Shu sababli segmentar hisob fanining predmeti tashqi moliyaviy hisobot chegaralari bilan cheklanmasdan, segmentlar bo‘yicha boshqaruv axborotini shakllantirish, resurslar sarfini nazorat qilish, faoliyat natijalarini baholash va tegishli boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta’minlash jarayonlarini ham qamrab olishi zarur.

Segmentar hisob va hisobot fanining metodologik asoslarini belgilashda buxgalteriya hisobining an’anaviy usullarini segmentlar

faoliyatining iqtisodiy xususiyatlarini aks ettiruvchi maxsus usullar bilan integratsiyalash maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan, hujjatlashtirish, hisobvaraqlar va ikkiyoqlama yozuv, inventarizatsiya, baholash, kalkulyatsiya hamda moliyaviy hisobotni shakllantirish segmentar hisobning umumiy hisob metodlari sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu usullar orqali xo‘jalik operatsiyalarining qaysi segmentga tegishliligi dastlabki hujjatlardan boshlab aniqlanadi, segmentlar bo‘yicha analitik hisob tashkil etiladi hamda tegishli iqtisodiy ko‘rsatkichlar shakllantiriladi.

Shu bilan birga, segmentar hisobning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, segmentatsiya va dezagregatsiya, to‘g‘ridan-to‘g‘ri identifikatsiyalash, umumiy daromad va xarajatlarni segmentlar o‘rtasida taqsimlash, transfert baholash, marjinal tahlil hamda segmentlar rentabelligini baholash kabi maxsus metodlardan foydalanish zarur deb hisoblaymiz. Xususan, segmentatsiya xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini iqtisodiy jihatdan bir-biridan farqlanuvchi qismlarga ajratishga xizmat qilsa, dezagregatsiya umumlashtirilgan moliyaviy axborotni tegishli segmentlar darajasigacha tafsilotlash imkonini beradi. Taqsimlash usullari bir nechta segmentga tegishli umumiy xarajat va aktivlarni iqtisodiy asoslangan mezonlar bo‘yicha segmentlarga biriktirishga, transfert baholash esa segmentlar o‘rtasidagi ichki operatsiyalar qiymatini aniqlashga xizmat qiladi.

Marjinal tahlil va rentabellikni baholash usullari esa segmentar hisobning boshqaruv funksiyasini kuchaytiradi. Ular yordamida har bir segmentning korxona umumiy moliyaviy natijasiga qo‘shayotgan hissasi, daromadlilik darajasi, xarajatlar samaradorligi va faoliyatni davom ettirishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi baholanadi. Bu jihatdan segmentar axborot nafaqat tashqi hisobotni shakllantirish, balki resurslarni samarali taqsimlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ham muhimdir. Segmentar hisobotga oid tadqiqotlarda ham segment axboroti foydalanuvchilarga korxona faoliyatini yaxshiroq tushunish, risk va daromadlilikni baholash hamda resurslarni samarali taqsimlash imkonini berishi qayd etilgan.

Shunday qilib, “Segmentar hisob va hisobot” fanining metodini buxgalteriya hisobining umumiy metodlari hamda segmentlar kesimida iqtisodiy axborotni shakllantirish va tahlil qilishga xizmat qiluvchi maxsus metodlarning integratsiyalashgan tizimi sifatida talqin etishni taklif etamiz. Bunday yondashuv segmentar hisobning buxgalteriya va boshqaruv hisobi bilan uzviy bog‘liqligini saqlagan holda, uning o‘ziga xos tadqiqot sohasi va metodologik apparatini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

Natijada, segmentar hisob va hisobot fanining obyekti - xo‘jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy jihatdan ajratilgan segmentlari faoliyati; predmeti - ushbu segmentlar kesimida hisob obyektlarini shakllantirish, taqsimlash, baholash va ular asosida boshqaruv hamda hisobot axborotini hosil qilish bilan bog‘liq hisob-iqtisodiy munosabatlar; metodi esa - umumiy buxgalteriya hisobi usullari bilan segmentatsiya, dezagregatsiya, taqsimlash, transfert baholash va segment samaradorligini tahlil qilish usullarining integratsiyalashgan majmui, degan mualliflik pozitsiyasini ilgari surish mumkin. Mazkur yondashuv “segmentar hisob” tushunchasining nazariy chegaralarini aniqlash bilan bir qatorda, kelgusida “Segmentar hisob va hisobot” fanining konsepsiyasi va metodologik asoslarini shakllantirish uchun nazariy poydevor yaratadi.

Segmentar hisobning nazariy-metodologik asoslarini shakllantirishda uning hisob obyektlarini aniq belgilash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki segmentar hisobning amaliy samaradorligi xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga tegishli iqtisodiy ko‘rsatkichlarni alohida segmentlar kesimida identifikatsiya qilish, baholash, guruhlash va umumlashtirish imkoniyatiga bevosita bog‘liq. Korxonaning umumlashtirilgan moliyaviy ko‘rsatkichlari uning umumiy moliyaviy holati va faoliyat natijalarini ifodalasa-da, alohida biznes yo‘nalishlarining iqtisodiy samaradorligi, risk darajasi va rivojlanish imkoniyatlarini har doim ham yetarlicha ochib bera olmaydi. Tadqiq etilgan maqolada ham turli faoliyat va geografik segmentlar rentabellik, risk hamda kapitalning o‘sish imkoniyatlari bo‘yicha bir-biridan farq qilishi, shu sababli diversifikatsiyalashgan korxonani faqat

konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot asosida to‘liq baholash murakkabligi ta’kidlangan.

Shundan kelib chiqib, fikrimizcha, segmentar hisob obyektlari deganda xo‘jalik yurituvchi subyektning muayyan segmentiga bevosita tegishli yoki iqtisodiy asoslangan mezonlar yordamida unga taqsimlanishi mumkin bo‘lgan hamda mazkur segmentning moliyaviy holati, faoliyat natijalari va samaradorligini tavsiflovchi hisob ko‘rsatkichlari tushunilishi lozim. Bunda segmentar hisob obyektlarini shakllantirishning asosiy metodologik sharti - har bir hisob obyektining muayyan segment bilan iqtisodiy bog‘liqligini aniqlash va ushbu bog‘liqlikni hisob tizimida analitik ravishda aks ettirishdan iborat.

Segmentar hisobning asosiy obyektlari sifatida, birinchi navbatda, segment aktivlari va segment majburiyatlarini ajratish maqsadga muvofiq. Segment aktivlari muayyan operatsion segment faoliyatida foydalaniladigan va uning faoliyat natijalarini shakllantirishga xizmat qiladigan iqtisodiy resurslarni ifodalaydi. Segment majburiyatlari esa tegishli segment faoliyati natijasida yuzaga kelgan yoki uning operatsion faoliyati bilan bevosita bog‘liq majburiyatlarni qamrab oladi. Bunday ajratish har bir segmentga biriktirilgan iqtisodiy resurslar hajmini aniqlash, ulardan foydalanish samaradorligini baholash hamda segmentlarning moliyaviy holatini o‘zaro taqqoslash imkoniyatini yaratadi. MHXS 8 doirasida ham segment aktivlari va ayrim boshqa ko‘rsatkichlarni oshkor qilish ularning bosh operatsion qaror qabul qiluvchi shaxsga muntazam taqdim etilishi bilan bog‘langan.

Segmentar hisobning navbatdagi muhim obyektlari segment daromadlari va segment xarajatlari hisoblanadi. Segment daromadlarini alohida hisobga olish har bir faoliyat yo‘nalishining korxona jami daromadini shakllantirishdagi ulushini aniqlashga imkon bersa, segment xarajatlarini identifikatsiya qilish va taqsimlash har bir segment tomonidan iste’mol qilingan iqtisodiy resurslarning qiymatini aniqlashga xizmat qiladi. Bunda muayyan segment bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq daromad va xarajatlarni bevosita tegishli segmentga biriktirish, bir nechta segmentga umumiy tarzda tegishli xarajatlarni esa iqtisodiy mazmuniga

mos va asoslangan taqsimlash bazalari yordamida taqsimlash maqsadga muvofiq.

Segment foydasi yoki zarari segmentar hisobning umumlashtiruvchi natijaviy obyekti sifatida qaralishi lozim. Ushbu ko‘rsatkich segment daromadlari va unga tegishli xarajatlar o‘rtasidagi nisbat asosida shakllanib, alohida segmentning korxona umumiy moliyaviy natijasiga qo‘shayotgan hissasini baholash imkonini beradi. MHXS 8ga asoslangan tadqiqotlarda segment rentabelligi to‘g‘risidagi axborot segmentar hisobotning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi. Shu bilan birga, boshqaruv yondashuvi segment natijalarini aynan CODM tomonidan foydalaniladigan ichki ko‘rsatkichlar asosida shakllantirishga katta ahamiyat beradi.

Segmentlar iqtisodiy jihatdan alohida baholanishiga qaramay, ular yagona xo‘jalik yurituvchi subyekt tarkibida faoliyat yuritganligi sababli ular o‘rtasida mahsulotlar, ishlar, xizmatlar va boshqa resurslarning ichki harakati yuzaga kelishi tabiiy. Shu bois segmentlararo operatsiyalar va segmentlararo sotish ham segmentar hisobning mustaqil obyektlari sifatida ajratilishi zarur. Ularni alohida hisobga olish segmentning tashqi mijozlardan olingan daromadi bilan boshqa segmentlardan olingan ichki daromadlarini farqlash, segmentlarning o‘zaro iqtisodiy bog‘liqligini baholash hamda umumkorxona ko‘rsatkichlarini shakllantirishda ichki aylanmalarni to‘g‘ri eliminatsiya qilish imkonini beradi.

Segmentlararo operatsiyalar bilan bevosita bog‘liq holda transfert narxlari segmentar hisobning alohida baholash obyekti sifatida qaralishi maqsadga muvofiq. Transfert narxlari bir segment tomonidan boshqa segmentga beriladigan mahsulot, ish, xizmat yoki boshqa resurslarning ichki qiymatini belgilaydi. Transfert narxini shakllantirish usuli segment daromadi, xarajati va yakuniy moliyaviy natijasiga bevosita ta’sir qilishi sababli uning metodologiyasi segmentlar faoliyatini xolis baholashda muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan segmentar hisob tizimida bozor narxi, tannarxga asoslangan narx, kelishilgan narx yoki boshqa asoslangan transfert baholash usullaridan foydalanish tartibini hisob siyosatida belgilash talab etiladi.

Shuningdek, kapital xarajatlar va amortizatsiya ko‘rsatkichlarini segmentlar kesimida shakllantirish segmentlarning investitsion faolligi va uzoq muddatli resurslardan foydalanish xususiyatlarini baholash uchun muhimdir. Kapital qo‘yilmalarning segmentlar bo‘yicha hisobga olinishi qaysi faoliyat yo‘nalishiga ko‘proq investitsiya yo‘naltirilayotganini aniqlash imkonini bersa, amortizatsiya xarajatlarini segmentlar bo‘yicha aks ettirish uzoq muddatli aktivlardan foydalanish qiymatining tegishli segment natijalariga ta’sirini aniqlash imkoniyatini oshiradi. Tadqiq etilgan adabiyotlar sharhida ham segment aktivlari, kapital xarajatlari va amortizatsiya kabi ko‘rsatkichlarning segmentar axborot tarkibidagi o‘rni muhokama qilingan.

Fikrimizcha, segmentar hisob obyektlari doirasini faqat 8-son MHXSda tashqi oshkor etilishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar bilan cheklash maqsadga muvofiq emas. Segment pul oqimlari va segment rentabelligi ham ichki boshqaruv nuqtai nazaridan muhim segmentar hisob obyektlari sifatida shakllantirilishi mumkin. Bunda segment pul oqimlari tegishli segmentning pul mablag‘larini yaratish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini tavsiflasa, segment rentabelligi uning daromadi, xarajatlari, foydasi va foydalanayotgan iqtisodiy resurslari o‘rtasidagi samaradorlik munosabatlarini ifodalaydi. Biroq ushbu ikki ko‘rsatkichni 8-son MHXS ning barcha korxonalar uchun majburiy alohida oshkor etish talabi sifatida emas, balki taklif etilayotgan segmentar hisob tizimining boshqaruv-tahliliy obyektlari sifatida asoslash ilmiy jihatdan to‘g‘riroq bo‘ladi.

Shu asosda segmentar hisob obyektlarini uch guruhga ajratishni taklif etish mumkin: birinchidan, segmentning moliyaviy holatini tavsiflovchi obyektlar — segment aktivlari va majburiyatlari; ikkinchidan, segment faoliyati natijalarini shakllantiruvchi obyektlar - segment daromadlari, xarajatlari, foyda yoki zarari, amortizatsiya va kapital xarajatlari; uchinchidan, segmentlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar va boshqaruv samaradorligini tavsiflovchi obyektlar - segmentlararo operatsiyalar, segmentlararo sotish, transfert narxlari, segment pul oqimlari va rentabellik ko‘rsatkichlari. Bunday tasnif segmentar hisob obyektlarini

tizimlashtirish va ularning har biri bo‘yicha analitik hisob metodikasini ishlab chiqishga imkon beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, segmentar hisob obyektlarini identifikatsiya qilish → tan olish → baholash → segmentga bevosita biriktirish yoki taqsimlash → analitik hisobda aks ettirish → umumlashtirish → segment samaradorligini baholash → segmentar hisobotda taqdim etish ketma-ketligini segmentar hisob obyektlarini shakllantirishning metodologik algoritmi sifatida taklif etamiz. Mazkur yondashuv segmentar hisobni faqat tayyor moliyaviy ko‘rsatkichlarni segmentlarga ajratish vositasi sifatida emas, balki xo‘jalik operatsiyasi sodir bo‘lgan paytdan boshlab segmentlar bo‘yicha axborotni shakllantiruvchi yaxlit hisob-axborot tizimi sifatida qarash imkonini beradi.

Biz Samarqand iqtisodiyot va servis institutining 2024–2025 hamda 2025–2026 o‘quv yillarida “Buxgalteriya hisobi” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘qitilayotgan fanlarning o‘quv dasturlarini tahlil qilib chiqdik. Jumladan, “Moliyaviy buxgalteriya hisobi 1”**,** “Moliyaviy buxgalteriya hisobi 2”, “Moliyaviy hisovot”, “Moliyaviy hisobi 1,2”, “Boshqaruv hisobiga kirish” va “Boshqaruv hisobi” fanlarining mazmuni, mavzular tarkibi hamda ularda segmentar hisob va hisobotga oid masalalarning qay darajada yoritilgani o‘rganildi. Tahlil natijalari mazkur fanlarda segmentar hisob va hisobotning ayrim elementlari, xususan, daromadlar va xarajatlar hisobi, aktivlar va majburiyatlarni hisobga olish, xarajatlarni kalkulyatsiyalash, byudjetlashtirish, boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta’minlash hamda segmentar hisobotning ayrim jihatlari mavjudligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, segmentlarni aniqlash va tasniflash, segmentlar bo‘yicha analitik hisobni tashkil etish, segment aktivlari, majburiyatlari, daromadlari va xarajatlarini alohida hisobga olish, segmentlararo operatsiyalar, transfert baholash, segmentlar faoliyati samaradorligini baholash hamda 8-son MHXS talablari asosida segmentar hisobotni shakllantirish masalalari o‘zaro bog‘liq va yaxlit tizim sifatida alohida fan doirasida yoritilmaganligi aniqlandi. Shu sababli “Segmentar hisob va hisobot” fanini alohida o‘quv fani sifatida shakllantirish va o‘quv jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

“Segmentar hisob va hisobot” fanining mazmunini shakllantirishda xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini alohida segmentlar kesimida hisobga olish, baholash, tahlil qilish va ular bo‘yicha axborotlarni hisobotda aks ettirishning nazariy hamda uslubiy jihatlarini kompleks o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, fan mavzularini shakllantirishda segmentar hisob va hisobotning iqtisodiy mazmuni va rivojlanish bosqichlaridan boshlab, xo‘jalik faoliyatini segmentatsiyalash, operatsion va hisobot segmentlarini aniqlash, segmentlar bo‘yicha analitik hisobni tashkil etish, aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlarni hisobga olish, segmentlararo operatsiyalar va transfert baholash, moliyaviy natijalar hamda samaradorlikni baholash, 8-son MHXS talablari asosida segmentar hisobotni shakllantirishgacha bo‘lgan jarayonlarning izchil yoritilishi nazarda tutiladi. Shuningdek, zamonaviy sharoitda segmentar hisob va hisobotni raqamlashtirish hamda shakllantirilgan axborotlardan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish masalalarining fan tarkibiga kiritilishi uning nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy va boshqaruvga yo‘naltirilgan kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi kompleks fan sifatidagi mazmunini belgilaydi.

1.7-jadval

Segmentar hisob va hisobot” fanining tavsiya etilayotgan mavzulari va ularning mantiqiy tarkibi[18]

№	Fan mavzusi	Soat
1	Segmentar hisob va hisobotning iqtisodiy mazmuni, maqsadi, predmeti va metodi	2
2	Segmentar hisob va hisobotning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari	2
3	Segment tushunchasi, segmentlarning turlari va ularni tasniflash	2
4	Xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini segmentatsiyalashning metodologik asoslari	2
5	Operatsion segmentlarni aniqlash va boshqaruv yondashuvining qo‘llanilishi	2
6	Hisobot segmentlarini aniqlash va miqdoriy mezonlarni qo‘llash	2
7	Segment aktivlari hisobini tashkil etish	2
8	Segment majburiyatlari hisobini tashkil etish	2

[18] Muallif ishlanmasi

9	Segment daromadlari hisobini tashkil etish va ularni segmentlarga tegishliligi bo‘yicha tan olish	2
10	Segment xarajatlari hisobi va umumiy xarajatlarni segmentlar o‘rtasida taqsimlash	2
11	Segmentlararo operatsiyalar hisobi va transfert baholash usullari	2
12	Segmentlar bo‘yicha moliyaviy natijalarni shakllantirish va hisobga olish	2
13	Segmentlar faoliyati samaradorligi, rentabelligi va risklarini tahlil qilish	2
14	MHXS 8 “Operatsion segmentlar” asosida segmentar hisobotni shakllantirish va axborotlarni oshkor etish	2
15	Segmentar hisob va hisobotni raqamlashtirish hamda uning axborotlaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish	2
Jami		**30**

Jadvalda taklif etilayotgan “Segmentar hisob va hisobot” fanining mazmunini shakllantiruvchi asosiy mavzular tizimlashtirilgan bo‘lib, ular nazariy, uslubiy, hisob-tahliliy va amaliy yo‘nalishlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi asosida ishlab chiqilgan. Mavzularning ketma-ketligi dastlab segmentar hisob va hisobotning iqtisodiy mazmuni, predmeti, metodi hamda rivojlanish bosqichlarini o‘rganishdan boshlanib, keyinchalik segmentlarni tasniflash va aniqlash, ular bo‘yicha analitik hisobni tashkil etish, aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlarni hisobga olish, segmentlararo operatsiyalar va transfert baholash, moliyaviy natijalar, rentabellik va risklarni baholash masalalarini qamrab oladi. Fan mavzularining yakuniy qismida 8-son MHXS talablari asosida segmentar hisobotni shakllantirish, axborotlarni oshkor etish, hisob jarayonlarini raqamlashtirish hamda segmentar axborotlardan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish nazarda tutilgan. Mazkur tarkib segmentar hisob → segmentar axborot → segmentar tahlil → boshqaruv qarori → segmentar hisobot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Shu bilan birga xalqaro hisob ta’limotiga ko‘ra segmentar boshqaruv hisobotlarning sub’ektlari va ob’ektlari, ularda aks ettiriladigan ko‘rsatkichlar tizimiga qo‘yilayotgan umumiy talablar ma’lum darajada shakllantirilgan. Chunonchi, xalqaro ta’limotda boshqaruv segmentar hisobotni tuzuvchi sub’ektlar sifatida iqtisodiy birliklarning javobgarlik markazlari e’tirof etiladi. Boshqaruv segmentar

hisobotlar tuzilishi lozim bo‘lgan javobgarlik markazlari sirasiga quyidagilar kiritiladi:[19]

*ta’minot markazi – bu rahbari ishlab chiqarishni uzluksiz kerakli mehnat kuchi, vositalari va predmetlari bilan ta’minlash uchun javobgar hisoblanadigan korxonaning tarkibiy bo‘linmalari bo‘lib, bunday markaz o‘z ichiga kadrlar bo‘limi va ta’minoti bo‘limlarini oladi. Ularda kadrlarga, mehnat vositalari va predmetlari bo‘lgan talab va ta’minotni rejalashtirish, me’yorlashtirish va hisobini yuritish bevosita boshqarish maqsadlaridan kelib chiqib tashkil etiladi.

*xarajat markazi – bu rahbari faqat xarajatlar uchun javobgar hisoblanadigan korxonaning tarkibiy bo‘linmalari; bunday markaz korxona rahbari yoki uning ishlab chiqarish bo‘yicha muoviniga bo‘ysunadigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatuvchi bo‘limlari hisoblanadi, ushbu bo‘limlarda asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatishga oid ishlab chiqarish xarajatlarini rejalashtirish, me’yorlashtirish va hisobini yuritish ishlab chiqarish omillari hamda ulardan foydalanishni nazorat qilish, tahlil qilish va boshqarish maqsadlarida tashkil etiladi.

*foyda markazi – bu rahbari ham sotish, ham xarajatlar, ham foyda uchun javobgar hisoblanadigan korxonaning tarkibiy bo‘linmasi; bunday markaz korxona rahbari yoki uning reja-moliya ishlari bo‘yicha muoviniga bo‘ysunadigan sotish bo‘limi, reja-iqtisod, moliyalashtirish bo‘limi va buxgalteriya bo‘limlari hisoblanadi; ushbu markaz rahbari sotish baholarini, ishlab chiqarish va sotish hajmini, shuningdek, ishlab chiqarish va sotish tannarxini nazorat qiladi; mazkur markazda daromad ishlab chiqilgan va sotilgan mahsulotning pul birligidagi qiymat, xarajat – ishlatilgan resurslarning pul birligidagi qiymat, foyda esa daromad va xarajatlar o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi, markazda pirovardida asosiy nazorat qilinadigan ko‘rsatkich bo‘lib foyda ko‘rsatkichi hisoblanadi.

*bosh ofis markaz – bu rahbari nafaqat tushum, xarajat va foyda uchun, balki kapital va moliyaviy investitsiyalar uchun ham javobgar hisoblanadigan korxonaning tarkibiy bo‘limi; bunday markaz korxona

[19] Уразов К.Б., Пўлатов М.Э. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. -Т.: “Инновацион ривожлантириш нашриёти-матбаа уйи”, 2020. 542-543б.

rahbari boshchiligidagi bosh ofis hisoblanadi, uning asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lib korxonada nafaqat foyda olish, balki kiritilgan kapital va moliyaviy investitsiyalar rentabelligi, investitsiyalar daromadliligi va xususiy kapital ko‘payishiga erishishni ta’minlash hisoblanadi.

Xalqaro hisob amaliyotida boshqaruv segmentar hisobotni tuzish ob’ektlari bo‘yicha ham yaxlit fikr shakllantirilgan. Bunday ob’ektlar bo‘lib korxonaning bosh byudjeti va alohida olingan ko‘rsatkichlar bo‘yicha tuziladigan byudjetlar e’tirof etiladi.

Korxona Bosh byudjeti (biznes reja) ijrosi bo‘yicha hisobotni tuzishga mas’ul bo‘lib korxona bosh ofisi rahbari hisoblanadi. Rahbar bosh menejer sifatida javobgarlik markazlari tomonidan tuziladigan alohida ko‘rsatkichlar byudjetlari bo‘yicha tuziladigan hisobotlarni qabul qiladi, ular bajarilishini nazorat qiladi, shuningdek, ularga tuzatishlar kiritish, ijrosini ta’minlashga qaratilgan qarorlarni qabul qiladi, kelgusi davrlar uchun korxonaning yangi biznes – rejasini tuzishga umumiy rahbarlikni olib boradi.

Alohida olingan ko‘rsatkichlar bo‘yicha byudjetlar ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar korxonaning mos ravishdagi javobgarlik markazlariga kiruvchi bo‘limlari tomonidan tuziladi (1.8-jadvalga qarang).

1.8-jadval

Korxonalarda boshqaruv segmentar hisobotlarni tuzuvchi javobgarlik markazlari[20]

Markaz tarkibidagi bo‘linma	**Segmentar hisob obyekti**	**Takomillashtirilgan segmentar boshqaruv hisoboti**	**Asosiy nazorat ko‘rsatkichlari**
Boshqaruv markazi			
Korxona rahbariyati – bosh ofis	Korxona faoliyatining umumiy natijalari	Korxona bosh budjeti ijrosi va strategik ko‘rsatkichlar bo‘yicha yig‘ma segmentar hisobot	Daromad, xarajat, foyda, rentabellik, pul oqimi, aktivlar, majburiyatlar, reja–haqiqat chetlanishi
Ta’minot markazi			
Kadrlar bo‘limi	Mehnat resurslari	Mehnat resurslari va ish haqi budjeti ijrosi	Xodimlar soni, ish vaqti, mehnat unumdorligi, ish

[20] Уразов К.Б., Пўлатов М.Э. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик.-Т.: “Инновацион ривожланиш нашрёти матбаа уйи”,2020, 554 б.

		bo‘yicha segmentar hisobot	haqi xarajatlari, reja–haqiqat chetlanishi
Ta’minot bo‘limi	Moddiy resurslar	Material resurslar ta’minoti budjeti ijrosi bo‘yicha segmentar hisobot	Xarid hajmi, xarid narxi, material miqdori, zaxira darajasi, yetkazib berish muddati, narx va miqdor chetlanishi
	Energiya va xizmatlar	Energiya, kommunal va tashqi xizmatlar budjeti ijrosi bo‘yicha segmentar hisobot	Elektr energiyasi, gaz, suv, yoqilg‘i, transport va boshqa xizmatlar sarfi; me’yor–haqiqat chetlanishi
Xarajatlar markazi			
Asosiy ishlab chiqarish bo‘limi	Asosiy ishlab chiqarish jarayoni	Ishlab chiqarish hajmi va ishlab chiqarish xarajatlari bo‘yicha segmentar hisobot	Ishlab chiqarish hajmi, material, mehnat, energiya xarajatlari, 1 birlik tannarx, me’yoriy va haqiqiy xarajat
	Tugallanmagan ishlab chiqarish	Tugallanmagan ishlab chiqarish holati va o‘zgarishi bo‘yicha segmentar hisobot	Boshlang‘ich qoldiq, davr xarajatlari, tayyor mahsulotga o‘tkazilgan qiymat, yakuniy qoldiq
Yordamchi ishlab chiqarish bo‘limi	Yordamchi ishlab chiqarish	Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari va xizmatlari bo‘yicha segmentar hisobot	Xizmat hajmi, resurs sarfi, xizmat tannarxi, bo‘linmalarga taqsimlangan xarajatlar
Xizmat ko‘rsatuvchi bo‘linmalar	Umumishlab chiqarish xarajatlari	Umumishlab chiqarish xarajatlari budjeti ijrosi va taqsimlanishi bo‘yicha segmentar hisobot	Doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlar, taqsimlash bazasi, taqsimlangan xarajatlar, chetlanish
Daromad markazi			
Sotish bo‘limi	Mahsulot va xizmatlarni sotish	Sotish hajmi va daromadlar bo‘yicha segmentar hisobot	Sotish hajmi, sotish narxi, tushum, mahsulot turi, hudud, mijozlar guruhi bo‘yicha daromad
	Debitorlik qarzlari	Mijozlar va segmentlar bo‘yicha debitorlik qarzlari hisoboti	Debitorlik qarzi, muddati o‘tgan qarzlar, qarz aylanuvchanligi, undirish muddati

Foyda markazi			
Reja-iqtisod va moliya bo‘limi	Segment daromadlari va xarajatlari	Segmentlar bo‘yicha daromadlar, xarajatlar va moliyaviy natijalar hisoboti	Segment daromadi, bevosita xarajatlar, taqsimlangan xarajatlar, marjinal daromad, segment foydasi
	Mahsulot tannarxi	Mahsulot va segmentlar kesimida tannarx budjeti ijrosi bo‘yicha hisobot	Reja tannarxi, haqiqiy tannarx, mutlaq va nisbiy chetlanish, chetlanish sabablari
	Davr xarajatlari	Sotish, ma’muriy va boshqa operatsion xarajatlar bo‘yicha segmentar hisobot	Reja, haqiqat, chetlanish, xarajat drayverlari, nazorat qilinadigan xarajatlar
Investitsiya markazi			
Moliya bo‘limi va rahbariyat	Kapital qo‘yilmalar	Kapital investitsiyalar budjeti ijrosi va samaradorligi bo‘yicha segmentar hisobot	Investitsiya hajmi, reja–haqiqat, ROI, aktivlar rentabelligi, investitsiya samaradorligi
Moliya bo‘limi	Moliyalashtirish manbalari	Moliyalashtirish manbalari va kapital tarkibi bo‘yicha segmentar hisobot	Xususiy kapital, qarz kapitali, moliyalashtirish qiymati, qarzdorlik darajasi
Moliyaviy axborot markazi			
Buxgalteriya	Aktivlar va majburiyatlar	Segmentlar bo‘yicha aktivlar va majburiyatlar hisoboti	Segment aktivlari, segment majburiyatlari, debitorlik va kreditorlik qarzlari
	Pul mablag‘lari	Segmentlar bo‘yicha pul oqimlari hisoboti	Operatsion tushum va to‘lovlar, sof pul oqimi, pul oqimi chetlanishi
	Moliyaviy natijalar	Segmentlar bo‘yicha moliyaviy natijalar hisoboti	Daromad, xarajat, segment foydasi (zarari), rentabellik
Soliq majburiyatlari markazi			
Buxgalteriya / soliq bo‘limi	Soliqlar va majburiy to‘lovlar	Soliqlar budjeti ijrosi va segmentlarga taqsimlanishi bo‘yicha hisobot	Soliq bazasi, hisoblangan soliq, to‘langan soliq, soliq imtiyozlari, soliq farqlari

Boshqaruv segmentar hisobotlarga ma’lum talablar ham qo‘yiladi. Ushbu talablar sirasiga quyidagilar kiradi:

• o‘z vaqtidalilik – bu hisobotni unga zarurat paydo bo‘lgan vaqtda taqdim etish**;**

• yetarlilik – bu axborotning to‘liqligi, biroq o‘z ichiga zarur bo‘lmagan ortiqcha axborotlarni qamrab olmaslik**;**

• maqsadlilik – axborotning boshqaruv maqsadi xususiyatini qamrab olganligi;

• manzillilik – hisobotning konfidinsiallik tamoyiliga to‘liq amal qilingan holda faqat mas’ul xodimlarga yetkazilishi;

• ob’ektivlilik – boshqaruv uchun zarur axborotlarni shakllantirishda xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik;

• taqqoslamalilik – hisobot ma’lumotlarining vaqt bo‘yicha va korxona javobgarlik markazlari bo‘yicha taqqoslanish imkoniyatiga egaligi;

• tejamkorlik – boshqaruv segmentar hisobotlarni tuzish xarajatlarini ularni foydalanishdan ko‘riladigan samaradan ortib ketmasligi.

Boshqaruv segmentar hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzish ularda aks ettirilgan ma’lumotlar qimmatini pasayishiga olib keladi, boshqacha aytganda bunday hisobotlar operativ qarorlarni qabul qilishda nafsiz bo‘lib qoladi. Shu bois ham, segmentar hisobotlarni o‘z vaqtida - talab qilingan vaqtda, har soatda, har smenada yoki ish kuni oxirida berish foydali. Ayrim segmentar hisobotlarni talab etilgan davrlarda - har haftada, bir oyda yoki boshqa belgilangan vaqtda berish maqsadga muvofiq. Shuningdek, u yoki bu ob’ekt to‘g‘risida ma’lumotlarni ayrim guruh foydalanuvchilarga, masalan, quyi va o‘rta bo‘g‘in boshqaruv menejerlariga batafsil tarzda har kuni, yuqori bo‘g‘in menejerlariga esa ular to‘g‘risidagi hisobotlarni haftasiga yoki oy oxirida jamlangan holda berish talab qilinadi.

Ayrim ob’ektlar to‘g‘risidagi boshqaruv hisobi axborotlari ularning har bir o‘zgarishidan keyin real vaqt rejimida tegishli boshqaruvchilarga yetkazilishi lozim. Masalan, korxonaning moliyaviy holatiga mas’ul bo‘lgan yuqori bo‘g‘in menejeri uchun valyuta kurslari yoki birja kurslari, fond bozori indekslari, qimmatli qog‘ozlar kotirovkalari, tovar va xizmatlar narxlari (tariflari)ni keskin o‘zgarganini to‘g‘risidagi operativ axborotlar zudlik bilan yetkazilishi lozim. Shuningdek, rahbarlarga

korxona iqtisodiyotiga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan ishlab chiqarishdagi kutilmagan uzilishlar, noratsional chiqimlar va yo‘qotishlar to‘g‘risida axborotlar ularga doir choralarni tezlikda qabul qilish uchun zudlik bilan yetkazilishi kerak.

Boshqaruv segmentar hisobotlari aksariyatini har kunlik yoki har haftalik, ayrimlarini esa oy yakunida berilishi yetarlidir. Masalan, mahsulot va yarim mahsulotlarni ishlab chiqarish, yaroqsizliklar, me’yorlardan chetlanishlar, sotish miqdori va qiymati to‘g‘risidagi segmentar hisobot ma’lumotlari, odatda, har kuni yoki haftada bir marta taqdim etiladi. Bozorga olib chiqilgan alohida tovarlar, ish va xizmatlarning foydaligi va rentabelligi to‘g‘risida faqatgina oylik boshqaruv hisobotlari ma’lumotlari asosida bir fikrga kelish mumkin. Xuddi shunday, uzoq muddatli investitsion loyihalar bo‘yicha qilingan ishlar, olingan natijalarning reja ko‘rsatkichlaridan chetlanishlari to‘g‘risidagi axborotlarni ham oy yakunlari bo‘yicha aniqlash mumkin.

Korxonalarda xaqiqiy qilingan xarajatlar va erishilgan natijalar to‘g‘risidagi boshqaruv hisobotlarini hisobot davri tugashi bilan qisqa muddatlarda shakllantirish va menejerlarga yetkazish tizimi yaratilishi o‘ta muhim.

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish, zamonaviy AKTlarni qo‘llash boshqaruv segmentar hisobotlari formatlari, ularni ichki axborot foydalanuvchilarga yetkazish usullariga ham o‘ziga xos talablarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda segmentar hisobotlarni faqat qog‘oz shaklida uzatish o‘z dolzarbligi yo‘qotmoqda, uning o‘rniga hisobotlarni bevosita kompyuter ekraniga turli ranglardagi jadval, diagrammalar, grafiklar ko‘rinishlarida taqdim etish avj olmoqda.

Boshqaruv segmentar hisobotlar shakl va mazmunan ixcham, optimal bo‘lishi, juda ko‘p sonli hisob-kitoblarni qamrab olmaganligi ham maqsadga muvofiqdir. Boshqaruv segmentar hisobotlariga tushuntirish xatlarida, qilingan tahlil natijalarida mavjud chetlanishlar hisob-kitoblari, sabablari va sababchilari, bu chetlanishlarni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar aniq bo‘lishi lozim.

1.3. Segmentar hisob va hisobotni tashkil etishning xalqaro standartlari hamda ilg‘or xorij tajribasi

Segmentar hisob va hisobotni samarali tashkil etish xo‘jalik yurituvchi subyektlarning alohida faoliyat yo‘nalishlari, mahsulot va xizmat turlari, geografik hududlari hamda biznes birliklari bo‘yicha moliyaviy natijalarni baholashda muhim axborot vositasi hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida yirik kompaniyalar faoliyatining diversifikatsiyalashuvi, transmilliy operatsiyalar ko‘lamining kengayishi va boshqaruv tuzilmalarining murakkablashuvi umumlashtirilgan moliyaviy hisobot ma’lumotlari bilan bir qatorda alohida segmentlar kesimida axborotlarni shakllantirish va oshkor etish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu jihatdan, segmentar hisob va hisobotni xalqaro talablar asosida tashkil etish investorlar, kreditorlar, menejerlar va boshqa manfaatdor tomonlarga korxonaning turli faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha daromadlilik, xarajatlar, aktivlardan foydalanish samaradorligi, risklar va rivojlanish istiqbollarini chuqurroq baholash imkonini beradi. Ayniqsa, MHXS 8 “Operating Segments” xalqaro moliyaviy hisobot standarti segmentlarni aniqlash va ular bo‘yicha axborotlarni oshkor etishda boshqaruv yondashuvini qo‘llashi bilan segmentar hisobotning zamonaviy metodologik asosini shakllantiradi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar va xalqaro kompaniyalar tajribasi segmentar hisobot faqat moliyaviy hisobotning alohida elementi emas, balki strategik boshqaruv, boshqaruv hisobi, samaradorlikni baholash va resurslarni taqsimlash tizimlari bilan uzviy bog‘langan axborot mexanizmi ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Yaponiya va boshqa rivojlangan iqtisodiyotlarda segmentlar bo‘yicha daromadlar, foyda yoki zarar, aktivlar, majburiyatlar hamda boshqa muhim ko‘rsatkichlarni shakllantirish amaliyoti korxona ichki boshqaruv tizimida foydalaniladigan axborotlarga asoslanadi. Bunday yondashuv tashqi moliyaviy hisobot bilan ichki boshqaruv hisobi o‘rtasidagi axborot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu sababli segmentar hisob va hisobotni tashkil etishning xalqaro standartlarini, rivojlangan davlatlar tajribasini hamda yetakchi kompaniyalarda qo‘llanilayotgan ilg‘or

amaliyotlarni qiyosiy o‘rganish milliy korxonalarda segmentar hisob tizimini takomillashtirish, hisobotlarning shaffofligi va axborot qiymatini oshirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan segmentlar kesimidagi ishonchli axborot bazasini shakllantirishda muhim ilmiy-uslubiy ahamiyat kasb etadi.

Segmentar hisob va hisobotning xalqaro me’yoriy asoslari tarixiy jihatdan bir necha bosqichda shakllangan bo‘lib, ushbu jarayonda Amerika Qo‘shma Shtatlari va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari tizimi muhim o‘rin egallagan. Amerika Qo‘shma Shtatlarida segmentlar bo‘yicha axborotlarni oshkor qilishga doir dastlabki tizimli talablar 1976-yilda Moliyaviy hisob standartlari kengashi (FASB — Financial Accounting Standards Board) tomonidan qabul qilingan SFAS 14 — “Xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati segmentlari bo‘yicha moliyaviy hisobot” standarti orqali belgilangan. Mazkur standart korxonalardan faoliyat yo‘nalishlari va geografik hududlar bo‘yicha segmentlarga ajratilgan moliyaviy axborotlarni taqdim etishni talab qilgan. Xalqaro miqyosda esa 1981-yilda IAS 14 — “Segmentlar bo‘yicha moliyaviy axborotni taqdim etish” standarti qabul qilinib, segmentar axborotni shakllantirish va oshkor qilishning xalqaro qoidalari belgilangan. Keyinchalik ushbu standart takomillashtirilib, 1997-yilda IAS 14 (qayta ko‘rib chiqilgan) — “Segmentar hisobot” qabul qilingan va 1998-yildan amaliyotga joriy etilgan. Amerika Qo‘shma Shtatlarida ham 1997-yilda avvalgi SFAS 14 o‘rniga SFAS 131 — “Korxona segmentlari va ular bilan bog‘liq axborotlarni oshkor qilish” standarti qabul qilingan. Mazkur standart segmentlarni korxonaning ichki tashkiliy-boshqaruv tuzilmasi hamda rahbariyat tomonidan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalaniladigan axborotlar asosida aniqlashni nazarda tutuvchi boshqaruv yondashuvini segmentar hisobot amaliyotiga olib kirdi.

Segmentar hisobot standartlari rivojlanishining keyingi bosqichi xalqaro va Amerika Qo‘shma Shtatlari moliyaviy hisobot talablarini o‘zaro yaqinlashtirish jarayoni bilan bog‘liq bo‘ldi. Natijada Xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari kengashi (IASB — International Accounting Standards Board) tomonidan 2006-yilda 8-son MHXS - “Operatsion segmentlar” xalqaro moliyaviy hisobot standarti qabul

qilindi va u 2009-yil 1-yanvardan boshlab 14-son BHXS standarti o‘rnini egalladi. 8-son MHXS standarti Amerika Qo‘shma Shtatlarining SFAS 131 standartida shakllantirilgan boshqaruv yondashuviga asoslanib, operatsion segmentlarni korxonada resurslarni taqsimlash va segmentlar faoliyati natijalarini baholash bo‘yicha qarorlar qabul qiluvchi yuqori darajadagi operatsion qaror qabul qiluvchi shaxs (CODM — Chief Operating Decision Maker) tomonidan muntazam ravishda ko‘rib chiqiladigan ichki boshqaruv axborotlari asosida aniqlashni nazarda tutadi. Hozirgi kunda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida hisobot tuzuvchi korxonalarda segmentar hisobotni shakllantirishning asosiy amaldagi standarti 8-son MHXS — “Operatsion segmentlar” hisoblanadi. Amerika Qo‘shma Shtatlarining Umumqabul qilingan buxgalteriya hisobi tamoyillari (US GAAP — United States Generally Accepted Accounting Principles) tizimida esa segmentar hisobotga oid amaldagi talablar ASC 280 — “Segmentar hisobot” tarkibida belgilangan. Demak, segmentar hisobot standartlarining tarixiy rivojlanishini xalqaro tizimda 14-son BHXS → 14-son BHXS (qayta ko‘rib chiqilgan) → 8-son MHXS, Amerika Qo‘shma Shtatlarida esa SFAS 14 → SFAS 131 → ASC 280 ketma-ketligida ifodalash mumkin. Hozirgi davrda xalqaro amaliyotda 8-son MHXS, Amerika Qo‘shma Shtatlarida esa ASC 280 segmentar hisobotni shakllantirish va segmentlar bo‘yicha axborotlarni oshkor qilishning asosiy me’yoriy-uslubiy manbalari hisoblanadi.

Segmentar hisobotning nazariy-uslubiy asoslari rivojlanishida 14-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHXS) — “Segmentar hisobot”dan 8-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (MHXS) — “Operatsion segmentlar”ga o‘tish muhim metodologik bosqich hisoblanadi. Mazkur o‘zgarish segmentar axborotni shakllantirish va oshkor qilish tartibining oddiy me’yoriy yangilanishi emas, balki segmentlarni aniqlashning konseptual yondashuvini tubdan o‘zgartirgan jarayon sifatida ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilingan. Xususan, 14-son BHXSda segmentlarni biznes va geografik yo‘nalishlar asosida aniqlash hamda birlamchi va ikkilamchi hisobot shakllarida axborot taqdim etishga ustuvorlik berilgan bo‘lsa, 8-son MHXSda korxona rahbariyati tomonidan ichki boshqaruv maqsadlarida foydalaniladigan

axborotlarga asoslangan boshqaruv yondashuvi joriy etildi. Natijada tashqi foydalanuvchilarga korxona faoliyatini rahbariyat qanday nuqtayi nazardan baholashi, resurslarni segmentlar o‘rtasida qanday taqsimlashi va ularning faoliyat natijalarini qanday nazorat qilishi haqida axborot olish imkoniyati yaratildi. Shu sababli mazkur standartlar o‘rtasidagi o‘tish jarayonining segmentlar soni, oshkor qilinadigan axborot hajmi, segment ma’lumotlarining taqqoslanuvchanligi va foydalanuvchilar uchun axborotning ahamiyatiga ta’siri xorijiy olimlarning tadqiqotlarida alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi.

Ilmiy adabiyotlarda 14-son BHXSdan 8-son MHXSga o‘tishning natijalari yuzasidan turlicha ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Tadqiqotchilarning bir guruhi boshqaruv yondashuvining joriy etilishi korxonaning ichki boshqaruv tuzilmasi bilan tashqi segmentar hisobot o‘rtasidagi axborot tafovutini kamaytirishi, operatsion segmentlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning boshqaruv qarorlarini aks ettirish darajasini oshirishi hamda investorlar uchun korxona faoliyatini “rahbariyat nigohi bilan” baholash imkoniyatini kengaytirishini ta’kidlaydi. Boshqa tadqiqotchilar esa 8-son MHXSning qo‘llanilishi korxonalar rahbariyatiga segmentlarni aniqlash va ayrim ko‘rsatkichlarni oshkor qilishda nisbatan kengroq erkinlik berishi sababli kompaniyalararo taqqoslanuvchanlikning pasayishi, geografik axborotlarning qisqarishi hamda tijorat nuqtayi nazaridan sezgir ma’lumotlarni oshkor qilish bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelishi mumkinligini qayd etadilar. Shundan kelib chiqib, 14-son BHXS va 8-son MHXS talablarini qiyosiy o‘rganish bilan bir qatorda, ushbu standartlar almashinuvi bo‘yicha xorijiy olimlarning ilmiy qarashlarini tizimlashtirish segmentar hisobot metodologiyasining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, 8-son MHXSning afzallik va cheklovlarini baholash hamda milliy amaliyot uchun tegishli ilmiy-uslubiy xulosalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Gisbert, Navallas va Romero (2024) 14-son BHXS dan 8-son MHXS “Operatsion segmentlar” standartiga o‘tishning segmentar axborotlarni oshkor etish amaliyotiga ta’sirini mulkiy (proprietary) va agentlik xarajatlari nuqtai nazaridan empirik tadqiq etgan. Mualliflar

Ispaniya fond bozorida listingdan o‘tgan nomoliyaviy kompaniyalarning 2005–2011-yillardagi ma’lumotlarini tahlil qilib, segmentar axborotlarni oshkor etish darajasini hisobotda aks ettirilgan segmentlar soni hamda segmentlar kesimida taqdim etilgan moliyaviy ko‘rsatkichlar soni orqali baholagan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 8-son MHXS da boshqaruv yondashuvining joriy qilinishi segmentar hisobot amaliyotida kutilgan darajada sezilarli ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirmagan. Xususan, 8-son MHXS joriy etilgandan keyin kompaniyalarning hisobot segmentlari sonida sezilarli o‘sish kuzatilmagan, biroq biznes segmentlari bo‘yicha oshkor qilinadigan ayrim moliyaviy ko‘rsatkichlar hajmi ortgan. Shuningdek, mualliflar mulkchilik konsentratsiyasining yuqoriligi segmentar hisobot shaffofligini cheklovchi agentlik omillaridan biri ekanligini aniqlagan. Mazkur natijalar segmentar hisobotning axborot mazmuni va shaffofligi faqat buxgalteriya standartlarining talablariga emas, balki korporativ boshqaruv tizimi, mulkchilik tuzilmasi, raqobat muhiti hamda tijorat jihatdan sezgir axborotlarni oshkor etish natijasida yuzaga keladigan mulkiy xarajatlarga ham bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, segmentar hisobotni shakllantirish metodologiyasini tadqiq etishda 8-son MHXS talablarini xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ichki boshqaruv va iqtisodiy manfaatlari bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish maqsadga muvofiqdir.[21]

Aboud, A., & Roberts, C. (2018) Yevropa Ittifoqi kompaniyalari misolida 8-son MHXS sharoitida menejerlarning segmentar axborotlarni oshkor etish qarorlariga mulkiy xarajatlar va agentlik xarajatlari sezilarli ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan. Ularning fikricha, 8-son MHXS boshqaruv yondashuvi asosida menejerlarga segmentar axborotni shakllantirishda nisbatan kengroq imkoniyat berishi natijasida kompaniyaning tijorat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan axborotlarni cheklash ehtimoli yuzaga keladi. Tadqiqot natijalarida, ayniqsa, 8-son MHXS joriy qilingandan keyin mulkiy xarajatlar segmentar axborot sifatining pasayishini tushuntiruvchi muhim omillardan biri ekanligi ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, segmentar axborotlarning miqdori va sifati bir xil omillarga bir xil darajada bog‘liq emasligi aniqlangan. Demak,

[21] https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/02102412.2024.2329502

mualliflarning yondashuviga ko‘ra, 8-son MHXS talablarining mavjudligi o‘z-o‘zidan yuqori sifatli segmentar hisobotni kafolatlamaydi; bunda menejerlarning iqtisodiy manfaatlari, raqobat muhiti va agentlik munosabatlarini ham hisobga olish zarur.[22]

André, Filip va Moldovan (2016) 8-son MHXS asosida shakllantirilgan segmentar hisobotni axborot miqdori va axborot sifati kabi ikkita alohida o‘lchov asosida baholash zarurligini asoslaydi. Mualliflar segmentar axborot miqdorini segmentlar bo‘yicha oshkor qilingan moliyaviy ko‘rsatkichlar soni, sifatini esa segmentlarning rentabellik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi tafovut orqali o‘lchagan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, menejerlar tijorat jihatdan sezgir ma’lumotlarni oshkor qilish natijasida yuzaga keladigan mulkiy xarajatlarni kamaytirish uchun ikki xil yo‘l tutishi mumkin: standart tavsiya qilgan ayrim ko‘rsatkichlarni oshkor qilmaslik yoki formal talablarni bajargan holda segmentar axborotning informativlik darajasini pasaytirish. Bundan tashqari, tadqiqot moliyaviy tahlilchilar ham segmentar disclosure sifatini har doim to‘liq anglay olmasligini ko‘rsatadi. Shuning uchun mualliflar 8-son MHXS ning boshqaruv modeliga asoslangan yondashuvi axborotdan foydalanuvchilarga yangi imkoniyatlar berishi bilan bir qatorda, axborotning taqqoslanuvchanligi va tushunarliligi bilan bog‘liq muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkinligini ta’kidlaydi.[23]

Aleksanyan va Danbolt (2015) Buyuk Britaniyaning listing kompaniyalari misolida SSAP 25 → 14-son BHXS → 8-son MHXS standartlari bo‘yicha segmentar hisobot amaliyotining uzoq muddatli o‘zgarishini o‘rgangan. Mualliflar tadqiqotning nazariy asosini mulkiy xarajatlar nazariyasi bilan bog‘laydi va kompaniyalarning segmentar axborotlarni oshkor qilish qarorlari raqobatchilarga tijorat jihatdan muhim ma’lumotlarning yetib borishi xavfiga bog‘liqligini aniqlaydi. Xususan, kompaniyalardan geografik segmentlar bo‘yicha batafsilroq moliyaviy axborot talab qilingan hollarda, ular geografik segmentlarni kengroq hududlar shaklida birlashtirishga moyil bo‘lgan. Bu esa

[22] Aboud, A., & Roberts, C. (2018). *Managers’ segment disclosure choices under IFRS 8: EU evidence*. Accounting Forum, 42(4), 293–308. https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1016/j.accfor.2018.09.004

[23] André, P., Filip, A., & Moldovan, R. (2016). *Segment Disclosure Quantity and Quality under IFRS 8: Determinants and the Effect on Financial Analysts’ Earnings Forecast Errors*. The International Journal of Accounting, 51(4), 443–461. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0020706316301777

segmentlar sonini yoki ularning detallashtirilganlik darajasini faqat standart talablari emas, balki axborotni oshkor qilishning potensial raqobat xarajatlari ham belgilashini ko‘rsatadi. Shu sababli mualliflar 8-son MHXS ni 14-son BHXS dan mutlaq ustun deb baholashga ehtiyotkorlik bilan yondashadi.[24]

Almajali, Holmes va Xu (2026) segmentar axborotlarni majburiy oshkor etishning korxonalarning moliyalashtirish manbalarini tanlashiga ta’sirini tadqiq etib, segmentar hisobotning ahamiyati faqat investorlarni korxona faoliyatining alohida yo‘nalishlari to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlash bilan chegaralanmasligini asoslagan. Mualliflarning fikricha, segmentlar bo‘yicha batafsil axborotlarning oshkor etilishi kapital bozori ishtirokchilariga korxonaning faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha diversifikatsiya darajasi va defolt riskini aniqroq baholash imkonini beradi hamda korxona bilan kapital yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi axborot asimmetriyasini kamaytiradi. AQShda 14-son Moliyaviy hisob standartidan (SFAS 14) 131-son Moliyaviy hisob standartiga (SFAS 131) o‘tishni segmentar axborotlar sifatining ekzogen o‘zgarishi sifatida qo‘llagan empirik tahlil natijalari segmentlar to‘g‘risidagi ilgari yashirin bo‘lgan axborotlarni oshkor etishga majbur bo‘lgan kompaniyalarda savdo kreditiga bog‘liqlik sezilarli darajada kamayganligini ko‘rsatgan. Mazkur ta’sir dastlabki defolt riski yuqori, axborot muhiti shaffofligi past va korporativ boshqaruvi zaif kompaniyalarda kuchliroq namoyon bo‘lgan. Shuningdek, mualliflar segmentar axborotlarning oshkor etilishi investorlar tomonidan qabul qilinadigan defolt riskini va moliyaviy cheklovlarni kamaytirishi, aksiyalar likvidligini oshirishi hamda kompaniyalarning aksiyadorlik va ommaviy qarz mablag‘lari orqali moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishini aniqlagan. Shu jihatdan, segmentar hisobotni korxona faoliyatining tarkibiy qismlari to‘g‘risidagi oddiy axborotni oshkor etish vositasi sifatida emas, balki axborot asimmetriyasini kamaytirish, moliyaviy shaffoflikni oshirish, kredit riskini baholashni yaxshilash va korxonaning tashqi moliyalashtirish

[24] Aleksanyan, M., & Danbolt, J. (2015). *Segment Reporting: Is IFRS 8 Really Better?* Accounting in Europe, 12(1), 37–60. https://eprints.gla.ac.uk/103758/

manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim axborot mexanizmi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.[25]

1.5-rasm ma’lumotlari segmentar hisobotni shakllantirish va oshkor qilish amaliyotining xalqaro miqyosda hududlar bo‘yicha bir xil rivojlanmaganligini ko‘rsatadi. IFRS Foundation tahlilidagi respondentlarning 53 foizi Yevropa hissasiga to‘g‘ri kelishi ushbu hududning MHXSlarni erta va keng miqyosda joriy qilganligi bilan bog‘liq. Osiyo va Okeaniya hududining 18 foizlik ulushi ham ushbu mamlakatlarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlaridan foydalanish va kapital bozorlarining rivojlanishi bilan izohlanishi mumkin.



1.5-rasm. 8-son MHXS “Operatsion segmentlar” bo‘yicha xalqaro tahlil respondentlarining hududiy taqsimoti, %.[26]

Lotin Amerikasi va Afrika ulushining nisbatan pastligi esa ushbu diagrammada aynan 8-son MHXS bo‘yicha ko‘rib chiqish jarayonidagi ishtirok darajasini aks ettiradi; uni mazkur hududlarda segmentar hisobot umuman kam tuziladi, degan xulosa sifatida talqin qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Zamonaviy kompaniyalar hisobotlari ham geografik segmentatsiyaning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Masalan, PUMA

[25]Almajali, O., Holmes, P., & Xu, B. (2026). Segment information disclosure and trade credit. *Journal of Financial Research*, 1–39. https://onlinelibrary.wiley.com/doi/epdf/10.1111/jfir.70067

[26] Muallif ishlanmasi

Annual Report segmentar hisobotida Yevropa, EEMEA, Shimoliy Amerika, Lotin Amerikasi, Greater China va Asia/Pacific kabi hududiy segmentlardan foydalanadi; Bechtle esa 2025-yildan Germaniya, Fransiya, Benelux va Other Europe kabi yangi hududiy hisobot segmentlariga o'tgan. Bu misollar hududiy segmentatsiya korxonaning ichki boshqaruv tuzilmasi va rahbariyat tomonidan resurslarni taqsimlash mexanizmi bilan uzviy bog‘langanligini ko‘rsatadi.

Biz tadqiqotlarimiz davomida yirik kompaniyalarning o’z segment ma’lumotlarini oshkor qilish bo’yicha fikr mulohazalarini ham o’rganib chiqdik.

Walmart kompaniyasining segmentar hisobot amaliyotini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, kompaniya segmentlarni tashkiliy tuzilmaning oddiy tarkibiy bo‘linmalari sifatida emas, balki yuqori rahbariyat tomonidan faoliyat natijalarini baholash va resurslarni taqsimlash uchun foydalaniladigan boshqaruv obyektlari sifatida shakllantiradi. Kompaniya faoliyati Walmart U.S., Walmart International va Sam’s Club U.S. kabi uchta hisobot segmentiga ajratilgan bo‘lib, ularning natijalari operatsion qarorlarni qabul qiluvchi bosh rahbar — kompaniyaning bosh ijrochi direktori tomonidan muntazam ko‘rib chiqiladi. Bunday yondashuv segmentar hisobotning asosiy vazifasi tashqi foydalanuvchilarga korxonaning umumlashtirilgan natijalarinigina emas, balki uning turli biznes yo‘nalishlari iqtisodiy natijalarini alohida baholash imkoniyatini yaratishdan iborat ekanligini ko‘rsatadi. Walmart tajribasi segmentlarni aniqlashda korxonaning ichki boshqaruv tuzilmasi, faoliyat natijalarini baholash tizimi va resurslarni taqsimlash mexanizmlari asosiy mezon sifatida qaralishi lozimligini tasdiqlaydi.[27]

Amazon kompaniyasining segmentar hisobot amaliyotida boshqaruv yondashuvi yaqqol namoyon bo‘lib, kompaniya faoliyati North America, International va Amazon Web Services (AWS) kabi uchta hisobot segmentiga ajratiladi. Kompaniya segmentlar kesimida sof sotishdan tushum, operatsion xarajatlar, operatsion foyda, aktivlar va asosiy vositalarga investitsiyalar kabi ko‘rsatkichlarni oshkor qiladi hamda umumiy xarajatlarning ayrim turlarini segmentlarning

[27] https://www.sec.gov/Archives/edgar/data/104169/000010416925000021/R20.htm

resurslardan foydalanish darajasiga qarab taqsimlaydi. Amazon tajribasining muhim jihati shundaki, segmentar axborot korxonaning alohida faoliyat yo‘nalishlari iqtisodiy samaradorligidagi keskin farqlarni aniqlash imkonini beradi. Masalan, 2025-yilda AWS segmentining sof sotishdan tushumi 128,7 mlrd AQSh dollarini tashkil qilgan bo‘lsa-da, uning operatsion foydasi 45,6 mlrd dollarni tashkil etgan; North America segmentida esa 426,3 mlrd dollarlik sotuvga 29,6 mlrd dollarlik operatsion foyda to‘g‘ri kelgan. Shu sababli konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda ko‘rinmaydigan biznes yo‘nalishlari rentabelligidagi farqlar segmentar hisobot orqali aniqlanadi. Amazon tajribasi segmentar hisobotni investorlar va boshqaruv uchun korxonaning qiymat yaratuvchi asosiy faoliyat yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beruvchi muhim axborot vositasi sifatida baholash mumkinligini ko‘rsatadi.[28]

Apple kompaniyasining segmentar hisobot amaliyoti segmentlarni geografik tamoyil asosida shakllantirishning o‘ziga xos namunasidir. Kompaniya o‘z faoliyatini asosan geografik asosda boshqarib, Americas, Europe, Greater China, Japan va Rest of Asia Pacific kabi beshta hisobot segmentini ajratadi. Mazkur segmentlarda o‘xshash qurilmalar, dasturiy mahsulotlar va xizmatlar taklif qilinishiga qaramasdan, ular alohida boshqariladi, chunki mijozlarning joylashuvi, sotish va distribyutorlik tizimi hamda hududiy bozorlarning iqtisodiy xususiyatlari o‘zaro farqlanadi. Apple tajribasi segmentlarni shakllantirishda faqat mahsulotlarning iqtisodiy xususiyatlari emas, balki bozorlarning geografik joylashuvi va boshqaruvning hududiy tashkil etilishi ham muhim mezon ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, turli mamlakatlarda faoliyat olib boruvchi transmilliy korxonalarda geografik segmentar axborot alohida hududlarning korxona daromadlariga qo‘shayotgan hissasini, hududiy bozorlarning rivojlanish tendensiyalarini hamda geografik konsentratsiya bilan bog‘liq risklarni baholash imkonini beradi. Shu jihatdan Apple amaliyoti segmentar hisobotni korxonaning hududiy faoliyati samaradorligi va geografik diversifikatsiyasini baholash vositasi sifatida qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi.[29]

[28] https://www.sec.gov/Archives/edgar/data/1018724/000101872426000004/amzn-20251231.htm
[29] https://www.sec.gov/Archives/edgar/data/320193/000032019325000079/aapl-20250927.htm

Microsoft kompaniyasining segmentar hisobot amaliyoti segmentlarning doimiy va o‘zgarmas hisob obyektlari emasligini, aksincha, korxonaning boshqaruv modeli o‘zgarishiga muvofiq qayta shakllantirilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Kompaniya 2025-moliyaviy yilida faoliyatini Productivity and Business Processes, Intelligent Cloud va More Personal Computing kabi uchta asosiy hisobot segmenti bo‘yicha aks ettirgan. 2024-yil avgustida segmentlar tarkibiga o‘zgartirish kiritilib, tijorat Microsoft 365 faoliyatining ayrim qismlari Productivity and Business Processes segmentida birlashtirilgan. Kompaniya ushbu o‘zgarishlarni faoliyatni amalda qanday boshqarayotganiga moslashtirish bilan izohlaydi. Mazkur tajriba segmentar hisobotning boshqaruv yondashuvi mohiyatini ochib beradi: tashqi segmentar hisobot korxonaning ichki boshqaruv va resurslarni taqsimlash tizimiga imkon qadar mos kelishi kerak. Shunday qilib, korxonaning biznes modeli, boshqaruv tuzilmasi yoki rahbariyatga taqdim etiladigan ichki hisobotlar o‘zgarganda, hisobot segmentlarining tarkibini ham qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga kelishi mumkin.[30]

Saudi Aramco tajribasi segmentar axborotning vertikal integratsiyalashgan yirik korxonalar faoliyatini tahlil qilishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Kompaniyaning qiymat yaratish zanjiri uglevodorodlarni qidirish va qazib olishdan boshlab, ularni qayta ishlash, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish, transportirovka qilish va sotishgacha bo‘lgan o‘zaro bog‘liq faoliyatlarni qamrab oladi. Bunday sharoitda segmentar axborot foydalanuvchilarga konsolidatsiyalashgan ko‘rsatkichlar ortida turgan alohida iqtisodiy faoliyat yo‘nalishlarining kompaniya qiymatini shakllantirishdagi o‘rnini tushunishga yordam beradi. Xususan, Upstream faoliyati asosiy qiymat yaratuvchi yo‘nalish sifatida qaralsa, Downstream yo‘nalishi qayta ishlash, kimyo va boshqa faoliyatlar orqali qiymat zanjirini kengaytiradi. Shu sababli Aramco tajribasi segmentar hisob va hisobotni faqat yakuniy moliyaviy ko‘rsatkichlarni bo‘lib ko‘rsatish tizimi sifatida emas, balki vertikal integratsiyalashgan biznes modelining alohida bo‘g‘inlari o‘rtasidagi

[30] https://www.microsoft.com/investor/reports/ar25/

iqtisodiy bog‘liqlikni ochib beruvchi axborot mexanizmi sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi.[31]

Ushbu beshta yirik kompaniya tajribasini qiyosiy o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, segmentar hisob va hisobotni tashkil etishning barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun bir xil qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan yagona universal modeli mavjud emas. Segmentlarni shakllantirish, avvalo, kompaniyaning biznes modeli, tashkiliy-boshqaruv tuzilmasi, faoliyat ko‘lami, mahsulot va xizmatlar tarkibi, geografik diversifikatsiyasi hamda rahbariyat tomonidan resurslarni taqsimlash va faoliyat natijalarini baholash usullariga bog‘liq. Jumladan, Walmart va Amazon faoliyatining ko‘p yo‘nalishliligi sababli biznes yo‘nalishlari va geografik xususiyatlarni uyg‘unlashtirgan segmentatsiya modelidan foydalanadi. Apple kompaniyasida esa faoliyat natijalarini boshqarishning hududiy xususiyatlari ustun bo‘lganligi sababli Americas, Europe, Greater China, Japan va Rest of Asia Pacific kabi geografik segmentlar ajratiladi. Microsoftda segmentlar kompaniyaning texnologik mahsulotlari, xizmatlari va biznes modelining rivojlanishiga muvofiq shakllantiriladi hamda boshqaruv tizimidagi o‘zgarishlarga qarab qayta ko‘rib chiqiladi. Saudi Aramco tajribasida esa segmentatsiyaning asosini uglevodorodlarni qazib olishdan boshlab ularni qayta ishlash va sotishgacha bo‘lgan vertikal integratsiyalashgan qiymat yaratish zanjiri tashkil etadi. Demak, segmentlarni aniqlashda korxonaning tashqi tashkiliy shaklidan ko‘ra uning iqtisodiy faoliyati qanday boshqarilayotgani va rahbariyat tomonidan qanday tarkibiy qismlarga ajratib baholanayotgani muhimroq ahamiyat kasb etadi.

Mazkur kompaniyalar tajribasining eng muhim umumiy jihati segmentar hisobotning korxona ichki boshqaruv tizimi bilan bevosita bog‘langanligidir. Xususan, Amazon, Walmart, Apple va Microsoft kompaniyalarida operatsion segmentlarni aniqlashda operatsion qarorlarni qabul qiluvchi bosh rahbar (Chief Operating Decision Maker — CODM) tomonidan muntazam ravishda ko‘rib chiqiladigan ichki boshqaruv axborotlari asosiy mezonlardan biri sifatida qo‘llaniladi. Bunday yondashuv 8-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti

[31] https://www.aramco.com/en/investors/annual-report

(MHXS) “Operatsion segmentlar”da belgilangan boshqaruv yondashuvining amaliy ifodasidir. Unga ko‘ra, tashqi moliyaviy hisobotda aks ettiriladigan segmentar axborot kompaniya rahbariyati faoliyat natijalarini baholash va resurslarni taqsimlashda amalda foydalanadigan ichki axborot tizimiga imkon qadar mos bo‘lishi lozim. Natijada segmentar hisobot konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning oddiy qo‘shimcha elementi sifatida emas, balki korxonaning ichki boshqaruv hisobi bilan tashqi moliyaviy hisobot o‘rtasidagi axborot aloqasini ta’minlovchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, kompaniyaning strategiyasi, boshqaruv tuzilmasi yoki rahbariyatga taqdim etiladigan ichki hisobotlar tizimining o‘zgarishi operatsion va hisobot segmentlari tarkibining ham qayta ko‘rib chiqilishiga olib kelishi mumkin.

Yirik kompaniyalarning ilg‘or tajribasi segmentar hisobotning iqtisodiy ahamiyati faqat alohida segmentlar bo‘yicha daromad, xarajat, foyda yoki aktivlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish bilan chegaralanmasligini ham ko‘rsatadi. Segmentlar kesimidagi axborotlar investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarga kompaniyaning qaysi faoliyat yo‘nalishlari asosiy qiymat yaratayotganini, qaysi segmentlarda rentabellik yuqori yoki pastligini, resurslar qanday taqsimlanganini, geografik va faoliyat diversifikatsiyasi darajasini hamda alohida biznes yo‘nalishlariga xos risklarni baholash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro kompaniyalar tajribasini umumlashtirish asosida segmentar hisobotni shakllantirish jarayonini “biznes modeli → ichki boshqaruv tuzilmasi → operatsion qarorlarni qabul qiluvchi bosh rahbarga taqdim etiladigan axborot → operatsion segmentlarni aniqlash → hisobot segmentlarini belgilash → segmentlar bo‘yicha moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlarni shakllantirish → segmentar axborotlarni tashqi foydalanuvchilarga oshkor qilish” ketma-ketligida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv segmentar hisob va hisobotning boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta’minlash funksiyasini kuchaytirish bilan birga, korxona faoliyatining shaffofligi, segmentlar samaradorligini qiyosiy baholash va manfaatdor tomonlar tomonidan asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini ham oshiradi.

II BOB. JAMOAT AHAMIYATIGA EGA TASHKILOTLARDA SEGMENTAR HISOB VA HISOBOTNING AMALDAGI HOLATI HAMDA METODOLOGIK MUAMMOLARI

2.1. Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda segmentlarni shakllantiruvchi tashkiliy-iqtisodiy omillar

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar faoliyatining ko‘lami, tashkiliy tuzilmasining murakkabligi, biznes yo‘nalishlarining diversifikatsiyalashuvi hamda hududiy bozorlarda faoliyat yuritishi ularning moliyaviy va boshqaruv axborotlarini alohida segmentlar kesimida shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Bunday tashkilotlarda umumlashtirilgan moliyaviy ko‘rsatkichlar faoliyatning alohida yo‘nalishlari bo‘yicha iqtisodiy natijalar, rentabellik darajasi, resurslardan foydalanish samaradorligi va risklarning taqsimlanishini to‘liq aks ettirish imkonini bermaydi. Shu sababli tashkilot faoliyatini iqtisodiy jihatdan bir-biridan farqlanuvchi segmentlarga ajratish, ular bo‘yicha daromadlar, xarajatlar, aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy natijalarni shakllantirish hamda manfaatdor tomonlarga tegishli axborotlarni taqdim etish moliyaviy hisobotning shaffofligi va tahliliy imkoniyatlarini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, investorlar, kreditorlar, davlat organlari va boshqa manfaatdor tomonlarning axborotga bo‘lgan yuqori talabi jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda segmentlarni shakllantirishning ilmiy asoslangan mezonlarini ishlab chiqish zaruratini kuchaytiradi.

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda segmentlarning shakllanishi tasodifiy jarayon bo‘lmay, tashkilotning biznes modeli, boshqaruv tuzilmasi, faoliyat turlari, mahsulot va xizmatlar tarkibi, geografik faoliyat ko‘lami, mijozlar guruhlari, daromad olish manbalari, resurslarni taqsimlash mexanizmi hamda faoliyatga xos risklar kabi o‘zaro bog‘liq tashkiliy-iqtisodiy omillar ta’sirida yuz beradi. Bunda tashkilot rahbariyatining faoliyat natijalarini qaysi tarkibiy yo‘nalishlar bo‘yicha baholashi va resurslarni qanday taqsimlashi segmentlarni aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda segmentlarni shakllantiruvchi tashkiliy-iqtisodiy

omillarni tizimlashtirish, ularning segmentlar tarkibi va chegaralariga ta’sirini aniqlash hamda ichki boshqaruv tizimi bilan tashqi moliyaviy hisobot o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni asoslash segmentar hisob va hisobot metodologiyasini takomillashtirishning muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

8-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (MHXS) “Operatsion segmentlar” talablariga[32] muvofiq, xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining muayyan qismi avtomatik ravishda segment sifatida tan olinmaydi. Tashkilotning komponenti operatsion segment sifatida e’tirof etilishi uchun bir vaqtning o‘zida uchta asosiy shart bajarilishi lozim: birinchidan, mazkur komponent tushum olish va xarajatlarni amalga oshirish mumkin bo‘lgan tijorat faoliyati bilan shug‘ullanishi; ikkinchidan, uning operatsion natijalari resurslarni taqsimlash hamda faoliyat samaradorligini baholash maqsadida operatsion qarorlarni qabul qiluvchi boshqaruv organi tomonidan muntazam ravishda ko‘rib chiqilishi; uchinchidan, ushbu komponent bo‘yicha alohida moliyaviy ma’lumotlar mavjud bo‘lishi zarur. Demak, segmentni aniqlashda uning tashkiliy jihatdan alohida bo‘linma ekanligi emas, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida mustaqil axborot obyekti sifatida namoyon bo‘lishi hal qiluvchi mezon hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, korxonaning har qanday sexi, filiali, mahsulot yo‘nalishi yoki geografik hududi o‘z-o‘zidan operatsion segment hisoblanmaydi; u yuqoridagi uchta shartga javob bergandagina 8-son MHXS maqsadlari uchun operatsion segment sifatida e’tirof etiladi.

Operatsion segment aniqlangandan so‘ng uning moliyaviy hisobotda alohida hisobot segmenti sifatida aks ettirilishi miqdoriy mezonlar asosida belgilanadi. Xususan, segmentning ichki va tashqi tushumlarini qamrab olgan jami tushumi barcha operatsion segmentlar jami tushumining kamida 10 foizini tashkil etsa yoki segment foydasi (zarari)ning mutlaq miqdori standartda belgilangan tegishli umumiy foyda yoki zarar bazasining kamida 10 foiziga yetsa yoxud segment aktivlari barcha operatsion segmentlar jami aktivlarining kamida 10 foizini tashkil etsa, mazkur segment hisobot segmenti sifatida alohida oshkor qilinishi lozim.

[32] https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-8-operating-segments/#about

Bunda uchta mezonning barchasi bir vaqtda bajarilishi talab etilmaydi, ulardan bittasining bajarilishi yetarli hisoblanadi.



2.1-rasm. 8-son MHXS talablari asosida operatsion segmentlarni aniqlash va segmentar axborotni oshkor qilish algoritmi.[33]

[33] 8-son MHXS asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Shu bilan birga, miqdoriy mezonlar asosida aniqlangan hisobot segmentlarining tashqi xaridorlardan olingan jami tushumi tashkilot umumiy tashqi tushumining kamida 75 foizini qamrab olishi shart. Agar ushbu ko‘rsatkich 75 foizga yetmasa, 10 foizlik mezonlarga javob bermaydigan qo‘shimcha operatsion segmentlar ham 75 foizlik qamrov ta’minlangunga qadar hisobot segmentlari tarkibiga kiritiladi. Shunday qilib, 8-son MHXS metodologiyasida “operatsion segmentni aniqlash” va “segment bo‘yicha alohida hisobot ma’lumotlarini oshkor qilish” o‘zaro bog‘liq, biroq mazmunan ikki alohida bosqich bo‘lib, birinchi bosqich boshqaruv yondashuviga, ikkinchi bosqich esa miqdoriy muhimlik va axborot qamrovi mezonlariga asoslanadi.

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda segmentar hisobotni shakllantirishning dastlabki va muhim bosqichlaridan biri tashkilot faoliyatini iqtisodiy jihatdan asoslangan operatsion segmentlarga ajratish hisoblanadi. 8-son MHXS “Operatsion segmentlar”da segmentlarni aniqlash boshqaruv yondashuviga asoslanib, tashkilotning ichki tashkiliy-boshqaruv tuzilmasi hamda operatsion qarorlarni qabul qiluvchi boshqaruv organiga taqdim etiladigan axborot bilan uzviy bog‘langan. Xususan, faoliyat komponentining tijorat faoliyatini amalga oshirishi, uning natijalari resurslarni taqsimlash va faoliyat samaradorligini baholash maqsadida rahbariyat tomonidan muntazam ko‘rib chiqilishi hamda ushbu komponent bo‘yicha alohida moliyaviy ma’lumotlarning mavjudligi operatsion segmentni aniqlashning asosiy shartlari hisoblanadi. Shu bilan birga, tashkilotning boshqaruv modeli mahsulot va xizmatlar, geografik hududlar, tartibga solish muhiti yoki ushbu omillarning kombinatsiyasiga asoslanishi mumkin. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, tashkilot faoliyatini segmentlarga ajratishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan tashkiliy-iqtisodiy mezonlar quyidagi jadvalda tizimlashtirildi.

Quyidagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, tashkilot faoliyatini operatsion segmentlarga ajratish faqat bitta, masalan, geografik yoki mahsulot mezoni bilan cheklanmaydi, balki uning biznes modeli va boshqaruv tizimiga mos ravishda bir yoki bir nechta omillar kombinatsiyasiga asoslanishi mumkin. Bunda mahsulot va xizmatlarning

xususiyati, biznes faoliyati yo‘nalishlari, geografik hudud, ishlab chiqarish jarayonlari, xaridorlar toifasi, mahsulotni tarqatish yoki xizmat ko‘rsatish usullari, tartibga solish muhiti hamda tashkiliy boshqaruv tuzilmasi segmentatsiyaning iqtisodiy asoslarini tavsiflaydi.

2.1-jadval

8-son MHXS asosida tashkilot faoliyatini operatsion segmentlarga ajratishning tashkiliy-iqtisodiy mezonlari[34]

№	Segmentlarga ajratish mezoni	Mazmuni	Segmentni shakllantirishga misol
1	Mahsulotlar bo‘yicha	Turli mahsulotlar yoki mahsulot guruhlari alohida boshqarilib, ularning moliyaviy natijalari alohida baholanadi	Oziq-ovqat, maishiy texnika, kiyim-kechak
2	Xizmatlar bo‘yicha	Xizmat turlari bo‘yicha faoliyat natijalari va resurslar alohida boshqariladi	Sug‘urta, lizing, konsalting, transport xizmatlari
3	Biznes faoliyati yo‘nalishlari bo‘yicha	Korxonaning iqtisodiy mazmuni farqlanuvchi biznes yo‘nalishlari alohida boshqariladi	Chakana savdo, ulgurji savdo, elektron savdo
4	Geografik hududlar bo‘yicha	Faoliyat turli mamlakatlar yoki hududlar kesimida boshqariladi va natijalar alohida kuzatiladi	O‘zbekiston, Markaziy Osiyo, Yevropa bozori
5	Ishlab chiqarish jarayonlari bo‘yicha	Ishlab chiqarish xususiyati va texnologik jarayonlari farqlanuvchi faoliyatlar alohida boshqariladi	Qazib olish, qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish
6	Xaridorlar turi yoki toifasi bo‘yicha	Turli iste’molchi guruhlariga xizmat qiluvchi faoliyat yo‘nalishlari alohida boshqariladi	Jismoniy shaxslar, korporativ mijozlar, davlat tashkilotlari
7	Mahsulotni tarqatish yoki xizmat ko‘rsatish usullari bo‘yicha	Sotish va xizmat ko‘rsatish kanallarining iqtisodiy xususiyatlari farqlanadi	An’anaviy savdo, onlayn savdo, distribyutorlik

[34] Muallif ishlanmasi

8	Tartibga solish muhiti bo‘yicha	Faoliyat yo‘nalishlari turli tartibga solish talablariga bo‘ysunadi	Bank, sug‘urta, kommunal xizmatlar
9	Tashkiliy boshqaruv tuzilmasi bo‘yicha	Rahbariyat muayyan bo‘linma yoki faoliyat yo‘nalishi natijalarini alohida ko‘rib chiqadi	Filiallar, biznes birliklari, divizionlar
10	Omillar kombinatsiyasi bo‘yicha	Segmentlar bitta mezon emas, bir nechta mezonning kombinatsiyasi asosida shakllantiriladi	“Chakana savdo – O‘zbekiston”, “Onlayn savdo – xalqaro bozor”

Jumladan, 8-son MHXSda mahsulot va xizmatlarning xususiyati, ishlab chiqarish jarayonlari, xaridorlarning turi yoki sinfi, mahsulotlarni tarqatish va xizmatlarni ko‘rsatish usullari hamda tartibga solish muhitining xususiyati o‘xshash operatsion segmentlarni birlashtirishda e’tiborga olinadigan mezonlar sifatida belgilangan. Shuning uchun segmentatsiyaning muayyan mezonini tanlash tashkilotning real boshqaruv amaliyotini aks ettirishi, operatsion qarorlar qabul qilish jarayonida foydalaniladigan axborot bilan muvofiqlashishi va alohida segmentlarning iqtisodiy natijalarini obyektiv baholash imkonini berishi lozim. Bunday yondashuv segmentar hisobotning tashkilotning haqiqiy biznes tuzilmasi va iqtisodiy faoliyatini aks ettirish darajasini oshiradi.

Segmentar hisobot sifatini obyektiv baholash uning faqat axborotni oshkor qilish hajmini aniqlash bilan cheklanmasdan, mazkur axborotning tafsilotlarga ajratilishi, segmentlar o‘rtasidagi iqtisodiy farqlanish, davrlar bo‘yicha izchillik va qiyoslanuvchanlik, moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari bilan muvofiqlashtirilishi, muhim axborotni qamrab olish darajasi hamda 8-son MHXS talablariga muvofiqligini kompleks o‘rganishni talab etadi. Standartda hisobot segmentlarini aniqlashda foydalanilgan omillar va segmentlarni birlashtirish bo‘yicha rahbariyat mulohazalarini oshkor qilish nazarda tutilgan bo‘lib, bu segmentar axborotning shaffofligini baholash uchun muhim asos yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, segmentar hisobot sifatini baholashda miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini o‘zaro uyg‘unlashtirgan ko‘p mezonli yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq. Shunga asoslanib, segmentar hisobot axborotining sifatini kompleks baholash imkonini beruvchi

takomillashtirilgan ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi va quyidagi jadvalda keltirildi.

2.2-jadval

Segmentar hisobot axboroti sifatini baholashning asosiy yo‘nalishlari va ko‘rsatkichlari[35]

Baholash ko‘rsatkichlari	Ta’rifi va o‘lchash mazmuni	Belgilanishi
Axborot miqdori		
Segmentar axborotni oshkor qilish indeksi	Segmentlarga oid izohlarda amalda oshkor qilingan axborot elementlarining baholash mezonida nazarda tutilgan jami elementlarga nisbati	**Qnty**
Moliyaviy ko‘rsatkichlarning to‘liqligi	Tushum, foyda/zarar, aktivlar, majburiyatlar va boshqa moliyaviy ko‘rsatkichlarning qay darajada to‘liq berilganligini baholaydi	**Fin-Compl**
Nomoliyaviy axborotning to‘liqligi	Segment tavsifi, mahsulot va xizmatlar, geografik faoliyat va segmentlarni aniqlash asoslari kabi axborotlarni qamrab oladi	**NonFin-Compl**
Tafsilotlarga ajratish		
Umumiy tafsilotlarga ajratish indeksi	Segment axborotining umumlashtirilgan emas, alohida iqtisodiy komponentlar bo‘yicha berilish darajasi	**Disagg**
Geografik tafsilotlarga ajratish	Tushum va tegishli ko‘rsatkichlarning mamlakatlar yoki geografik hududlar bo‘yicha ajratilish darajasi	**G-Disagg**
Faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha tafsilotlarga ajratish	Alohida biznes segmentlari tushumlarining konsentratsiyasi/tarqoqligini Herfindal yondashuvi asosida baholash	**B-Disagg**
Mahsulot va xizmatlar bo‘yicha tafsilotlash	Tashqi tushumlarning mahsulot va xizmat turlari yoki ularning guruhlari bo‘yicha ochib berilish darajasi	**P-Disagg**
Segmentlararo iqtisodiy farqlanish		
Rentabellikning standart og‘ishi	Segmentlar bo‘yicha aktivlar rentabelligi (ROA) ko‘rsatkichlarining standart og‘ishi	**Variab**
Tushum o‘sishining o‘zgaruvchanligi	Segmentlar tushumining o‘sish sur’atlari o‘rtasidagi farqlanish darajasini ifodalaydi	**Rev-Var**

[35] Muallif ishlanmasi

Foyda marjasi farqlanishi	Segmentlarning foyda marjalari o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutni baholaydi	**Margin-Var**
Izchillik		
Tuzilmaviy izchillik	Segmentlar tarkibi va taqdim etish tuzilmasining davrlar bo‘yicha saqlanishini baholaydi	**Consst**
O‘lchash usullarining izchilligi	Segment foydasi, aktivlari va boshqa ko‘rsatkichlarni baholash usullarining davrlar bo‘yicha barqarorligini ko‘rsatadi	**Meas-Cons**
Qiyoslanuvchanlik		
Davrlararo qiyoslanuvchanlik	Joriy va oldingi davr segment ko‘rsatkichlarini bevosita taqqoslash imkoniyatini baholaydi	**T-Comp**
Qayta hisoblangan qiyosiy axborot	Segmentlar tarkibi o‘zgarganda oldingi davr ma’lumotlarining yangi tuzilishga muvofiq qayta hisoblanganligini baholaydi	**Restate**
Muvofiqlashtirish va ishonchlilik		
Tushumlarni solishtirish darajasi	Segmentlar jami tushumi bilan tashkilotning umumiy tushumi o‘rtasidagi solishtirishning mavjudligi va to‘liqligi	**Rev-Rec**
Foyda yoki zararni solishtirish	Segmentlar jami foyda/zarari bilan tashkilotning tegishli umumiy moliyaviy natijasi o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatadi	**Profit-Rec**
Aktiv va majburiyatlarni solishtirish	Oshkor qilingan hollarda segment aktivlari va majburiyatlarining tashkilot ko‘rsatkichlari bilan solishtirilishini baholaydi	**BS-Rec**
Muhimlik va axborot qamrovi		
Hisobot segmentlarining tushum qamrovi	Hisobot segmentlariga tegishli tashqi tushumlarning tashkilot jami tashqi tushumidagi ulushi	**Cov-75**
Yirik xaridorlar konsentratsiyasi	Jami tushumning 10 foizi yoki undan ko‘prog‘ini shakllantiruvchi asosiy xaridorlar bo‘yicha talab etilgan axborotning oshkor qilinishini baholaydi	**Cust-10**
MHXS 8 talablariga muvofiqlik		
Segmentni aniqlash shaffofligi	Hisobot segmentlarini aniqlashda qo‘llanilgan omillar va tashkiliy asoslarning tushuntirilish darajasi	**Seg-Trans**
Segmentlarni birlashtirish shaffofligi	Operatsion segmentlarni birlashtirishda qo‘llanilgan mulohazalar va iqtisodiy o‘xshashliklarning asoslanganligini baholaydi	**Agg-Trans**

Baholash asoslarini oshkor qilish	Segment foydasi/zarari, aktivlari va majburiyatlarini baholash hamda segmentlararo operatsiyalarni hisobga olish asoslarining ochiqligi	**Meas-Disc**
Yig‘ma sifat indeksi	Yuqoridagi normallashtirilgan ko‘rsatkichlarni tegishli vaznlar asosida umumlashtirish orqali segmentar hisobotning umumiy sifatini baholaydi	**SR-Qlty**

Jadvalda taklif etilgan ko‘rsatkichlar tizimi segmentar hisobot sifatini bir-biri bilan uzviy bog‘langan sakkizta asosiy o‘lchov yo‘nalishi bo‘yicha baholash imkonini beradi. Birinchi yo‘nalish - axborot miqdori segmentlarga oid moliyaviy va nomoliyaviy ma’lumotlarning to‘liqligini; ikkinchi yo‘nalish - tafsilotlarga ajratish axborotning geografik hududlar, faoliyat yo‘nalishlari, mahsulot va xizmatlar kesimida qay darajada batafsil taqdim etilganligini; uchinchi yo‘nalish - segmentlararo iqtisodiy farqlanish segmentlarning rentabelligi, tushum o‘sishi va foyda marjasi o‘rtasidagi tafovutlarni; to‘rtinchi va beshinchi yo‘nalishlar esa axborotning izchilligi va qiyoslanuvchanligini tavsiflaydi.

Bunday yondashuv 8-son MHXSning mahsulot va xizmatlar bo‘yicha tushumlarni oshkor qilish hamda geografik hududlar kesimida tegishli ma’lumotlarni taqdim etish talablariga hamohangdir. Shu bilan birga, tuzilmaviy izchillik va qayta hisoblash ko‘rsatkichlarining kiritilishi segmentlar tarkibi o‘zgargan sharoitda ham turli hisobot davrlari ma’lumotlarining qiyoslanuvchanligini baholashga xizmat qiladi. Standart ham ichki tuzilma o‘zgarishi natijasida hisobot segmentlari tarkibi o‘zgarganda, tegishli shartlar asosida oldingi davr segment ma’lumotlarini qayta hisoblashni talab qiladi. Taklif etilayotgan tizimning muhim jihati shundaki, unda segmentar axborotning hajmi va tarkibi bilan bir qatorda uning ishonchliligi, muvofiqlashtirilishi, muhimlik darajasi va 8-son MHXS talablariga muvofiqligi ham baholash obyektiga aylantiriladi. Jumladan, segmentlar tushumi, foydasi yoki zarari, aktivlari va majburiyatlarini tashkilotning tegishli umumiy moliyaviy ko‘rsatkichlari bilan solishtirishga asoslangan Rev-Rec, Profit-Rec va BS-Rec ko‘rsatkichlari segmentar ma’lumotlarning umumiy moliyaviy hisobot bilan bog‘liqligini baholash imkonini beradi; standartda ham tegishli solishtirishlarni amalga oshirish va muhim farqlarni tushuntirish

talab etilgan. Cov-75 va Cust-10 ko‘rsatkichlari esa segmentar axborotning muhimlik va qamrov darajasini tavsiflaydi, chunki 8-son MHXS hisobot segmentlarining tashqi tushumi tashkilot tushumining kamida 75 foizini qamrab olishini hamda bitta tashqi xaridordan olinadigan tushum jami tushumning 10 foizi yoki undan ko‘prog‘ini tashkil etganda tegishli ma’lumotlar oshkor qilinishini belgilaydi. Natijada mazkur ko‘rsatkichlarni yagona SR-Qlty - segmentar hisobot sifati yig‘ma indeksi doirasida umumlashtirish jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning segmentar hisobotlarini yagona metodik yondashuv asosida baholash, o‘zaro taqqoslash, reytinglash hamda segmentar axborot sifatining o‘zgarish dinamikasini aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqotlarimizda hisob jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan metodologik xavflar diagnostik matritsada birlashtirildi (2.3-jadvalga qarang).

2.3-jadval

Segmentar hisobning diagnostik matritsasi[36]

№	Metodologik xavf	Tekshirish ob’ekti	Taklif etilayotgan yechim
1	Kodlar nomuvofiqligi	Mahsulot va filial nomlari	Yagona S–H klassifikatori
2	Manba bilan aloqa uzilishi	Hujjatdan hisobotga o‘tish	Operatsiya identifikatori
3	Xarajatlarni asossiz taqsimlash	Umumiy baza va drayverlar	Differensial taqsimlash
4	Majburiyatning noto‘g‘ri mansubligi	Shartnoma, portfel va segment	Guruhlarni bog‘lash jadvali
5	Ichki aylanmalar takrori	Ikki tomonlama yozuvlar	Qarshi segment va eliminatsiya
6	Ichki va tashqi farq izohsizligi	Transformatsiya tuzatishlari	Muvofiqlashtirish vedomosti
7	Sifatning sub’ektiv bahosi	Mezon, ball va dalil	SR-Qlty nazorat kartasi

Matritsadagi holatlar kompaniyada audit orqali tasdiqlangan qoidabuzarliklar ro‘yxati emas. Ular amaldagi tizimni o‘rganishda

[36] Муаллиф ишланмаси

tekshiriladigan xavflar va tegishli nazorat savollaridir. Masalan, «yagona kod mavjud emas» degan xulosa chiqarishdan oldin shartnoma ma’lumotlari, filial klassifikatori va hisobot registrlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tekshirilishi zarur. Tekshirish tartibi operatsiyadan hisobotga va hisobotdan operatsiyaga qarab ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi. Birinchi yo‘nalish ma’lumotning to‘liq kiritilganini, ikkinchi yo‘nalish esa hisobotdagi summaning manba bilan asoslanganini baholashga xizmat qiladi. Aniqlangan farqlar tasnif xatosi, baholash farqi, davrlar kesimi yoki texnik takrorlanish sabablari bo‘yicha guruhlanadi.

Ishimizda segmentar hisobot sifatini baholash uchun SR-Qlty integral indeksi taklif etildi. U sakkizta yo‘nalish bo‘yicha normallashtirilgan ballarni vaznlashga asoslanadi. Har bir mezon bo‘yicha dalillar ro‘yxati tuzildi, talabning bajarilishi baholanadi va natija 0 dan 1 gacha bo‘lgan shkalaga o‘tkazildi.

$$\mathbf{SR-Qlty} = \sum \mathbf{w_i z_i}$$

$$\mathbf{\Sigma w_i = 1, \quad 0 \le z_i \le 1.}$$

Bunda w_i — mezonning vazni; z_i — mezon bo‘yicha ball.

Bir mezon bir nechta tekshirish savolidan iborat bo‘lsa, ball bajarilgan talablar yig‘indisini qo‘llaniladigan talablar yig‘indisiga nisbatan hisoblash orqali aniqlanadi. Qo‘llanilmaydigan talablar sababi hujjatlashtiriladi, ularni asossiz chiqarish orqali indeksni oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

6-jadvalda keltirilgan isob-kitobda bazaviy indeks 0,6390, takomillashtirilgan shartli ssenariyda esa 0,9301 ga teng. O‘sish 0,2911 indeks birligi, ya’ni 29,11 foiz punktni tashkil etdi. Bu farq haqiqiy joriy etish samarasi emas, berilgan ballar va vaznlar asosida hisoblangan ssenariy natijasidir.

Taklif etilayotgan shkala:

$0 \le I < 0{,}55$ - past;

$0{,}55 \le I < 0{,}70$ - o‘rta;

$0{,}70 \le I < 0{,}85$ - yetarli;

$0{,}85 \le I \le 1$ - yuqori sifat.

2.4-jadval

SR-Qlty indeksining hisob-kitobi[37]

№	Sifat mezoni	Vazn	Baza balli	Vaznli baza	Yangi ball	Vaznli yangi
1	Axborot miqdori	0,10	0,70	0,0700	0,95	0,0950
2	Detallashuv	0,12	0,60	0,0720	0,90	0,1080
3	Iqtisodiy farqlanish	0,10	0,55	0,0550	0,90	0,0900
4	Izchillik	0,10	0,75	0,0750	0,95	0,0950
5	Qiyoslanuvchanlik	0,10	0,70	0,0700	0,90	0,0900
6	Muvofiqlashtirish va ishonchlilik	0,15	0,55	0,0825	0,95	0,1425
7	Muhimlik va qamrov	0,13	0,65	0,0845	0,92	0,1196
8	8-son MHXSga muvofiqlik	0,20	0,65	0,1300	0,95	0,1900
9	Jami	1,00	—	0,6390	—	0,9301

Chegaralar va vaznlar bizning mualliflik metodik taklifimizdir, uni biz ekspert baholash va sezgirlik tahlili bilan asosladik. Indeksning yuqori bo‘lishi standartning muhim talabi bajarilmaganini oqlamaydi, bunday holat alohida qayd etilishi maqsadga muvofiqdir.

SR-Qlty indeksining shartli ssenariylar bo‘yicha o‘zgarishi dinamikasi 2.2-rasmda keltirilgan. Ushbu rasmdagi shartli o‘zgarishni to‘g‘ri talqin qilish uchun indeksning qaysi komponentlari yaxshilanganini aniqlash zarur. Muvofiqlashtirish va ishonchlilikning o‘sishi hisobot raqamlarining manba bilan bog‘lanishini, detallashuvning o‘sishi esa segmentlar o‘rtasidagi muhim farqlarning ochilishini ifodalaydi.



2.2-rasm. SR-Qlty indeksining shartli ssenariylar bo‘yicha o‘zgarishi[38]

[37] Muallif ishlanmasi
[38] Muallif ishlanmasi

Segmentar axborot sifatini baholash tashkilot moliyaviy hisobotining shaffofligi, axborotning foydalanuvchilar uchun foydaliligi hamda alohida faoliyat yo‘nalishlarining iqtisodiy natijalarini obyektiv aks ettirish darajasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. 8-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (MHXS) “Operatsion segmentlar”ning asosiy tamoyiliga ko‘ra, tashkilot moliyaviy hisobot foydalanuvchilariga o‘zi shug‘ullanayotgan tijorat faoliyatining mohiyati va moliyaviy ta’sirini, shuningdek, faoliyat yuritayotgan iqtisodiy muhitni baholash imkonini beradigan axborotni oshkor qilishi lozim. Shu sababli segmentar axborot sifatini baholashda faqat oshkor qilingan ma’lumotlarning mavjudligi yoki miqdorini emas, balki ularning to‘liqligi, tafsilotlarga ajratilganlik darajasi, muhimligi, izchilligi, qiyoslanuvchanligi, segmentlararo iqtisodiy farqlarni aks ettirishi, umumiy moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari bilan muvofiqlashtirilishi hamda standart talablariga muvofiqligini kompleks mezonlar asosida o‘rganish zarur. Bunday ko‘p mezonli baholash segmentar hisobotning axborot imkoniyatlarini miqdoriy va sifat jihatdan tavsiflash, turli tashkilotlar hamda hisobot davrlari kesimida qiyosiy tahlilni amalga oshirish va yakunda segmentar axborot sifatining integral ko‘rsatkichini shakllantirish uchun metodologik asos yaratadi.

2.5-jadval

Segmentar axborot sifatini kompleks baholash mezonlari tizimi[39]

№	Segmentar axborot sifatini baholash mezoni	Baholash mazmuni	Manba	Talab xususiyati
A	**SEGMENTLARNI ANIQLASH VA UMUMIY AXBOROT**			
1	Hisobot segmentlarini aniqlashda foydalanilgan omillar	Mahsulot, xizmat, geografiya, tartibga solish muhiti yoki omillar kombinatsiyasining tavsifi	8-son MHXS, 22(a)	Majburiy
2	Operatsion segmentlarni birlashtirish to‘g‘risidagi axborot	Birlashtirilgan segmentlar va rahbariyat mulohazalarining tavsifi	8-son MHXS, 22(aa)	Tegishli bo‘lsa

[39] Muallif ishlanmasi

3	Birlashtirilgan segmentlarning iqtisodiy o‘xshashligini asoslash	Iqtisodiy xususiyatlarning o‘xshashligini baholashda foydalanilgan ko‘rsatkichlar	8-son MHXS, 22(aa)	Tegishli bo‘lsa
4	Segment mahsulotlari va xizmatlari tavsifi	Har bir hisobot segmentiga tushum keltiruvchi mahsulot va xizmatlar	8-son MHXS, 22(b)	Majburiy
B	**SEGMENT TUSHUMLARI**			
5	Tashqi xaridorlardan tushum	Har bir segmentning tashqi xaridorlardan olgan tushumi	8-son MHXS, 23(a)	Shartli*
6	Segmentlararo tushum	Boshqa operatsion segmentlar bilan operatsiyalardan tushum	8-son MHXS, 23(b)	Shartli*
7	Segmentlararo operatsiyalarni hisobga olish asoslari	Ichki operatsiyalarni baholash va hisobga olish tamoyillari	8-son MHXS, 27(a)	Majburiy
8	Foiz tushumlari	Segmentga tegishli foiz daromadlari	8-son MHXS, 23(c)	Shartli*
9	Foiz xarajatlari	Segmentga tegishli foiz xarajatlari	8-son MHXS, 23(d)	Shartli*
10	Sof foiz tushumi	Moliyaviy faoliyat xususiyatiga ko‘ra sof asosda taqdim etilgan foiz natijasi	8-son MHXS, 23-band	Shartli
C	**SEGMENT MOLIYAVIY NATIJALARI**			
11	Segment foydasi yoki zarari	Har bir hisobot segmentining asosiy moliyaviy natijasi	8-son MHXS, 23	Majburiy
12	Qo‘shimcha foyda ko‘rsatkichlari	Operatsion foyda, soliqqacha foyda va boshqa rahbariyat foydalanadigan natijalar	Tadqiqot mezoni	Qo‘shimcha
13	Eskirish va amortizatsiya	Segment natijasiga tegishli amortizatsiya xarajatlari	8-son MHXS, 23(e)	Shartli*
14	Muhim daromad va xarajat moddalari	Moliyaviy natijani tushunish uchun muhim moddalar	8-son MHXS, 23(f)	Shartli*

15	Assotsiatsiyalashgan va qo‘shma korxonalar foyda/zararidagi ulush	Ulushli ishtirok usulida hisobga olingan natija	8-son MHXS, 23(g)	Shartli*
16	Foyda solig‘i xarajati yoki daromadi	Segmentga tegishli soliq natijasi	8-son MHXS, 23(h)	Shartli*
17	Muhim pulsiz moddalar	Amortizatsiyadan tashqari muhim pulsiz xarajat va daromadlar	8-son MHXS, 23(i)	Shartli*
18	Operatsion xarajatlar	Segmentning asosiy faoliyat xarajatlari	Tadqiqot mezoni	Qo‘shimcha
19	Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar xarajatlari	Segment kesimida innovatsion faoliyat xarajatlari	Tadqiqot mezoni	Qo‘shimcha
D	**SEGMENT AKTIVLARI VA INVESTITSIYALARI**			
20	Segment jami aktivlari	Rahbariyatga muntazam taqdim etiladigan segment aktivlari	8-son MHXS, 23	Shartli
21	Assotsiatsiyalashgan va qo‘shma korxonalarga investitsiyalar	Ulushli ishtirok usulida hisobga olingan investitsiyalar	8-son MHXS, 24(a)	Shartli*
22	Uzoq muddatli aktivlarga kirimlar	Hisobot davrida segmentga tegishli uzoq muddatli aktivlar ko‘payishi	8-son MHXS, 24(b)	Shartli*
23	Joriy aktivlar	Segmentning qisqa muddatli aktivlari	Tadqiqot mezoni	Qo‘shimcha
24	Uzoq muddatli aktivlar	Segmentga tegishli uzoq muddatli aktivlar tarkibi	Tadqiqot mezoni	Qo‘shimcha
25	Nomoddiy aktivlar	Segment bo‘yicha nomoddiy resurslar	Tadqiqot mezoni	Qo‘shimcha
26	Kapital qo‘yilmalar	Segmentning investitsion faolligini tavsiflovchi kapital xarajatlar	MHXS 8, 24(b) asosida	Shartli
E	**SEGMENT MAJBURIYATLARI VA MOLIYALASHTIRISH**			
27	Segment jami majburiyatlari	Rahbariyatga muntazam taqdim etilsa segment majburiyatlari	8-son MHXS, 23	Shartli
28	Joriy majburiyatlar	Segmentning qisqa muddatli majburiyatlari	Tadqiqot mezoni	Qo‘shimcha
29	Uzoq muddatli majburiyatlar	Segmentning uzoq muddatli majburiyatlari	Tadqiqot mezoni	Qo‘shimcha
30	Qarz mablag‘lari	Segmentga tegishli foizli qarzlar	Tadqiqot mezoni	Qo‘shimcha
F	**BAHOLASH VA SOLISHTIRISHLAR**			

31	Segment foydasini baholash asoslari	Segment natijasini hisoblashda foydalanilgan usullar	8-son MHXS, 27	Majburiy
32	Segment aktivlarini baholash asoslari	Segment aktivlarini aniqlash va taqsimlash yondashuvlari	8-son MHXS, 27	Tegishli bo‘lsa
33	Segment majburiyatlarini baholash asoslari	Majburiyatlarni segmentlarga taqsimlash yondashuvlari	8-son MHXS, 27	Tegishli bo‘lsa
34	Baholash usullaridagi o‘zgarishlar	Oldingi davrga nisbatan o‘zgarish va uning ta’siri	8-son MHXS, 27(e)	Tegishli bo‘lsa
35	Nomutanosib taqsimlashlar	Xarajat, aktiv yoki majburiyatlarning nomutanosib taqsimlanishi	8-son MHXS, 27(f)	Tegishli bo‘lsa
36	Segment tushumlarini tashkilot tushumi bilan solishtirish	Segmentlar jami tushumining tashkilot tushumiga muvofiqlashtirilishi	8-son MHXS, 28(a)	Majburiy
37	Segment foydasini tashkilot foydasi bilan solishtirish	Segment natijalarining tashkilot umumiy natijasiga bog‘lanishi	8-son MHXS, 28(b)	Majburiy
38	Segment aktivlarini tashkilot aktivlari bilan solishtirish	Segment aktivlarining umumiy aktivlarga muvofiqlashtirilishi	8-son MHXS, 28(c)	Shartli
39	Segment majburiyatlarini tashkilot majburiyatlari bilan solishtirish	Segment majburiyatlarining umumiy majburiyatlarga muvofiqlashtirilishi	8-son MHXS, 28(d)	Shartli
40	Boshqa muhim segment moddalarini solishtirish	Muhim segment ko‘rsatkichlarini tashkilot ko‘rsatkichlari bilan bog‘lash	8-son MHXS, 28(e)	Tegishli bo‘lsa
G	**QIYOSLANUVCHANLIK VA IZCHILLIK**			
41	Oldingi davr ma’lumotlarini qayta hisoblash	Segment tarkibi o‘zgarganda qiyosiy ma’lumotlarni yangi tuzilishga moslashtirish	8-son MHXS, 29	Tegishli bo‘lsa
42	Segment tarkibidagi o‘zgarishlarni oshkor qilish	Segmentatsiya asosining o‘zgarganligi to‘g‘risida axborot	8-son MHXS, 29–30	Tegishli bo‘lsa
43	Yangi va eski segmentatsiya asosida axborot	Qayta hisoblash amalga oshirilmaganda ikki asosdagi ma’lumot	8-son MHXS, 30	Tegishli bo‘lsa
H	**TASHKILOT MIQYOSIDAGI AXBOROT**			

44	Mahsulot va xizmatlar bo‘yicha tashqi tushum	Mahsulot va xizmatlar yoki ularning o‘xshash guruhlari bo‘yicha tushum	8-son MHXS, 32	Majburiy
45	Tashkilot joylashgan mamlakatdagi tushum	Mahalliy bozordan olingan tashqi tushum	8-son MHXS, 33(a)	Majburiy
46	Xorijiy mamlakatlar bo‘yicha tushum	Xorijiy hududlardan olingan tashqi tushum	8-son MHXS, 33(a)	Majburiy
47	Muhim xorijiy mamlakatlar bo‘yicha tushum	Muhim bo‘lgan mamlakatlar alohida ko‘rsatilishi	8-son MHXS, 33(a)	Tegishli bo‘lsa
48	Mahalliy uzoq muddatli aktivlar	Tashkilot joylashgan mamlakatdagi tegishli uzoq muddatli aktivlar	8-son MHXS, 33(b)	Majburiy
49	Xorijiy uzoq muddatli aktivlar	Xorijiy mamlakatlarda joylashgan tegishli uzoq muddatli aktivlar	8-son MHXS, 33(b)	Majburiy
50	Yirik xaridorlar to‘g‘risidagi axborot	Bitta xaridor tushumi jami tushumning ≥10% bo‘lganda tegishli axborot	8-son MHXS, 34	Tegishli bo‘lsa
I	**QO‘SHIMCHA TAHLILIY SIFAT KO‘RSATKICHLARI**			
51	Segmentlar bo‘yicha xodimlar soni	Segmentlarning mehnat resurslari sig‘imini tavsiflaydi	Gray va boshqalar (1995)	Qo‘shimcha
52	Segment rentabelligi	ROA, ROS yoki boshqa rentabellik koeffitsiyentlari	Gray va boshqalar (1995)	Qo‘shimcha
53	Ishlab chiqarish hajmi	Segmentning natural birliklardagi faoliyat ko‘lami	Gray va boshqalar (1995)	Qo‘shimcha
54	Segment bo‘yicha pul mablag‘lari	Segmentning likvid resurslari	Street va boshqalar (2002)	Qo‘shimcha
55	Operatsion pul oqimi	Segment faoliyatidan hosil bo‘lgan pul oqimlari	Street va boshqalar (2002)	Qo‘shimcha
56	Investitsion pul oqimi	Segmentning investitsiya faoliyati pul oqimlari	Street va boshqalar (2002)	Qo‘shimcha
57	Moliyaviy pul oqimi	Segmentning moliyalashtirish faoliyati pul oqimlari	Street va boshqalar (2002)	Qo‘shimcha

58	Segment tushumining o‘sish sur’ati	Segmentning davrlar bo‘yicha iqtisodiy o‘sishini baholaydi	Taklif	Qo‘shimcha
59	Segment foyda marjasi	Segment foydasining uning tushumiga nisbati	Taklif	Qo‘shimcha
60	Segment aktivlari rentabelligi	Segment foydasining segment aktivlariga nisbati	Taklif	Qo‘shimcha
61	Segmentlararo rentabellik tafovuti	Segmentlar iqtisodiy natijalarining bir-biridan farqlanish darajasi	Taklif	Qo‘shimcha
62	Segment tushumlari konsentratsiyasi	Tushumning alohida segmentlarda to‘planish darajasi	Taklif	Qo‘shimcha
63	Geografik diversifikatsiya	Tushum va aktivlarning hududlar bo‘yicha tarqalish darajasi	Taklif	Qo‘shimcha
64	Segment axborotining davrlararo izchilligi	Segment tuzilmasi va ko‘rsatkichlarining vaqt davomida qiyoslanuvchanligi	Taklif	Qo‘shimcha
65	Segmentar axborotni oshkor qilishning umumiy indeksi	Barcha tegishli mezonlarning bajarilish darajasini umumlashtiruvchi indeks	Taklif	Yig‘ma mezon

Jadvalda segmentar axborot sifatini baholash mezonlari tizimlashtirilib, ular segmentlarni aniqlash va ular to‘g‘risidagi umumiy axborot, segment tushumlari, moliyaviy natijalar, aktivlar va investitsiyalar, majburiyatlar va moliyalashtirish, ko‘rsatkichlarni baholash va o‘zaro solishtirish, qiyoslanuvchanlik va izchillik, tashkilot miqyosidagi axborot hamda qo‘shimcha tahliliy ko‘rsatkichlar kabi yo‘nalishlarga ajratildi. Mazkur yondashuv segmentar hisobot sifatini faqat oshkor qilingan axborot elementlari soni orqali emas, balki ularning mazmuni, to‘liqligi, tafsilotlarga ajratilishi va moliyaviy hisobotning umumiy ko‘rsatkichlari bilan bog‘liqligi nuqtayi nazaridan ham baholash imkonini beradi. Xususan, 8-son MHXS segmentlar bo‘yicha tushum, foyda yoki zarar, aktivlar va majburiyatlarga oid tegishli axborotlarni taqdim etish bilan bir qatorda, segment ko‘rsatkichlarini tashkilotning tegishli umumiy ko‘rsatkichlari bilan solishtirishni ham nazarda tutadi. Shu jihatdan jadvalda mezonlarning mazmuniy bloklarga ajratilishi segmentar axborotning shakllanishidan boshlab uning yakuniy moliyaviy

hisobotda oshkor qilinishigacha bo‘lgan jarayonni kompleks baholashga xizmat qiladi.

Takomillashtirilgan mezonlar tizimining yana bir muhim jihati 8-son MHXSning bevosita talablarini ilmiy adabiyotlarda shakllantirilgan qo‘shimcha ko‘rsatkichlar va mualliflik mezonlari bilan uyg‘unlashtirilganligidir. Standart mahsulot va xizmatlar, geografik hududlar hamda yirik xaridorlar bo‘yicha tashkilot miqyosidagi axborotlarni oshkor qilishni nazarda tutadi. Bunga qo‘shimcha ravishda segmentlar bo‘yicha xodimlar soni, ishlab chiqarish hajmi, pul oqimlari, rentabellik, tushumlarning o‘sish sur’ati, foyda marjasi, segmentlararo rentabellik tafovuti, tushumlar konsentratsiyasi, geografik diversifikatsiya va davrlararo izchillik kabi ko‘rsatkichlarning kiritilishi segmentar axborotning tahliliy imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada taklif etilgan mezonlar asosida har bir ko‘rsatkichning oshkor qilinish darajasini miqdoriy baholash va ularni umumlashtirish orqali segmentar axborot sifatining yig‘ma indeksini (SR-Qlty) shakllantirish mumkin. Bu esa jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning segmentar hisobotlarini yagona metodik asosda baholash, tashkilotlararo taqqoslash va segmentar axborot sifatining vaqt davomida o‘zgarishini aniqlash uchun metodologik asos yaratadi.

Sug‘urta tashkilotlarida segmentar hisobotni shakllantirish boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan o‘ziga xos yondashuvni talab etadi. Bunga sug‘urta xizmatlarining turlari, sug‘urta risklarining xususiyati, qayta sug‘urtalash operatsiyalari, sug‘urta shartnomalari bo‘yicha majburiyatlarning shakllanishi hamda alohida faoliyat yo‘nalishlarining moliyaviy natijalarga turlicha ta’sir ko‘rsatishi sabab bo‘ladi. 8-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (MHXS) “Operatsion segmentlar”ga muvofiq, segmentlar bo‘yicha axborot tashkilot rahbariyati resurslarni taqsimlash va faoliyat natijalarini baholashda foydalanadigan ichki boshqaruv axborotiga asoslanadi. Shu sababli sug‘urta tashkilotida segmentar axborotni shakllantirishda faqat umumiy moliyaviy ko‘rsatkichlarni emas, balki sug‘urta faoliyatining alohida yo‘nalishlari iqtisodiy mazmunini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni ham hisobga olish zarur. Shundan kelib chiqib, sug‘urta tashkilotlari

uchun segmentar axborotni oshkor qilish ko‘rsatkichlarini shakllantirishda 8-son MHXSda belgilangan segment tushumi, foydasi yoki zarari, aktivlari, majburiyatlari, baholash asoslari, geografik axborot va yirik mijozlarga oid talablarni sug‘urta faoliyatiga xos qo‘shimcha tahliliy ko‘rsatkichlar bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq. Standart segment foydasi yoki zarari hamda rahbariyatga muntazam taqdim etiladigan tegishli segment aktivlari, majburiyatlari va boshqa muhim ko‘rsatkichlar haqida axborot berishni nazarda tutadi. Shu asosda sug‘urta xizmatlari tushumi, sug‘urta shartnomalari bo‘yicha majburiyatlar, qayta sug‘urtalash ko‘rsatkichlari, riskni tuzatish, shartnoma bo‘yicha xizmat marjasi, zarar komponenti hamda segment samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni qamrab oluvchi takomillashtirilgan axborot tizimini shakllantirish taklif etiladi.

2.6-jadval

Sug‘urta tashkilotlarida segmentlar bo‘yicha oshkor qilinadigan axborot ko‘rsatkichlari tizimi[40]

№	Ko‘rsatkich	Segmentlar bo‘yicha oshkor qilinadigan axborot
A	**Segment to‘g‘risidagi umumiy axborot**	
1	Segmentni aniqlash asoslari	Sug‘urta segmentlarini ajratishda foydalanilgan omillar va boshqaruv yondashuvi
2	Segment faoliyatining tavsifi	Har bir segmentda ko‘rsatiladigan sug‘urta xizmatlari va mahsulotlari
3	Segmentlarni birlashtirish	Birlashtirilgan segmentlar va ularning iqtisodiy o‘xshashligi
B	**Sug‘urta faoliyati va tushum ko‘rsatkichlari**	
4	Tashqi mijozlardan tushum	Har bir segmentning tashqi mijozlardan olgan tushumi
5	Segmentlararo tushum	Tashkilot segmentlari o‘rtasidagi operatsiyalardan tushum
6	Sug‘urta xizmatlari tushumi	Hayot, umumiy sug‘urta va boshqa belgilangan segmentlar bo‘yicha sug‘urta xizmatlari tushumi
7	Sug‘urta shartnomalari soni	Segment bo‘yicha amaldagi/yangi sug‘urta shartnomalari soni
8	Qayta sug‘urtalash faoliyatiga oid tushum	Qayta sug‘urtalash bilan bog‘liq segment tushumlari

[40] Muallif ishlanmasi

C	Sug‘urta xarajatlari va moliyaviy natija	
9	Segment foydasi yoki zarari	Har bir sug‘urta segmentining moliyaviy natijasi
10	Sug‘urta xizmatlari xarajatlari	Segment bo‘yicha sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlar
11	Yuz bergan sug‘urta hodisalari bo‘yicha xarajatlar	Segmentga tegishli sug‘urta hodisalari va zararlar bilan bog‘liq xarajatlar
12	Operatsion xarajatlar	Segment faoliyatini tashkil etish va yuritish xarajatlari
13	Amortizatsiya va eskirish	Segment natijasiga kiritilgan tegishli amortizatsiya
14	Muhim pulsiz moddalar	Qadrsizlanish va boshqa muhim pulsiz moddalar
15	Foyda solig‘i	Segment natijasiga kiritilgan hollarda soliq xarajatlari/daromadlari
D	**Sug‘urta majburiyatlari va risklar**	
16	Sug‘urta shartnomalari bo‘yicha majburiyatlar	Segmentga tegishli sug‘urta shartnomalari majburiyatlari
17	Qolgan qoplama bo‘yicha majburiyat	Segmentlar kesimida kelgusi sug‘urta xizmatlariga tegishli majburiyatlar
18	Yuz bergan sug‘urta hodisalari bo‘yicha majburiyat	Sodir bo‘lgan sug‘urta hodisalari bilan bog‘liq majburiyatlar
19	Qayta sug‘urta shartnomalari bo‘yicha aktiv/majburiyatlar	Segment risklarining qayta sug‘urtalovchiga berilgan qismiga tegishli ko‘rsatkichlar
20	Riskni tuzatish ko‘rsatkichi	Nomoliyaviy risk bo‘yicha riskni tuzatish summasi
21	Shartnoma bo‘yicha xizmat marjasi	Tegishli sug‘urta segmentida kelgusida tan olinadigan olinmagan foyda
22	Zarar komponenti	Zarar keltiruvchi shartnomalar guruhlariga tegishli zarar komponenti
E	**Aktivlar va investitsiyalar**	
23	Segment jami aktivlari	Rahbariyatga muntazam taqdim etiladigan segment aktivlari
24	Segmentga tegishli investitsion aktivlar	Sug‘urta segmenti faoliyati bilan bog‘langan investitsion aktivlar
25	Uzoq muddatli aktivlarga kirimlar	Hisobot davridagi tegishli uzoq muddatli aktivlar ko‘payishi
F	**Qayta sug‘urtalash ko‘rsatkichlari**	
26	Qayta sug‘urtalashga berilgan risklar	Segment bo‘yicha qayta sug‘urtalash orqali berilgan risklar hajmi
27	Qayta sug‘urtalashdan qoplanadigan zararlar	Qayta sug‘urtalovchilardan olinishi kutilayotgan/tan olingan qoplamalar

28	Qayta sug‘urtalash natijasi	Qayta sug‘urtalash faoliyatining segment bo‘yicha moliyaviy natijasi
G	**Segment samaradorligi va risk ko‘rsatkichlari**	
29	Zarar koeffitsiyenti	Segmentdagi sug‘urta zararlarining tegishli sug‘urta tushumlariga nisbati
30	Xarajatlar koeffitsiyenti	Segment xarajatlarining tegishli faoliyat ko‘rsatkichiga nisbati
31	Kombinatsiyalashgan koeffitsiyent	Zarar va xarajatlar koeffitsiyentlari asosida segment samaradorligini baholash
32	Segment rentabelligi	Segment foydasining tushum yoki aktivlarga nisbati
33	Segmentning jami tushumdagi ulushi	Alohida segment tushumining tashkilot jami tushumiga nisbati
34	Segmentning jami foydadagi ulushi	Segment natijasining tashkilot moliyaviy natijasiga qo‘shgan hissasi
H	**Geografik va mijozlar bo‘yicha axborot**	
35	Hududlar bo‘yicha tushum	O‘zbekiston va xorijiy hududlar kesimida tegishli tushum
36	Hududlar bo‘yicha uzoq muddatli aktivlar	Geografik hududlar kesimida uzoq muddatli aktivlar
37	Yirik mijozlar	Bitta tashqi mijozdan olinadigan tushum jami tushumning 10% yoki undan ko‘p bo‘lganda tegishli axborot
I	**Muvofiqlashtirish va qiyoslanuvchanlik**	
38	Segment tushumlarini muvofiqlashtirish	Segmentlar tushumini sug‘urta tashkilotining umumiy tushumi bilan solishtirish
39	Segment foyda/zararini muvofiqlashtirish	Segment natijalarini tashkilotning umumiy moliyaviy natijasi bilan solishtirish
40	Segment aktivlarini muvofiqlashtirish	Segment aktivlarini tashkilot jami aktivlari bilan solishtirish
41	Segment majburiyatlarini muvofiqlashtirish	Segment majburiyatlarini jami majburiyatlar bilan solishtirish
42	Davrlararo qiyosiy axborot	Segment tarkibi o‘zgarganda oldingi davr ma’lumotlarini qayta hisoblash

Jadvalda sug‘urta tashkilotlarining segmentar axborotini oshkor qilish ko‘rsatkichlari iqtisodiy mazmuniga ko‘ra o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarga tizimlashtirilgan. Jumladan, segment to‘g‘risidagi umumiy axborot, sug‘urta faoliyati va tushum ko‘rsatkichlari, xarajatlar va moliyaviy natijalar, sug‘urta majburiyatlari va risklar, aktivlar va investitsiyalar, qayta sug‘urtalash operatsiyalari, segment samaradorligi,

geografik va mijozlar bo‘yicha axborot hamda ko‘rsatkichlarni o‘zaro muvofiqlashtirish alohida bloklarda aks ettirilgan. Bunday guruhlash segmentar axborotni faqat segment tushumi va foydasi doirasida emas, balki har bir segmentning resurslari, majburiyatlari, risklari va yakuniy iqtisodiy samaradorligi bilan o‘zaro bog‘liq holda baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, segment tushumi, foyda yoki zarar, aktivlar va majburiyatlarni tashkilotning tegishli umumiy ko‘rsatkichlari bilan solishtirish segmentar axborot va moliyaviy hisobot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlaydi. Taklif etilayotgan tizimning muhim jihati 8-son MHXSda belgilangan umumiy segmentar axborot talablarini sug‘urta faoliyatining iqtisodiy xususiyatlarini ifodalovchi qo‘shimcha ko‘rsatkichlar bilan kengaytirishdan iborat. Xususan, sug‘urta xizmatlari tushumi, sug‘urta shartnomalari bo‘yicha majburiyatlar, qolgan qoplama va yuz bergan sug‘urta hodisalari bo‘yicha majburiyatlar, qayta sug‘urtalash natijalari, riskni tuzatish, shartnoma bo‘yicha xizmat marjasi, zarar komponenti, zarar va xarajatlar koeffitsiyentlari hamda segment rentabelligi kabi ko‘rsatkichlarning segmentlar kesimida shakllantirilishi foydalanuvchilarga alohida sug‘urta yo‘nalishlarining moliyaviy holati va natijadorligini chuqurroq baholash imkonini beradi. Mazkur qo‘shimcha ko‘rsatkichlar yuklangan 8-son MHXSda sug‘urta tashkilotlari uchun alohida majburiy segment ko‘rsatkichlari sifatida belgilanmaganligi sababli, ularni sug‘urta tashkilotlarida segmentar axborotning tahliliy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan mualliflik taklifi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Natijada ushbu tizim sug‘urta tashkilotlarida segmentar hisobotning shaffofligi, tahliliy qiymati va boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta’minlash imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

2.2. Segmentlar bo‘yicha buxgalteriya va boshqaruv hisobini tashkil etishning amaldagi holati

Segmentlar bo‘yicha buxgalteriya va boshqaruv hisobini tashkil etish xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining alohida yo‘nalishlari natijadorligini aniqlash, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan

axborotni shakllantirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Faoliyat ko‘lamining kengayishi, mahsulot va xizmatlar turlarining diversifikatsiyalashuvi, geografik bozorlarning ko‘payishi hamda tashkiliy tuzilmaning murakkablashuvi natijasida korxona faoliyatini faqat umumlashtirilgan moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida baholash yetarli bo‘lmay qolmoqda. Bunday sharoitda daromadlar, xarajatlar, aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy natijalarni alohida segmentlar kesimida hisobga olish, ularning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash hamda segmentlarning umumiy faoliyat natijasiga qo‘shgan hissasini baholash zarurati yuzaga keladi. Shu jihatdan segmentlar bo‘yicha buxgalteriya hisobining tegishli tahliliy hisobini shakllantirish va uni boshqaruv hisobi tizimi bilan integratsiyalash segmentar axborotning to‘liqligi, tezkorligi va tahliliy imkoniyatlarini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Segmentlar bo‘yicha buxgalteriya va boshqaruv hisobining amaldagi holatini o‘rganish, avvalo, tashkilotlarda segmentlarni ajratish mezonlari, daromad va xarajatlarni segmentlarga biriktirish tartibi, segmentlararo operatsiyalarni hisobga olish, aktiv va majburiyatlarni taqsimlash, javobgarlik markazlari faoliyatini baholash hamda ichki segmentar hisobotlarni shakllantirish amaliyotini kompleks tahlil qilishni talab etadi. Bunda moliyaviy hisob tashqi foydalanuvchilar uchun segmentlar bo‘yicha ishonchli va qiyoslanuvchan axborotni shakllantirishga xizmat qilsa, boshqaruv hisobi segmentlar faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish, xarajatlarni boshqarish va samaradorlikni baholash uchun batafsil ichki axborotlarni taqdim etadi. Shuning uchun amaldagi hisob tizimini tadqiq etish jarayonida buxgalteriya va boshqaruv hisobida shakllantirilayotgan segmentar axborot o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash, mavjud uslubiy va tashkiliy muammolarni baholash hamda segmentlar kesimida hisob va hisobotning axborot imkoniyatlarini kengaytirish yo‘nalishlarini belgilash alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Hisob siyosati xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini tashkil etish hamda moliyaviy hisobotlarni ishonchli va izchil shakllantirishning muhim uslubiy asoslaridan biri hisoblanadi. U tashkilot

tomonidan xo‘jalik operatsiyalarini tan olish, baholash, guruhlash, hisobvaraqlarda aks ettirish hamda moliyaviy hisobotlarda axborotlarni taqdim etishda qo‘llaniladigan aniq tamoyillar, usullar va qoidalar majmuini ifodalaydi. Hisob siyosatining puxta ishlab chiqilishi moliyaviy axborotning taqqoslanuvchanligi va ishonchliligini ta’minlash, tashkilot faoliyatining iqtisodiy mazmunini to‘g‘ri aks ettirish hamda manfaatdor foydalanuvchilarning asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilishi uchun zarur axborot bazasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, hisob siyosatini milliy va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablari asosida shakllantirish va uni tashkilot faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq muntazam takomillashtirib borish zamonaviy buxgalteriya hisobi tizimining muhim vazifalaridan biri sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini xalqaro talablarga yaqinlashtirish doirasida 2-son Moliyaviy hisobotning milliy standarti (MHMS) “Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash asoslari: hisob siyosati va hisob baholari” qabul qilinishi hisob siyosatini shakllantirishning yangi uslubiy asoslarini belgilab berdi. Mazkur standart O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2026-yil 11-aprelda 3810-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan bo‘lib, 2027-yil 1-yanvardan kuchga kiradi. Standartda hisob siyosati tashkilot tomonidan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishda qo‘llaniladigan aniq tamoyillar, asoslar, umumqabul qilingan shartlar, qoidalar va amaliy yondashuvlar majmuasi sifatida belgilangan. Shuningdek, standart hisob siyosatini tanlash va qo‘llash bilan bir qatorda, hisob siyosati va hisob baholaridagi o‘zgarishlar hamda oldingi davrlarda yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatish tartibini ham yagona uslubiy tizimga birlashtiradi. Buning asosiy maqsadi moliyaviy hisobotlarning o‘rinliligi va ishonchliligini, shuningdek, turli hisobot davrlari hamda tashkilotlar o‘rtasidagi qiyoslanuvchanligini oshirishdan iborat.

2-son MHMSning muhim jihatlaridan biri hisob siyosatini shakllantirishda tashkilotga mutlaq erkinlik berilmasligi, balki uning MHMS talablariga asoslangan holda tanlanishi lozimligidir. Xususan, muayyan xo‘jalik operatsiyasiga nisbatan alohida MHMS talabi mavjud bo‘lsa, ushbu obyekt bo‘yicha hisob siyosati tegishli standart asosida

belgilanadi. Agar muayyan operatsiyani hisobga olishni bevosita tartibga soluvchi MHMS mavjud bo‘lmasa, tashkilot rahbariyati professional mulohazadan foydalanib, foydalanuvchilarning iqtisodiy qarorlari uchun o‘rinli va ishonchli axborot shakllanishini ta’minlaydigan hisob siyosatini ishlab chiqishi lozim. Bunda moliyaviy axborot tashkilotning moliyaviy holati, faoliyat natijalari va pul oqimlarini haqqoniy aks ettirishi, operatsiyalarning faqat yuridik shaklini emas, balki iqtisodiy mohiyatini ifodalashi, xolis, ehtiyotkorlik tamoyiliga muvofiq va barcha muhim jihatlari bo‘yicha to‘liq bo‘lishi talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, yangi MHMS talablari hisob siyosatini oddiy ichki tashkiliy hujjatdan moliyaviy hisobotlarning sifati, shaffofligi va qiyoslanuvchanligini ta’minlovchi muhim metodologik vositaga aylantiradi.

Biz tadqiqotimiz davomida “O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJning 2025-yil uchun hisob siyosatini o‘rganib chiqdik, o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, hujjat kompaniyada buxgalteriya hisobini tashkil etishning tashkiliy, uslubiy va texnik jihatlarini yagona tizimga birlashtirgan ichki me’yoriy hujjat sifatida shakllantirilgan. Hisob siyosatining tarkibida kirish qismi, buxgalteriya hisobini tashkil etish, moliyaviy hisobotni shakllantirishning asosiy yondashuvlari, moliyaviy hisobotning metodik bo‘limi, buxgalteriya hisobi tamoyillari, aktivlar, xususiy kapital, sug‘urta rezervlari, majburiyatlar, daromadlar, xarajatlar va balansdan tashqari hisobvaraqlarni yuritish tartibi alohida bo‘limlarda yoritilgan. Hujjatda hisob yuritish bosh buxgalter boshchiligidagi buxgalteriya xizmati zimmasiga yuklatilgan, kompaniya va uning hududiy filiallari uchun yagona hisob siyosati qo‘llanishi belgilangan. Buxgalteriya hisobini yuritishda ishchi hisobvaraqlar rejasi, birlamchi hujjatlar, hisob registrlari va moliyaviy hisobot shakllari o‘zaro bog‘langan holda qo‘llaniladi. Shu bilan birga, hujjatning metodik qismi aktiv va majburiyatlarni tan olish, baholash, inventarizatsiya qilish, daromad va xarajatlarni hisobga olish, moliyaviy natijani shakllantirish kabi jarayonlarni ancha batafsil tartibga solgan. Demak, mazkur hisob siyosati kompaniyaning umumiy buxgalteriya hisobi tizimini markazlashgan metodologik asosda tashkil etishga yo‘naltirilgan.

Hisob siyosatining sug‘urta tashkilotiga xos eng muhim jihatlaridan biri sug‘urta rezervlari hisobining alohida 5.3-bo‘lim sifatida ajratilganligidir. Hujjatning 98–99-betlarida sug‘urta rezervlari bo‘yicha ma’lumotlarni umumlashtirish uchun 8000-guruh hisobvaraqlaridan foydalanish belgilangan: 8010 - ishlab topilmagan mukofotlar rezervi, 8020 - xabar qilingan, ammo tartibga solinmagan zararlar rezervi, 8030 - sodir bo‘lgan, ammo xabar qilinmagan zararlar rezervi, 8040 - ogohlantirish tadbirlari rezervi, 8050 - halokatlar rezervi, 8060 - tebranishlar rezervi va 8070 - zararlar tebranishini tenglashtirish rezervi. Bundan tashqari, qayta sug‘urtalovchilarning mazkur rezervlardagi ulushlarini alohida aks ettirish uchun 8110-8140 hisobvaraqlari nazarda tutilgan. Bu holat kompaniya hisob tizimida sug‘urta majburiyatlari nafaqat umumiy summada, balki rezervlarning iqtisodiy mazmuni va qayta sug‘urtalovchi ulushi bo‘yicha tahliliy ajratilganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, hisob siyosati 2022-yil uchun milliy buxgalteriya hisobi va amaldagi sug‘urta rezervlari modeliga asoslanganligi sababli, unda zamonaviy sug‘urta shartnomalari bo‘yicha kelgusi pul oqimlari, nomoliyaviy risk uchun riskni tuzatish va shartnoma bo‘yicha xizmat marjasi kabi 17-son MHXSga xos komponentlar ushbu shaklda alohida hisob obyektlari sifatida ko‘zga tashlanmaydi. Bu holat kompaniya hisob tizimini xalqaro standartlarga transformatsiya qilish nuqtayi nazaridan alohida tadqiqot yo‘nalishini yuzaga keltiradi.

Daromadlar va xarajatlar hisobini tashkil etish ham sug‘urta faoliyatining xususiyatlariga mos ravishda batafsil shakllantirilgan. Hisob siyosatining 5.5-bo‘limida asosiy faoliyat daromadlari 9000-guruh hisobvaraqlarida yuritilib, 9030 hisobvarag‘ida bevosita sug‘urta bo‘yicha tushumlar, 9040 hisobvarag‘ida qayta sug‘urtaga berilgan risklar bo‘yicha sug‘urta mukofotlari, 9050 hisobvarag‘ida sug‘urta va qayta sug‘urta bo‘yicha komission mukofotlar, 9060 va 9070 hisobvaraqlarida qayta sug‘urtaga berilgan risklar bo‘yicha zararlarni qoplash va qayta sug‘urtalashdan olinadigan boshqa daromadlar, 9080 hisobvarag‘ida depo mukofotlar bo‘yicha foiz daromadlari, 9090 hisobvarag‘ida syurveyer va adjaster xizmatlaridan olinadigan daromadlar hisobga olinishi belgilangan. Xujjatda bu operatsiyalar bo‘yicha namunaviy buxgalteriya

yozuvlari ham keltirilgan. Xarajatlar esa 9100-guruh orqali sotilgan mahsulot, ish va xizmatlar tannarxi, 9400-guruh orqali davr xarajatlari hamda 9600-guruh orqali moliyaviy faoliyat xarajatlari sifatida tasniflangan; davr xarajatlari tarkibida sotish, ma’muriy va boshqa operatsion xarajatlar alohida hisobga olinadi. Shunday qilib, hisob siyosatida sug‘urta operatsiyalarining iqtisodiy mohiyatiga mos hisobvaraqlar bo‘yicha analitik ajratish mavjud, biroq u asosan operatsiya turi va daromad-xarajat moddalari kesimida tashkil etilgan.

Segmentar hisob nuqtayi nazaridan esa ushbu hisob siyosatining amaldagi holatida muhim metodologik bo‘shliq kuzatiladi. Hujjatda sug‘urta rezervlari, sug‘urta va qayta sug‘urta operatsiyalaridan olinadigan daromadlar, komission daromadlar, aktivlar, majburiyatlar va xarajatlar bo‘yicha batafsil sintetik hisobvaraqlar mavjud bo‘lsa-da, ularni operatsion segmentlar kesimida yagona analitik hisob tizimida shakllantirish tartibi alohida metodik blok sifatida belgilanmagan. Ya’ni, masalan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta, qayta sug‘urta, sug‘urta klasslari yoki boshqa boshqaruv tomonidan belgilangan segmentlar bo‘yicha tushum, sug‘urta xarajatlari, rezervlar, qayta sug‘urtalovchi ulushi, aktivlar, majburiyatlar va segment moliyaviy natijasini bir butun axborot tizimida shakllantiradigan segment kodlari hamda ularning hisobvaraqlar bilan bog‘lanish mexanizmi hujjatda aniq ko‘zga tashlanmaydi. Masalan, debitorlik qarzlari hisobida sug‘urtalanuvchilar, brokerlar va qayta sug‘urtalovchilar bilan hisob-kitoblar uchun alohida hisobvaraqlar ko‘zda tutilgan bo‘lsa-da, bu ajratishning o‘zi 8-son MHXS ma’nosidagi operatsion segmentlar hisobini anglatmaydi. Shu sababli “O‘zbekinvest” AJda segmentlar bo‘yicha buxgalteriya va boshqaruv hisobini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishi amaldagi hisobvaraqlar rejasini buzmagan holda, ularga segment identifikatorlari va ko‘p darajali tahliliy hisobni integratsiya qilishdan iborat, degan xulosaga kelish mumkin. Bunday yondashuv birlamchi operatsiyadan boshlab daromad, xarajat, sug‘urta rezervi, qayta sug‘urtalash ulushi va moliyaviy natijani tegishli segmentga avtomatik biriktirish hamda keyinchalik segmentar boshqaruv va moliyaviy hisobotlarni yagona axborot bazasidan shakllantirish imkonini beradi.

Biz tadqiqotimiz davomida shuni guvohi bo’ldikki amaldagi hisob siyosatida sug‘urta rezervlari, sug‘urta va qayta sug‘urta operatsiyalari, daromadlar, xarajatlar, aktivlar va majburiyatlar bo‘yicha alohida hisobvaraqlar mavjud, biroq ular operatsion segmentlar kesimida yagona analitik tizimga birlashtirilmagan. Shu sababli bizning takliflarimizning asosiy maqsadi mavjud sintetik hisob tizimini saqlagan holda unga segmentlar kesimidagi analitik hisobni integratsiya qilishdan iborat.

2.7-jadval

“O‘zbekinvest” AJ hisob siyosatiga segmentlar bo‘yicha taklif etiladigan qo‘shimchalar[41]

№	Taklif etiladigan yo‘nalish	Hisob siyosatiga kiritiladigan mazmun	Kutiladigan natija
1	Operatsion segmentlarni aniqlash tartibini belgilash	Hisob siyosatida kompaniya faoliyatining qaysi qismlari operatsion segment sifatida tan olinishi, ularni ajratish mezonlari va segmentlar ro‘yxatini tasdiqlash tartibi belgilanadi	Segmentlarni shakllantirishda yagona metodik yondashuv vujudga keladi
2	Segment klassifikatorini joriy etish	Har bir segmentga alohida kod biriktiriladi: masalan, S01, S02, S03 va hokazo	Barcha xo‘jalik operatsiyalarini segmentlar bo‘yicha avtomatik guruhlash imkoniyati yaratiladi
3	Sintetik va analitik hisobni integratsiyalash	Amaldagi hisobvaraqlar o‘zgartirilmasdan, ularning tahliliy kesimlariga “segment kodi” qo‘shiladi	Hisobvaraqlar rejasi va segmentar hisobot o‘rtasida uzviy bog‘liqlik ta’minlanadi
4	Daromadlarni segmentlar bo‘yicha hisobga olish	9030, 9040, 9050, 9060, 9070, 9080, 9090 kabi daromad hisobvaraqlarida segmentlar bo‘yicha analitik hisob yuritiladi	Har bir segmentning tushumi va moliyaviy natijaga hissasi aniqlanadi
5	Xarajatlarni segmentlar bo‘yicha hisobga olish	Bevosita xarajatlar tegishli segmentga to‘g‘ridan-to‘g‘ri, umumiy xarajatlar esa tasdiqlangan taqsimlash bazalari orqali biriktiriladi	Segment tannarxi va rentabelligini aniq hisoblash imkoniyati yaratiladi

[41] Muallif ishlanmasi

6	Sug‘urta rezervlarini segmentlar kesimida yuritish	8010–8070 hisobvaraqlarida rezervlar segmentlar bo‘yicha analitik ajratiladi	Har bir segment bo‘yicha sug‘urta majburiyatlari hajmi aniqlanadi
7	Qayta sug‘urtalovchi ulushini segmentlar bo‘yicha hisobga olish	8110–8140 hisobvaraqlaridagi qayta sug‘urtalovchi ulushi tegishli segmentlarga biriktiriladi	Segmentning sof risk pozitsiyasi va qayta sug‘urtalash samaradorligi baholanadi
8	Aktiv va majburiyatlarni segmentlarga biriktirish	Bevosita bog‘liq aktiv va majburiyatlar segmentga to‘g‘ridan-to‘g‘ri, umumiy aktiv va majburiyatlar asoslangan mezonlar orqali taqsimlanadi	Segmentlar bo‘yicha moliyaviy holatni baholash imkoniyati oshadi
9	Segmentlararo operatsiyalar hisobini tashkil etish	Segmentlar o‘rtasidagi xizmatlar va boshqa operatsiyalar alohida analitik kodlarda hisobga olinadi va ularning baholash tamoyillari belgilanadi	Ichki aylanmalar va tashqi tushumlar chalkashib ketishining oldi olinadi
10	Umumiy xarajatlarni taqsimlash bazalarini belgilash	Xodimlar soni, shartnomalar soni, sug‘urta tushumi, aktivlar hajmi, ish vaqti yoki boshqa asoslangan bazalar tasdiqlanadi	Segment foydasini sun’iy ravishda oshirish yoki kamaytirish xavfi pasayadi
11	Segment moliyaviy natijasini aniqlash metodikasini joriy etish	Har bir segment bo‘yicha tushum, bevosita xarajatlar, taqsimlangan xarajatlar va segment foydasi yoki zarari hisoblanadi	Segmentlar samaradorligini qiyosiy baholash mumkin bo‘ladi
12	Segment samaradorligi ko‘rsatkichlarini belgilash	Tushum o‘sishi, zarar koeffitsiyenti, xarajatlar koeffitsiyenti, rentabellik va boshqa ichki ko‘rsatkichlar belgilanadi	Boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun kengaytirilgan axborot bazasi yaratiladi
13	Ichki segmentar hisobot shakllarini tasdiqlash	“Segment bo‘yicha daromad va xarajatlar hisoboti”, “Segment bo‘yicha aktiv va majburiyatlar hisoboti”, “Segment samaradorligi hisoboti” kabi shakllar	Boshqaruv uchun muntazam va standartlashtirilgan segmentar hisobot shakllanadi

		hisob siyosatiga ilova qilinadi	
14	Segment axborotini umumiy moliyaviy hisobot bilan muvofiqlashtirish	Segmentlar jami tushumi, foydasi, aktivlari va majburiyatlari kompaniyaning umumiy ko‘rsatkichlari bilan solishtiriladi	Segmentar hisobotning ishonchliligi va nazorat qilinuvchanligi oshadi
15	Axborot tizimiga segment analitikasini integratsiya qilish	Buxgalteriya dasturida har bir xo‘jalik operatsiyasi uchun “segment” majburiy analitik rekvizit sifatida kiritiladi	Segmentar ma’lumotlarni avtomatik shakllantirish imkoniyati yaratiladi

Jadvalda “O‘zbekinvest” AJning amaldagi hisob siyosatini segmentar hisob talablariga mos ravishda takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari tizimlashtirilgan. Takliflarning mazmuni amaldagi sintetik hisob tizimini tubdan o‘zgartirishga emas, balki mavjud hisobvaraqlarga segmentlar bo‘yicha qo‘shimcha tahliliy hisob kesimlarini kiritishga qaratilgan. Xususan, operatsion segmentlarni aniqlash va kodlash, daromad va xarajatlarni segmentlarga biriktirish, sug‘urta rezervlari hamda qayta sug‘urtalovchilar ulushini segmentlar kesimida yuritish, aktiv va majburiyatlarni tegishli segmentlarga taqsimlash, segmentlararo operatsiyalarni alohida hisobga olish va segment moliyaviy natijasini aniqlash taklif etilmoqda. Bunday yondashuv amaldagi hisob siyosatida sug‘urta rezervlari va qayta sug‘urtalovchilarning rezervlardagi ulushlari uchun alohida hisobvaraqlar mavjudligi bilan ham uyg‘unlashadi. Natijada buxgalteriya hisobida shakllanayotgan birlamchi ma’lumotlarni segmentlar kesimida tizimlashtirish hamda ularni boshqaruv ehtiyojlari uchun qayta ishlash imkoniyati kengayadi.

Taklif etilgan yondashuvning amaliy ahamiyati shundaki, hisob siyosatiga “Segmentar hisob va hisobot” bo‘limining kiritilishi segmentlar bo‘yicha axborotni shakllantirishning yagona tashkiliy-uslubiy mexanizmini yaratadi. Bunda har bir xo‘jalik operatsiyasiga segment kodini biriktirish, bevosita daromad va xarajatlarni tegishli segmentda aks ettirish, umumiy xarajatlarni iqtisodiy asoslangan taqsimlash bazalari bo‘yicha taqsimlash hamda segment tushumi, xarajatlari, aktivlari, majburiyatlari va moliyaviy natijalarini ichki

hisobotlarda umumlashtirish nazarda tutiladi. Amaldagi hisob siyosatida sug‘urta va qayta sug‘urta faoliyatiga oid daromadlarning alohida hisobvaraqlarda aks ettirilishi bunday segment analitikasini rivojlantirish uchun mavjud hisob bazasidan foydalanish imkonini beradi. Natijada “birlamchi hujjat → hisobvaraq → segment kodi → analitik hisob → segmentar boshqaruv hisoboti” ko‘rinishidagi yaxlit axborot zanjiri shakllanib, alohida segmentlarning kompaniya umumiy moliyaviy natijasiga qo‘shgan hissasini aniqlash, ularning samaradorligini o‘zaro taqqoslash va rahbariyat tomonidan resurslarni asoslangan tarzda taqsimlash imkoniyati oshadi.

Biz tomonimizdan “O‘zbekinvest” AJda amalda qo‘llanilayotgan hisobvaraqlar rejasi o‘rganilganda, sug‘urta faoliyatiga xos hisob obyektlarini aks ettirish uchun yetarlicha keng hisobvaraqlar tizimi shakllantirilganligi aniqlandi. Jumladan, sug‘urta ishini yuritish xarajatlari 2010-hisobvaraqda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta va qayta sug‘urtaga qabul qilingan risklar bo‘yicha sug‘urta qoplamalari 2210–2235-hisobvaraqlarda, sug‘urtalanuvchilar, sug‘urta agentlari va brokerlar hamda qayta sug‘urtalash operatsiyalari bo‘yicha debitorlik qarzlari esa 4030–4060-hisobvaraqlarda aks ettirilishi belgilangan. Shu bilan birga, kompaniyaning hududiy tuzilmasini hisobga olish maqsadida filiallar bilan hisob-kitoblar uchun 4110–4112 hamda 6110–6112-hisobvaraqlar, filiallar orqali shakllanadigan sug‘urta mukofotlari va avanslar uchun 6285.2, 6286, 6340 va 6345-hisobvaraqlar ajratilgan.

Biroq tadqiqotimiz davomida amaldagi hisobvaraqlar rejasida hududiy filiallar bo‘yicha ayrim hisobvaraqlar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, sug‘urta operatsiyalarini bir vaqtning o‘zida faoliyat segmenti va hududiy segment bo‘yicha identifikatsiya qilish imkonini beruvchi yaxlit analitik hisob mexanizmi yetarli darajada shakllantirilmaganligi aniqlandi. Natijada muayyan hududiy filialning qaysi faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha qancha daromad olgani, sug‘urta qoplamalari va boshqa xarajatlari qancha bo‘lgani, qanday miqdorda sug‘urta rezervlari shakllantirilgani hamda yakuniy moliyaviy natijaga qo‘shgan hissasini amaldagi hisobvaraqlar tizimining o‘zidan bevosita aniqlash imkoniyati cheklanadi. Bizning fikrimizcha, ushbu muammoni

har bir filial uchun yangi sintetik hisobvaraqlar ochish orqali emas, balki amaldagi hisobvaraqlarga faoliyat va hududiy segmentlarni ifodalovchi ko‘p darajali analitik kodlarni biriktirish orqali hal etish maqsadga muvofiq.

Shundan kelib chiqib, biz tomonimizdan “O‘zbekinvest” AJ uchun amaldagi sintetik hisobvaraq, faoliyat segmenti va hududiy segmentni yagona kodda o‘zaro bog‘lashga asoslangan **“XXXX.SS.HH”** segmentar ishchi hisobvaraqni taklif etilmoqda. Bunda XXXX - amaldagi sintetik hisobvaraqni, SS - faoliyat segmentini, HH esa hududiy filialni ifodalaydi. Mazkur yondashuvning muhim jihati shundaki, u amaldagi hisobvaraqlar rejasini tubdan o‘zgartirmasdan, uning tahliliy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

2.8-jadval

“O‘zbekinvest” AJ faoliyatini segmentlar kesimida hisobga olish uchun taklif etilayotgan faoliyat segmentlari klassifikatori[42]

Segment kodi	Taklif etilayotgan segment	Segmentning hisob obyektlari
S01	To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta	Bevosita tuzilgan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha daromad, xarajat, qoplama va rezervlar
S02	Qabul qilingan qayta sug‘urta	Boshqa sug‘urta tashkilotlaridan qayta sug‘urtaga qabul qilingan risklar bo‘yicha operatsiyalar
S03	Berilgan qayta sug‘urta	Qayta sug‘urtalovchilarga berilgan risklar, mukofotlar va qayta sug‘urtalovchi ulushi
S04	Boshqa sug‘urta operatsiyalari	Birgalikdagi sug‘urta, komission va boshqa sug‘urta operatsiyalari
S00	Umumkorporativ faoliyat	Muayyan sug‘urta segmentiga bevosita biriktirib bo‘lmaydigan umumiy operatsiyalar

Biz tomonimizdan taklif etilgan klassifikatsiyada segmentlarning ajratilishi sug‘urta operatsiyalarining iqtisodiy mazmuni va ularning moliyaviy natijalarni shakllantirishdagi o‘rnidan kelib chiqib amalga oshirilgan. Xususan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta, qabul qilingan qayta sug‘urta va berilgan qayta sug‘urta operatsiyalarining daromad, xarajat, sug‘urta majburiyatlari va risk xususiyatlari bir-biridan farqlanishi ularni

[42] Muallif ishlanmasi

boshqaruv hisobi maqsadlarida alohida analitik segment sifatida kuzatish zaruratini yuzaga keltiradi. S00 kodi esa birorta segmentga bevosita tegishli bo‘lmagan umumkorporativ operatsiyalarni alohida jamlash va keyinchalik belgilangan mezonlar asosida taqsimlash uchun nazarda tutilgan.

Faoliyat segmentlari bo‘yicha kodlashning o‘zi kompaniyaning hududiy tuzilmasini to‘liq aks ettirmaydi. “O‘zbekinvest” AJning hududiy filiallari mavjudligini hisobga olgan holda, tadqiqotimizda faoliyat segmentlari bilan bir qatorda mustaqil hududiy analitik o‘lchovni joriy etish taklif qilinmoqda. Bunda har bir filialga doimiy kod biriktirilishi va ushbu kod barcha tegishli buxgalteriya operatsiyalarida saqlanishi lozim. Natijada bir xil faoliyat segmentining turli hududlardagi moliyaviy natijalarini qiyosiy tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi.

2.9-jadval

“O‘zbekinvest” AJ hududiy filiallari bo‘yicha taklif etilayotgan analitik kodlash tizimi[43]

Hudud kodi	Analitik obyekt	Hudud kodi	Analitik obyekt
H00	Bosh ofis	**H07**	7-hududiy filial
H01	1-hududiy filial	**H08**	8-hududiy filial
H02	2-hududiy filial	**H09**	9-hududiy filial
H03	3-hududiy filial	**H10**	10-hududiy filial
H04	4-hududiy filial	**H11**	11-hududiy filial
H05	5-hududiy filial	**H12**	12-hududiy filial
H06	6-hududiy filial		

Izoh: H01–H12 kodlari kompaniyaning amaldagi 12 ta hududiy filialiga ularning tasdiqlangan ro‘yxati asosida biriktiriladi.

Taklif etilgan hududiy kodlash tizimining afzalligi shundaki, filial belgisi alohida hisobvaraq sifatida emas, balki barcha tegishli hisobvaraqlarda takroran qo‘llaniladigan yagona analitik rekvizit sifatida shakllantiriladi. Bu esa, masalan, faqat “filiallar bo‘yicha sug‘urta mukofotlari” ning umumiy miqdorini aniqlash bilan cheklanmasdan, har bir filial bo‘yicha sug‘urta mukofotlari, qoplamalar, rezervlar, qayta sug‘urtalash operatsiyalari, xarajatlar va moliyaviy natijalarni bir xil hudud kodi orqali o‘zaro bog‘lash imkonini beradi. Tadqiqotimizning

[43] Muallif ishlanmasi

keyingi bosqichida faoliyat va hududiy segmentlar klassifikatorlarini amaldagi hisobvaraqlar rejasi bilan integratsiya qilish masalasi ko‘rib chiqildi. Bunda yangi sintetik hisobvaraqlar tizimini yaratishdan ko‘ra, sug‘urta faoliyatining moliyaviy natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi mavjud hisobvaraqlarga SS.HH analitik belgilarini biriktirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu yondashuv asosida biz tomonimizdan quyidagi segmentar ishchi hisobvaraqlar tizimi ishlab chiqildi.

2.10-jadval

“O‘zbekinvest” AJda faoliyat va hududiy segmentlar kesimida taklif etilayotgan ishchi hisobvaraqlar tizimi[44]

Amaldagi hisobvaraq	Taklif etilayotgan ishchi hisobvaraq	Hisob obyektining segmentar mazmuni
2010	2010.S01.H01–H12	To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta faoliyatini yuritish xarajatlari
2010	2010.S02.H01–H12	Qabul qilingan qayta sug‘urta faoliyatini yuritish xarajatlari
2010	2010.S03.H01–H12	Berilgan qayta sug‘urta bilan bog‘liq xarajatlar
2210	2210.S01.H01–H12	To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta bo‘yicha daromadlar Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdan sug‘urta qoplamalari
2230	2230.S02.H01–H12	Qabul qilingan qayta sug‘urta risklari bo‘yicha qoplamalar
2410	2410.S02.H01–H12	Qayta sug‘urtalash bo‘yicha komission xarajatlar
4030	4030.S01.H01–H12	Sug‘urtalanuvchilardan olinadigan summalar
4050	4050.S02.H01–H12	Qabul qilingan qayta sug‘urta bo‘yicha debitorlik
4060	4060.S03.H01–H12	Berilgan qayta sug‘urta bo‘yicha debitorlik
6030	6030.S01.H01–H12	Sug‘urtalanuvchilarga to‘lanadigan summalar
6050	6050.S02.H01–H12	Qabul qilingan qayta sug‘urta bo‘yicha kreditorlik
6060	6060.S03.H01–H12	Berilgan qayta sug‘urta bo‘yicha kreditorlik
6280	6280.S01.H01–H12	To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta mukofotlari
6270	6270.S02.H01–H12	Qayta sug‘urta shartnomalari bo‘yicha mukofotlar
6330	6330.S01.H01–H12	Sug‘urtalanuvchilardan olingan avans mukofotlari
6350	6350.S02.H01–H12	Qayta sug‘urtalash bo‘yicha avans mukofotlari

[44] Muallif ishlanmasi

8010	8010.S01.H01–H12	To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta bo‘yicha ishlab topilmagan mukofot rezervi
8010	8010.S02.H01–H12	Qabul qilingan qayta sug‘urta bo‘yicha ishlab topilmagan mukofot rezervi
8020	8020.S01.H01–H12	Sodir bo‘lgan, ammo xabar qilinmagan zararlar rezervi
8030	8030.S01.H01–H12	Xabar qilingan, ammo tartibga solinmagan zararlar rezervi
8040	8040.S01.H01–H12	Ogohlantirish tadbirlari rezervi
8060	8060.S01.H01–H12	Halokatlar rezervi
8080	8080.S01.H01–H12	Barqarorlashtirish rezervi
8110	8110.S03.H01–H12	Qayta sug‘urtalovchi ulushi – ishlab topilmagan mukofot rezervi
8120	8120.S03.H01–H12	Qayta sug‘urtalovchi ulushi – xabar qilingan zararlar rezervi
8130	8130.S03.H01–H12	Qayta sug‘urtalovchi ulushi – sodir bo‘lgan, ammo xabar qilinmagan zararlar rezervi
9040	9040.S03.H01–H12	Qayta sug‘urtaga berilgan risklar bo‘yicha mukofotlar
9070	9070.S03.H01–H12	Qayta sug‘urtalovchilar tomonidan qoplanadigan zarar ulushi bilan bog‘liq daromad
9080	9080.S02/S03.H01–H12	Qayta sug‘urtalash bo‘yicha komission daromadlar
9230	9230.S01/S02.H01–H12	Ishlab topilmagan mukofot rezervining o‘zgarishi
9240	9240.S01/S02.H01–H12	Sodir bo‘lgan, ammo xabar qilinmagan zararlar rezervining o‘zgarishi
9250	9250.S01/S02.H01–H12	Xabar qilingan, ammo tartibga solinmagan zararlar rezervining o‘zgarishi
9280	9280.S01/S02.H01–H12	Barqarorlashtirish rezervining o‘zgarishi
9410	9410.S01–S04.H01–H12	Sotish xarajatlari
9420	9420.S00/S01–S04.H00–H12	Ma’muriy xarajatlar
9430	9430.S01–S04.H01–H12	Boshqa operatsion xarajatlar
9900	9900.S01–S04.H01–H12	Segmentlar bo‘yicha yakuniy moliyaviy natija

Jadvalda taklif etilgan ishchi hisobvaraqlar amaldagi hisobvaraqlar rejasining iqtisodiy mazmunini saqlab qolgan holda, uning tahliliy imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Xususan, amaldagi rejada 8010–8080 hisobvaraqlarida sug‘urta rezervlari, 8110–8130 hisobvaraqlarida esa qayta sug‘urtalovchilarning sug‘urta rezervlaridagi

ulushlari alohida aks ettiriladi. Biz tomonimizdan ushbu hisobvaraqlarning iqtisodiy mazmunini o‘zgartirmasdan, ularga faoliyat va hududiy segment kodlarini biriktirish taklif qilinmoqda. Natijada rezervlarning faqat kompaniya bo‘yicha umumiy miqdorini emas, balki ularning qaysi faoliyat segmenti va hududiy filialda shakllanganligini ham aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Ayniqsa, amaldagi hisobvaraqlar rejasida 6280-hisobvaraq to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini, 6286-hisobvaraq esa filiallar bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini hisobga olish uchun mo‘ljallanganligi e’tiborga molik. Bizning fikrimizcha, bunday yondashuvda “operatsiya turi” va “hudud” bir xil hisobvaraqlar iyerarxiyasining turli pog‘onalarida aks ettirilgan. Taklif etilayotgan modelda esa filial mustaqil analitik o‘lchovga aylantiriladi. Masalan, 6280.S01.H04 kodi 4-hududiy filialning to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta segmenti bo‘yicha shakllangan sug‘urta mukofotlarini ifodalaydi. Shu tariqa bitta kod orqali operatsiyaning iqtisodiy mazmuni, faoliyat segmenti va hududiy mansubligi aniqlanadi.

Filiallar faoliyatini segmentar boshqaruv hisobi bilan bog‘lashda ichki hisob-kitoblarni ham tegishli analitik kesimlarda yuritish talab etiladi. Amaldagi hisobvaraqlar rejasida filiallardan olinadigan summalar uchun 4110, filiallarga to‘lanadigan summalar uchun esa 6110-hisobvaraqlar mavjud. Tadqiqotimiz natijasida ushbu hisobvaraqlarda ham hududiy analitik kodlardan foydalanish zarur, degan xulosaga kelindi. Shu asosda filiallar bilan hisob-kitoblarning quyidagi ishchi hisobvaraqlar tizimi taklif etildi.

2.11-jadval

“O‘zbekinvest” AJda hududiy filiallar bilan ichki hisob-kitoblarni yuritish bo‘yicha taklif etilayotgan ishchi hisobvaraqlar[45]

Ishchi hisobvaraq	Mazmuni
4110.H01–H12	Har bir hududiy filialdan olinadigan mablag‘lar
4111.H01–H12	Hududiy filiallarning maqsadli moliyalashtirish bo‘yicha qarzdorligi
4112.H01–H12	Hududiy filiallarning soliqlar bo‘yicha qarzdorligi

[45] Muallif ishlanmasi

6110.H01–H12	Har bir hududiy filialga to‘lanadigan mablag‘lar
6111.H01–H12	Hududiy filiallarni maqsadli moliyalashtirish bo‘yicha hisob-kitoblar
6112.H01–H12	Hududiy filiallar bilan soliqlar bo‘yicha hisob-kitoblar

Taklif etilgan yondashuv filiallararo hisob-kitoblarning har bir hudud bo‘yicha alohida nazorat qilinishini ta’minlaydi. Bunda 4110 va 6110 hisobvaraqlarining amaldagi vazifasi saqlanib qoladi, H01–H12 analitik kodlari esa qaysi filial bilan hisob-kitob amalga oshirilayotganligini aniqlash imkonini beradi. Natijada filiallar bilan o‘zaro hisob-kitoblar, maqsadli moliyalashtirish va soliqlar bo‘yicha qarzdorlikni hududlar kesimida avtomatik umumlashtirish hamda ichki aylanmalarni segmentar hisobot tuzishda to‘g‘ri chiqarib tashlash imkoniyati kengayadi.

Umuman, tadqiqotimiz natijasida “O‘zbekinvest” AJ uchun segmentar hisobni “hisobvaraq → faoliyat segmenti → hududiy segment → sug‘urta klassi → valyuta → shartnoma (kontragent)” tamoyili asosida tashkil etish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelindi. Bunda dastlabki uch element majburiy segmentar analitika sifatida, sug‘urta klassi, valyuta va shartnoma esa operatsiyaning xususiyatidan kelib chiqib qo‘shimcha analitik rekvizitlar sifatida qo‘llanilishi mumkin. Masalan, 2210.S01.H04.K08.UZS ishchi kodi 2210-hisobvaraq bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta segmentining 4-hududiy filialida K08 sug‘urta klassi doirasida milliy valyutada amalga oshirilgan sug‘urta qoplamasini ifodalashi mumkin.

Shunday qilib, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan segmentar ishchi hisobvaraqlar modeli amaldagi hisobvaraqlar rejasini yangi sintetik hisobvaraqlar bilan haddan tashqari kengaytirishdan voz kechib, mavjud hisobvaraqlarni ko‘p o‘lchovli analitik belgilar bilan chuqurlashtirishga asoslanadi. Mazkur modelning joriy etilishi natijasida “O‘zbekinvest” AJda birlamchi xo‘jalik operatsiyasi → buxgalteriya hisobvarag‘i → faoliyat segmenti → hududiy segment → segmentar moliyaviy natija → segmentar boshqaruv hisoboti o‘rtasida uzviy axborot zanjiri shakllantiriladi. Bu esa har bir faoliyat segmenti va hududiy filial bo‘yicha daromadlar, xarajatlar, sug‘urta qoplamalari, rezervlar, qayta sug‘urtalovchilar ulushi hamda moliyaviy natijalarni alohida aniqlash va

ularning kompaniya umumiy faoliyatiga qo‘shgan hissasini baholash imkonini beradi.

Segmentar hisobni samarali tashkil etish, eng avvalo, xo‘jalik operatsiyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ularning yuzaga kelish bosqichidayoq tegishli operatsion segmentlar kesimida identifikatsiya qilish imkonini beruvchi birlamchi hisob hujjatlari tizimini shakllantirishni talab etadi. Amaldagi birlamchi hujjatlar asosan xo‘jalik operatsiyasining mazmuni, miqdori va qiymatini tasdiqlashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, segmentar hisob nuqtayi nazaridan ularda operatsiyaning qaysi segment, hududiy bo‘linma, faoliyat yoki xizmat turi hamda javobgarlik markaziga tegishliligini aniqlash imkonini beruvchi qo‘shimcha tahliliy rekvizitlarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli segmentlar bo‘yicha birlamchi hisob hujjatlari tizimini takomillashtirish mavjud hujjatlar aylanishini asossiz ravishda ko‘paytirishni emas, balki ularning tarkibiga segment kodi, hududiy bo‘linma kodi, faoliyat yoki xizmat turi kodi va boshqa zarur tahliliy belgilarni kiritishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv birlamchi ma’lumotlardan boshlab buxgalteriya registrlari va moliyaviy hisobotgacha bo‘lgan axborot oqimining uzviyligini ta’minlab, daromadlar, xarajatlar, aktivlar va majburiyatlarni segmentlar kesimida tizimli guruhlash hamda segmentar hisobot ko‘rsatkichlarini ishonchli shakllantirish uchun zarur axborot bazasini yaratadi.

“O‘zbekinvest” AJning amaldagi hisobvaraqlar rejasida sug‘urta mukofotlari, sug‘urta qoplamalari, qayta sug‘urtalash operatsiyalari, sug‘urta rezervlari va filiallar bilan hisob-kitoblar uchun maxsus hisobvaraqlar mavjud. Masalan, sug‘urta qoplamalari 2210–2235, sug‘urtalanuvchilar va qayta sug‘urtalash bo‘yicha debitorlik 4030–4060 hisobvaraqlarida hisobga olinadi. Shuningdek, filiallar bilan hisob-kitoblar 4110–4112 va 6110–6112, sug‘urta mukofotlari esa 6270, 6280 va filiallar bilan bog‘liq maxsus hisobvaraqlarda aks ettiriladi. Bizning fikrimizcha, ushbu hisobvaraqlarda segmentar analitikaning to‘g‘ri shakllanishi uchun operatsiyaning segment mansubligi uning birlamchi hujjatida qayd etilishi zarur. Shu maqsadda quyidagi hujjatlar tizimi taklif etiladi.

Segmentar hisob ma’lumotlarining ishonchliligini ta’minlash operatsiyalarni ular sodir bo‘lgan vaqtda tegishli segmentlarga to‘g‘ri identifikatsiya qilishdan boshlanadi. Shu maqsadda sug‘urta shartnomasi, polis, da’vo hujjatlari, to‘lov topshiriqnomalari va xarajatlarni tasdiqlovchi birlamchi hujjatlarda faoliyat yo‘nalishi hamda hududiy mansublikni ifodalovchi tegishli kodlarni aks ettirish, segmentlararo operatsiyalarda esa qarshi segment kodini qo‘shimcha rekvizit sifatida kiritish tavsiya etildi. Mazkur metodologik yondashuv asosida tadqiqotimizda hisob ob’ektlari bo‘yicha ma’lumotlarni birlamchi hujjatlarda shakllantirishdan boshlab, ularni analitik va sintetik hisobda tizimlashtirish hamda yakuniy segmentar hisobotda aks ettirishgacha bo‘lgan axborot harakatining blok-sxemasi ishlab chiqildi. (2.3-rasmga qarang).



2.3-rasm. Birlamchi hujjatdan segmentar hisobotgacha axborot harakati blok sxemasi[46]

2.3.-rasmda keltirilgan blok-sxemada ma’lumotlarni axborot tizimiga bir marta kiritish va ulardan turli segmentar hisobotlarni shakllantirishda qayta foydalanish tartibi aks ettirilgan. Bunda shartnoma identifikatori o‘zaro bog‘liq operatsiyalarni yagona axborot zanjiriga birlashtirishga, segment kodlari esa ma’lumotlarni faoliyat yo‘nalishlari

[46] Muallif ishlanmasi

va hududlar kesimida guruhlash hamda umumlashtirishga xizmat qiladi. Axborot tizimida kiritilgan segment kodining mavjudligi, operatsiya amalga oshirilgan sanada uning amal qilishi hamda tegishli sug‘urta mahsulotiga muvofiqligi avtomatik nazorat qilinishi nazarda tutildi.

Jadvalda taklif etilgan hujjatlar segmentar hisob axborotini xo‘jalik operatsiyasi yuz bergan dastlabki bosqichdan boshlab shakllantirishga xizmat qiladi. Biz tomonimizdan S01–S04 faoliyat segmentlari, H01–H12 hududiy filiallar hamda KXX sug‘urta klasslari birlamchi hujjatning majburiy analitik rekvizitlari sifatida taklif qilinmoqda. Bunda segmentga bevosita tegishli operatsiya birlamchi hujjatning o‘zida tegishli segment bilan bog‘lanadi, bir nechta segmentga tegishli operatsiyalar esa SEG-BH-07 yoki SEG-BH-09 shakllari orqali asoslangan tarzda taqsimlanadi.

2.12-jadval

“O‘zbekinvest” AJda segmentlar bo‘yicha buxgalteriya va boshqaruv hisobini tashkil etish uchun taklif etilayotgan birlamchi hisob hujjatlari

№	Hujjat kodi	Taklif etilayotgan hujjat nomi	Asosiy vazifasi	Asosiy segment rekvizitlari
1	SEG-BH-01	Sug‘urta shartnomasini segmentga identifikatsiya qilish varaqasi	Yangi sug‘urta shartnomasini segmentga biriktirish	S-segment kodi, H-filial kodi, K-sug‘urta klassi, shartnoma №, mijoz, valyuta
2	SEG-BH-02	Sug‘urta mukofotini segmentlar bo‘yicha hisobga olish ma’lumotnomasi	Hisoblangan va kelib tushgan mukofotni segment bo‘yicha qayd etish	6270/6280, S, H, K, shartnoma, brutto mukofot
3	SEG-BH-03	Sug‘urta hodisasi va qoplamasini segment bo‘yicha rasmiylashtirish varaqasi	Sug‘urta hodisasi, zarar va qoplamani tegishli segmentga biriktirish	Hodisa №, 2210/2230, S, H, K, zarar summasi, qoplama
4	SEG-BH-04	Qayta sug‘urta operatsiyasini segmentga biriktirish varaqasi	Berilgan/qabul qilingan qayta sug‘urtani segmentlar kesimida qayd etish	S02/S03, H, kontragent, risk, mukofot, komissiya, qoplama ulushi

5	SEG-BH-05	Sug‘urta rezervlarini segmentlar bo‘yicha hisoblash ma’lumotnomasi	Rezervlarni segmentlar kesimida shakllantirish	8010–8080, S, H, K, boshlang‘ich rezerv, o‘zgarish, yakuniy rezerv
6	SEG-BH-06	Qayta sug‘urtalovchi ulushini segmentlar bo‘yicha hisoblash ma’lumotnomasi	Rezervlardagi qayta sug‘urtalovchi ulushini hisoblash	8110–8130, S03, H, rezerv turi, brutto rezerv, qayta sug‘urta ulushi
7	SEG-BH-07	Segmentlarga umumiy xarajatlarni taqsimlash dalolatnomasi	Umumkorporativ xarajatlarni segmentlarga taqsimlash	S00 summasi, taqsimlash bazasi, S01–S04 ulushi, H kodi
8	SEG-BH-08	Filiallararo operatsiyalarni segment bo‘yicha rasmiylashtirish ma’lumotnomasi	Bosh ofis va 12 filial o‘rtasidagi ichki operatsiyalarni identifikatsiya qilish	H-jo‘natuvchi, H-qabul qiluvchi, 4110/6110, S kodi, summa
9	SEG-BH-09	Segmentlararo operatsiyalar dalolatnomasi	Faoliyat segmentlari o‘rtasidagi ichki operatsiyalarni hisobga olish	S-jo‘natuvchi, S-qabul qiluvchi, xizmat turi, narxlash bazasi
10	SEG-BH-10	Segment kodini tuzatish va qayta tasniflash buxgalteriya ma’lumotnomasi	Noto‘g‘ri segmentga yozilgan operatsiyalarni qayta tasniflash	Eski S/H kod, yangi S/H kod, asos, schyot, summa

Mazkur yondashuv amaldagi hisobvaraqlar rejasida mavjud bo‘lgan tarqoq analitik belgilarni yagona tizimga keltirish imkonini beradi. Xususan, amaldagi rejada 8010–8080 sug‘urta rezervlari va 8110–8130 qayta sug‘urtalovchilarning rezervlardagi ulushi bo‘yicha hisobvaraqlar mavjud. SEG-BH-05 va SEG-BH-06 shakllari mazkur rezervlarni nafaqat umumiy miqdorda, balki faoliyat segmenti + filial + sug‘urta klassi bo‘yicha hisoblash uchun dastlabki axborot manbasini yaratadi. (1-2-3 ilovalar)

Tadqiqotimizda segmentar axborotning keyingi barcha bosqichlari uchun boshlang‘ich nuqta sifatida sug‘urta shartnomasini to‘g‘ri identifikatsiya qilish alohida ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz. Chunki aynan shartnoma bo‘yicha keyinchalik sug‘urta mukofoti, debitorlik qarzi, sug‘urta hodisasi, rezerv va qayta sug‘urtalash operatsiyalari

yuzaga keladi. Shu bois yangi shartnomani hisob tizimiga kiritishda quyidagi elektron shaklni majburiy to‘ldirish taklif etiladi.

Taklif qilinayotgan shaklda segment, filial va sug‘urta klassining alohida qayd etilishi keyingi hisob operatsiyalarida mazkur kodlarni qayta qo‘lda kiritish zaruratini kamaytiradi. Shartnoma S01.H04.K08 bilan identifikatsiya qilingan bo‘lsa, shu shartnomaga bog‘liq 6280, 4030, 2210, 8010, 8020 va boshqa tegishli yozuvlarga segment rekvizitlari axborot tizimi tomonidan avtomatik uzatilishi mumkin. Natijada segment kodi subyektiv ravishda har bir buxgalteriya yozuvi vaqtida qaytadan tanlanmaydi, balki “master-data” tamoyili asosida shartnoma kartochkasida bir marta shakllantiriladi. Bizning fikrimizcha, aynan ushbu mexanizm segmentar hisob axborotining izchilligi va ishonchliligini sezilarli oshiradi.

SEG-BH-01 “Sug‘urta shartnomasini segmentga identifikatsiya qilish varaqasi”ning taklif etilayotgan shakli

Rekvizit	Mazmuni
Hujjat raqami va sanasi	SEG-BH-01 № ___ / sana
Sug‘urta shartnomasi raqami	_____
Sug‘urtalanuvchi	_____
Faoliyat segmenti	S01 / S02 / S03 / S04
Hududiy filial	H00 / H01–H12
Sug‘urta klassi	K01–KXX
Sug‘urta mahsuloti	_____
Shartnoma valyutasi	UZS / USD / EUR / boshqa
Sug‘urta summasi	_____
Sug‘urta mukofoti	_____
Shartnoma boshlanish sanasi	_____
Shartnoma tugash sanasi	_____
Qayta sug‘urtaga berilishi	Ha / Yo‘q
Qayta sug‘urta segmenti	S03, tegishli bo‘lsa
Mas’ul bo‘linma	_____

Rekvizit	Mazmuni
Mas’ul xodim	_____
Elektron tasdiqlash	Mas’ul shaxs / bosh buxgalter

Segmentlar bo‘yicha moliyaviy natijani aniqlashdagi eng murakkab masalalardan biri bevosita birorta segmentga tegishli bo‘lmagan boshqaruv va umumxo‘jalik xarajatlarini taqsimlash hisoblanadi.

2.13-jadval

SEG-BH-07 “Segmentlarga umumiy xarajatlarni taqsimlash dalolatnomasi”ning taklif etilayotgan shakli[47]

Xarajat turi	Umumiy summa	Taqsimlash bazasi	S01	S02	S03	S04	Taqsimlangan jami
Mehnat xarajatlari		Xodimlar soni / ish vaqti					
IT xarajatlari		Foydalanuvchilar soni					
Ijara		Maydon, m²					
Reklama		Segment daromadi / kampaniya					
Kommunal xarajatlar		Maydon / xodimlar soni					
Boshqa umumiy xarajatlar		Tasdiqlangan baza					

8-son MHXSga ko‘ra segmentlarga ajratiladigan summalar oqilona asosda taqsimlanishi, shuningdek segment natijalarini o‘lchash va markazlashtirilgan xarajatlarni taqsimlash siyosatidagi farqlar tushuntirilishi kerak. Shu sababli biz tomonidan taqsimlash hisob-kitobini hujjatlashtiruvchi alohida shakl ishlab chiqish taklif qilinmoqda.

Dalolatnomada nafaqat taqsimlanadigan summa, balki taqsimlash bazasi ham ko‘rsatilishi taklif qilinmoqda. Bu segment foydasini sun’iy ravishda oshirish yoki kamaytirishga olib keluvchi subyektiv taqsimotlarning oldini olishga xizmat qiladi. Har bir taqsimlash bazasi hisob siyosatining “Segmentar hisob va hisobot” bo‘limida oldindan

[47] Muallif ishlanmasi

belgilanishi va davrlar davomida izchil qo‘llanishi lozim. Bizning fikrimizcha, ushbu hujjat segmentar boshqaruv hisobining nazorat imkoniyatlarini ham oshiradi. Chunki bu orqali S00 — umumkorporativ xarajatlarning qaysi qismi S01–S04 segmentlariga qanday asosda o‘tkazilganligi audit izi sifatida saqlanadi.

Birlamchi hujjatlarda to‘plangan segment ma’lumotlari keyinchalik tizimli registrlarda jamlanishi lozim. O‘zbekiston buxgalteriya hisobi talablarida registrlar birlamchi hujjatlardagi ma’lumotlarni tizimlashtirish va jamlash vositasi sifatida belgilanadi; ular jurnal, qaydnoma, kitob yoki elektron shaklda yuritilishi mumkin. Shu bilan birga, 8-son MHXSning boshqaruv yondashuvi rahbariyat muntazam ko‘rib chiqadigan segment moliyaviy axborotining mavjudligiga tayanadi. Shundan kelib chiqib, biz tomonidan “O‘zbekinvest” AJ uchun quyidagi segmentar registrlar tizimi ishlab chiqildi.

2.14-jadval

“O‘zbekinvest” AJda taklif etilayotgan segmentar hisob registrlari tizimi[48]

№	Registr kodi	Registr nomi	Asosiy axborot	Shakllantirish davri
1	SEG-R-01	Segmentlar bo‘yicha xo‘jalik operatsiyalari jurnali	Barcha segment kodli provodkalar	Kunlik
2	SEG-R-02	Segmentlar bo‘yicha sug‘urta mukofotlari qaydnomasi	6270, 6280 va tegishli mukofotlar	Kunlik/oylik
3	SEG-R-03	Segmentlar bo‘yicha sug‘urta qoplamalari qaydnomasi	2210, 2230 va zararlar	Hodisa/oylik
4	SEG-R-04	Segmentlar bo‘yicha sug‘urta rezervlari registri	8010–8080	Oylik
5	SEG-R-05	Qayta sug‘urtalovchilar ulushi registri	8110–8130	Oylik
6	SEG-R-06	Segmentlar bo‘yicha daromad va xarajatlar registri	9000, 9100, 9400 va boshqalar	Oylik
7	SEG-R-07	Segmentlar bo‘yicha debitorlik va kreditorlik registri	4030–4060, 6030–6060	Oylik

[48] Muallif ishlanmasi

8	SEG-R-08	Hududiy filiallar segmentar aylanma qaydnomasi	H01–H12 bo‘yicha barcha schyotlar	Oylik
9	SEG-R-09	Segmentlararo va filiallararo operatsiyalar registri	S↔S va H↔H ichki operatsiyalar	Oylik
10	SEG-R-10	Segmentlar bo‘yicha aylanma-saldo qaydnomasi	Boshlang‘ich saldo, debet, kredit, yakuniy saldo	Oylik
11	SEG-R-11	Segment moliyaviy natijalari registri	Daromad, xarajat, foyda/zarar	Oylik/choraklik
12	SEG-R-12	Segment ko‘rsatkichlarini umumiy moliyaviy hisobot bilan muvofiqlashtirish registri	Segment jami ↔ kompaniya jami	Choraklik/yillik

Taklif etilgan registrlar oddiy buxgalteriya registrlarini takrorlamaydi. Ularning asosiy farqi har bir yozuv tarkibida hisobvaraq, faoliyat segmenti, hududiy filial, sug‘urta klassi va shartnoma identifikatorining saqlanishidir. Bu esa bir xil ma’lumotlar bazasidan turli boshqaruv kesimlarida axborot olish imkonini beradi. Masalan, rahbariyat S01ni tanlab to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta faoliyatining kompaniya bo‘yicha natijasini, H04ni tanlab 4-filial natijasini, S01+H04ni tanlab esa 4-filialning aynan to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta faoliyatini ko‘rishi mumkin. Mazkur yondashuv IFRS 8ning korxona faoliyatini rahbariyat tomonidan foydalaniladigan ichki axborot asosida ko‘rsatish tamoyiliga mos keladi.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan registrlar tizimida SEG-R-01 “Segmentlar bo‘yicha xo‘jalik operatsiyalari jurnali” markaziy registr sifatida qaraladi. Chunki qolgan analitik registrlarning aksariyati aynan ushbu registr ma’lumotlarini filtr va guruhlash orqali avtomatik shakllantirish imkoniyatiga ega. Shu bois SEG-R-01 tarkibida segmentar hisob uchun zarur bo‘lgan barcha asosiy identifikatorlarning saqlanishi zarur.

Mazkur registrda segment kodlarining buxgalteriya provodkasi bilan bir qatorda saqlanishi taklif qilinmoqda. Masalan, 2210.S01.H04.K08 yozuvi oddiy 2210-hisobvaraq aylanmasidan farqli ravishda to‘lov qaysi faoliyat segmenti, filial va sug‘urta klassiga

mansubligini bir vaqtning o‘zida aniqlash imkonini beradi. Bunda segment kodlari buxgalter tomonidan erkin matn ko‘rinishida kiritilmasligi, balki tasdiqlangan klassifikatorlardan tanlanishi zarur. Bu esa H13 yoki S05 kabi tasdiqlanmagan kodlarning tasodifan kiritilishiga yo‘l qo‘ymasdan, registr ma’lumotlarining standartlashuvini ta’minlaydi.

2.15-jadval

SEG-R-01 “Segmentlar bo‘yicha xo‘jalik operatsiyalari jurnali”ning taklif etilayotgan shakli[49]

Sana	Hujjat №	Shartnoma №	Debet	Kredit	S kodi	H kodi	K kodi	Valyuta	Debet summa	Kredit summa	Operatsiya mazmuni

Segmentlar faoliyatini davriy nazorat qilish uchun faqat xo‘jalik operatsiyalarining xronologik jurnali yetarli emas. Tadqiqotimizda har bir segment va filial bo‘yicha hisobvaraqlarning boshlang‘ich qoldig‘i, davrdagi debet-kredit aylanmasi va yakuniy qoldig‘ini umumlashtiruvchi maxsus aylanma-saldo registrini joriy etish taklif qilinmoqda.

2.16-jadval

SEG-R-10 “Segmentlar bo‘yicha aylanma-saldo qaydnomasi”ning taklif etilayotgan shakli[50]

Schyot	Segment	Filial	Davr boshiga saldo	Debet aylanma	Kredit aylanma	Davr oxiriga saldo
6280	S01	H01				
6280	S01	H02				
...	...	...				
2210	S01	H01				
8010	S01	H01				
8110	S03	H01				
Jami						

[49] Muallif ishlanmasi
[50] Muallif ishlanmasi

Ushbu registr hisobvaraqlar rejasining segmentar tahliliy qatlamini nazorat qilish uchun asosiy vositalardan biri hisoblanadi. U orqali, masalan, barcha 12 filial bo‘yicha 6280-hisobvaraq aylanmasini bir jadvalda solishtirish, ayni vaqtda S01 segmentining butun kompaniya bo‘yicha jamini olish mumkin. Bundan tashqari, qaydnoma segment ma’lumotlarining Bosh kitob bilan tengligini nazorat qilish imkonini beradi. Ya’ni H01–H12 va H00 bo‘yicha tegishli analitik yozuvlarning jami sintetik hisobvaraqdagi umumiy qoldiq va aylanmaga teng bo‘lishi shart.

IFRS 8da segmentning foyda yoki zarari rahbariyat tomonidan segment faoliyatini baholash va resurslarni taqsimlashda foydalaniladigan asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shu sababli biz tomonidan buxgalteriya registrlari tizimining yakuniy bosqichida segment daromadlari, xarajatlari va moliyaviy natijasini umumlashtiruvchi maxsus registrni shakllantirish taklif qilinadi.

2.17-jadval

SEG-R-11 “Segmentlar bo‘yicha moliyaviy natijalar registri”ning taklif etilayotgan shakli[51]

Ko‘rsatkich	S01	S02	S03	S04	S00	Jami
Sug‘urta faoliyatidan daromad					–	
Qayta sug‘urtalash natijasi					–	
Sug‘urta qoplamalari					–	
Rezervlar o‘zgarishi					–	
Bevosita xarajatlar						
Taqsimlangan umumiy xarajatlar						
Segment foydasi (zarari)						
Segment aktivlari						
Segment majburiyatlari						

Mazkur registrning muhim jihati S00 umumkorporativ ko‘rsatkichlarning ham alohida aks ettirilishidir. Bu markazlashtirilgan xarajatlarni yashirin ravishda segmentlarga yuklashning oldini oladi va qaysi summalar bevosita segmentga tegishli, qaysilari taqsimlanganligini aniqlash imkonini beradi. Registrni H01–H12 bo‘yicha ham avtomatik

[51] Muallif ishlanmasi

shakllantirish tavsiya etiladi. Bunda rahbariyat bir vaqtning o‘zida faoliyat segmentlari kesimidagi natija va hududiy filiallar kesimidagi natijani ko‘rish imkoniga ega bo‘ladi.

Segmentar hisobning ishonchliligini ta’minlash uchun segmentlar bo‘yicha shakllangan ko‘rsatkichlarning kompaniya moliyaviy hisobotidagi umumiy ko‘rsatkichlar bilan tengligi tekshirilishi lozim. IFRS 8 hisobot segmentlarining daromadi, foyda yoki zarari, aktivlari, majburiyatlari va boshqa tegishli ko‘rsatkichlarini tashkilotning moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari bilan muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Shu talabni ichki nazorat mexanizmiga aylantirish maqsadida biz tomonidan SEG-R-12 registri taklif qilinadi.

2.18-jadval

SEG-R-12 “Segmentar ko‘rsatkichlarni moliyaviy hisobot bilan muvofiqlashtirish registri”[52]

Ko‘rsatkich	S01–S04 jami	S00 / taqsimlanmagan	Ichki operatsiyalarni eliminatsiya qilish	Moliyaviy hisobot bo‘yicha summa	Farq
Daromad					
Xarajat					
Foyda (zarar)					
Aktivlar					
Majburiyatlar					

Bizning fikrimizcha, ushbu registr segmentar hisob tizimining nazorat nuqtasi vazifasini bajaradi. Segmentlar va filiallar bo‘yicha shakllantirilgan jami ko‘rsatkichlar bilan moliyaviy hisobot o‘rtasidagi farq avtomatik ravishda aniqlanishi, har qanday tafovut uchun izoh va mas’ul shaxs ko‘rsatilishi kerak.

2.3. Segmentar hisobotni shakllantirish amaliyoti va undagi metodologik muammolar

Segmentar hisobotni shakllantirish amaliyoti xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining alohida biznes yo‘nalishlari, mahsulot va xizmat turlari hamda geografik hududlar bo‘yicha iqtisodiy natijalarni tizimli

[52] Muallif ishlanmasi

baholash va manfaatdor tomonlarga taqdim etishning muhim axborot vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, faoliyati diversifikatsiyalashgan va tashkiliy tuzilmasi murakkab bo‘lgan jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda umumlashtirilgan moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari alohida faoliyat yo‘nalishlarining daromadliligi, xarajatlar tarkibi, aktivlardan foydalanish samaradorligi hamda risk darajasini to‘liq ifodalash imkonini bermaydi. Shu jihatdan segmentar hisobotni shakllantirish korxonaning ichki boshqaruv tizimida shakllanadigan axborotni tashqi moliyaviy hisobot bilan uyg‘unlashtirish, operatsion segmentlarning iqtisodiy natijalarini qiyosiy baholash va resurslarni taqsimlash bo‘yicha qabul qilinadigan qarorlarning axborot asosini mustahkamlashga xizmat qiladi. Xalqaro amaliyotda ushbu jarayon 8-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti “Operatsion segmentlar” talablariga muvofiq boshqaruv yondashuviga asoslanib, segmentlarni korxona rahbariyati tomonidan faoliyat natijalarini muntazam baholash va resurslarni taqsimlash uchun foydalaniladigan ichki axborot tizimi bilan uzviy bog‘liq holda shakllantirishni nazarda tutadi.

Biroq segmentar hisobotni amaliy shakllantirish jarayonida segmentlarni aniqlash va chegaralash, operatsion segmentlarni hisobot segmentlariga ajratish, o‘xshash segmentlarni birlashtirish mezonlarini asoslash, segment daromadlari va xarajatlarini taqsimlash, segment aktivlari va majburiyatlarini identifikatsiya qilish, segmentlararo operatsiyalarni hisobga olish hamda ichki boshqaruv ko‘rsatkichlarini moliyaviy hisobot ma’lumotlari bilan muvofiqlashtirish bilan bog‘liq qator metodologik muammolar mavjud. Ayniqsa, boshqaruv yondashuvining qo‘llanilishi korxonalarga segmentlar tarkibini ichki tashkiliy-boshqaruv tuzilmasidan kelib chiqib belgilash imkonini berishi bir tomondan axborotning boshqaruv qarorlari bilan uyg‘unligini ta’minlasa, ikkinchi tomondan turli tashkilotlar segmentar ko‘rsatkichlarining qiyoslanuvchanligini cheklashi mumkin. Bundan tashqari, umumkorporativ xarajatlarni segmentlarga taqsimlash bazalarini tanlash, transfert narxlarini belgilash, geografik va faoliyat segmentlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettirish hamda segmentar axborotning muhimlik darajasini aniqlash masalalarida yagona uslubiy yondashuvning

yetarlicha shakllanmaganligi mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli segmentar hisobotni shakllantirishning amaldagi amaliyotini tadqiq etish, undagi metodologik muammolarni tizimlashtirish va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-uslubiy takliflarni ishlab chiqish segmentar hisob va hisobot metodologiyasini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi o‘n yilliklar davomida xalqaro buxgalteriya hisobi talablariga rioya qiluvchi Yevropa kompaniyalari segmentar hisobotni tartibga solishning uchta turli tizimini boshdan kechirdi. Birinchisi — 1981-yilda qabul qilingan 14-son “Segmentlar bo‘yicha hisobot” Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHXS 14), ikkinchisi — uning 1997-yilda qayta ko‘rib chiqilgan tahriri (BHXS 14R) va nihoyat, uchinchisi — ularning o‘rnini egallagan 2006-yilda qabul qilingan 8-son “Operatsion segmentlar” Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (MHXS 8) hisoblanadi. Ushbu rivojlanish jarayonining barcha bosqichlarida Xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari kengashi tomonidan segmentar hisobotga oid standartlarni ishlab chiqishda AQShdagi tegishli standartlarning sezilarli ta’siri kuzatilgan. Buning asosiy maqsadi segmentar hisobot bo‘yicha xalqaro va AQSh standartlarini bosqichma-bosqich bir-biriga yaqinlashtirishdan iborat bo‘lgan.

Segmentar hisobot standartlarini konvergensiya qilish loyihasi 2002-yil sentabr oyida tuzilgan Norwalk kelishuvidan keyin Xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari kengashi kun tartibiga kiritilgan loyihalardan biri bo‘ldi. Ushbu loyihaning asosiy maqsadi Xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari kengashi va AQSh Moliyaviy hisob standartlari kengashining moliyaviy hisobot tizimlari o‘rtasida mavjud farqlarni qisqartirish hamda ikki standartlar tizimi o‘rtasida to‘liq konvergensiyaga erishishdan iborat edi.

8-son MHXSning joriy etilishi segmentar axborotni shakllantirish amaliyotida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirishi kutilgan. Eng muhimi, yangi standart investorlarga kompaniya faoliyatini “rahbariyat nigohi bilan” (management perspective) ko‘rish imkoniyatini berishi

kerak edi. Natijada moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar kompaniya faoliyat yuritayotgan biznes yo‘nalishlari va bozorlarga xos risklar hamda iqtisodiy manfaatlarni tahlil qilish orqali uning umumiy faoliyat natijalarini yanada to‘liq tushunish imkoniyatiga ega bo‘lishi nazarda tutilgan.

Yangi yondashuvning kutilayotgan afzalliklari qatoriga axborotni tayyorlash xarajatlarini kamaytirish, moliyaviy hisobot shaffofligini oshirish hamda segmentar axborotning foydaliligi va ahamiyatliligini yaxshilash kiritilgan. Biroq 2006-yil boshida boshlangan 8-son MHXSni ishlab chiqish va muhokama qilish jarayonida moliyaviy hisobot tuzuvchilar bir qator jiddiy xavotirlarni bildirganlar.

Yangi yondashuvning kutilayotgan afzalliklari qatoriga axborotni tayyorlash xarajatlarini kamaytirish, moliyaviy hisobot shaffofligini oshirish hamda segmentar axborotning foydaliligi va ahamiyatliligini yaxshilash kiritilgan. Biroq 2006-yil boshida boshlangan 8-son MHXSni ishlab chiqish va muhokama qilish jarayonida moliyaviy hisobot tuzuvchilar bir qator jiddiy xavotirlarni bildirganlar. Birinchidan, yangi standartning joriy etilishi geografik segmentlar bo‘yicha oshkor qilinadigan axborot hajmining kamayishiga olib kelishi mumkinligi ta’kidlangan. Ikkinchidan, bir xil yoki o‘xshash tarmoqlarda faoliyat yuritadigan kompaniyalar segmentlari o‘rtasidagi taqqoslanuvchanlikning pasayishi ehtimoli mavjud edi. Uchinchidan, korxonaning ichki tashkiliy tuzilmasidagi o‘zgarishlar natijasida bir kompaniyaning turli hisobot davrlaridagi segmentar axborotini o‘zaro solishtirish, ya’ni vaqt qatorlari bo‘yicha taqqoslanuvchanlik buzilishi mumkinligi qayd etilgan.

Buning muhim sababi shundaki, 8-son MHXS tamoyillarga asoslangan standart bo‘lib, 14-son BHXSning qayta ko‘rib chiqilgan tahririga nisbatan rahbariyatga ko‘proq professional mulohaza va ixtiyoriylik imkoniyatini beradi. Aboud va Roberts (2018) fikricha, bunday erkinlik ayrim holatlarda rahbariyat tomonidan muhim segmentar axborotni yashirish imkoniyatini ham oshirishi mumkin. Shunga qaramasdan, standartni ishlab chiqish jarayonida bildirilgan tanqidlarga qaramay, Xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari kengashi hamda

Yevropa Komissiyasi yangi standartni joriy etishdan olinadigan manfaatlar uning potensial xarajatlaridan yuqori bo‘lishiga ishongan.

8-son MHXS joriy etilganidan keyin amalga oshirilgan empirik tadqiqotlar esa segmentar hisobot amaliyotida kutilgan darajadagi tub o‘zgarishlar yuz bermaganligini ko‘rsatgan. Bu holat Cereola va boshqalar (2017), Bugeja va boshqalar (2015), Crawford va boshqalar (2012), Weissenberger va Franzen (2013), Kang va Gray (2013), He va boshqalar (2012), Wilkins va Khoo (2012) hamda Mardini va boshqalar (2012) tadqiqotlarida qayd etilgan.

Nichols va boshqalar (2013) ta’kidlashicha, Xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari kengashi 131-son SFASga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslanib, 8-son MHXS qabul qilingandan so‘ng hisobot segmentlari sonining ko‘payishini kutgan. Biroq amaliy natijalar mamlakatlar kesimida sezilarli darajada farqlangan. Ushbu holat Kvaal va Nobes (2012) tomonidan ilgari surilgan, MHXSlar turli mamlakatlarda o‘ziga xos “milliy xususiyatlar” ta’sirida qo‘llanilishi haqidagi fikrni tasdiqlaydi

Cereola va Dynowska (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotda 8-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (MHXS 8) talablarining Polsha fond bozorida listingdan o‘tgan kompaniyalarda segmentar axborotni oshkor qilish amaliyotiga ta’siri empirik jihatdan baholangan. Mualliflar 275 ta yirik listing kompaniyasining yillik moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish asosida MHXS 8ning joriy etilishi segmentlar to‘g‘risidagi axborotning mazmuni va oshkoraligiga muayyan ijobiy ta’sir ko‘rsatganini aniqlaganlar. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari standart talablarining mavjudligi segmentar hisobotning to‘liq va sifatli shakllantirilishini avtomatik ravishda ta’minlamasligini, xususan, segment ko‘rsatkichlarini korxonaning umumlashtirilgan moliyaviy ko‘rsatkichlari bilan muvofiqlashtirish hamda geografik hududlar bo‘yicha axborotni oshkor qilishda kamchiliklar saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi. Mazkur natijalar segmentar hisobotning axborot salohiyatini oshirishda faqat me’yoriy talablarni belgilash bilan cheklanmasdan, korxonalarda segmentlarni aniqlash, segmentlar kesimida analitik hisobni tashkil etish va oshkor qilinadigan ko‘rsatkichlarning izchilligini

ta’minlovchi metodologik mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini asoslaydi.[53]

Saleh, Aboud va Eliwa (2023) 18 ta Yevropa Ittifoqi mamlakatining 2007–2011-yillardagi 884 ta kompaniya-yil kuzatuvlari asosida 8-son MHXS joriy etilganidan keyingi segmentar hisobot sifatining kapital qiymatiga ta’sirini tadqiq etgan. Mualliflar segmentar hisobot sifatini faqat oshkor qilingan axborot hajmi bilan cheklamasdan, segment axborotining miqdori, detallashtirilishi va boshqa sifat o‘lchovlarini birlashtiruvchi kompleks ko‘rsatkich asosida baholagan. Tadqiqot natijalari 8-son MHXSning boshqaruv yondashuviga o‘tilishi investorlar va kredit tashkilotlari uchun segmentar axborotning foydaliligini sezilarli ravishda oshirganligini tasdiqlovchi yetarli empirik dalillarni ko‘rsatmagan. Mazkur natija segmentar hisobot samaradorligini faqat standart talablarining mavjudligi yoki oshkor qilinadigan ma’lumotlar soni bilan emas, balki axborot sifati, uning detallashtirilish darajasi hamda standart talablarining ijrosini ta’minlovchi institutsional muhit bilan birgalikda baholash zarurligini ko‘rsatadi.[54]

Gisbert, Navallas va Romero (2024) tadqiqoti segmentar hisobotni shakllantirishdagi muhim metodologik muammoni ochib beradi: 8-son MHXSda qo‘llaniladigan “boshqaruv yondashuvi” segmentlarni aniqlash va ular bo‘yicha oshkor qilinadigan ko‘rsatkichlarni korxonaning ichki boshqaruv axborotiga bog‘laydi, biroq aynan shu holat tashqi foydalanuvchilar uchun segmentar axborotning taqqoslanuvchanligi, to‘liqligi va xolisligi bilan bog‘liq muammolarni yuzaga keltiradi. Mualliflar 8-son MHXS rahbariyatga 14-son BHXSga nisbatan kengroq professional mulohaza va ixtiyoriylik berishini, natijada segmentlar soni, ularning chegaralari hamda oshkor qilinadigan moliyaviy ko‘rsatkichlar tarkibi korxonalarda turlicha shakllanishi mumkinligini ta’kidlaydilar. Bu esa bir xil tarmoqda faoliyat yurituvchi kompaniyalar segmentar hisobotlarini o‘zaro solishtirishni qiyinlashtiradi, ayrim hollarda esa past rentabelli yoki strategik jihatdan sezgir segmentlar to‘g‘risidagi axborotni cheklash uchun imkoniyat yaratadi. Tadqiqot natijalari ham 8-son MHXS

[53] https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1061951822000210
[54] https://www.researchgate.net/publication/357958032_IFRS_8_and_the_cost_of_capital_in_Europe

joriy etilgandan so‘ng segmentlar soni va segmentar axborot hajmida kutilgan darajadagi sezilarli o‘zgarishlar yuz bermaganini ko‘rsatgan. Shundan kelib chiqib, segmentar hisobot metodologiyasining asosiy muammosi sifatida ichki boshqaruv yondashuvi bilan tashqi moliyaviy hisobotning taqqoslanuvchanlik va shaffoflik tamoyillari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash masalasini ko‘rsatish mumkin.[55]

Aboud (2023) tadqiqotida segmentar hisobotning metodologik muammosi uning axborot sifatini faqat oshkor qilinadigan ko‘rsatkichlar hajmi bilan emas, balki geografik axborotning dezagregatsiya darajasi, mamlakat miqyosidagi hisob standartlarini ijro etish mexanizmlarining kuchi hamda moliyaviy tahlilchilar prognozlarining tarqoqligi bilan o‘zaro bog‘liqlikda baholash zarurati orqali namoyon bo‘ladi. Muallif Yevropa Ittifoqining 208 ta yirik nomoliyaviy kompaniyasi misolida segmentar hisobot sifatini mamlakatlar kesimida sotuvlar haqidagi ma’lumotlarning batafsil ajratib ko‘rsatilishi orqali o‘lchagan va 8-son MHXS joriy etilishidan oldingi hamda keyingi davrlarni taqqoslagan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, segmentar axborot hajmining ortishi o‘z-o‘zidan tahlilchilar prognozlari o‘rtasidagi tafovutni kamaytirmaydi; aksincha, hisob standartlari ijrosi kuchli bo‘lgan mamlakatlarda sifatli segmentar axborot prognozlar tarqoqligini kamaytiradi, zaif institutsional muhitda esa bunday natija kuzatilmasligi mumkin. Shundan kelib chiqib, segmentar hisobot metodologiyasidagi asosiy muammo sifatida 8-son MHXS talablarining yagona bo‘lishiga qaramay, segmentar axborotning amaliy sifati va foydaliligi mamlakatning institutsional hamda nazorat muhitiga bog‘liq holda turlicha shakllanishini, demak, segmentar hisobot sifatini baholashda faqat standartga muvofiqlik emas, balki dezagregatsiya darajasi, ijro mexanizmlarining samaradorligi va axborotning foydalanuvchilar qarorlariga ta’sirini birgalikda hisobga oluvchi kompleks metodologik yondashuv zarurligini ko‘rsatish mumkin.[56]

Ammar va Mardini (2021) tadqiqotida segmentar hisobotni shakllantirishdagi muhim metodologik muammo sifatida korxonaning

[55] https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=4752945
[56] https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1061951823000629

turli biznes segmentlari, funksional bo‘linmalari va geografik hududlarida shakllanadigan hisob axborotining tarqoqligi hamda uni yagona axborot bazasiga integratsiyalash masalasi ajratib ko‘rsatiladi. Mualliflar 8-son “Operatsion segmentlar” MHXSning boshqaruv yondashuvi segmentar axborotni korxonaning ichki boshqaruv tizimiga asoslangan holda shakllantirishni talab qilishi, biroq parchalangan axborot tizimlari sharoitida segmentlar bo‘yicha daromadlar, xarajatlar va faoliyat natijalarini izchil shakllantirish, umumiy hamda ma’muriy xarajatlarni tegishli segmentlarga taqsimlash va segmentlararo axborot oqimlarini muvofiqlashtirish murakkablashishini ta’kidlaydilar. ERP tizimining integratsiya, standartlashtirish va markazlashtirish imkoniyatlari ushbu muammoni kamaytirishga xizmat qilsa-da, segmentar hisob obyektlari, analitik hisobvaraqlar, xarajat va mas’uliyat markazlari hamda 8-son MHXS bo‘yicha hisobot segmentlarini yagona metodologik zanjir asosida o‘zaro bog‘lash masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Shundan kelib chiqib, segmentar hisobot metodologiyasini takomillashtirishda birlamchi hisob ma’lumotlaridan boshlab segmentar hisobot ko‘rsatkichlarigacha bo‘lgan axborot oqimini ERP muhitida integratsiyalash, segmentlarga xarajatlarni taqsimlashning yagona mezonlarini belgilash va ichki boshqaruv axboroti bilan tashqi segmentar hisobot o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash zarur.[57]

Lenormand va hammualliflar (2021) tadqiqotida 8-son “Operatsion segmentlar” MHXSning joriy etilishi korxonalarning axborot muhitini yaxshilashi mumkinligi tahlil qilinib, segmentar hisobot metodologiyasidagi muhim muammo sifatida “boshqaruv yondashuvi” asosida shakllantirilgan segmentar axborotning tashqi foydalanuvchilar uchun haqiqiy axborot qiymatini aniqlash va baholash murakkabligi namoyon bo‘ladi. Standart operatsion segmentlarni rahbariyat ichki boshqaruv va resurslarni taqsimlash maqsadida foydalanadigan tuzilma asosida aniqlashni nazarda tutsa-da, rahbariyatga berilgan professional mulohaza imkoniyati segmentlarni agregatsiyalash darajasi va oshkor qilinadigan ko‘rsatkichlar tarkibida korxonalararo farqlarni yuzaga keltiradi. Natijada 8-son MHXSga formal muvofiqlikning o‘zi segmentar

[57] https://onlinelibrary.wiley.com/doi/epdf/10.1111/acfi.12608

axborotning investorlarga foydaliligi, shaffofligi va korxonalararo taqqoslanuvchanligini kafolatlamaydi. Shu bois segmentar hisobotni takomillashtirishdagi metodologik muammo segmentlarni ichki boshqaruv tuzilmasi asosida shakllantirish bilan bir vaqtda, oshkor qilinadigan axborotning dezagregatsiya darajasi, taqqoslanuvchanligi va kapital bozori ishtirokchilari uchun axborot qiymatini ta’minlaydigan mezonlarni ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi.[58]

Guo, Kent va Richardson (2026) tadqiqotida 8-son “Operatsion segmentlar” MHXSni qo‘llashdagi muhim metodologik muammo sifatida standart talablarini muqobil talqin qilish imkoniyati tufayli segmentar axborotning dezagregatsiya darajasi rahbariyatning professional mulohazasiga haddan tashqari bog‘lanib qolishi masalasi namoyon bo‘ladi. Mualliflar segmentlarni aniqlash, o‘xshash iqtisodiy xususiyatlarga ega operatsion segmentlarni birlashtirish hamda geografik va boshqa segmentar ma’lumotlarni oshkor qilishda 8-son MHXS tomonidan berilgan moslashuvchanlik kompaniyalarga iqtisodiy jihatdan muhim ayrim faoliyat yo‘nalishlarini yirik segmentlar tarkibida agregatsiyalash imkonini berishini ko‘rsatadilar; bu esa, xususan, soliqdan qochish strategiyalarini tashqi foydalanuvchilar tomonidan aniqlashni qiyinlashtirishi mumkin. Mazkur holat segmentar hisobotning faqat standartga formal muvofiqligini tekshirish yetarli emasligini, balki operatsion segmentlarni agregatsiyalashning iqtisodiy asoslanganligi, segmentlar kesimida axborotni dezagregatsiya qilish darajasi va oshkor qilinmagan ma’lumotlarning axborot ahamiyatini baholash mezonlari ham ishlab chiqilishi zarurligini ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqib, segmentar hisobot metodologiyasidagi asosiy muammo 8-son MHXSning boshqaruv yondashuvi taqdim etadigan professional mulohaza erkinligi bilan foydalanuvchilar uchun shaffof, yetarlicha batafsil va manipulyativ agregatsiyadan xoli segmentar axborotni ta’minlash o‘rtasidagi muvozanatni shakllantirishdan iborat.[59]

Biz yuqoridagi olimlarning fikr-mulohazalari va boshqa olimlarning ilmiy qarashlaridan kelib chiqib, segmentar hisobotni shakllantirish

[58] https://www.emerald.com/jaar/article-abstract/22/2/383/190600/Does-International-Financial-Reporting-Standard-8

[59] https://www.emerald.com/jal/article/48/5/31/1334183/Obscuring-tax-avoidance-by-alternative

amaliyotida qator metodologik muammolar mavjudligini ta’kidlashimiz mumkin. Xususan, operatsion segmentlarni aniqlash va agregatsiyalash mezonlarining yetarlicha aniqlashtirilmaganligi, boshqaruv yondashuvida rahbariyatning professional mulohazasiga keng imkoniyat berilishi, segmentlar bo‘yicha daromad, xarajat, aktiv va majburiyatlarni analitik hisobga olish, umumiy xarajatlarni segmentlar o‘rtasida asosli taqsimlash, segmentlararo operatsiyalar va transfert narxlarini hisobga olish, shuningdek, ichki boshqaruv axborotini tashqi segmentar hisobot ko‘rsatkichlari bilan muvofiqlashtirish masalalari shular jumlasidandir. Mazkur muammolar segmentar axborotning to‘liqligi, shaffofligi, ishonchliligi va korxonalararo taqqoslanuvchanligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bizning fikrimizcha, segmentar hisobotni shakllantirishdagi metodologik muammolarni faqat 8-son “Operatsion segmentlar” MHXS talablariga rioya etish doirasida ko‘rib chiqish yetarli emas. Ularni segmentar hisobning axborot bazasini shakllantirishdan boshlab yakuniy segmentar hisobotni tuzish va uning sifatini baholashgacha bo‘lgan yaxlit hisob jarayoni sifatida tadqiq etish zarur. Bunda segmentar hisob obyektlarini aniq belgilash, analitik hisobvaraqlar va hisob registrlarini segmentlar bilan bog‘lash, xarajatlarni taqsimlash hamda segmentlararo operatsiyalarni hisobga olishning yagona uslubiy tartibini ishlab chiqish, axborot oqimlarini korxona resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimida integratsiyalash va oshkor qilinadigan axborotning maqbul dezagregatsiya darajasini belgilash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu asosda segmentar hisobotni shakllantirish amaliyotida aniqlangan asosiy metodologik muammolar, ularning mazmuni, hisobotga ta’siri va ularni bartaraf etish yo‘nalishlari quyidagi jadvalda tizimlashtirildi.

2.19-jadval

Segmentar hisobotni shakllantirish amaliyotidagi metodologik muammolar[60]

№	Metodologik muammo	Muammoning mazmuni	Segmentar hisobotga ta’siri
1	Operatsion segmentlarni aniqlash	8-son MHXSning boshqaruv yondashuvida	Bir xil iqtisodiy faoliyatga ega

[60] Muallif ishlanmasi

	mezonlarining subyektivligi	segmentlar asosiy operatsion qarorlarni qabul qiluvchi shaxs (CODM) ko‘rib chiqadigan ichki axborot asosida belgilanadi. Natijada segment chegaralari korxonaning boshqaruv tuzilmasi va rahbariyat professional mulohazasiga bog‘liq bo‘lib qoladi.	korxonalarda turlicha segmentlar shakllanishi va korxonalararo taqqoslanuvchanlik pasayishi mumkin.
2	Operatsion segmentlarni agregatsiyalashning metodologik noaniqligi	“O‘xshash iqtisodiy xususiyatlar”ga ega segmentlarni birlashtirish imkoniyati mavjud, biroq ushbu o‘xshashlikni amaliy baholashda rahbariyat mulohazasi muhim o‘rin egallaydi. Xalqaro standartlar kengashi ham agregatsiya mezonlarini qo‘llash asoslari bo‘yicha muammolar mavjudligini qayd etgan.	Iqtisodiy jihatdan muhim yoki rentabelligi turlicha faoliyatlar bitta segment tarkibida yashirinib qolishi, axborotning dezagregatsiya darajasi pasayishi mumkin.
3	Ichki boshqaruv hisobi va tashqi segmentar hisobot o‘rtasidagi uzviylik muammosi	Boshqaruv yondashuvi tashqi segmentar hisobotni ichki boshqaruv axborotiga yaqinlashtiradi, biroq ichki hisob ko‘rsatkichlarining tarkibi va baholash usullari MHXS asosidagi umumiy moliyaviy hisobotdan farq qilishi mumkin.	Segment natijalari bilan korxona moliyaviy hisobotidagi umumiy ko‘rsatkichlar o‘rtasida tafovutlar yuzaga keladi.
4	Segmentlar bo‘yicha analitik hisobning yetarli darajada tashkil etilmaganligi	Daromad, xarajat, aktiv va majburiyatlarni segmentlar kesimida alohida kuzatish uchun zarur analitik hisobvaraqlar va registrlar barcha korxonalarda shakllantirilmagan.	Segment ko‘rsatkichlarining bir qismi hisob tizimidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri olinmay, qo‘shimcha hisob-kitoblar asosida shakllantiriladi.
5	Umumiy xarajatlarni segmentlarga	Boshqaruv, axborot texnologiyalari, marketing, ijara va boshqa	Segment foydasi va rentabelligi noto‘g‘ri baholanishi,

	taqsimlash muammosi	umumkorporativ xarajatlarning qaysi qismi muayyan segmentga tegishli ekanligini aniqlash murakkab.	segmentlar samaradorligi bo‘yicha boshqaruv qarorlari buzilishi mumkin.
6	Segmentlararo operatsiyalar va transfert narxlarini hisobga olish muammosi	Segmentlar o‘rtasidagi mahsulot, xizmat, resurs va boshqa operatsiyalarni baholash usullarining turlicha bo‘lishi segmentlarning moliyaviy natijalariga bevosita ta’sir qiladi.	Ayrim segmentlarning foydasi sun’iy oshishi, boshqalariniki kamayishi va segment samaradorligi noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin.
7	Segmentar axborotning dezagregatsiya darajasini belgilash muammosi	Axborotning haddan tashqari agregatsiyasi muhim iqtisodiy farqlarni yashiradi, ortiqcha dezagregatsiya esa hisobotni murakkablashtiradi va tijorat jihatdan sezgir axborotni oshkor qilishi mumkin. Tadqiqotlarda geografik dezagregatsiya segmentar axborot sifatining muhim o‘lchovi sifatida ishlatiladi.	Axborotning relevanti, shaffofligi va foydalanuvchilar uchun tushunarliligi o‘rtasidagi muvozanat buziladi.
8	Segmentar axborotning taqqoslanuvchanligi muammosi	Boshqaruv yondashuvi korxonaning ichki tuzilmasini yaxshiroq aks ettiradi, biroq kompaniyalarning ichki boshqaruv tuzilmalari bir-biridan farq qiladi.	Tarmoqdagi kompaniyalarning segmentlari va segment natijalarini bevosita solishtirish imkoniyati cheklanadi.
9	Segmentar axborotning sifati va miqdorini baholash metodologiyasi mavjud emasligi	Segmentlar sonining ko‘pligi yoki oshkor qilingan ko‘rsatkichlar sonining ortishi doimo yuqori sifatli segmentar hisobotni anglatmaydi. Aboud (2023) geografik dezagregatsiya va oshkor qilingan ko‘rsatkichlar miqdorini alohida o‘lchaydi.	Formal jihatdan to‘liq hisobot foydalanuvchilar uchun yetarli axborot qiymatiga ega bo‘lmasligi mumkin.

10	Mulkiy xarajatlar va tijorat sirini himoya qilish muammosi	Raqobatchilarga strategik axborot berib qo‘yish xavfi rahbariyatni ayrim segmentar ma’lumotlarni kamroq batafsillikda taqdim etishga undashi mumkin. Empirik tadqiqotlarda mulkiy xarajatlar 8-son MHXSdan keyingi segmentar axborot sifati bilan bog‘langan.	Yuqori rentabelli, strategik yoki istiqbolli faoliyat yo‘nalishlari yirik segmentlar tarkibida agregatsiyalanishi mumkin.
11	Agentlik manfaatlari va rahbariyatning professional mulohazasi muammosi	Rahbariyatga berilgan diskretsiya segmentlarni shakllantirish va axborotni oshkor qilishda menejerlar manfaatlarining ta’sirini kuchaytirishi mumkin.	Noqulay natijalarni agregatsiyalash yoki kamroq batafsil oshkor qilish ehtimoli yuzaga keladi.
12	Segmentar hisobot axborot bazasining tarqoqligi	Turli filiallar, biznes birliklari va funksional bo‘linmalardagi ma’lumotlarning alohida axborot tizimlarida yuritilishi segmentar hisobotni tezkor shakllantirishni qiyinlashtiradi. Ammar va Mardini ERP tizimi segmentar axborot sifati va miqdori bilan ijobiy bog‘liqligini aniqlagan.	Ma’lumotlarni takroriy qayta ishlash, moslashtirishdagi xatolar va hisobotni kechiktirish xavfi ortadi.
13	Mamlakat institutsional muhiti va standart talablarining ijrosi muammosi	Bir xil 8-son MHXS talablari qo‘llanilsa ham, hisob standartlari ijrosini ta’minlash va nazorat qilish kuchi mamlakatlar bo‘yicha farqlanadi. Aboud (2023) kuchli ijro tizimi segmentar hisobot natijalariga sezilarli ta’sir qilishini ko‘rsatadi.	Bir xil standart asosida tayyorlangan segmentar hisobotlarning haqiqiy sifati mamlakatlar bo‘yicha farqlanishi mumkin.
14	Segment tarkibining davrlar bo‘yicha o‘zgarishi muammosi	Korxona tashkiliy tuzilmasi yoki CODMga taqdim etiladigan ichki axborot o‘zgarganda operatsion segmentlar	Segment ko‘rsatkichlarining yillar bo‘yicha dinamik tahlili va retrospektiv

		tarkibi ham o‘zgarishi mumkin.	taqqoslanishi murakkablashadi.
15	Segmentar hisobotning axborot samaradorligini baholash muammosi	Standart talablariga muvofiqlik axborotning investor va tahlilchilar uchun amalda foydali ekanligini avtomatik kafolatlamaydi. Aboud (2023) segmentar hisobot natijalarini tahlilchilar prognozlari tarqoqligi bilan bog‘lab o‘rganadi.	Segmentar hisobotning qaror qabul qilishdagi haqiqiy foydaliligi aniqlanmay qoladi.

Jadvalda keltirilgan metodologik muammolarni umumlashtirish natijasida segmentar hisobotni shakllantirish amaliyotidagi kamchiliklar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular faqat yakuniy hisobotni tuzish bosqichida emas, balki segmentlarni aniqlashdan boshlab axborotni yig‘ish, guruhlash, baholash, taqsimlash va oshkor qilishgacha bo‘lgan barcha hisob jarayonlarida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Ayniqsa, operatsion segmentlarni aniqlash va agregatsiyalashda professional mulohazaning ustunligi, segmentlar bo‘yicha analitik hisobning yetarlicha rivojlanmaganligi, umumiy xarajatlarni taqsimlash va segmentlararo operatsiyalarni baholashdagi uslubiy tafovutlar, shuningdek, ichki boshqaruv axboroti bilan tashqi segmentar hisobot o‘rtasidagi muvofiqlikning to‘liq ta’minlanmasligi segmentar axborotning ishonchliligi, shaffofligi va taqqoslanuvchanligini pasaytiruvchi asosiy omillar sifatida baholandi. Bundan tashqari, axborotni haddan tashqari agregatsiyalash ayrim faoliyat yo‘nalishlarining iqtisodiy natijalarini yashirishi, ortiqcha dezagregatsiya esa hisobotning murakkablashishi va tijorat jihatdan muhim axborotning oshkor bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Shundan kelib chiqib, bizning fikrimizcha, aniqlangan metodologik muammolarni bartaraf etish segmentar hisobotni takomillashtirishdan ko‘ra, uni shakllantiruvchi segmentar hisob tizimini kompleks ravishda takomillashtirishni talab etadi. Buning uchun operatsion segmentlarni aniqlashning ko‘p mezonli uslubini ishlab chiqish, segmentar hisob obyektlarini aniq belgilash, birlamchi hujjatlar va analitik hisobvaraqlarga segment identifikatorlarini kiritish, xarajatlarni segmentlarga taqsimlash

hamda segmentlararo operatsiyalarni hisobga olishning yagona uslubiy tartibini belgilash, mazkur jarayonlarni korxona resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimida integratsiyalash va segmentar axborot sifatini baholash mezonlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Natijada “birlamchi hisob → analitik hisob → segmentar hisob → ichki segmentar axborot → operatsion segmentlarni aniqlash → segmentar hisobot → axborot sifatini baholash” ketma-ketligiga asoslangan yaxlit metodologik tizimni shakllantirish segmentar hisobotning axborot imkoniyatlarini oshirishning muhim yo‘nalishi sifatida qaralishi mumkin.

Biz tadqiqotimiz davomida sug‘urta kompaniyalarining ham faoliyatlarini tahlil qilganimizda ular tomonidan segmentar hisobotlar tuzilishini guvohi bo‘ldik va bir qancha kompaniyalar tajribalarini keltirib o‘tish maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Allianz Group tajribasi segmentar hisobotni shakllantirishda biznes faoliyati va geografik boshqaruv tuzilmasini uyg‘unlashtiruvchi ko‘p bosqichli segmentatsiya modelidan foydalanilishini ko‘rsatadi. Guruh faoliyati dastlab mahsulot va xizmatlarning iqtisodiy xususiyatlariga ko‘ra Property-Casualty, Life/Health, Asset Management hamda Corporate and Other biznes segmentlariga ajratilgan bo‘lsa, sug‘urta faoliyati boshqaruv mas’uliyatidan kelib chiqib geografik hisobot segmentlariga yanada dezagregatsiya qilingan. Natijada 8-son MHXS talablariga muvofiq 11 ta hisobot segmenti shakllantirilgan. Segmentlar bo‘yicha daromadlar, xarajatlar, investitsiya natijalari va boshqa moliyaviy ko‘rsatkichlarning alohida aks ettirilishi, segmentlararo operatsiyalarda bozor tamoyiliga asoslangan narxlashning qo‘llanilishi hamda bunday operatsiyalarning konsolidatsiyada eliminatsiya qilinishi segmentar hisob axboroti bilan tashqi segmentar hisobot o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi.[61]

Allianz Groupning 2025-yilgi yillik hisobotini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, kompaniyada segmentar hisobotni shakllantirish 8-son MHXS talablariga muvofiq ravishda boshqaruv tuzilmasi, faoliyat turi, mahsulot xususiyatlari, risklar hamda kapitalni taqsimlash

[61] https://www.allianz.com/content/dam/onemarketing/azcom/Allianz_com/investor-relations/en/results-reports/annual-report/ar-2025/en-allianz-group-annual-report-2025.pdf

mexanizmlarini uyg‘unlashtirgan holda tashkil etilgan. Guruh faoliyati dastlab sug‘urta, aktivlarni boshqarish hamda korporativ va boshqa faoliyat yo‘nalishlariga ajratilgan. Sug‘urta faoliyati esa mahsulotlarning iqtisodiy mazmuni, risklarning tabiati va kapitalga bo‘lgan talabning turlicha ekanligi sababli Property-Casualty va Life/Health biznes segmentlariga bo‘lingan. Keyingi bosqichda ushbu biznes segmentlari Boshqaruv kengashi a’zolarining mas’uliyat sohalaridan kelib chiqib geografik va global faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha hisobot segmentlariga ajratilgan. Natijada Allianz Group 2025-yilda 11 ta hisobot segmentini 8-son MHXSga muvofiq aniqlagan. Mazkur yondashuv segmentlarni faqat yuridik tuzilma yoki geografik mezonga ko‘ra emas, balki tashkilot ichida real boshqaruv va resurslarni taqsimlash qanday amalga oshirilayotganiga qarab belgilash zarurligini ko‘rsatadi.

Allianz tajribasida segmentar hisobotning yana bir muhim jihati — segmentlar bo‘yicha axborotni dezagregatsiya qilish darajasidir. Kompaniya Property-Casualty va Life/Health biznes yo‘nalishlarini tegishli geografik hisobot segmentlariga ajratib, ularning har biri bo‘yicha operatsion sug‘urta daromadi, sug‘urta da’volari va to‘lovlari, sotib olish va ma’muriy xarajatlar, operatsion investitsiya natijasi hamda nooperatsion natijalarni alohida ochib beradi. Masalan, 2025-yilda Property-Casualty yo‘nalishida German Speaking Countries and Central Europe segmentining operatsion sug‘urta daromadi 20 399 mln yevro, Western and Southern Europe, Allianz Direct va Allianz Partners segmentida 23 645 mln yevro, Asia Pacific segmentida esa 6 974 mln yevroni tashkil etgan. Bu holat segmentar hisobotning foydalanuvchilarga faqat umumiy natijani emas, balki ushbu natijaning qaysi hudud va biznes yo‘nalishlarida shakllanganligini aniqlash imkonini berishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot nuqtayi nazaridan Allianz amaliyotining alohida ahamiyatli tomoni segmentlar samaradorligini baholash uchun boshqaruv tomonidan foydalaniladigan ko‘rsatkichlarning tashqi hisobot bilan integratsiyalashganidir. Kompaniya segmentlar va butun guruh faoliyatini baholashda operatsion foyda hamda aksiyadorlarga tegishli asosiy sof daromaddan foydalanadi. Hisobotda operatsion foyda tashkilotning doimiy asosiy faoliyatiga tegishli daromadning soliqqa tortishgacha

bo‘lgan qismini ifodalashi va ushbu ko‘rsatkich investorlarning kompaniyaning asosiy operatsion samaradorligini tushunishiga xizmat qilishi qayd etilgan. Shu bilan birga, operatsion foydani aniqlashda realizatsiya qilingan daromad va zararlar, kutilayotgan kredit zararlariga rezerv, ayrim derivativ natijalari, qarzlar bo‘yicha foiz xarajatlari, investitsiyalar qadrsizlanishi, ayrim qayta tashkil etish xarajatlari kabi nooperatsion elementlar chiqarib tashlanadi. Bu esa segment faoliyatini baholashda umumiy moliyaviy natija bilan bir qatorda barqaror operatsion faoliyatga tegishli natijalarni alohida ajratish zarurligini ko‘rsatadi.

Allianz Group segmentar hisobining metodologik jihatdan muhim elementlaridan yana biri segmentlararo operatsiyalarni baholash va konsolidatsiya qilish tartibidir. Hisobotda hisobot segmentlari o‘rtasidagi operatsiyalar bo‘yicha narxlar mustaqil uchinchi tomonlar o‘rtasidagi bitimlarga o‘xshash, ya’ni bozor shartlariga asoslangan “arm’s length” tamoyili bo‘yicha belgilanadi. Shu bilan birga, segmentlararo operatsiyalar konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzishda eliminatsiya qilinadi. Bunday amaliyot segmentar hisobda transfert narxlarini belgilash bilan konsolidatsiya jarayonlarini o‘zaro bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi. Chunki segmentlar ichki boshqaruv nuqtayi nazaridan mustaqil iqtisodiy birlik sifatida baholanishi mumkin bo‘lsa-da, guruh darajasida ularning o‘zaro operatsiyalari sun’iy ravishda daromad, xarajat, aktiv yoki majburiyatlarni ko‘paytirib ko‘rsatmasligi lozim.

Allianz hisobotining tahlili segmentar hisobotni shakllantirishda agregatsiya va dezagregatsiya o‘rtasidagi muvozanat metodologik muammo bo‘lib qolayotganini ham ko‘rsatadi. Kompaniya ayrim biznes yo‘nalishlarini geografik hududlar bo‘yicha yanada batafsil ajratadi, Asset Management hamda Corporate and Other faoliyatlari esa alohida hisobot segmentlari sifatida saqlanadi. Biroq hisobotda moliyaviy axborot hisobot segmentlari bo‘yicha shakllantirilishi va segmentlarni kesib o‘tuvchi mamlakatlar kesimidagi alohida moliyaviy axborot aniqlanmasligi qayd etilgan. Demak, foydalanuvchi segment bo‘yicha ancha batafsil ma’lumot olsa-da, bir vaqtning o‘zida har bir mamlakat va faoliyat turining kombinatsiyasi bo‘yicha axborotni olish imkoniyatiga

ega emas. Bu holat 8-son MHXSdagi boshqaruv yondashuvining afzalligi bilan birga uning cheklovini ham namoyon qiladi: tashqi segmentar hisobot ichki boshqaruv arxitekturasiga bog‘liq bo‘lganligi sababli foydalanuvchi talab qilishi mumkin bo‘lgan barcha kesimlarda dezagregatsiyani ta’minlamaydi.

Allianz misolida segmentar axborotni shakllantirish jarayonini quyidagicha ifodalash mumkin:



2.4-rasm. 8-son MHXS talablari asosida segmentar axborotni shakllantirish va oshkor qilish jarayoni

Ushbu zanjir Allianz tajribasida segmentar hisobot faqat moliyaviy hisobotning yakuniy elementi emasligini, balki ichki boshqaruv hisobi → segmentar hisob → segmentar tahlil → boshqaruv qarori → tashqi segmentar hisobot o‘rtasidagi integratsiyalashgan axborot tizimining natijasi ekanligini ko‘rsatadi.

2.20-jadval

Allianz Groupda segmentar hisobotni shakllantirishning metodologik xususiyatlari[62]

Metodologik element	Allianz Group amaliyoti	Ilmiy baho
Segmentatsiya asosi	Mahsulot, xizmat turi, risk, kapital va boshqaruv mas’uliyati	Ko‘p mezonli segmentatsiya
Biznes segmentlari	Mol-mulk va baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash, Hayot va sog‘liqni sug‘urtalash, Aktivlarni boshqarish, Korporativ va boshqa faoliyatlar	Faoliyat xususiyatlariga asoslangan
Hisobot segmentlari	11 ta	8-son MHXS asosida
Dezagregatsiya	Biznes va geografik hududlar bo‘yicha	Axborotning tahliliy qiymatini oshiradi
Segment natijasi	Operatsion foyda va asosiy sof daromad	Boshqaruv yondashuvini aks ettiradi
Segmentlararo narxlash	Bozor shartlari, arm’s length	Transfert narxlash tamoyiliga mos
Segmentlararo operatsiyalar	Konsolidatsiyada eliminatsiya qilinadi	Ikki marta hisoblashni bartaraf etadi
Axborot cheklovi	Segmentlar kesishmasidagi mamlakat axboroti alohida aniqlanmaydi	Dezagregatsiya darajasi cheklangan

AXA Groupning segmentar hisobotni shakllantirish amaliyoti operatsion segmentlarni geografik hududlar hamda bir nechta yurisdiksiyalarni qamrab oluvchi transversal biznes tuzilmalari asosida shakllantirishga tayangan. Kompaniyada segmentar axborot daromadlar, sug‘urta xizmatlari xarajatlari, investitsiya va moliyaviy natijalar, operatsion foyda hamda sof foyda ko‘rsatkichlarini segmentlar kesimida dezagregatsiya qilish orqali shakllantirilgan. Shu bilan birga, segmentlararo operatsiyalar alohida identifikatsiya qilinib, konsolidatsiya jarayonida eliminatsiya qilinishi segmentar hisob va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot o‘rtasidagi metodologik bog‘liqlikni ta’minlaydi. AXA tajribasi segmentlarni shakllantirishda yagona mezon emas, balki boshqaruv tuzilmasi, geografik qamrov va

[62] Muallif ishlanmasi

biznes faoliyatining iqtisodiy xususiyatlari birgalikda hisobga olinishini ko‘rsatadi.[63]

AXA konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarida “1.7 Information by Segment” nomli maxsus bo‘lim mavjud. Unda AXA segmentar axboroti 6 ta operatsion segment asosida shakllantirilishi ko‘rsatilgan. Ular geografik yoki bir nechta yurisdiksiyalarda faoliyat yurituvchi transversal tuzilmalar asosida aniqlangan: France, Europe, AXA XL, Asia, Africa & EME-LATAM, AXA Investment Managers va Transversal & Other. AXA Investment Managers 2025-yil 1-iyulda sotilganligi sababli, u shu sanagacha segment sifatida hisobga olingan.

Bu yerda AXA segmentatsiyasining asosiy xususiyati shundaki, kompaniya segmentlarni faqat sug‘urta mahsuloti turi bo‘yicha emas, balki geografik boshqaruv tuzilmasi va global faoliyat yo‘nalishlarini birlashtirish orqali shakllantiradi. Shuning uchun AXA modelini geografik-transversal segmentatsiya modeli deb tavsiflash mumkin. Masalan, Osiyo, Afrika & EME-LATAM segmentining o‘zi 15 dan ortiq mamlakatlardagi faoliyatni, jumladan Yaponiya, Gonkong, Xitoy, Tailand, Indoneziya, Meksika, Kolumbiya, Turkiya va Marokashni qamrab oladi.

AXA hisobotining eng muhim jihati — segmentlar bo‘yicha daromad, xarajat va moliyaviy natijalar alohida ko‘rsatilganidir. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda Fransiya, Yevropa, AXA XL, Osiyo, Afrika & EME-LATAM, AXA IM va Transversal & Other segmentlari kesimida sug‘urta daromadi, boshqa faoliyatlardan daromad, sug‘urta xizmatlari xarajatlari, qayta sug‘urta xarajatlari, operatsion foyda, soliqqacha foyda va sof foyda kabi ko‘rsatkichlar berilgan. Masalan, 2025-yilda sug‘urta daromadi France segmentida 23 372 mln yevro, Europe segmentida 34 442 mln yevro, AXA XLda 18 922 mln yevro, Osiyo, Afrika & EME-LATAMda esa 12 748 mln yevroni tashkil etgan. Shu bilan birga, segmentlararo operatsiyalar uchun alohida “Segmentlararo operatsiyalarni eliminatsiya qilish” ustuni ham mavjud.

Bu holat segmentar hisob metodologiyasi uchun juda muhim. Chunki AXAda segmentlar bo‘yicha axborot shakllantirish faqat segment

[63] https://www.axa.com/en/investor/regulated-information-annual-financial-report

daromadini ajratish bilan tugamaydi. Segmentlar o‘rtasidagi operatsiyalar ham aniqlanib, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda eliminatsiya qilinadi. Demak, AXA tajribasida ham quyidagi metodologik zanjirni ko‘rish mumkin:

operatsion segmentni aniqlash → segment bo‘yicha daromad va xarajatlarni hisobga olish → segment moliyaviy natijasini aniqlash → segmentlararo operatsiyalarni ajratish → konsolidatsiyada eliminatsiya → segmentar axborotni oshkor qilish.

Bundan tashqari, AXA segmentlarni baholashda faqat moliyaviy hisobotning standart ko‘rsatkichlaridan foydalanmaydi. Faoliyat hisobotida segmentlar bo‘yicha daromadlar, kombinatsiyalashgan koeffitsiyent, texnik marja, moliyaviy natijalar, soliqqa tortilgunga qadar asosiy faoliyat bo‘yicha foyda va Guruh ulushiga to‘g‘ri keladigan asosiy faoliyat bo‘yicha foydasi kabi boshqaruv ko‘rsatkichlari ham keltirilgan. Masalan, 2025-yilda Mol-mulk va baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash faoliyati bo‘yicha Fransiya segmentining Guruh ulushiga to‘g‘ri keladigan asosiy faoliyat bo‘yicha foyda ko‘rsatkichi 1 237 mln yevro, Yevropa segmentida 2 216 mln yevro, AXA XLda esa 1 913 mln yevroni tashkil etgan.

American International Groupning 2025-yilgi segmentar hisobot amaliyotida hisobot segmentlari kompaniyaning tashkiliy-boshqaruv tuzilmasi, geografik faoliyat ko‘lami va sug‘urta mahsulotlarining iqtisodiy xususiyatlari asosida shakllantirilgan. Segmentlar faoliyatini baholashda rahbariyat tomonidan muntazam kuzatiladigan anderrayting foydasi yoki zarari asosiy natijaviy ko‘rsatkich sifatida qo‘llaniladi. Segmentlar bo‘yicha sug‘urta mukofotlari, zararlar, sug‘urta shartnomalarini tuzish bilan bog‘liq xarajatlar, umumiy operatsion xarajatlar va anderrayting natijalarining alohida oshkor qilinishi segmentar axborotning boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.[64]

AIG o‘z faoliyati natijalarini uchta hisobot segmenti va boshqa faoliyatlar kesimida taqdim etadi. Ushbu hisobot segmentlari

[64] https://www.aig.com/content/dam/aig/america-canada/us/documents/investor-relations/annual-report/aig-2025-annual-report.pdf

quyidagilardan iborat: Shimoliy Amerika tijorat sug‘urtasi, Xalqaro tijorat sug‘urtasi va Global shaxsiy sug‘urta. Boshqa faoliyatlar tarkibiga esa bosh kompaniyaning likvidlik mablag‘lari portfelidan olinadigan sof investitsiya daromadi, dividend daromadlari, umumkorporativ operatsion xarajatlar va foiz xarajatlari kiradi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot izohlarida alohida “Segmentlar bo‘yicha axborot” bo‘limi mavjud. Unda AIG bosh ijrochi direktori va bosh moliyaviy direktori asosiy operatsion qarorlarni qabul qiluvchi rahbarlar sifatida ko‘rsatilgan. Ular segmentlar faoliyatini baholashda va boshqaruv xodimlari mehnatini rag‘batlantirish bilan bog‘liq qarorlarni qabul qilishda anderrayting foydasi yoki zarari ko‘rsatkichidan foydalanadilar.

AIGning Shimoliy Amerika tijorat sug‘urtasi segmenti AQSh, Kanada va Bermudadagi sug‘urta faoliyatini qamrab oladi. Xalqaro tijorat sug‘urtasi segmentiga Yevropa, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Osiyo va Tinch okeani hududi, Lotin Amerikasi, Karib hududi, Xitoy, Yaqin Sharq va Afrika mamlakatlaridagi sug‘urta faoliyati kiradi. Global shaxsiy sug‘urta segmenti esa baxtsiz hodisalar va sog‘liq sug‘urtasi hamda jismoniy shaxslar uchun sug‘urta yo‘nalishlarini qamrab oladi.

AIG segmentlar kesimida moliyaviy ko‘rsatkichlarni batafsil oshkor qiladi. Jumladan, yozilgan sof sug‘urta mukofotlari, ishlab topilgan sof sug‘urta mukofotlari, zararlar va zararlarni tartibga solish xarajatlari, sug‘urta shartnomalarini tuzish bilan bog‘liq xarajatlar, umumiy operatsion xarajatlar, anderrayting foydasi, zarar koeffitsiyenti, xarajatlar koeffitsiyenti va qo‘shma koeffitsiyent kabi ko‘rsatkichlar segmentlar bo‘yicha alohida keltiriladi. Masalan, 2025-yilda Xalqaro tijorat sug‘urtasi segmentida yozilgan sof sug‘urta mukofotlari 8 663 mln AQSh dollarini, ishlab topilgan sof sug‘urta mukofotlari 8 580 mln AQSh dollarini va anderrayting foydasi 1 118 mln AQSh dollarini tashkil etgan. Qo‘shma koeffitsiyent esa 86,9 foiz bo‘lgan.

Hisobotning muhim jihatlaridan biri shundaki, segmentlar bo‘yicha xarajatlar toifalari asosiy operatsion qarorlarni qabul qiluvchi rahbarlarga muntazam ravishda taqdim etiladigan boshqaruv axboroti bilan uyg‘unlashtirilgan. Jumladan, zararlar va ularni tartibga solish xarajatlari,

sug‘urta shartnomalarini tuzish bilan bog‘liq xarajatlar, kechiktirilgan xarajatlarning amortizatsiyasi hamda umumiy operatsion xarajatlar segmentlar darajasida alohida hisobga olinadi.

Shu sababli AIGda segmentar hisobotni shakllantirish jarayonini quyidagi ketma-ketlikda ifodalash mumkin:

faoliyat yo‘nalishlarini guruhlash → hisobot segmentlarini aniqlash → rahbariyat tomonidan segmentlarni baholash → segmentlar bo‘yicha daromad va xarajatlarni ajratish → anderrayting natijasini aniqlash → segment samaradorligini baholash → segmentlar bo‘yicha moliyaviy axborotni oshkor qilish.

Biz yuqorida tahlil qilingan Allianz, AXA va AIG kompaniyalarining segmentar hisobotni shakllantirish amaliyotidan kelib chiqib, “O‘zbekinvest” AJda segmentar hisob va hisobotni tashkil etish bo‘yicha takomillashtirilgan metodikani joriy etishni taklif etamiz**.** Mazkur metodikaning asosiy g‘oyasi kompaniya faoliyatini faqat yuridik tuzilma yoki hududiy filiallar kesimida emas, balki boshqaruv maqsadlari, sug‘urta mahsulotlari xususiyatlari, risklar tarkibi, daromad va xarajatlarni shakllantirish manbalari hamda kapitaldan foydalanish darajasini hisobga olgan holda segmentlarga ajratishdan iborat. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, segmentar hisobotning axborot qiymati segmentlarning kompaniya ichki boshqaruv tizimida qanday kuzatilishi va baholanishiga bevosita bog‘liq. Shu sababli “O‘zbekinvest” AJda segmentlarni shakllantirishda rahbariyat tomonidan muntazam tahlil qilinadigan faoliyat yo‘nalishlari asosiy mezon sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiq.

Taklif etilayotgan metodikaga ko‘ra, dastlab kompaniyaning asosiy faoliyat yo‘nalishlari aniqlanib, ular sug‘urta xizmatlari turi, geografik hudud, risk xususiyatlari va boshqaruv mas’uliyati bo‘yicha guruhlanishi lozim. Keyingi bosqichda har bir segment bo‘yicha daromadlar, sug‘urta to‘lovlari, qayta sug‘urta natijalari, operatsion xarajatlar, investitsiya daromadlari, aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy natijalarni alohida hisobga olish imkonini beruvchi tahliliy hisob tizimi shakllantiriladi. Bunda segmentlararo operatsiyalarni alohida aniqlash, ularni bozor tamoyiliga yaqin shartlarda baholash va konsolidatsiyalashgan hisobot

tuzishda o‘zaro hisob-kitoblarni chiqarib tashlash zarur. Ushbu yondashuv “O‘zbekinvest” AJning alohida segmentlari iqtisodiy samaradorligini aniqroq baholash, zarar keltirayotgan yoki yetarli rentabellikni ta’minlamayotgan faoliyat yo‘nalishlarini o‘z vaqtida aniqlash hamda resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi.

Metodikaning yana bir muhim jihati segment samaradorligini yagona umumiy ko‘rsatkich bilan emas, balki har bir segmentning iqtisodiy mazmuniga mos ko‘rsatkichlar tizimi orqali baholashdir. Xususan, sug‘urta segmentlari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari hajmi, sug‘urta to‘lovlari, zarar koeffitsiyenti, xarajatlar koeffitsiyenti, qo‘shma koeffitsiyent, qayta sug‘urta natijasi va segment foydasi; investitsiya yo‘nalishlari bo‘yicha investitsiya daromadliligi; hududiy segmentlar bo‘yicha esa daromadlar, xarajatlar, foyda, mijozlar soni va sug‘urta portfeli tarkibini baholash taklif etiladi. Shu tariqa segmentar hisob axboroti nafaqat tashqi moliyaviy hisobot talablarini bajarishga, balki kompaniyaning ichki boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoniga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, “O‘zbekinvest” AJning hududiy tarmog‘i mavjudligini inobatga olib, segmentar hisobni ikki darajali model asosida tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Birinchi darajada sug‘urta faoliyatining asosiy biznes yo‘nalishlari, ikkinchi darajada esa ushbu yo‘nalishlarning hududiy filiallar kesimidagi natijalari shakllantirilishi lozim. Bunday yondashuv kompaniyaning umumiy natijasini ham, alohida hudud va faoliyat yo‘nalishlarining ushbu natijaga qo‘shgan hissasini ham aniqlash imkonini beradi. Natijada rahbariyat bir vaqtning o‘zida mahsulotlar, risklar va hududlar kesimida faoliyat samaradorligini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bizning fikrimizcha, mazkur metodikani amaliyotga joriy etish segmentar hisob → segmentar axborotni shakllantirish → segmentar tahlil → boshqaruv qarorini qabul qilish → segmentar hisobotni tuzish ketma-ketligi asosida amalga oshirilishi lozim. Bu esa “O‘zbekinvest” AJda buxgalteriya hisobi va boshqaruv hisobi o‘rtasidagi axborot uzviyligini ta’minlaydi, segmentlar bo‘yicha moliyaviy natijalarning shaffofligini oshiradi hamda 8-son MHXSda nazarda tutilgan boshqaruv

yondashuviga yaqinlashish imkonini beradi. Natijada segmentar hisobot faqat tashqi foydalanuvchilar uchun axborotni oshkor qilish vositasi sifatida emas, balki kompaniya ichida resurslarni taqsimlash, risklarni boshqarish, faoliyat samaradorligini baholash va strategik qarorlar qabul qilishning kompleks axborot vositasiga aylanishi mumkin.

III BOB. JAMOAT AHAMIYATIGA EGA TASHKILOTLARDA SEGMENTAR HISOB METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

3.1. Operatsion va hisobot segmentlarini aniqlash, birlashtirish hamda tasniflash metodikasi

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda segmentar hisob va hisobotni samarali tashkil etish, eng avvalo, operatsion segmentlarni iqtisodiy jihatdan asoslangan mezonlar asosida aniqlash, ularni zarur hollarda birlashtirish hamda hisobot segmentlari sifatida tasniflashning izchil metodikasini shakllantirishni talab etadi. Korxona faoliyatining ko‘p tarmoqliligi, mahsulot va xizmatlarning turlicha xususiyatlari, geografik faoliyat ko‘lamining kengayishi, risk va rentabellik darajasidagi farqlar segmentlarni aniqlash jarayonini murakkablashtiradi. Shu sababli segmentlarni faqat tashkiliy bo‘linmalar yoki hududiy birliklar asosida ajratish yetarli hisoblanmaydi. Bunda faoliyat yo‘nalishining daromad va xarajatlarni shakllantirish xususiyati, uning moliyaviy natijalari rahbariyat tomonidan muntazam tahlil qilinishi hamda ushbu yo‘nalish bo‘yicha alohida moliyaviy axborot mavjudligi hisobga olinishi lozim. Bunday yondashuv segmentar axborotning boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni bilan uzviy bog‘liqligini ta’minlaydi.

Operatsion segmentlarni hisobot segmentlariga aylantirish jarayonida esa ularning iqtisodiy xususiyatlari, mahsulot va xizmatlarning tabiati, mijozlar tarkibi, faoliyat yuritish muhiti, risk va rentabellik darajasi hamda miqdoriy mezonlari o‘zaro bog‘liq holda baholanishi zarur. Iqtisodiy jihatdan o‘xshash operatsion segmentlarni asoslangan mezonlar bo‘yicha birlashtirish segmentar axborotning ortiqcha maydalashuvini kamaytirsa, iqtisodiy xususiyatlari sezilarli farq qiluvchi segmentlarni alohida tasniflash foydalanuvchilar uchun muhim axborotning umumlashtirib yuborilishining oldini oladi. Shu nuqtayi nazardan, operatsion va hisobot segmentlarini aniqlash, birlashtirish hamda tasniflash metodikasini takomillashtirish segment chegaralarini asosli belgilash, axborotni maqbul darajada qismlarga ajratish, segmentlar

faoliyatini qiyosiy baholash va segmentar hisobotning shaffofligi hamda tahliliy imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Segmentar hisob va hisobotni shakllantirishning dastlabki va eng muhim bosqichlaridan biri xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini alohida segmentlarga ajratish mezonlarini belgilash hisoblanadi. Segmentlarni to‘g‘ri aniqlash korxonaning turli faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha daromadlar, xarajatlar, aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy natijalarni alohida baholash imkonini yaratadi. Bunda segmentlarni ajratish faqat tashkiliy tuzilma bilan chegaralanmasdan, mahsulot va xizmatlarning xususiyati, faoliyat yuritilayotgan geografik hudud, mijozlar tarkibi, risk va rentabellik darajasi, resurslardan foydalanish xususiyatlari hamda rahbariyat tomonidan faoliyat natijalarining muntazam kuzatib borilishi kabi omillarni kompleks hisobga olishni talab etadi. Segmentlarni aniqlash mezonlarining ilmiy asoslangan holda belgilanishi segmentar axborotning ishonchliligi, taqqoslanuvchanligi va boshqaruv uchun foydaliligini oshiradi. Shu jihatdan operatsion segmentlarni aniqlashda faoliyat yo‘nalishining daromad keltirish imkoniyati va xarajatlarni yuzaga keltirishi, uning natijalari rahbariyat tomonidan resurslarni taqsimlash va faoliyat samaradorligini baholash maqsadida muntazam tahlil qilinishi hamda ushbu segment bo‘yicha alohida moliyaviy axborotning mavjudligi asosiy mezonlar sifatida qaralishi maqsadga muvofiq. Mazkur mezonlarning o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llanilishi operatsion segmentlarni asosli ravishda ajratish va keyinchalik ular orasidan hisobotda alohida oshkor qilinishi lozim bo‘lgan segmentlarni belgilash uchun metodologik asos yaratadi.

Segmentlarni aniqlashda korxonaning tashkiliy tuzilmasi bilan bir qatorda faoliyat yo‘nalishlarining iqtisodiy mazmuni, boshqaruv tizimi, mahsulot va xizmatlar xususiyati, geografik joylashuvi, risk hamda rentabellik darajasi hisobga olinishi lozim. Shu asosda segmentlarni aniqlash mezonlarini quyidagi tartibda tizimlashtirish mumkin.

3.1-jadval

Operatsion segmentlarni aniqlash va tasniflashning taklif etilayotgan mezonlari[65]

№	Segmentlarni aniqlash mezonlari	Mezonning mazmuni	Segmentni aniqlashdagi ahamiyati
1	Faoliyat yo‘nalishi	Korxona tarkibidagi alohida biznes yoki xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlari aniqlanadi	Mustaqil daromad va xarajat shakllantiruvchi faoliyat yo‘nalishlarini ajratish imkonini beradi
2	Mahsulot va xizmatlarning xususiyati	Mahsulot yoki xizmatlarning iqtisodiy mazmuni, turi va iste’mol xususiyatlari baholanadi	Bir-biridan sezilarli farq qiluvchi mahsulot va xizmatlarni alohida segmentlarga ajratishga asos bo‘ladi
3	Daromadlarning shakllanishi	Faoliyat yo‘nalishining tashqi mijozlar va boshqa segmentlar bilan operatsiyalardan daromad olish imkoniyati aniqlanadi	Daromad keltiruvchi mustaqil faoliyat qismini aniqlashga xizmat qiladi
4	Xarajatlarning shakllanishi	Muayyan faoliyat yo‘nalishiga bevosita va bilvosita bog‘liq xarajatlarning yuzaga kelishi baholanadi	Segment bo‘yicha xarajat va moliyaviy natijani alohida aniqlash imkonini beradi
5	Rahbariyat tomonidan muntazam baholanishi	Faoliyat natijalari resurslarni taqsimlash va samaradorlikni baholash maqsadida rahbariyat tomonidan muntazam ko‘rib chiqiladi	Operatsion segmentni aniqlashning asosiy boshqaruv mezonlaridan biri hisoblanadi
6	Alohida moliyaviy axborotning mavjudligi	Faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha daromad, xarajat, foyda yoki zarar va boshqa ko‘rsatkichlarni alohida shakllantirish imkoniyati mavjudligi baholanadi	Segment faoliyatini mustaqil tahlil qilish va nazorat qilish imkonini yaratadi
7	Geografik hudud	Faoliyat yuritilayotgan mamlakat, hudud, viloyat yoki boshqa geografik bozorlar hisobga olinadi	Turli hududlardagi iqtisodiy sharoit va faoliyat natijalaridagi farqlarni aniqlash imkonini beradi

[65] Muallif ishlanmasi

8	Mijozlar tarkibi	Mijozlarning turi, guruhi va iqtisodiy xususiyatlari o‘rganiladi	Turli mijozlar guruhlariga xizmat ko‘rsatuvchi faoliyat yo‘nalishlarini ajratishga yordam beradi
9	Risk darajasi va xususiyati	Faoliyat yo‘nalishiga xos sug‘urta, bozor, kredit, operatsion va boshqa risklar baholanadi	Risk darajasi sezilarli farq qiladigan faoliyatlarni alohida segment sifatida shakllantirishga asos bo‘ladi
10	Rentabellik darajasi	Segmentning daromadliligi, foydaliligi va xarajatlar samaradorligi baholanadi	Faoliyat yo‘nalishlarining iqtisodiy samaradorligini o‘zaro taqqoslash imkonini beradi
11	Aktivlar va resurslardan foydalanish	Faoliyat yo‘nalishiga biriktirilgan aktivlar, kapital, mehnat va boshqa resurslar aniqlanadi	Segmentga yo‘naltirilgan resurslar va ulardan foydalanish samaradorligini baholash imkonini beradi
12	Boshqaruv mas’uliyati	Muayyan faoliyat yo‘nalishi uchun javobgar rahbar yoki mas’uliyat markazi mavjudligi aniqlanadi	Segment natijalari uchun boshqaruv javobgarligini belgilash imkonini beradi
13	Faoliyatning tashkiliy mustaqilligi	Faoliyat yo‘nalishining korxona tashkiliy tuzilmasidagi o‘rni va nisbiy mustaqilligi baholanadi	Segment chegaralarini aniq belgilashga yordam beradi
14	Iqtisodiy muhitning xususiyati	Raqobat, talab, narx shakllanishi, tartibga solish va boshqa tashqi omillar o‘rganiladi	Turli iqtisodiy sharoitlarda faoliyat yurituvchi yo‘nalishlarni farqlash imkonini beradi

Jadvalda keltirilgan mezonlarni mazmunan uch guruhga ajratish mumkin: boshqaruv mezonlari, iqtisodiy mezonlar hamda tashkiliy va bozor mezonlari. Bunda rahbariyat tomonidan muntazam baholanishi va alohida moliyaviy axborotning mavjudligi operatsion segmentni aniqlashda asosiy ahamiyatga ega bo‘lsa, mahsulot va xizmatlar, geografik hudud, mijozlar, risk va rentabellik xususiyatlari segmentlarning iqtisodiy jihatdan bir-biridan farqlanish darajasini belgilash imkonini beradi. Shu bois segmentlarni aniqlashda bitta

mezondan foydalanish emas, balki mezonlarning o‘zaro bog‘langan tizimini qo‘llash maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv dastlab operatsion segmentlarni aniqlash, keyinchalik iqtisodiy xususiyatlari o‘xshash segmentlarni birlashtirish va belgilangan miqdoriy talablar asosida hisobot segmentlarini ajratish uchun metodologik asos yaratadi.

Sug‘urta kompaniyalarida operatsion segmentlarni to‘g‘ri aniqlashning muhim shartlaridan biri bosh operatsion qaror qabul qiluvchi shaxs yoki organni belgilash hisoblanadi. Bunday shaxs yoki organ alohida lavozim nomi bilan emas, balki bajaradigan vazifalari orqali aniqlanishi maqsadga muvofiq. Ya’ni u sug‘urta kompaniyasining sug‘urta turlari, mahsulotlari, hududiy bo‘linmalari yoki boshqa faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha shakllantirilgan moliyaviy va operatsion axborotni muntazam ko‘rib chiqishi, resurslarni segmentlar o‘rtasida taqsimlash bo‘yicha qarorlar qabul qilishi hamda ularning faoliyat samaradorligini baholashi lozim. Masalan, AIG amaliyotida bosh ijrochi direktor va bosh moliyaviy direktor asosiy operatsion qaror qabul qiluvchilar sifatida belgilangan bo‘lib, ular segmentlar faoliyatini anderrayting foydasi yoki zarari asosida baholaydilar.

Sug‘urta kompaniyalarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, bosh operatsion qaror qabul qiluvchi shaxs yoki organga taqdim etiladigan segmentar axborot tarkibida sug‘urta mukofotlari, sug‘urta to‘lovlari va zararlar, qayta sug‘urta natijalari, sug‘urta faoliyati bilan bog‘liq xarajatlar, anderrayting natijasi, zarar koeffitsiyenti, xarajatlar koeffitsiyenti, qo‘shma koeffitsiyent hamda segmentning moliyaviy natijasi kabi ko‘rsatkichlarni shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuvda segment kompaniyaning rasmiy tashkiliy bo‘linmasi ekanligi bilangina emas, balki uning natijalari rahbariyat tomonidan resurslarni taqsimlash va faoliyat samaradorligini baholash uchun muntazam foydalaniladigan mustaqil boshqaruv obyekti ekanligi bilan belgilanadi. Natijada bosh operatsion qaror qabul qiluvchi shaxs yoki organni aniq belgilash sug‘urta kompaniyasida operatsion segmentlarni ajratish, ular bo‘yicha axborotni shakllantirish va keyinchalik hisobot segmentlarini aniqlashning metodologik asosini yaratadi.

Operatsion segmentlarni ajratish segmentar hisob va hisobotni shakllantirishning asosiy bosqichlaridan biri bo‘lib, xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining qaysi yo‘nalishlari mustaqil segment sifatida e’tirof etilishini aniqlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, sug‘urta kompaniyalarida sug‘urta xizmatlarining xilma-xilligi, hududiy faoliyat ko‘lamining kengligi, sug‘urta xavflarining turlicha xususiyatlari hamda daromad va xarajatlarning shakllanish mexanizmi operatsion segmentlarni izchil mezonlar asosida ajratishni talab etadi. Shu sababli operatsion segmentlarni aniqlash jarayoni tasodifiy yoki faqat tashkiliy tuzilmaga asoslangan holda emas, balki faoliyat yo‘nalishining daromad va xarajatlarni shakllantirishi, uning natijalari bosh operatsion qaror qabul qiluvchi shaxs yoki organ tomonidan muntazam ko‘rib chiqilishi hamda ushbu faoliyat bo‘yicha alohida moliyaviy axborot mavjudligi asosida amalga oshirilishi lozim.

Operatsion segmentlarni ajratish algoritmini ishlab chiqishda jarayonning bosqichma-bosqichligi va mezonlarning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda dastlab kompaniyaning faoliyat yo‘nalishlari aniqlanadi, keyinchalik ularning daromad va xarajatlarni shakllantirish xususiyati baholanadi, bosh operatsion qaror qabul qiluvchi shaxs yoki organga taqdim etiladigan ichki boshqaruv axboroti o‘rganiladi hamda har bir yo‘nalish bo‘yicha alohida moliyaviy ma’lumotlarning mavjudligi tekshiriladi. Sug‘urta kompaniyalarida ushbu algoritmni sug‘urta turlari, sug‘urta mahsulotlari, mijozlar guruhlari, hududlar va sug‘urta xavflari xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirish operatsion segmentlarning iqtisodiy mazmunini aniqroq ifodalashga xizmat qiladi. Natijada “faoliyat yo‘nalishini aniqlash → boshqaruv tomonidan kuzatilishini baholash → alohida moliyaviy axborot mavjudligini tekshirish → operatsion segment sifatida e’tirof etish” ketma-ketligiga asoslangan tizimli yondashuv shakllantiriladi.

Bizning fikrimizcha, sug‘urta kompaniyalarida operatsion segmentlarni aniqlashda faqat tashkiliy tuzilma yoki hududiy bo‘linishdan foydalanish yetarli emas. Segment kompaniya rahbariyati tomonidan alohida boshqariladigan, natijalari muntazam baholanadigan va u bo‘yicha alohida moliyaviy axborot shakllantiriladigan faoliyat

yo‘nalishini ifodalashi lozim. Shu nuqtayi nazardan, sug‘urta kompaniyalari uchun operatsion segmentlarni ajratishning quyidagi 8 bosqichli algoritmini taklif etamiz.

3.2-jadval

Sug‘urta tashkilotlarida operatsion segmentlarni aniqlash va e’tirof etishning bosqichma-bosqich metodikasi[66]

Bosqich	**Amalga oshiriladigan jarayon**	**Asosiy mezon va savollar**	**Qabul qilinadigan qaror**
1-bosqich	Sug‘urta kompaniyasining tashkiliy va boshqaruv tuzilmasini o‘rganish	Kompaniyada qanday faoliyat yo‘nalishlari, sug‘urta turlari, hududiy bo‘linmalar va mas’uliyat markazlari mavjud?	Segmentlash uchun dastlabki faoliyat birliklari shakllantiriladi
2-bosqich	Bosh operatsion qaror qabul qiluvchi shaxs yoki organni belgilash	Resurslarni taqsimlash va faoliyat natijalarini baholash bo‘yicha asosiy qarorlarni kim yoki qaysi organ qabul qiladi?	Segmentlarni aniqlash uchun boshqaruv axborotining asosiy foydalanuvchisi belgilanadi
3-bosqich	Rahbariyatga taqdim etiladigan ichki hisobotlarni o‘rganish	Qaysi sug‘urta turi, mahsulot, hudud yoki faoliyat yo‘nalishi natijalari rahbariyat tomonidan muntazam ko‘rib chiqiladi?	Muntazam nazorat qilinadigan faoliyat yo‘nalishlari ajratiladi
4-bosqich	Faoliyat yo‘nalishining daromad va xarajatlarini aniqlash	Faoliyat yo‘nalishi daromad keltiradimi va u bilan bog‘liq xarajatlar yuzaga keladimi?	Iqtisodiy faoliyat xususiyatiga ega bo‘lgan birliklar saralanadi
5-bosqich	Alohida moliyaviy axborot mavjudligini tekshirish	Sug‘urta mukofotlari, sug‘urta to‘lovlari, xarajatlar, qayta sug‘urta natijalari, aktivlar va moliyaviy natijalarni alohida aniqlash mumkinmi?	Alohida hisob axboroti mavjud bo‘lgan faoliyat birliklari ajratiladi

[66] Muallif ishlanmasi

6-bosqich	Segmentning iqtisodiy xususiyatlarini baholash	Sug‘urta mahsuloti, mijozlar, xavflar, hudud, zarar koeffitsiyenti, xarajatlar va foydalilik darajasi boshqa yo‘nalishlardan farq qiladimi?	Segmentning iqtisodiy chegaralari aniqlashtiriladi
7-bosqich	Operatsion segment sifatida e’tirof etish	Faoliyat daromad va xarajatlarni shakllantiradimi? Natijalari rahbariyat tomonidan muntazam ko‘rib chiqiladimi? Alohida moliyaviy axborot mavjudmi?	Uchala shart bajarilsa — operatsion segment sifatida e’tirof etiladi
8-bosqich	Operatsion segmentlarni ro‘yxatga olish va kodlash	Segment bo‘yicha hisob va hisobot axborotini uzluksiz shakllantirish mumkinmi?	Har bir segmentga alohida kod berilib, tahliliy hisob tizimiga kiritiladi

Tadqiqot doirasida taklif etilayotgan mazkur metodika sug‘urta tashkilotlarida operatsion segmentlarni aniqlash jarayonini izchil va tizimli tashkil etishga qaratilgan bo‘lib, segmentlarni faqat sug‘urta turlari yoki hududiy tuzilma asosida ajratish bilan cheklanmaydi. Metodikada dastlab tashkilotning tashkiliy-boshqaruv tuzilmasi hamda bosh operatsion qaror qabul qiluvchi shaxs yoki organ aniqlanadi, keyinchalik rahbariyatga muntazam taqdim etiladigan ichki boshqaruv hisobotlari, faoliyat yo‘nalishlarining daromad va xarajatlari, alohida moliyaviy axborotning mavjudligi hamda segmentlarning iqtisodiy xususiyatlari baholanadi. Ushbu mezonlarning o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanilishi 8-son MHXSning boshqaruv yondashuviga muvofiq operatsion segmentlarni asosli ravishda e’tirof etish imkonini beradi. Yakuniy bosqichda aniqlangan operatsion segmentlarni alohida kodlash va tahliliy hisob tizimiga integratsiya qilish segmentlar kesimida sug‘urta mukofotlari, sug‘urta to‘lovlari, qayta sug‘urta natijalari, xarajatlar, aktivlar hamda moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi axborotni uzluksiz shakllantirish uchun axborot-uslubiy asos yaratadi.



3.1-rasm. Sug‘urta kompaniyalarida operatsion segmentlarni ajratishning taklif etilayotgan algoritmi.[67]

[67] Muallif ishlanmasi

Mazkur algoritmning muhim jihati shundaki, unda operatsion segmentni aniqlash bilan hisobot segmentini aniqlash bir-biridan ajratiladi. Dastlab kompaniya ichki boshqaruv tizimiga muvofiq operatsion segmentlar aniqlanadi. Shundan keyingina ularning iqtisodiy xususiyatlari o‘xshashligi, birlashtirish imkoniyati va miqdoriy mezonlarga muvofiqligi baholanib, hisobotda alohida oshkor qilinadigan segmentlar shakllantiriladi. Bu ikki jarayonni bir bosqichda amalga oshirish segmentlarning asossiz yiriklashtirilishi yoki aksincha, ortiqcha maydalashishiga olib kelishi mumkin. Sug‘urta kompaniyalari uchun algoritmning amaliy ahamiyatini oshirish maqsadida har bir aniqlangan operatsion segmentga “segment kodi – sug‘urta turi – hudud – daromad – sug‘urta to‘lovi – xarajat – qayta sug‘urta natijasi – moliyaviy natija” ko‘rinishidagi tahliliy belgi biriktirishni taklif etamiz. Natijada birlamchi hisob ma’lumotlaridan boshlab yakuniy segmentar hisobotgacha bo‘lgan axborot harakati yagona tizimga keltiriladi. Bu esa keyingi bosqichda operatsion segmentlarni birlashtirish mezonlarini qo‘llash, 10 foizlik miqdoriy mezonlar va 75 foizlik tashqi daromad mezoni asosida hisobot segmentlarini aniqlash uchun zarur axborot bazasini yaratadi.

Operatsion segmentlar aniqlangandan so‘ng ularni alohida hisobot segmentlari sifatida taqdim etish yoki iqtisodiy jihatdan o‘xshash segmentlarni birlashtirish masalasi muhim metodologik bosqich hisoblanadi. 8-son MHXS “Operatsion segmentlar” talablariga ko‘ra, operatsion segmentlarni birlashtirish faqat ular o‘xshash iqtisodiy xususiyatlarga ega bo‘lgan hamda uzoq muddatli istiqbolda o‘xshash moliyaviy natijalarni namoyon etishi kutiladigan hollarda maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda segmentlarning faoliyat xususiyatlari, daromadlilik darajasi, mahsulot va xizmatlarning tavsifi, ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonlarining xususiyatlari, mijozlar toifalari, mahsulot yoki xizmatlarni taqsimlash usullari, shuningdek, tegishli faoliyatni tartibga soluvchi me’yoriy muhitning o‘xshashligi kompleks ravishda baholanishi lozim. Demak, segmentlarni birlashtirish faqat tashkiliy qulaylik yoki hisobot hajmini qisqartirish maqsadida emas, balki ularning iqtisodiy mazmuni va faoliyat modeli o‘rtasidagi real o‘xshashlik mavjud bo‘lgandagina amalga oshirilishi kerak.

Sug‘urta tashkilotlarida ushbu talablarni qo‘llashda segmentlarning o‘xshashligini baholash sug‘urta faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Xususan, birlashtirilayotgan segmentlarda sug‘urta mahsulotlarining xususiyati, sug‘urtalanuvchilar toifasi, sug‘urta risklarining tarkibi va darajasi, sug‘urta mukofotlarini shakllantirish tamoyillari, zarar koeffitsiyenti, xarajatlar darajasi, qayta sug‘urtalash siyosati, kapitalga bo‘lgan talab hamda rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro yaqin bo‘lishi zarur. Masalan, iqtisodiy xususiyatlari va risk profili keskin farq qiladigan hayotni sug‘urtalash hamda mol-mulkni sug‘urtalash segmentlarini faqat bitta sug‘urta tashkiloti tarkibida faoliyat yuritishi sababli birlashtirish metodologik jihatdan asosli hisoblanmaydi. Shu sababli tadqiqotimizda o‘xshash segmentlarni birlashtirishda sifat mezonlari bilan bir qatorda zarar koeffitsiyenti, xarajatlar koeffitsiyenti, rentabellik va boshqa moliyaviy ko‘rsatkichlarning bir necha hisobot davridagi dinamikasini qiyosiy baholashni ham qo‘llash taklif etiladi. Bunday yondashuv segmentlarni sun’iy ravishda yiriklashtirishning oldini olib, segmentar axborotning shaffofligi, taqqoslanuvchanligi va boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi axborot qiymatini oshiradi.

3.3-jadval

Sug‘urta tashkilotlarida o‘xshash operatsion segmentlarni birlashtirish shartlari va ularni baholash mezonlari[68]

№	Birlashtirish sharti	Baholash mezoni	Sug‘urta tashkilotida baholanadigan ko‘rsatkichlar	Qaror
1	Iqtisodiy xususiyatlarning o‘xshashligi	Segmentlarning uzoq muddatli iqtisodiy natijalari o‘xshash bo‘lishi	Daromadlilik, zarar koeffitsiyenti, xarajatlar koeffitsiyenti, operatsion foyda va rentabellik dinamikasi	Ko‘rsatkichlar barqaror ravishda o‘xshash bo‘lsa, birlashtirish mumkin
2	Sug‘urta mahsulotlari va xizmatlarining o‘xshashligi	Taklif etilayotgan mahsulot va xizmatlarning iqtisodiy mazmuni bir-biriga yaqin bo‘lishi	Sug‘urta turi, sug‘urta mahsuloti, qoplama xususiyati, shartnoma muddati	Mahsulotlarning xususiyatlari o‘xshash bo‘lsa, mezon bajarilgan hisoblanadi
3	Xizmat ko‘rsatish jarayonlarining o‘xshashligi	Sug‘urta xizmatini tashkil etish va ko‘rsatish	Anderrayting, tarif belgilash, polis rasmiylashtirish,	Jarayonlar mazmunan o‘xshash bo‘lsa,

[68] Muallif ishlanmasi

		mexanizmlari yaqin bo‘lishi	da’volarni ko‘rib chiqish va zararlarni tartibga solish jarayonlari	birlashtirishga asos mavjud
4	Mijozlar toifasining o‘xshashligi	Segmentlar bir xil yoki o‘xshash mijozlar guruhiga xizmat ko‘rsatishi	Jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, kichik biznes, korporativ mijozlar va boshqa sug‘urtalanuvchilar	Mijozlarning iqtisodiy tavsifi yaqin bo‘lsa, segmentlar birlashtirilishi mumkin
5	Sug‘urta risklarining o‘xshashligi	Segmentlar bo‘yicha qabul qilinadigan risklarning tabiati va darajasi yaqin bo‘lishi	Risk turi, zarar yuz berish ehtimoli, zarar miqdori, risk konsentratsiyasi va zarar koeffitsiyenti	Risk profillari sezilarli darajada farq qilmasa, mezon bajariladi
6	Xizmatlarni sotish va taqsimlash usullarining o‘xshashligi	Sug‘urta mahsulotlarini mijozlarga yetkazish kanallari o‘xshash bo‘lishi	Agentlar, brokerlar, bank sug‘urtasi, filiallar, elektron savdo kanallari	Sotish va taqsimlash modeli o‘xshash bo‘lsa, birlashtirish mumkin
7	Me’yoriy-huquqiy muhitning o‘xshashligi	Segmentlar faoliyatiga nisbatan bir xil yoki o‘xshash tartibga solish talablari amal qilishi	Litsenziyalash, kapital talablari, sug‘urta zaxiralari va prudensial talablar	Tartibga solish muhiti o‘xshash bo‘lsa, mezon bajarilgan hisoblanadi
8	Qayta sug‘urtalash xususiyatlarining o‘xshashligi	Segmentlarning risklarni qayta sug‘urtaga berish modeli yaqin bo‘lishi	Qayta sug‘urtalash ulushi, shartnoma turi, retention darajasi, qayta sug‘urtalovchilar tarkibi	Qayta sug‘urtalash siyosati va riskni ushlab qolish darajasi yaqin bo‘lsa, birlashtirish asosli
9	Kapital talablarining o‘xshashligi	Segmentlarning risklarni qoplash uchun kapitalga ehtiyoji yaqin bo‘lishi	Kapital sig‘imi, riskka nisbatan kapital talabi, kapital rentabelligi	Kapital profili o‘xshash bo‘lsa, qo‘shimcha birlashtirish mezoni bajariladi
10	Rahbariyat tomonidan boshqarish usulining o‘xshashligi	Segmentlar rahbariyat tomonidan o‘xshash iqtisodiy faoliyat sifatida boshqarilishi	Budjetlashtirish, samaradorlikni baholash, resurslarni taqsimlash va ichki hisobot ko‘rsatkichlari	Boshqaruv modeli va baholash mezonlari o‘xshash bo‘lsa, birlashtirish maqsadga muvofiq

Operatsion segmentlarni birlashtirish segmentar hisobotni shakllantirishning muhim metodologik bosqichi bo‘lib, bunda segmentlarning faqat tashkiliy jihatdan yaqinligi emas, balki ularning iqtisodiy mazmuni va uzoq muddatli moliyaviy xususiyatlarining o‘xshashligi asosiy mezon sifatida qaralishi lozim. 8-son MHXSning

boshqaruv yondashuvidan kelib chiqib, sug‘urta tashkilotlari uchun segmentlarni birlashtirish shartlarini quyidagi tizim asosida baholash maqsadga muvofiq.

Jadvalda 8-son MHXSda nazarda tutilgan segmentlarni agregatsiyalash tamoyillari sug‘urta faoliyatining o‘ziga xos jihatlariga moslashtirildi. Bunda sug‘urta risklari, zarar koeffitsiyenti, qayta sug‘urtalash xususiyatlari va kapitalga bo‘lgan talab kabi ko‘rsatkichlar segmentlarning iqtisodiy o‘xshashligini chuqurroq baholash imkonini beruvchi qo‘shimcha mezonlar sifatida kiritildi. Taklif etilayotgan yondashuvga ko‘ra, segmentlarni birlashtirish to‘g‘risidagi qaror bitta mezon asosida emas, balki mezonlar majmuasini kompleks baholash asosida qabul qilinishi lozim. Ayniqsa, segmentlarning uzoq muddatli moliyaviy natijalari va risk profillari o‘rtasida sezilarli tafovut mavjud bo‘lsa, boshqa tashkiliy belgilar o‘xshash bo‘lishiga qaramasdan, ularni bitta hisobot segmentiga birlashtirish maqsadga muvofiq emas. Bunday metodika segmentlarning asossiz agregatsiyalanishini cheklash va segmentar hisobotning axborot shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

Sug‘urta kompaniyalarida operatsion segmentlarni shakllantirish jarayonida iqtisodiy mazmuni va faoliyat xususiyatlari o‘zaro yaqin bo‘lgan segmentlarni birlashtirish segmentar hisobotning axborotga boyligi hamda boshqaruv uchun foydaliligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bunda segmentlarni birlashtirish oddiy tashkiliy umumlashtirish sifatida emas, balki ularning iqtisodiy xususiyatlarini tizimli ravishda taqqoslash va o‘xshashlik darajasini baholashga asoslangan jarayon sifatida amalga oshirilishi lozim. Shu maqsadda tadqiqotimiz doirasida operatsion segmentlarni dastlabki aniqlashdan boshlab, ularning o‘xshashlik darajasini baholash, birlashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilish va yakuniy segmentlar tarkibini shakllantirishgacha bo‘lgan jarayonni qamrab oluvchi algoritm taklif etildi.

Taklif etilayotgan algoritmga muvofiq, dastlab sug‘urta kompaniyasida aniqlangan operatsion segmentlar ro‘yxati shakllantiriladi va iqtisodiy mazmuni jihatidan o‘zaro yaqin segmentlar juftliklari aniqlanadi. Keyingi bosqichda ularning iqtisodiy xususiyatlari belgilangan mezonlar asosida taqqoslanib, umumiy o‘xshashlik darajasi

baholanadi. Bunda sug‘urta mahsulotlari va xizmatlarining xususiyati, mijozlar tarkibi, sug‘urta xavflari, faoliyat yuritish muhiti, moliyaviy natijalar hamda boshqaruv yondashuvidagi o‘xshashliklar hisobga olinishi maqsadga muvofiq. Agar baholash natijasida segmentlarning o‘xshashlik darajasi belgilangan talabga javob bermasa, ular birlashtirilmaydi va alohida operatsion segment sifatida saqlab qolinadi.

Algoritmning keyingi bosqichida birlashtirish natijasining segmentar axborotning muhimligiga ta’siri baholanadi. Mazkur tekshiruv segmentlarni birlashtirish natijasida foydalanuvchilar uchun ahamiyatli axborotning yashirinib qolishi yoki segment faoliyatining iqtisodiy mazmuni buzilishining oldini olishga qaratilgan. Belgilangan shartlar bajarilganda o‘xshash segmentlarni birlashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilinib, yangi segmentning nomi, tarkibi, chegaralari, mas’uliyat markazi va tahliliy ko‘rsatkichlari belgilanadi. Natijada birlashtirilgan hamda alohida saqlab qolingan operatsion segmentlarning yakuniy ro‘yxati shakllantirilib, keyingi bosqichda ular orasidan hisobot segmentlarini aniqlash uchun axborot bazasi yaratiladi. Shu jihatdan taklif etilayotgan algoritm operatsion segmentlarni aniqlash va hisobot segmentlarini shakllantirish jarayonlari o‘rtasidagi metodologik bog‘liqlikni ta’minlaydi.

Taklif etilayotgan algoritmga muvofiq, dastlab sug‘urta kompaniyasida aniqlangan operatsion segmentlar ro‘yxati shakllantiriladi va iqtisodiy mazmuni jihatidan o‘zaro yaqin segmentlar juftliklari aniqlanadi. Keyingi bosqichda ularning iqtisodiy xususiyatlari belgilangan mezonlar asosida taqqoslanib, umumiy o‘xshashlik darajasi baholanadi. Bunda sug‘urta mahsulotlari va xizmatlarining xususiyati, mijozlar tarkibi, sug‘urta xavflari, faoliyat yuritish muhiti, moliyaviy natijalar hamda boshqaruv yondashuvidagi o‘xshashliklar hisobga olinishi maqsadga muvofiq. Agar baholash natijasida segmentlarning o‘xshashlik darajasi belgilangan talabga javob bermasa, ular birlashtirilmaydi va alohida operatsion segment sifatida saqlab qolinadi.



3.2-rasm. Sug‘urta kompaniyalarida o‘xshash operatsion segmentlarni birlashtirishning taklif etilayotgan algoritmi.[69]

Algoritmning keyingi bosqichida birlashtirish natijasining segmentar axborotning muhimligiga ta’siri baholanadi. Mazkur tekshiruv segmentlarni birlashtirish natijasida foydalanuvchilar uchun ahamiyatli axborotning yashirinib qolishi yoki segment faoliyatining iqtisodiy

[69] Muallif ishlanmasi

mazmuni buzilishining oldini olishga qaratilgan. Belgilangan shartlar bajarilganda o‘xshash segmentlarni birlashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilinib, yangi segmentning nomi, tarkibi, chegaralari, mas’uliyat markazi va tahliliy ko‘rsatkichlari belgilanadi. Natijada birlashtirilgan hamda alohida saqlab qolingan operatsion segmentlarning yakuniy ro‘yxati shakllantirilib, keyingi bosqichda ular orasidan hisobot segmentlarini aniqlash uchun axborot bazasi yaratiladi. Shu jihatdan taklif etilayotgan algoritm operatsion segmentlarni aniqlash va hisobot segmentlarini shakllantirish jarayonlari o‘rtasidagi metodologik bog‘liqlikni ta’minlaydi.



3.3-rasm. Sug‘urta kompaniyalarida ahamiyatsiz operatsion segmentlarni boshqa segmentlarga kiritishning taklif etilayotgan algoritmi.[70]

1-bosqich - Operatsion segmentlarni aniqlash. Dastlab sug‘urta kompaniyasining tashkiliy tuzilmasi, sug‘urta faoliyati yo‘nalishlari, sug‘urta mahsulotlari, mijozlar guruhlari va hududiy bo‘linmalari o‘rganilib, operatsion segmentlar ro‘yxati shakllantiriladi. Bunda har bir faoliyat yo‘nalishining daromad keltirishi va xarajatlarni yuzaga

[70] Muallif ishlanmasi

keltirishi, uning natijalari bosh operatsion qaror qabul qiluvchi shaxs yoki organ tomonidan muntazam ko‘rib chiqilishi hamda ushbu faoliyat bo‘yicha alohida moliyaviy axborot mavjudligi asosiy mezon sifatida olinadi. Natijada keyingi baholash uchun kompaniyaning dastlabki operatsion segmentlari aniqlanadi.

2-bosqich - Ahamiyatlilik darajasini baholash. Aniqlangan har bir operatsion segmentning kompaniya faoliyatidagi iqtisodiy salmog‘i baholanadi. Bunda segment daromadi, foyda yoki zarari va aktivlari kabi miqdoriy ko‘rsatkichlar kompaniyaning tegishli umumiy ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanadi. Shu bilan birga, miqdoriy jihatdan kichik segmentning kelgusidagi rivojlanish imkoniyati, o‘ziga xos sug‘urta xavflari yoki rahbariyat uchun alohida boshqaruv ahamiyatiga egaligi kabi sifat xususiyatlari ham e’tiborga olinishi lozim. Demak, “ahamiyatsiz” tushunchasi faqat segment hajmining kichikligi bilan chegaralanmaydi.

3-bosqich - Alohida hisobot segmenti sifatida ajratish zaruratini tekshirish. Ushbu bosqichda operatsion segmentning alohida hisobot segmenti sifatida axboroti oshkor qilinishi zarurligi aniqlanadi. Buning uchun segmentning daromadi, foyda yoki zarari va aktivlari bo‘yicha miqdoriy mezonlarga muvofiqligi tekshiriladi. Bundan tashqari, miqdoriy mezonlardan past bo‘lgan segmentning axboroti foydalanuvchilarning iqtisodiy qarorlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi ham baholanadi. Agar segment alohida oshkor qilish uchun yetarli ahamiyatga ega deb topilsa, u mustaqil hisobot segmenti sifatida saqlanadi va uni boshqa segmentga kiritish jarayoni to‘xtatiladi.

4-bosqich - Ahamiyatsiz segment sifatida e’tirof etish. Agar operatsion segment alohida hisobot segmenti sifatida taqdim etish uchun belgilangan talablarni qanoatlantirmasa va uni alohida oshkor qilishni talab qiluvchi muhim sifat omillari mavjud bo‘lmasa, u ahamiyatsiz operatsion segment sifatida e’tirof etiladi. Biroq mazkur qaror segment axborotini hisob tizimidan chiqarib tashlashni anglatmaydi. Uning daromadlari, xarajatlari, aktivlari va moliyaviy natijalari tahliliy hisobda saqlanib qoladi, faqat tashqi segmentar hisobotda qanday shaklda aks ettirilishi keyingi bosqichlarda belgilanadi.

5-bosqich - Iqtisodiy jihatdan o‘xshash segmentlarni aniqlash. Ahamiyatsiz segmentni boshqa segmentga kiritishdan oldin unga iqtisodiy mazmuni bo‘yicha eng yaqin operatsion segment aniqlanishi kerak. Sug‘urta kompaniyasida bunda sug‘urta mahsuloti va xizmatining xususiyati, sug‘urta xavfining turi va darajasi, mijozlar tarkibi, xizmatlarni sotish va ko‘rsatish usullari, faoliyat yuritilayotgan hudud hamda uzoq muddatli moliyaviy natijalar taqqoslanadi. Masalan, faqat ikkita segment bir xil hududda faoliyat yuritishi ularni birlashtirish uchun yetarli asos bo‘lmaydi; ularning iqtisodiy mohiyati ham o‘zaro yaqin bo‘lishi talab etiladi.

6-bosqich - Birlashtirish imkoniyatini baholash. Ushbu bosqich algoritmning asosiy nazorat nuqtasi hisoblanadi. Aniqlangan o‘xshash segmentga ahamiyatsiz segmentni qo‘shish natijasida segmentning iqtisodiy mazmuni buzilmasligi, muhim axborot yashirinib qolmasligi va segmentlar faoliyatini baholash imkoniyati pasaymasligi tekshiriladi. Shuningdek, birlashtirish rahbariyat foydalanadigan ichki axborotning mazmuniga zid kelmasligi lozim. Agar ushbu shartlar bajarilsa, segmentni birlashtirishga ruxsat beriladi. Aks holda, uni iqtisodiy jihatdan mos bo‘lmagan segmentga sun’iy ravishda qo‘shish o‘rniga boshqa segmentlar tarkibida alohida umumlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

7-bosqich - Tegishli segment tarkibiga kiritish. Birlashtirish uchun yetarli asos mavjud bo‘lganda ahamiyatsiz operatsion segment iqtisodiy xususiyatlari eng yaqin bo‘lgan segment tarkibiga kiritiladi. Bunda qaysi segment qaysi segmentga qo‘shilgani, birlashtirishning sabablari, qo‘llanilgan mezonlar va qabul qilingan boshqaruv qarori hujjatlashtirilishi kerak. Ayniqsa, sug‘urta kompaniyasida daromadlar, sug‘urta xizmatlari xarajatlari, sug‘urta to‘lovlari, qayta sug‘urta natijalari va boshqa ko‘rsatkichlarning qaysi segment tarkibida aks ettirilishi aniq belgilanadi.

8-bosqich - Segmentlar bo‘yicha axborotni yangilash. Segmentlar birlashtirilgandan so‘ng tahliliy hisob va ichki hisobot ma’lumotlari yangi segment tarkibiga muvofiqlashtiriladi. Birlashtirilgan segment bo‘yicha daromadlar, xarajatlar, foyda yoki zarar, aktivlar va boshqa tegishli ko‘rsatkichlar qayta umumlashtiriladi. Shu bilan birga,

segmentlararo muomalalar mavjud bo‘lsa, ularning ikki marta hisobga olinishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Ushbu bosqichning natijasi birlashtirilgan segmentning iqtisodiy holatini to‘liq ifodalovchi yangilangan axborot majmuasidir.

9-bosqich - Yakuniy operatsion segmentlar ro‘yxatini shakllantirish. Barcha ahamiyatsiz segmentlar bo‘yicha qarorlar qabul qilingandan so‘ng kompaniyaning yakuniy operatsion segmentlari ro‘yxati tuziladi. Mazkur ro‘yxatda alohida saqlangan segmentlar, iqtisodiy jihatdan o‘xshash segmentlar bilan birlashtirilgan segmentlar hamda boshqa segmentlar tarkibida umumlashtiriladigan faoliyat yo‘nalishlari aniq ko‘rsatiladi. Shu tariqa dastlabki operatsion segmentlar tarkibi segmentar hisobotni shakllantirish talablariga moslashtiriladi.

10-bosqich - Hisobot segmentlarini aniqlash bosqichiga o‘tish. Yakuniy bosqichda shakllantirilgan segmentlar tarkibi asosida tashqi moliyaviy hisobotda alohida oshkor qilinishi lozim bo‘lgan hisobot segmentlari aniqlanadi. Bunda tegishli miqdoriy mezonlar qayta tekshiriladi va tashqi mijozlardan olinadigan daromadlarning yetarli qismi hisobot segmentlari orqali qamrab olinganligi baholanadi. Agar qamrov talab darajasiga yetmasa, qo‘shimcha operatsion segmentlarni alohida hisobot segmenti sifatida ajratish zarurati ko‘rib chiqiladi.

“O‘zbekinvest” AJ uchun ahamiyatsiz operatsion segmentlarni aniqlashda faqat segment hajmining kichikligiga tayanish yetarli emas. Ishchi jadvalda 8-son MHXSdagi miqdoriy mezonlar bilan bir qatorda sug‘urta faoliyatiga xos sifat ko‘rsatkichlarini ham baholash maqsadga muvofiq. Shu asosda quyidagi ishchi jadval shaklini taklif etamiz.

Jadval ma’lumotlari 8-son MHXSda belgilangan miqdoriy mezonlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda, 14 ta operatsion segmentning daromad, foyda va aktivlar bo‘yicha iqtisodiy salmog‘i sezilarli darajada farqlanishi kuzatiladi. Jami segment daromadi 283 218,56 mln so‘m, segment foydasi 39,529 mln so‘m va segment aktivlari 31 040,84 mln so‘mni tashkil etgan.

3.4-jadval

“O‘zbekinvest” AJda ahamiyatsiz operatsion segmentlarni aniqlash bo‘yicha ishchi jadval[71]

№	Operatsion segment nomi	Segment daromadi, mln so‘m	Jami daromaddagi ulushi, %	Segment foydasi, mln so‘m	Foyda mezoni bo‘yicha ulushi, %	Segment aktivlari, mln so‘m	Jami aktivlardagi ulushi, %	10% mezonidan kammi?	Iqtisodiy jihatdan o‘xshash segment mavjudmi?	Yakuniy qaror
1	Andijon	17 463,21	6,17	1,109	2,80	3 049,57	9,82	Ha	Ha	Birlashtirish mumkin
2	Farg‘ona	15 438,35	5,45	0,183	0,46	1 461,32	4,71	Ha	Ha	
3	Jizzax	8 046,24	2,84	1,485	3,76	957,24	3,08	Ha	Ha	
4	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	7 252,74	2,56	1,837	4,65	1 505,22	4,85	Ha	Ha	
5	Qashqadaryo	9 417,90	3,33	1,214	3,07	704,11	2,27	Ha	Ha	
6	Navoiy	8 253,05	2,91	0,525	1,33	2 554,73	8,23	Ha	Ha	
7	Namangan	11 633,34	4,11	1,646	4,16	1 451,37	4,68	Ha	Ha	
8	Samarqand	20 957,34	7,40	1,299	3,29	2 082,65	6,71	Ha	Ha	
9	Surxondaryo	12 264,32	4,33	0,872	2,21	2 768,51	8,92	Ha	Ha	
10	Sirdaryo	7 329,17	2,59	1,202	3,04	1 620,40	5,22	Ha	Ha	
11	Toshkent shahar	79 255,88	**27,98**	14,179	**35,87**	6 628,69	**21,35**	Yo‘q	—	Alohida hisobot segmenti
12	Toshkent viloyati	31 671,70	**11,18**	2,722	6,89	2 888,47	9,31	Yo‘q	—	
13	Buxoro	41 770,10	**14,75**	4,574	**11,57**	1 543,11	4,97	Yo‘q	—	
14	Xorazm	12 465,22	4,40	6,682	**16,90**	1 825,46	5,88	Yo‘q	—	
Jami	**Barcha operatsion segmentlar**	**283 218,56**	**100,00**	**39,529**	**100,00**	**31 040,84**	**100,00**	—	—	—

[71] https://uzbekinvest.uz/audit-financial

Miqdoriy mezonlar bo‘yicha Toshkent shahar segmenti barcha uchta ko‘rsatkich bo‘yicha 10 foizlik chegaradan yuqori bo‘lib, uning jami daromaddagi ulushi 27,98 foiz, foyda mezoni bo‘yicha ulushi 35,87 foiz va jami aktivlardagi ulushi 21,35 foizni tashkil etadi. Shuningdek, Toshkent viloyati daromad mezoni bo‘yicha 11,18 foiz, Buxoro daromad va foyda mezonlari bo‘yicha mos ravishda 14,75 va 11,57 foiz, Xorazm esa foyda mezoni bo‘yicha 16,90 foiz bilan 10 foizlik chegaradan oshgan. Demak, mazkur to‘rtta segment kamida bitta miqdoriy mezonni bajarganligi sababli alohida hisobot segmentlari sifatida ajratilishi maqsadga muvofiq.

Bunda segmentning uchala mezonni bir vaqtda bajarishi talab etilmaydi; daromad, foyda (yoki zarar) yoxud aktivlar mezonlaridan kamida bittasining 10 foizlik chegaraga yetishi segmentni alohida oshkor qilish uchun miqdoriy asos yaratadi. Qolgan Andijon, Farg‘ona, Jizzax, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Sirdaryo segmentlari esa keltirilgan uchta ko‘rsatkichning hech biri bo‘yicha 10 foizlik chegaraga yetmagan. Biroq bu holat ularni avtomatik ravishda segmentar hisobotdan chiqarib tashlashni anglatmaydi. Agar ushbu hududiy segmentlar ko‘rsatiladigan xizmatlar xususiyati, mijozlar tarkibi, sug‘urta risklari, xizmatlarni tashkil etish usullari, tartibga soluvchi muhit hamda uzoq muddatli moliyaviy natijalari jihatidan o‘xshash iqtisodiy xususiyatlarga ega bo‘lsa, ularni iqtisodiy mazmuniga ko‘ra birlashtirilgan hisobot segmentlari sifatida shakllantirish mumkin.

Shu sababli tadqiqotda Toshkent shahar, Toshkent viloyati, Buxoro va Xorazmni alohida hisobot segmentlari sifatida ajratish, qolgan o‘nta hududiy segmentni esa ularning iqtisodiy o‘xshashligi asosida muayyan guruhlarga birlashtirish masalasini ko‘rib chiqish ilmiy-metodik jihatdan asosli hisoblanadi. Bunda keyingi bosqichda alohida aniqlangan hisobot segmentlarining tashqi mijozlardan olingan jami daromadi korxonaning tashqi daromadining kamida 75 foizini qamrab olishi tekshirilishi lozim; agar ushbu chegara ta’minlanmasa, 10 foizlik mezonni bajarmagan qo‘shimcha segmentlar ham hisobot segmentlari tarkibiga kiritiladi.

Jadvalni to‘ldirishda segment daromadi bo‘yicha ulush quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathrm{Di} = \frac{\mathrm{SDi}}{\sum \mathrm{SDi}} \times 100$$

bu yerda: D_i - i-segment daromadining ulushi; SD_i - i-segment daromadi; $\sum SD_i$ - barcha operatsion segmentlarning jami daromadi.

Aktivlar bo‘yicha:

$$\mathrm{Ai} = \frac{\mathrm{SAi}}{\sum \mathrm{SAi}} \times 100$$

bu yerda: A_i - segment aktivlarining ulushi; SA_i - i-segment aktivlari; $\sum SA_i$ - barcha segmentlar aktivlarining jami miqdori.

Foyda yoki zarar bo‘yicha mezonni hisoblashda esa oddiy “jami sof foyda”ga bo‘lish usulidan foydalanish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bunda foyda ko‘rsatgan segmentlarning jami foydasi va zarar ko‘rsatgan segmentlarning jami zararining mutlaq qiymatidan qaysi biri katta bo‘lsa, o‘sha miqdorning 10 foizi mezon sifatida olinadi. Bu yondashuv foydali va zararli segmentlar o‘zaro qoplanib ketishi natijasida muhim segmentning noto‘g‘ri ravishda ahamiyatsiz deb baholanishining oldini oladi.

Ishchi jadval bo‘yicha yakuniy qarorni yanada aniq rasmiylashtirish uchun quyidagi kodlardan foydalanishni taklif etamiz: HS-1 - alohida hisobot segmenti sifatida saqlash; AS-1 - iqtisodiy jihatdan o‘xshash segment bilan birlashtirish; AS-2 - boshqa segmentlar tarkibida umumlashtirish; QK-1 - sifat jihatdan muhimligi sababli alohida ko‘rib chiqish. Shunda har bir segment bo‘yicha qabul qilingan qarorning sababi keyinchalik tekshirilishi va asoslanishi mumkin.

Muhim jihati shundaki, segment uchta 10 foizlik miqdoriy mezondan hech biriga yetmaganining o‘zi uni avtomatik ravishda “ahamiyatsiz” deb hisoblash uchun yetarli bo‘lmasligi kerak. Masalan, “O‘zbekinvest” uchun miqdori kichik bo‘lsa-da, yangi sug‘urta mahsulotini ifodalovchi, o‘ziga xos xavfga ega, istiqbolda tez o‘sishi kutilayotgan yoki rahbariyat tomonidan alohida nazorat qilinadigan faoliyat yo‘nalishi sifat jihatdan muhim segment sifatida saqlanishi mumkin.

3.2. Segmentlar bo‘yicha daromadlar, xarajatlar, aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy natijalar hisobini yuritish metodikasi

Segmentar hisob va hisobot tizimining samaradorligi operatsion segmentlarni to‘g‘ri aniqlash bilan bir qatorda, har bir segmentga tegishli daromadlar, xarajatlar, aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy natijalarni alohida hisobga olish imkonini beradigan tahliliy hisob tizimini shakllantirishga bevosita bog‘liq. Ayniqsa, sug‘urta kompaniyalarida sug‘urta xizmatlarining turli yo‘nalishlari, hududiy faoliyat, qayta sug‘urta munosabatlari, sug‘urta to‘lovlari va umumiy boshqaruv xarajatlarining mavjudligi hisob obyektlarini segmentlar o‘rtasida aniq chegaralashni talab qiladi. Shu sababli segmentlar bo‘yicha hisobni tashkil etishda xo‘jalik operatsiyalarini dastlabki hujjatlardan boshlab tegishli segmentga biriktirish, bevosita ko‘rsatkichlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tan olish hamda umumiy ko‘rsatkichlarni iqtisodiy jihatdan asoslangan taqsimlash mezonlari yordamida segmentlarga taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Segmentlar bo‘yicha hisob yuritish metodikasini “hisob obyektini aniqlash → segmentga mansubligini belgilash → bevosita ko‘rsatkichlarni segmentga biriktirish → umumiy ko‘rsatkichlarni asoslangan mezonlar bo‘yicha taqsimlash → segmentlararo muomalalarni alohida hisobga olish → segment moliyaviy natijasini aniqlash → tahliliy hisob ma’lumotlarini umumlashtirish → segmentar hisobotni shakllantirish” ketma-ketligida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv har bir segmentning kompaniya umumiy moliyaviy natijasiga qo‘shgan hissasini aniqlash, segmentlar kesimida resurslardan foydalanish samaradorligini baholash, daromad va xarajatlarning shakllanish manbalarini nazorat qilish hamda zarar keltirayotgan faoliyat yo‘nalishlarini o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi. Natijada segmentar hisob tashqi hisobot uchun ma’lumot tayyorlash vositasi bilangina cheklanmay, resurslarni taqsimlash, segmentlar faoliyatini baholash va boshqaruv qarorlarini asoslashga xizmat qiluvchi yaxlit axborot tizimi sifatida shakllanadi.

Segment daromadlarini tan olish segmentar hisobni tashkil etishning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning asosiy vazifasi sug‘urta

kompaniyasida shakllangan daromadlarni ularning iqtisodiy mazmuni va kelib chiqish manbalariga muvofiq tegishli operatsion segmentlarga biriktirishdan iborat. Bunda segment daromadi sifatida muayyan segment faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan va uning moliyaviy natijasini shakllantirishda ishtirok etadigan daromadlar e’tirof etilishi lozim. Sug‘urta kompaniyalarida bunday daromadlar tarkibiga, segmentning xususiyatidan kelib chiqib, sug‘urta xizmatlaridan olinadigan daromadlar, qayta sug‘urta bilan bog‘liq daromadlar, sarmoya faoliyatidan olinadigan daromadlar hamda segment faoliyatiga bevosita tegishli boshqa daromadlarni kiritish mumkin. Daromadning muayyan segmentga tegishliligini aniqlashda uning qaysi sug‘urta turi, mahsuloti, mijozlar guruhi yoki hududiy faoliyat natijasida shakllanganligi asosiy mezon sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Segment daromadlarini hisobga olishda bevosita va taqsimlanadigan daromadlarni o‘zaro farqlash alohida ahamiyatga ega. Muayyan segment tomonidan shakllantirilgan daromadlar bevosita ushbu segmentga biriktirilishi, bir vaqtning o‘zida bir nechta segment faoliyati bilan bog‘liq daromadlar esa iqtisodiy jihatdan asoslangan mezonlar bo‘yicha taqsimlanishi lozim. Shuningdek, tashqi mijozlardan olinadigan daromadlar bilan segmentlararo muomalalardan yuzaga keladigan daromadlarni tahliliy hisobda alohida aks ettirish segmentlarning haqiqiy daromad yaratish salohiyatini baholash imkonini beradi. Shu jihatdan segment daromadlarini tan olishning aniq mezonlarini hisob siyosatida belgilash har bir segmentning kompaniya jami daromadiga qo‘shgan hissasini haqqoniy aniqlash, segmentlar faoliyatini o‘zaro taqqoslash va segmentar hisobot axborotining ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

Lee, Lee va Sadka (2026) tadqiqotida korxona tomonidan oshkor qilinadigan faoliyat segmentlari soni moliyaviy axborotning murakkabligi va daromadlarni prognozlash noaniqligini nazorat qiluvchi omillardan biri sifatida qaralgan. Mualliflar NUMSEG ko‘rsatkichini oldingi moliyaviy yil uchun Compustat segment ma’lumotlar bazasida aks ettirilgan hisobot segmentlari sonining natural logarifmi sifatida shakllantirganlar. Mazkur ko‘rsatkich tahlilchilarning daromad prognozlari tarqoqligi va prognoz xatolarini baholashga qaratilgan

ekonometrik modelga nazorat o‘zgaruvchisi sifatida kiritilgan. Bu yondashuv korxonaning segmentar tuzilmasi va segmentlar sonini moliyaviy axborotdan foydalanish hamda daromadlarni prognozlash jarayonida hisobga olinishi zarur bo‘lgan omil sifatida baholash imkonini beradi.[72]

Hinson, Pündrich va Zakota (2024) daromadlarni dezagregatsiya qilishning moliyaviy axborotdan foydalanuvchilar qarorlariga ta’sirini ASC 606 talablari asosida empirik tadqiq etganlar. Mualliflar ASC 606 joriy etilishi natijasida korxonalarning daromadlar to‘g‘risidagi axborotni oshkor qilish hajmi va batafsillik darajasi sezilarli ravishda oshganini, jumladan, daromadlarni dezagregatsiya qiluvchi korxonalarda daromad moddalari median soni ikki baravardan ko‘proqqa ko‘payganini aniqlaganlar. Tadqiqot natijalari daromadlarning batafsil ochib berilishi tahlilchilarning daromad prognozlari aniqligini oshirib, ular o‘rtasidagi tafovutni kamaytirishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, mazkur samara segment axboroti kamroq batafsillashtirilgan korxonalarda, dezagregatsiya qilingan daromadlar o‘zaro taqqoslanuvchan bo‘lganda hamda miqdoriy ma’lumotlar batafsil sifat tavsiflari bilan to‘ldirilganda yuqori bo‘lgan. Bizning fikrimizcha, mazkur tadqiqot natijalari segmentar hisobot metodologiyasini takomillashtirishda daromadlarni segmentlar bo‘yicha oddiy taqsimlashdan ko‘ra, ularni iqtisodiy mazmunini ifodalovchi darajada dezagregatsiya qilish tamoyiliga ustuvorlik berish zarurligini ko‘rsatadi. Xususan, sug‘urta kompaniyalarida segment daromadlarini sug‘urta xizmatlari yo‘nalishlari, mijozlar guruhlari, hududlar yoki boshqa boshqaruv uchun ahamiyatli belgilar bo‘yicha batafsillashtirish segmentlarning daromad yaratish xususiyatlarini to‘liqroq ochib berishi mumkin. Bunda batafsillashtirish darajasi axborotning taqqoslanuvchanligi va qaror qabul qilishdagi foydaliligini pasaytirmasligi lozim. Shu jihatdan Hinson, Pündrich va Zakota tadqiqoti “segment daromadlarini tan olish → tegishli segmentga biriktirish → iqtisodiy mazmuniga ko‘ra dezagregatsiya qilish → sifat tavsiflari bilan izohlash” yondashuvini ishlab chiqish uchun muhim nazariy-empirik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Oxirgi jumladagi metodik yondashuv

[72] https://link.springer.com/article/10.1007/s11142-026-09936-5

maqolaning o‘zida taklif qilingan model emas, balki uning natijalaridan dissertatsiya maqsadlari uchun chiqarilgan xulosadir.[73]

Mualliflarning asosiy ilmiy muammosi shundan iboratki, ASC 606 daromadlar haqidagi axborotni batafsil qismlarga ajratib oshkor qilishni sezilarli darajada kengaytirgan bo‘lsa-da, tamoyillarga asoslangan standartda rahbariyatning professional mulohazasiga katta o‘rin berilishi bunday batafsillashtirishning investor va tahlilchilar uchun haqiqatan ham qaror qabul qilishga foydali ekanligi masalasini yuzaga keltiradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ASC 606ni qo‘llash natijasida daromadlarni dezagregatsiya qilgan korxonalarda oshkor etilgan daromad moddalari median soni ikki baravardan ko‘proqqa oshgan.

Tadqiqotning segmentar hisobot uchun eng muhim jihati shundaki, mualliflar daromadlarni batafsillashtirishdan olinadigan axborot samarasi segment axborotining batafsillik darajasiga bog‘liq ekanligini aniqlaganlar. Xususan, daromadlarni dezagregatsiya qilish natijasidagi foyda segment axboroti nisbatan kam batafsillashtirilgan korxonalarda kuchliroq namoyon bo‘lgan. Ya’ni segmentar hisobot foydalanuvchiga yetarlicha batafsil daromad axborotini bermayotgan sharoitda ASC 606 bo‘yicha daromadlarni qo‘shimcha qismlarga ajratish mavjud axborot bo‘shlig‘ini to‘ldirishi mumkin.

Empirik natijalar ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Daromadlarni batafsil dezagregatsiya qilgan korxonalarda tahlilchilarning sotishdan olinadigan daromad bo‘yicha prognozlari aniqroq, prognozlar o‘rtasidagi tafovut esa kamroq bo‘lgan. Xalqaro buxgalteriya standartlari kengashi tomonidan ushbu tadqiqot natijalarining umumlashtirilishida daromad prognozlari aniqligi taxminan 12,5 foizga yaxshilangani, prognozlar tarqoqligi esa 8 foizga kamaygani qayd etilgan.

Biroq mualliflar daromadlarni shunchaki ko‘proq qismlarga ajratishning o‘zi yetarli emasligini ko‘rsatadilar. Axborotning qaror qabul qilishdagi foydaliligi, birinchidan, dezagregatsiya qilingan raqamli ma’lumotlar batafsil sifat tavsiflari bilan birgalikda taqdim etilganda, ikkinchidan, ajratilgan daromad ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslanuvchan

[73] https://publications.aaahq.org/accounting-review/article-abstract/99/3/225/12026/The-Decision-Usefulness-of-ASC-606-Revenue?redirectedFrom=fulltext

bo‘lganda, uchinchidan esa segment axborotining mavjud batafsillik darajasi past bo‘lganda kuchliroq namoyon bo‘lgan.

Bordeman (2023) daromadlarni tan olish vaqtini belgilashda rahbariyatga berilgan ixtiyoriylik darajasi va moliyaviy hisobot axborotining taqqoslanuvchanligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq etgan. Muallif SOP 97-2 joriy etilishini tabiiy tajriba sifatida qo‘llab, “farqlardagi farqlar” usuli asosida yangi talablar ta’siriga uchragan korxonalarda daromadlarni tan olish bo‘yicha ixtiyoriylikning kamayishi moliyaviy hisobotlarning taqqoslanuvchanligini avtomatik ravishda oshirmaganligini aniqlagan. Tadqiqot natijalari daromadlarni tan olishning qat’iy tartibga solinishi bilan axborotning taqqoslanuvchanligi o‘rtasidagi munosabat murakkab ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuvni segmentar hisob nuqtayi nazaridan rivojlantirib, segment daromadlarini tan olishda yagona mezonlarni belgilash bilan bir qatorda, alohida segmentlarning iqtisodiy xususiyatlarini hisobga oluvchi asoslangan professional mulohazani saqlash zarur, deb hisoblaymiz. Bunday yondashuv segmentlar kesimida daromadlarning iqtisodiy mazmunini haqqoniy aks ettirish hamda segmentar axborotning taqqoslanuvchanligini ta’minlashga xizmat qiladi.[74]

Onie, Ma, Spiropoulos va Wells (2023) 15-son MHXS “Mijozlar bilan shartnomalar bo‘yicha tushum”ning joriy etilishi natijasida daromadlarni tan olish va moliyaviy hisobot axborotining qiymatga oid ahamiyatida yuzaga kelgan o‘zgarishlarni tadqiq etganlar. Mualliflar avvalgi standartlarda iqtisodiy jihatdan o‘xshash operatsiyalar bo‘yicha turlicha hisob yondashuvlarining mavjudligi daromadlarni tan olish muddatlari va miqdorlarining farqlanishiga sabab bo‘lganligini ta’kidlaydilar. 15-son MHXSning yagona besh bosqichli modeli esa shartnoma narxini alohida bajarish majburiyatlariga taqsimlash va daromadni ushbu majburiyatlarning bajarilishiga muvofiq tan olishni nazarda tutadi. Empirik natijalar aksariyat korxonalarda yangi standartning moliyaviy natijalarga ta’siri sezilarli bo‘lmaganligini, biroq ayrim korxonalarda foyda va taqsimlanmagan foydaning jiddiy kamayganligini ko‘rsatgan. Mazkur natijalardan kelib chiqib, segmentar

[74] https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0278425422000801

hisobda daromadlarni tan olishda ularning iqtisodiy mazmuni, shartnomadagi bajarish majburiyatlari va daromadni shakllantiruvchi faoliyat yo‘nalishlarini hisobga olgan holda tegishli segmentlarga asosli ravishda biriktirish segment daromadlari to‘g‘risidagi axborotning ishonchliligi va taqqoslanuvchanligini oshiradi, deb hisoblaymiz.[75]

Sug‘urta kompaniyalarida segment daromadlarini tan olish umumiy daromadlarni shunchaki segmentlar o‘rtasida taqsimlash emas, balki daromadning iqtisodiy manbasi, sug‘urta shartnomasi bilan bog‘liqligi, xizmat ko‘rsatish davri, segmentga bevosita mansubligi va rahbariyat tomonidan segment faoliyatini baholashda qo‘llanilishi asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda sug‘urta shartnomalaridan olinadigan daromadlar uchun 17-son MHXS talablari, segmentar axborotni shakllantirishda esa 8-son MHXSning boshqaruv yondashuvi metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

3.5-jadval

Sug‘urta kompaniyalarida segmentlar bo‘yicha daromadlarni tan olishning xususiyatlari[76]

№	Daromad turi	Segment bo‘yicha tan olish xususiyati	Segmentga biriktirish asosi
1	**Sug‘urta xizmatlari daromadi**	Sug‘urta shartnomalari guruhi bo‘yicha davr mobaynida ko‘rsatilgan sug‘urta xizmatlarini aks ettiruvchi miqdorda tan olinadi	Sug‘urta turi, mahsulot guruhi, mijozlar guruhi yoki hududiy segment
2	**Sug‘urta shartnomalari bo‘yicha xizmat ko‘rsatishdan olinadigan daromad**	Daromad pul mablag‘lari kelib tushishiga emas, hisobot davrida sug‘urta xizmatining ko‘rsatilishiga bog‘liq holda tan olinadi	Shartnomalar guruhi va xizmat ko‘rsatish davri
3	**Qayta sug‘urta bilan bog‘liq daromadlar**	Qayta sug‘urta shartnomalarining iqtisodiy mazmuniga muvofiq sug‘urta faoliyati natijalaridan alohida kuzatiladi	Qayta sug‘urta shartnomasi tegishli bo‘lgan sug‘urta portfeli yoki segment

[75] https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/acfi.12978

[76] Muallif ishlanmasi

4	**Investitsiya daromadlari**	Sug‘urta xizmatlari daromadidan alohida shakllanadi; segmentga faqat tegishli aktivlar yoki investitsiya faoliyati segment kesimida boshqarilsa biriktiriladi	Segmentga tegishli investitsiya aktivlari, kapital yoki boshqaruv axboroti
5	**Foiz daromadlari**	Foiz keltiruvchi aktivning qaysi segment faoliyatiga xizmat qilishi hisobga olinadi	Segment aktivlari yoki moliyalashtirish manbalari
6	**Komissiya va vositachilik daromadlari**	Qaysi sug‘urta mahsuloti, xizmat yoki segment faoliyati natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa, shu segmentda tan olinadi	Shartnoma, mahsulot, mijoz yoki xizmat turi
7	**Qo‘shimcha xizmatlardan daromadlar**	Sug‘urta shartnomasidan tashqaridagi mustaqil xizmatlar bo‘yicha daromadlar ularning iqtisodiy mazmuniga muvofiq tan olinadi	Xizmat turi va uni ko‘rsatuvchi segment
8	**Hududiy faoliyatdan olinadigan daromadlar**	Daromad filial yoki hududning iqtisodiy faoliyati bilan bog‘liqligiga qarab shakllantiriladi	Filial, viloyat, hudud yoki boshqa geografik birlik
9	**Segmentlararo operatsiyalardan daromadlar**	Tashqi mijozlardan olinadigan daromaddan alohida hisobga olinishi kerak	Segmentlararo xizmat yoki boshqa ichki operatsiya
10	**Bir nechta segmentga tegishli daromadlar**	Daromadni bitta segmentga bevosita biriktirish mumkin bo‘lmasa, iqtisodiy asoslangan mezon qo‘llaniladi	Shartnomalar soni, xizmat hajmi, sug‘urta portfeli yoki boshqa asoslangan ko‘rsatkich
11	**Valyuta operatsiyalari bilan bog‘liq daromadlar**	Segment faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan qismi tegishli segment natijasida hisobga olinishi mumkin	Segmentga tegishli valyuta aktivlari va majburiyatlari
12	**Boshqa operatsion daromadlar**	Daromadning kelib chiqish manbasi va segment faoliyati bilan sababiy bog‘liqligi aniqlanadi	Daromadni yuzaga keltirgan operatsiya

Jadvaldan ko‘rinadiki, sug‘urta kompaniyalarida segment daromadlarini tan olishda “daromad kelib tushgan joy” bilan “daromad tegishli bo‘lgan segment” tushunchalarini farqlash muhim hisoblanadi. Masalan, sug‘urta mukofotining pul shaklida kelib tushishi o‘z-o‘zidan aynan shu miqdorni segment daromadi sifatida tan olish uchun yetarli asos bo‘lmaydi. Sug‘urta xizmatlari daromadi tegishli sug‘urta shartnomalari bo‘yicha hisobot davrida ko‘rsatilgan xizmatlar bilan bog‘liq holda shakllantirilishi, undan keyin ushbu daromadning qaysi operatsion segmentga mansubligi aniqlanishi maqsadga muvofiq. Shu jihatdan, dissertatsiyada segment daromadlarini tan olishning asosiy xususiyatlari sifatida daromadning iqtisodiy mazmuniga ustuvorlik berish, sug‘urta xizmatlari daromadini pul tushumlaridan farqlash, bevosita aniqlanadigan daromadlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri segmentga biriktirish, umumiy daromadlarni iqtisodiy asoslangan mezonlar bo‘yicha taqsimlash, tashqi va segmentlararo daromadlarni alohida hisobga olish hamda segmentga mansubligi aniqlanmagan daromadlarni sun’iy ravishda segmentlarga taqsimlamaslikni belgilash mumkin. Bu yondashuv segmentlarning haqiqiy daromad yaratish salohiyati va moliyaviy natijasini aniqroq baholash imkonini beradi.

Sug‘urta kompaniyalarida segmentlar faoliyatining moliyaviy natijalarini haqqoniy baholash ko‘p jihatdan xarajatlarni tegishli segmentlarga to‘g‘ri biriktirishga bog‘liq. Segmentlar bo‘yicha daromadlarni alohida shakllantirishning o‘zi ularning iqtisodiy samaradorligini to‘liq baholash imkonini bermaydi, chunki har bir segment faoliyati bilan bog‘liq xarajatlarning tarkibi, yuzaga kelish sabablari va segmentga mansubligi ham aniqlanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, segmentar hisobda xarajatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri, taqsimlanadigan va umumkorporativ xarajatlarga ajratish segment moliyaviy natijasini shakllantirishning muhim metodologik sharti hisoblanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar muayyan sug‘urta turi, mahsulot, hudud yoki boshqa operatsion segment faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularni qo‘shimcha hisob-kitoblarsiz tegishli segmentga biriktirish mumkin. Sug‘urta hodisalari bilan bog‘liq xarajatlar, muayyan segmentga

xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning mehnat xarajatlari, segment faoliyatiga tegishli vositachilik xarajatlari va boshqa bevosita xarajatlar shular jumlasidandir. Taqsimlanadigan xarajatlar esa bir vaqtning o‘zida bir nechta segment faoliyatiga xizmat qilishi sababli ularni bevosita bitta segmentga tegishli deb hisoblash imkoniyati mavjud bo‘lmagan xarajatlardir. Bunday xarajatlarni segmentlarga taqsimlashda sug‘urta shartnomalari soni, sug‘urta xizmatlari daromadi, xodimlar soni, ish vaqti, foydalanilgan resurslar hajmi yoki xarajatning yuzaga kelish sababini eng to‘g‘ri ifodalovchi boshqa iqtisodiy asoslangan mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Umumkorporativ xarajatlar kompaniyaning alohida segmentiga emas, balki butun sug‘urta tashkilotini boshqarish va uning umumiy faoliyatini ta’minlashga xizmat qiladi. Bosh ofis boshqaruv xarajatlari, umumiy axborot tizimlari, yuridik va ma’muriy xizmatlar, umumkorporativ nazorat hamda boshqa markazlashgan xizmatlar bunga misol bo‘lishi mumkin. Mazkur xarajatlarni segmentlarga avtomatik ravishda yoki faqat daromad ulushiga mutanosib taqsimlash segmentlar rentabelligini buzib ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli umumkorporativ xarajatlar bilan segment faoliyati o‘rtasida asoslangan sababiy bog‘liqlik mavjud bo‘lgandagina ularni tegishli taqsimlash bazasi asosida segmentlarga biriktirish, bunday bog‘liqlik mavjud bo‘lmagan qismini esa taqsimlanmagan umumkorporativ xarajatlar sifatida alohida aks ettirish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv segmentlar bo‘yicha moliyaviy natijalarni sun’iy ravishda kamaytirish yoki oshirishning oldini olib, segment faoliyati samaradorligini obyektiv baholash imkonini beradi.

Jadvalda taklif etilayotgan yondashuvning muhim jihati xarajatlarni segmentlarga faqat daromad ulushiga mutanosib ravishda taqsimlashdan voz kechish va xarajatni yuzaga keltirgan iqtisodiy omilga mos taqsimlash bazasini tanlashdan iborat. Masalan, axborot tizimi xarajatlarini foydalanuvchilar yoki operatsiyalar soni, bino xarajatlarini foydalanilgan maydon, umumiy xodimlar xarajatlarini esa sarflangan ish vaqti asosida taqsimlash segmentlar xarajatlarini aniqroq shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, umumkorporativ xarajatlarning barchasini

segmentlarga majburiy taqsimlash maqsadga muvofiq emas. Segment faoliyati bilan ishonchli sababiy bog‘liqlik o‘rnatib bo‘lmaydigan xarajatlarni alohida umumkorporativ xarajat sifatida saqlash segment foydasining sun’iy ravishda kamaytirilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Natijada sug‘urta kompaniyasida har bir segmentning daromadi, unga bevosita va asosli ravishda taqsimlangan xarajatlari hamda moliyaviy natijasini obyektiv baholash uchun zarur axborot bazasi shakllanadi. Sug‘urta kompaniyalarida segment aktivlari va majburiyatlarini belgilash segmentlar kesimida moliyaviy holatni haqqoniy aks ettirish, ularning resurslardan foydalanish samaradorligini baholash hamda boshqaruv qarorlari uchun zarur axborotni shakllantirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bunda aktiv yoki majburiyatning faqat buxgalteriya hisobida qaysi hisobvaraqda aks ettirilishi emas, balki uning qaysi operatsion segment faoliyati bilan iqtisodiy jihatdan bog‘liqligi asosiy mezon sifatida olinishi lozim. Shu sababli segment aktivlari va majburiyatlarini aniqlashda ularning kelib chiqish manbai, foydalanish maqsadi, muayyan sug‘urta mahsuloti yoki portfeliga tegishliligi, hududiy mansubligi hamda segment faoliyatining moliyaviy natijalarini shakllantirishdagi ishtiroki e’tiborga olinishi maqsadga muvofiq.

Mazkur rasmda sug‘urta kompaniyalarida xarajatlarni operatsion segmentlar kesimida hisobga olish va taqsimlashning taklif etilayotgan algoritmi aks ettirilgan. Algoritm dastlab operatsion segmentlarni aniqlashdan boshlanib, xarajatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri, taqsimlanadigan va umumkorporativ xarajatlarga tasniflashni nazarda tutadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar bevosita tegishli segmentga olib boriladi, taqsimlanadigan va umumkorporativ xarajatlar esa daromad ulushi, xodimlar soni, aktivlar ulushi hamda boshqa iqtisodiy jihatdan asoslangan ko‘rsatkichlar asosida segmentlar o‘rtasida taqsimlanadi.

3.6-jadval

Sug‘urta kompaniyalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri, taqsimlanadigan va umumkorporativ xarajatlarni segmentlar bo‘yicha hisobga olish va taqsimlash metodikasi[77]

№	Xarajatlar guruhi	Xarajatlarning mazmuni va sug‘urta faoliyatidagi misollar	Segmentga biriktirish xususiyati	Tavsiya etiladigan taqsimlash bazasi	Segmentar hisobda aks ettirish
1	To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta xarajatlari	Muayyan sug‘urta turi yoki portfeli bilan bevosita bog‘liq xarajatlar	Bevosita tegishli segmentga biriktiriladi	Taqsimlash talab etilmaydi	To‘liq tegishli segment xarajatiga kiritiladi
2	Sug‘urta hodisalari bilan bog‘liq xarajatlar	Sug‘urta hodisasini ko‘rib chiqish, baholash va tartibga solish bilan bog‘liq xarajatlar	Sug‘urta shartnomasi yoki portfeli aniqlangan bo‘lsa, bevosita segmentga biriktiriladi	Sug‘urta hodisasi yoki shartnoma mansubligi	Tegishli sug‘urta segmentida hisobga olinadi
3	Vositachilik bilan bog‘liq xarajatlar	Agentlar, brokerlar va boshqa sotish kanallari bilan bog‘liq xarajatlar	Qaysi mahsulot yoki segment uchun yuzaga kelgani aniqlansa, bevosita biriktiriladi	Sug‘urta shartnomalari yoki mahsulotlar bo‘yicha mansublik	Tegishli segment xarajati sifatida aks ettiriladi
4	Segment xodimlari bilan bog‘liq xarajatlar	Muayyan segmentda faoliyat yurituvchi xodimlarning mehnat va unga bog‘liq xarajatlari	Xodim faqat bitta segmentga xizmat qilsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri biriktiriladi	Taqsimlash talab etilmaydi	Bevosita segment xarajatiga yoziladi

[77] Muallif ishlanmasi

5	Bir nechta segmentga xizmat qiluvchi xodimlar xarajatlari	Bir vaqtning o‘zida bir nechta sug‘urta yo‘nalishiga xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar xarajatlari	Segmentlar o‘rtasida taqsimlanadi	Ish vaqti, bajarilgan ish hajmi yoki xizmatlar soni	Belgilangan mezon bo‘yicha segmentlarga taqsimlanadi
6	Axborot tizimlari xarajatlari	Sug‘urta dasturlari, ma’lumotlar bazalari va boshqa raqamli tizimlardan foydalanish xarajatlari	Bir nechta segment foydalanadigan bo‘lsa, taqsimlanadigan xarajat hisoblanadi	Foydalanuvchilar soni, operatsiyalar soni, foydalanish hajmi	Segmentlarning resurslardan foydalanish darajasiga mutanosib taqsimlanadi
7	Bino va xizmat ko‘rsatish xarajatlari	Ijara, elektr energiyasi, kommunal va xo‘jalik xarajatlari	Bir nechta segmentga xizmat qiluvchi obyektlar bo‘yicha taqsimlanadi	Egallangan maydon, xodimlar soni yoki foydalanish darajasi	Tegishli segmentlarga asoslangan mezon bo‘yicha taqsimlanadi
8	Hududiy bo‘linmalar xarajatlari	Filial va boshqa hududiy bo‘linmalar faoliyati bilan bog‘liq xarajatlar	Hududiy segment aniq bo‘lsa, bevosita unga biriktiriladi	Xarajatning yuzaga kelgan joyi	Tegishli hududiy segmentda hisobga olinadi
9	Umumiy reklama va marketing xarajatlari	Bir vaqtning o‘zida bir nechta sug‘urta mahsuloti yoki segmentni qo‘llab-quvvatlovchi xarajatlar	Bevosita aniqlash imkoni bo‘lmasa, taqsimlanadi	Reklama qamrovi, shartnomalar soni yoki segment daromadi	Iqtisodiy asoslangan mezon asosida taqsimlanadi
10	Bosh ofis boshqaruv xarajatlari	Kompaniya rahbariyati va markaziy boshqaruv	Segment bilan sababiy bog‘liqligi aniqlangan qismigina taqsimlanadi	Xodimlar soni, boshqaruv xizmatlaridan foydalanish hajmi	Asoslangan qismi segmentlarga, qolgan qismi

		bilan bog‘liq xarajatlar		yoki boshqa asoslangan mezon	umumkorporativ xarajatga kiritiladi
11	Yuridik, ichki nazorat va umumiy maslahat xizmatlari	Butun kompaniya faoliyatiga xizmat qiluvchi markazlashgan xizmatlar	Muayyan segment bilan bog‘liq qismi bevosita, umumiy qismi esa zarurat bo‘lsa taqsimlanadi	Xizmat ko‘rsatish vaqti, murojaatlar yoki operatsiyalar soni	Bevosita va taqsimlanadigan qismlarga ajratib hisobga olinadi
12	Umumkorporativ axborot va boshqaruv tizimlari xarajatlari	Butun kompaniyaga xizmat qiladigan markaziy boshqaruv va axborot infratuzilmasi	Segmentlar bilan asoslangan bog‘liqlik mavjud bo‘lsa taqsimlanadi	Foydalanuvchilar, operatsiyalar yoki foydalanish hajmi	Asoslangan qismi segmentlarga taqsimlanadi
13	Taqsimlanmaydigan umumkorporativ xarajatlar	Alohida segment faoliyati bilan bevosita yoki sababiy bog‘lanmaydigan xarajatlar	Segmentlarga sun’iy ravishda taqsimlanmaydi	Taqsimlash bazasi qo‘llanilmaydi	Alohida “Taqsimlanmagan umumkorporativ xarajatlar” sifatida aks ettiriladi
14	Boshqa umumiy xarajatlar	Bir nechta segment faoliyatiga tegishli boshqa xarajatlar	Xarajatni keltirib chiqargan omil aniqlanib, shunga muvofiq taqsimlanadi	Sababiy bog‘liqlikni eng yaxshi ifodalovchi ko‘rsatkich	Hisob siyosatida belgilangan mezon asosida segmentlarga taqsimlanadi



3.4-rasm. Sug‘urta kompaniyalarida xarajatlarni segmentlar bo‘yicha hisobga olish va taqsimlash algoritmi.

Natijada har bir segment bo‘yicha jami xarajat miqdori shakllantirilib, tegishli hisob registrlarida aks ettiriladi va segmentar tahlil hamda hisobot uchun axborot bazasi yaratiladi. Ushbu yondashuv xarajatlarning segmentlarga adolatli, izchil va iqtisodiy mazmuniga muvofiq taqsimlanishini, shuningdek, har bir segmentning moliyaviy natijasi va samaradorligini aniqroq baholash imkonini beradi.

Segmentlar bo‘yicha moliyaviy natijalarning ishonchli shakllanishi bilvosita xarajatlarni asoslangan tarzda taqsimlash usuliga bevosita bog‘liq. Umumiy xarajatlarni faqat daromad hajmiga mutanosib ravishda taqsimlash segmentlarning resurslardan foydalanish darajasi va xarajatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni to‘liq aks ettirmasligi mumkin. Shu bois, tadqiqotimizda bilvosita xarajatlarni ularning yuzaga kelish xususiyati va resurslar iste’moliga ta’sir etuvchi omillardan kelib chiqqan holda segmentlarga taqsimlash uchun differensial taqsimlash bazalari taklif etildi. Ushbu taqsimlash bazalari va ularni qo‘llash tartibi 10-jadvalda keltirilgan.

Taqsimlashdan oldin ishimizda xarajatlar uch guruhga ajratildi:

1. Muayyan segmentga bevosita tegishli xarajatlar;
2. Bir nechta segmentga xizmat qiluvchi umumiy xarajatlar;
3. Asoslangan taqsimlash imkoni bo‘lmagan yoki rahbariyat alohida nazorat qiladigan korporativ xarajatlar.

3.7-jadval

Sug‘urta tashkilotlarida bilvosita xarajatlar va ularni taqsimlash bazalari[78]

№	**Xarajat turi**	**Tavsiya etiladigan baza**	**Iqtisodiy asos**
1	Axborot texnologiyalari	Tranzaksiyalar yoki foydalanuvchilar soni	Tizimdan foydalanish
2	Xodimlar bilan ishlash	Xodimlar soni yoki ish vaqti	Mehnat resursiga xizmat
3	Sotuvni qo‘llab-quvvatlash	Shartnomalar yoki sotuv amallari soni	Sotuv jarayoni hajmi
4	Da’volarni tartibga solish	Da’volar soni va murakkabligi	Qayta ishlash mehnattalabligi
5	Ofis va ijara	Maydon yoki ish o‘rinlari	Jismoniy resurs iste’moli
6	Investitsiyalarni boshqarish	Biriktirilgan aktivlar qiymati	Boshqariladigan kapital

Uchinchi guruhga kiruvchi xarajatlarni shartli ravishda segmentlarga taqsimlash segmentlar moliyaviy natijalarining iqtisodiy mazmunini buzishi mumkin. Shu sababli ularni tashqi segmentar hisobotda segmentlarga majburan taqsimlash o‘rniga, tegishli hollarda

[78] Muallif ishlanmasi

taqsimlanmagan korporativ xarajatlar sifatida alohida aks ettirish maqsadga muvofiqdir.

Bilvosita xarajatlarni segmentlarga taqsimlash mumkin bo‘lgan hollarda har bir xarajat turining iqtisodiy mazmuniga mos taqsimlash bazasidan foydalanish taklif etildi. Bunda k-turdagi umumiy bilvosita xarajatning i-segmentga tegishli qismi quyidagi algoritm asosida aniqlash tavsiya etildi:

$$\mathbf{X}_{\text{ik}} = \mathbf{X}_{\text{k}} \times \frac{\mathbf{B}_{\text{ik}}}{\sum_{i=1}^{n} \mathbf{B}_{\text{ik}}}$$

Bunda X_{ik} - k-turdagi bilvosita xarajatning i-segmentga taqsimlangan summasi, X_k - k-turdagi taqsimlanishi lozim bo‘lgan umumiy bilvosita xarajat, B_{ik} - i-segmentning k-turdagi xarajat uchun belgilangan taqsimlash bazasi, $\sum_{i=1}^{n} \mathbf{B}_{\text{ik}}$ -mazkur xarajat turi bo‘yicha barcha segmentlarning taqsimlash bazalari yig‘indisi, *n* - segmentlar soni.

Har bir xarajat turi bo‘yicha taqsimlash amalga oshirilgandan so‘ng i-segmentga to‘g‘ri keladigan jami bilvosita xarajat quyidagicha aniqlanadi:

$$\mathbf{X}_{\text{i}} = \sum_{k=1}^{m} \mathbf{X}_{\text{ik}}$$

bu yerda: X_i - i-segmentga taqsimlangan jami bilvosita xarajatlar, X_{ik} - k-turdagi bilvosita xarajatning i-segmentga taqsimlangan qismi, *m* - taqsimlanadigan bilvosita xarajat turlari soni.

Agar muayyan xarajat turi bo‘yicha taqsimlash bazalarining umumiy yig‘indisi $\sum B_{ik} = 0$ bo‘lsa, mazkur xarajatni avtomatik taqsimlash amalga oshirilmaydi. Bunday holatda xarajatning iqtisodiy mazmuniga mos muqobil taqsimlash bazasidan foydalaniladi. Agar iqtisodiy jihatdan asoslangan muqobil baza ham mavjud bo‘lmasa, xarajat taqsimlanmagan korporativ modda sifatida e’tirof etiladi va qabul qilingan qaror hamda uning asoslari tegishli tartibda hujjatlashtiriladi.

Ishimizda bilvosita xarajatlarni taqsimlash hisob-kitobi taklif etildi (3.8-jadvalga qarang).

3.8-jadval

“O‘zbekiinvest EISK” AJda bilvosita xarajatlarni segmentlar bo‘yicha differensial taqsimlashning natijalari[79]

№	Hududiy segment	Tranzaksiyalar ulushi, %	Xodimlar ulushi, %	Shartnomalar ulushi, %	Aktivlar ulushi, %	AT xarajatlari, mlrd so‘m	Xodimlar bilan ishlash, mlrd so‘m	Sotuvni qo‘llab-quvvatlash, mlrd so‘m	Investitsiya boshqaruvi, mlrd so‘m	Jami xarajat, mlrd so‘m
1	Andijon	6,3	6,8	6,4	9,83	0,50	0,54	0,51	0,82	2,37
2	Farg‘ona	5,5	6,4	5,6	4,71	0,44	0,51	0,45	0,39	1,79
3	Jizzax	2,8	3,5	2,9	3,08	0,22	0,28	0,23	0,26	0,99
4	Qoraqalpog‘iston R.	2,6	3,3	2,7	4,85	0,21	0,26	0,22	0,40	1,09
5	Qashqadaryo	3,4	4,0	3,5	2,27	0,27	0,32	0,28	0,19	1,06
6	Navoiy	3,0	3,5	3,1	8,23	0,24	0,28	0,25	0,68	1,45
7	Namangan	4,1	4,6	4,2	4,67	0,33	0,37	0,34	0,39	1,43
8	Samarqand	7,4	7,7	7,5	6,71	0,59	0,62	0,60	0,56	2,37
9	Surxondaryo	4,3	4,7	4,4	8,92	0,34	0,38	0,35	0,74	1,81
10	Sirdaryo	2,6	3,2	2,7	5,22	0,21	0,26	0,22	0,43	1,12
11	Toshkent shahri	28,0	24,5	27,5	21,36	2,24	1,96	2,20	1,77	8,17
12	Toshkent viloyati	11,2	10,5	11,0	9,30	0,90	0,84	0,88	0,77	3,39
13	Buxoro	14,8	12,0	14,2	4,97	1,18	0,96	1,14	0,41	3,69
14	Xorazm	4,0	5,3	4,3	5,88	0,32	0,42	0,34	0,49	1,57
Jami	Barcha segmentlar	100,0	100,0	100,0	100,0	7,99	8,00	8,01	8,30	32,3

Jadval ma’lumotlari sug‘urta tashkilotining hududiy segmentlari bo‘yicha umumiy operatsion xarajatlarni iqtisodiy asoslangan drayverlar yordamida taqsimlash imkonini beradi. Bunda axborot texnologiyalari

[79] Муаллиф ишланмаси

xarajatlari tranzaksiyalar ulushi, xodimlar bilan ishlash xarajatlari xodimlar ulushi, sotuvni qo‘llab-quvvatlash xarajatlari shartnomalar ulushi, investitsiya boshqaruvi xarajatlari esa aktivlar ulushiga mutanosib taqsimlangan. Natijada 32,30 mlrd so‘mlik umumiy xarajatning segmentlar kesimida shakllanishi ta’minlanib, mazkur yondashuv xarajatlarning kelib chiqish omillarini hisobga olgan holda ularni segmentlarga asosli taqsimlash va har bir hudud faoliyati samaradorligini xolis baholash imkonini beradi.

Ushbu metodikaning ahamiyati shundaki, u xarajatlarni sun’iy kamaytirishda emas, ularni resurslardan foydalanishga yaqinroq asosda biriktirishdadir. Shu sababli taqsimlash usulidagi o‘zgarish iqtisodiy tejam sifatida emas, segment natijasini aniqlashtirish sifatida talqin qilinishi to‘g‘ri hisoblanadi.

Segment aktivlari tarkibiga muayyan sug‘urta turi, mahsulot guruhi, mijozlar guruhi, hududiy bo‘linma yoki boshqa operatsion segment faoliyatini amalga oshirishda foydalaniladigan aktivlar kiritilishi lozim. Jumladan, segmentga bevosita tegishli pul mablag‘lari va debitorlik qarzlari, sug‘urta shartnomalari bilan bog‘liq aktivlar, qayta sug‘urta shartnomalari bo‘yicha aktivlar, asosiy vositalar hamda segment faoliyatiga xizmat qiluvchi boshqa aktivlar shular jumlasidandir. Muayyan aktiv faqat bitta segment faoliyatiga tegishli bo‘lsa, uning qiymati to‘liq ushbu segmentga biriktiriladi. Bir nechta segment tomonidan birgalikda foydalaniladigan aktivlar esa ulardan foydalanish hajmi, sug‘urta portfeli, segment daromadi, egallangan maydon, xodimlar soni yoki aktivdan foydalanish darajasini ifodalovchi boshqa iqtisodiy asoslangan mezonlar bo‘yicha taqsimlanishi mumkin.

Segment majburiyatlarini belgilashda esa majburiyatning yuzaga kelish sababi va uning muayyan segment faoliyati bilan bog‘liqligi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Muayyan sug‘urta portfeli bilan bevosita bog‘liq sug‘urta shartnomalari bo‘yicha majburiyatlar, qayta sug‘urta bilan bog‘liq tegishli majburiyatlar, segment faoliyati natijasida yuzaga kelgan kreditorlik qarzlari va boshqa majburiyatlar bevosita tegishli segmentga biriktirilishi lozim. Bir nechta segment faoliyati natijasida shakllangan umumiy majburiyatlarni taqsimlashda esa ularning yuzaga

kelishiga sabab bo‘lgan omilni eng aniq ifodalovchi mezondan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv har bir segment zimmasiga haqiqatda uning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan majburiyatlarni yuklash va segmentning moliyaviy holatini obyektiv baholash imkonini beradi.

Shu bilan birga, sug‘urta kompaniyasining barcha aktivlari va majburiyatlarini segmentlarga majburiy ravishda taqsimlash metodologik jihatdan maqsadga muvofiq emas. Kompaniya faoliyatini umumiy boshqarish va moliyalashtirishga xizmat qiladigan hamda alohida segment bilan ishonchli sababiy bog‘liqligi aniqlanmaydigan aktiv va majburiyatlarni taqsimlanmagan umumkorporativ aktivlar va majburiyatlar sifatida alohida aks ettirish taklif etiladi. Natijada segment aktivlari, segment majburiyatlari va umumkorporativ moddalar o‘rtasida aniq chegaraning shakllanishi har bir segmentning moliyaviy holati, aktivlardan foydalanish samaradorligi, majburiyatlar yuklamasi va faoliyat natijalarini yanada ishonchli baholash uchun zarur axborot bazasini yaratadi.

Sug‘urta kompaniyalarida segment foydasi yoki zararini hisoblash har bir operatsion segmentning moliyaviy natijasini alohida baholash, uning kompaniya umumiy natijasiga qo‘shgan hissasini aniqlash hamda rahbariyat tomonidan resurslarni samarali taqsimlash uchun zarur axborotni shakllantirishga xizmat qiladi. Segmentning moliyaviy natijasini aniqlashda faqat uning daromadlari va bevosita xarajatlarini hisobga olish yetarli emas, balki segmentga iqtisodiy jihatdan tegishli bo‘lgan taqsimlanadigan xarajatlar ham e’tiborga olinishi lozim. Bunda segment foydasi yoki zarari rahbariyat tomonidan segment faoliyatini baholashda muntazam foydalaniladigan ko‘rsatkichlar bilan uyg‘un holda shakllantirilishi maqsadga muvofiq.

Segment foydasi yoki zararini hisoblashda, avvalo, muayyan segmentga tegishli sug‘urta xizmatlari daromadlari, investitsiya faoliyatidan segmentga bevosita tegishli daromadlar hamda boshqa operatsion daromadlar hisobga olinadi. Ulardan ushbu segment faoliyati bilan bevosita bog‘liq sug‘urta xizmatlari xarajatlari, sug‘urta hodisalari bilan bog‘liq xarajatlar, vositachilik va boshqa bevosita xarajatlar

chegiriladi. Shuningdek, bir nechta segment faoliyatiga xizmat qiladigan umumiy xarajatlarning iqtisodiy asoslangan mezonlar asosida mazkur segmentga tegishli qismi ham segment xarajatlari tarkibiga kiritiladi. Natijada segment faoliyati natijasida yaratilgan daromadlar va ularni shakllantirish bilan bog‘liq xarajatlarning o‘zaro muvofiqligi ta’minlanadi.

Segment foydasi yoki zararini shakllantirishda umumkorporativ daromad va xarajatlarni segmentlarga asossiz ravishda taqsimlashga yo‘l qo‘ymaslik muhim hisoblanadi. Bosh ofisni umumiy boshqarish, kompaniya miqyosidagi strategik faoliyat, umumkorporativ moliyalashtirish va alohida segment bilan sababiy bog‘liqligi aniqlanmaydigan boshqa xarajatlar segment moliyaviy natijasiga sun’iy ravishda kiritilmasligi lozim. Bunday daromad va xarajatlarni alohida umumkorporativ moddalar sifatida aks ettirish segmentlar rentabelligini haqqoniy baholash imkonini beradi. Agar umumkorporativ xarajatning muayyan qismi segment faoliyati bilan asosli bog‘langan bo‘lsa, faqat shu qism tegishli taqsimlash mezoni asosida segment xarajatiga kiritilishi maqsadga muvofiq.

Shu nuqtayi nazardan, sug‘urta kompaniyalarida segment foydasi yoki zararini segmentga tegishli daromadlar bilan segmentga bevosita biriktirilgan va iqtisodiy asosda taqsimlangan xarajatlar o‘rtasidagi farq sifatida shakllantirish taklif etiladi. Bunday yondashuv segmentlarning daromad yaratish imkoniyati, xarajatlar samaradorligi va yakuniy moliyaviy natijasini o‘zaro bog‘liq holda baholash imkonini beradi. Segmentlar bo‘yicha foyda yoki zarar ko‘rsatkichlarining alohida shakllantirilishi rahbariyatga yuqori rentabelli va zarar keltirayotgan faoliyat yo‘nalishlarini aniqlash, segmentlar o‘rtasida resurslarni qayta taqsimlash hamda sug‘urta portfelining tarkibini takomillashtirish bo‘yicha asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur axborot bazasini yaratadi.

Tadqiqotimiz davomida sug‘urta kompaniyalarida segmentlar kesimida xarajatlar, daromadlar va moliyaviy natijalarni yanada aniq hamda tizimli hisobga olish maqsadida segmentar hisobni tashkil etishga moslashtirilgan ishchi schyotlar rejasi taklif qilindi. Mazkur schyotlar

rejasi sug‘urta faoliyatining alohida yo‘nalishlari bo‘yicha xo‘jalik operatsiyalarini tahliliy hisobda aks ettirish, segmentlar faoliyati natijalarini alohida baholash va segmentar hisobot uchun zarur axborot bazasini shakllantirishga qaratilgan.

3.9-jadval

Sug‘urta kompaniyalarida segmentlar bo‘yicha xo‘jalik operatsiyalarini hisobvaraqlarda aks ettirishning taklif etilayotgan buxgalteriya o’tkazmalari[80]

№	Xo‘jalik operatsiyasi	Debet	Kredit	Segment bo‘yicha tahliliy hisob
Segment daromadlarini tan olish				
1	To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta segmentiga tegishli daromad tan olindi	Sug‘urta shartnomalari bo‘yicha tegishli aktiv/majburiyat hisobvarag‘i	9030 – Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlardan daromadlar	9030/Segment-01
2	Birgalikda sug‘urta segmentiga tegishli daromad tan olindi	Tegishli aktiv/majburiyat hisobvarag‘i	9030	9030/Segment-02
3	Qayta sug‘urta faoliyatiga tegishli daromad tan olindi	Tegishli aktiv/majburiyat hisobvarag‘i	9030	9030/Segment-03
4	Segmentga tegishli foiz ko‘rinishidagi daromad hisoblandi	4830 – Olinadigan foizlar	9530 – Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar	9530/Segment kodi
5	Segmentga tegishli boshqa moliyaviy daromad tan olindi	Tegishli aktiv hisobvarag‘i	9590 – Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	9590/Segment kodi
To‘g‘ridan-to‘g‘ri segment xarajatlari				
6	To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta segmenti bo‘yicha xarajatlar tan olindi	2010 – To‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomalari bo‘yicha xarajatlar	6010, 6710, 6990 va boshqalar	2010/Segment kodi
7	Birgalikda sug‘urta bo‘yicha xarajatlar tan olindi	2020 – Birgalikda sug‘urta	6010, 6710, 6990 va boshqalar	2020/Segment kodi

[80] Muallif ishlanmasi

		shartnomalari bo‘yicha xarajatlar		
8	Qayta sug‘urtalash operatsiyalari bo‘yicha xarajatlar tan olindi	2030 – Qayta sug‘urtalash operatsiyalari bo‘yicha xarajatlar	6010, 6710, 6990 va boshqalar	2030/Segment kodi
9	Muayyan segment xodimlariga ish haqi hisoblandi	2010/2020/2030 – tegishli segment xarajati	6710 – Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar	Segment + bo‘linma kodi
10	Segmentga tegishli asosiy vositalar amortizatsiyasi hisoblandi	2010/2020/2030	0200 – Asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi hisobvaraqlar	Segment + aktiv kodi
11	Segment faoliyati uchun tashqi tashkilot xizmatidan foydalanildi	2010/2020/2030	6010 – Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan hisobvaraqlar	Segment kodi
Taqsimlanadigan xarajatlar				
12	Bir nechta segmentga tegishli umumiy xarajat dastlab jamlandi	2510 – Umumishlab chiqarish xarajatlari[1]	6010, 6710, 0200 va boshqalar	Xarajat markazi
13	Umumiy xarajatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta segmentiga tegishli qismi taqsimlandi	2010	2510	Segment-01 + taqsimlash bazasi
14	Umumiy xarajatning birgalikda sug‘urta segmentiga tegishli qismi taqsimlandi	2020	2510	Segment-02 + taqsimlash bazasi
15	Umumiy xarajatning qayta sug‘urta segmentiga tegishli qismi taqsimlandi	2030	2510	Segment-03 + taqsimlash bazasi
Umumkorporativ xarajatlar				
16	Bosh ofisning boshqaruv xarajatlari hisoblandi	9420 – Ma’muriy xarajatlar	6010, 6710, 0200 va boshqalar	Umumkorporativ

17	Ma’muriy xarajatning Segment-01 ga asosli tegishli qismi ajratildi	2010/Segment-01	9420[2]	Segment-01
18	Ma’muriy xarajatning Segment-02 ga asosli tegishli qismi ajratildi	2020/Segment-02	9420[2]	Segment-02
19	Segmentga tegishliligi aniqlanmagan umumkorporativ xarajat	9420	Tegishli majburiyat hisobvarag‘i	Umumkorporativ — taqsimlanmagan
Segment aktivlarini belgilash				
20	Segment foydalanishi uchun asosiy vosita sotib olindi	0100 – Asosiy vositalarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar	6010	0100/Segment kodi
21	Segmentga tegishli debitorlik qarzi yuzaga keldi	4010 – Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan hisobvaraqlar	Tegishli daromad hisobvarag‘i	4010/Segment kodi
22	Segmentga tegishli foiz daromadi bo‘yicha talab yuzaga keldi	4830 – Olinadigan foizlar	9530	4830/Segment kodi
23	Segment uchun bank hisobvarag‘iga pul kelib tushdi	5110 – Hisob-kitob hisobvarag‘i	4010 yoki tegishli debitorlik hisobvarag‘i	Pul oqimi bo‘yicha segment kodi
Segment majburiyatlarini belgilash				
24	Segmentga tegishli yetkazib beruvchi oldidagi majburiyat tan olindi	2010/2020/2030 yoki tegishli aktiv	6010	6010/Segment kodi
25	Segment xodimlari oldidagi mehnat haqi majburiyati tan olindi	2010/2020/2030	6710	6710/Segment kodi
26	Segmentga tegishli boshqa kreditorlik majburiyati yuzaga keldi	Tegishli segment xarajati	6990 – Boshqa majburiyatlar	6990/Segment kodi
Segment foydasi yoki zararini aniqlash				
27	Segmentning xizmat ko‘rsatishdan daromadlari yakuniy	9030	9910 – Yakuniy moliyaviy natija	9910/Segment kodi

	moliyaviy natijaga yopildi			
28	Segmentga tegishli moliyaviy daromad yopildi	9530, 9590	9910	9910/Segment kodi
29	Segmentga tegishli davr xarajatlari yopildi	9910	9400 guruhidagi tegishli xarajat hisobvaraqlari	9910/Segment kodi
30	Taqsimlanmagan umumkorporativ davr xarajatlari yopildi	9910 – umumkorporativ	9420 va tegishli hisobvaraqlar	Umumkorporativ

Jadvalda taklif etilgan ishchi schyotlar tizimining asosiy xususiyati sug‘urta kompaniyasida amalga oshiriladigan xo‘jalik operatsiyalarini operatsion segmentlar kesimida tahliliy hisobga olish imkoniyatini yaratishi bilan tavsiflanadi. Bunda daromadlar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va taqsimlanadigan xarajatlar, umumkorporativ xarajatlar, aktivlar hamda majburiyatlarning tegishli segmentga mansubligini aniqlash uchun amaldagi schyotlar bilan bir qatorda taklif etilayotgan ishchi schyotlar va ularga ochiladigan tahliliy schyotlardan foydalanish nazarda tutiladi. Natijada birlamchi hisob ma’lumotlaridan boshlab har bir segment bo‘yicha iqtisodiy ko‘rsatkichlarni alohida jamlash va ularning shakllanish manbalarini kuzatib borish imkoniyati yaratiladi.

Taklif etilayotgan schyotlar tizimining amaliy ahamiyati shundaki, u segment daromadlari va xarajatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish, segment aktivlari va majburiyatlarini aniqlash hamda har bir segmentning foydasi yoki zararini alohida hisoblash uchun yaxlit axborot bazasini shakllantiradi. Shu bilan birga, segmentga bevosita tegishli ko‘rsatkichlarni umumkorporativ va taqsimlanadigan ko‘rsatkichlardan ajratib hisobga olish segmentlar faoliyatining haqiqiy moliyaviy natijasini aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa sug‘urta kompaniyasi rahbariyatiga segmentlarning daromadliligi, xarajatlar samaradorligi va resurslardan foydalanish holatini qiyosiy baholash, shuningdek, segmentar hisobotda oshkor qilinadigan axborotlarning ishonchliligi va tahliliy qiymatini oshirish imkonini beradi.

3.3. Segmentlararo operatsiyalar, transfert narxlari va javobgarlik markazlari hisobini takomillashtirish

Segmentlararo operatsiyalar, transfert narxlari va javobgarlik markazlari hisobini takomillashtirish xo‘jalik yurituvchi subyektlarda segmentar hisob tizimining axborot-tahliliy imkoniyatlarini kengaytirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Korxona tarkibidagi alohida operatsion, hududiy yoki funksional segmentlar o‘rtasida tovarlar, ishlar, xizmatlar, moliyaviy resurslar va boshqa aktivlarning harakati segmentlararo operatsiyalarni yuzaga keltiradi. Mazkur operatsiyalarni buxgalteriya hisobida alohida aks ettirish segmentlarning haqiqiy daromadlari, xarajatlari va moliyaviy natijalarini aniqlash, shuningdek, ularning umumiy faoliyat natijasiga qo‘shgan hissasini obyektiv baholash imkonini beradi. Shu jihatdan segmentlararo operatsiyalarni identifikatsiyalash, ularni tegishli analitik hisobvaraqlarda aks ettirish hamda konsolidatsiya jarayonida o‘zaro aylanmalarni chiqarib tashlashning yagona uslubiy tartibini shakllantirish segmentar hisobning ishonchliligi va shaffofligini ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Segmentlararo munosabatlarning iqtisodiy samaradorligini baholashda transfert narxlarini shakllantirish va javobgarlik markazlari faoliyatini hisobga olish o‘zaro bog‘liq metodologik masalalar sifatida namoyon bo‘ladi. Transfert narxining bozor narxi, xarajatlar, kelishilgan narx yoki marjinal yondashuv asosida belgilanishi segment daromadlari va xarajatlarining miqdoriga, natijada esa javobgarlik markazlari faoliyatini baholash natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli javobgarlik markazlarini xarajatlar, daromadlar, foyda va investitsiyalar markazlariga ajratish, har bir markaz bo‘yicha nazorat qilinadigan ko‘rsatkichlarni belgilash hamda segmentlararo operatsiyalarni maxsus analitik hisob registrlarida yuritish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv segmentlar faoliyati natijalarini obyektiv taqqoslash, mas’ul menejerlarning javobgarlik chegaralarini aniq belgilash, ichki resurslar taqsimotini optimallashtirish va boshqaruv qarorlarining iqtisodiy asoslanganligini oshirishga xizmat qiladi.

Segmentlararo operatsiyalar xo‘jalik yurituvchi subyekt tarkibidagi alohida operatsion, geografik yoki funksional segmentlar o‘rtasida

amalga oshiriladigan tovarlar, ishlar, xizmatlar, aktivlar, moliyaviy resurslar va boshqa iqtisodiy manfaatlarning ichki harakatini ifodalaydi. Bunday operatsiyalarga bir segment tomonidan boshqa segmentga mahsulot yoki xizmat yetkazib berish, asosiy vositalardan foydalanish huquqini taqdim etish, umumxo‘jalik xarajatlarini taqsimlash, ichki moliyalashtirish, sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish hamda boshqa resurslarni segmentlar o‘rtasida qayta taqsimlash jarayonlari kiradi. Segmentlararo operatsiyalarni alohida hisobga olish har bir segmentning daromadlari, xarajatlari va moliyaviy natijalarini to‘g‘ri shakllantirish, uning korxona umumiy natijasiga qo‘shgan hissasini aniqlash hamda segmentlar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini obyektiv baholash uchun zarur axborot bazasini yaratadi.

Segmentlararo operatsiyalar hisobini tashkil etishda ularni tashqi kontragentlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalardan aniq ajratish, operatsiyaning qaysi segmentlarda daromad va xarajat sifatida tan olinishini belgilash hamda o‘zaro hisob-kitoblarni tegishli analitik hisobvaraqlar va registrlarda aks ettirish muhim metodologik ahamiyatga ega. Bunda har bir operatsiya bo‘yicha jo‘natuvchi segment, qabul qiluvchi segment, operatsiya turi, miqdori, qiymati, qo‘llanilgan transfert narxi va hisob-kitob davri kabi analitik belgilarni shakllantirish maqsadga muvofiq. Natijada segmentlar kesimida ichki aylanmalarni nazorat qilish, segment foydasining sun’iy ravishda oshirilishi yoki kamaytirilishining oldini olish hamda umumiy moliyaviy hisobotni shakllantirishda segmentlararo daromad va xarajatlarni o‘zaro chiqarib tashlash imkoniyati yaratiladi. Shu tariqa, segmentlararo operatsiyalar hisobi segmentar axborotning shaffofligi, taqqoslanuvchanligi va boshqaruv qarorlari uchun foydaliligini oshiruvchi muhim hisob mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Segmentlararo operatsiyalarni samarali tashkil etish uchun xo‘jalik yurituvchi subyekt tarkibidagi alohida segmentlar o‘rtasida mahsulotlar, xizmatlar va axborot oqimlarining harakatini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan quyidagi model segmentlar o‘rtasidagi ichki iqtisodiy munosabatlarni tizimlashtirish, har bir segmentning operatsiyalardagi ishtirokini aniqlash hamda segmentar

hisobda daromadlar, xarajatlar va o‘zaro hisob-kitoblarni tegishli segmentlarga biriktirishning tashkiliy asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi. Modelda ishlab chiqarish, yig‘ish va montaj, logistika va ta’minot hamda sotish va xizmat ko‘rsatish segmentlari o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy aloqalar yagona tizim sifatida ifodalangan.



3.5-rasm. Segmentlar o‘rtasida mahsulot va xizmatlar harakatining tashkiliy-iqtisodiy modeli.[81]

Rasmdan ko‘rinadiki, segmentlararo operatsiyalar bir tomonlama emas, balki o‘zaro bog‘langan mahsulot va xizmatlar harakati asosida shakllanadi. Jumladan, ishlab chiqarish segmentidan yig‘ish va montaj segmentiga yarim tayyor mahsulotlar uzatilishi, keyingi bosqichlarda tayyor mahsulotlarning logistika, ta’minot va sotish segmentlariga yo‘naltirilishi ichki mahsulot oqimini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, logistika, tashish, yetkazib berish, ishlov berish va sotishdan keyingi xizmatlar teskari yoki parallel xizmat oqimlarini shakllantiradi. Bunday

[81] Muallif ishlanmasi

operatsiyalarni segmentar hisobda alohida identifikatsiya qilish har bir segment bo‘yicha ichki daromad va xarajatlarni aniqlash, transfert narxlarini asoslash hamda segmentlarning haqiqiy moliyaviy natijalarini baholash imkonini beradi. Modelning yana bir muhim jihati umumiy xizmatlar markazining barcha segmentlar bilan o‘zaro aloqadorligidir. Moliya, kadrlar, axborot texnologiyalari va boshqa markazlashtirilgan xizmatlarning segmentlarga ko‘rsatilishi bevosita mahsulot harakatini yuzaga keltirmasa-da, segment faoliyatini ta’minlovchi xarajatlar va axborot oqimlarini shakllantiradi. Shu sababli mazkur xarajatlarni segmentlarga sabab–natija bog‘liqligini aks ettiruvchi taqsimlash bazalari asosida taqsimlash, segmentlararo operatsiyalarni alohida analitik hisobvaraqlarda qayd etish va ichki aylanmalarni nazorat qilish maqsadga muvofiq. Taklif etilayotgan yondashuv segmentlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning shaffofligini oshirish bilan birga, javobgarlik markazlari faoliyatini baholash, resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash va boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta’minlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Segmentlararo daromad va xarajatlar xo‘jalik yurituvchi subyekt tarkibidagi alohida segmentlar o‘rtasida mahsulotlar, ishlar, xizmatlar va boshqa resurslarni berish yoki olish natijasida shakllanadigan ichki iqtisodiy ko‘rsatkichlardir. Segmentlararo daromad bir segment tomonidan boshqa segmentga mahsulot yetkazib berish, ish bajarish yoki xizmat ko‘rsatish natijasida ichki hisobda tan olinadigan tushumni ifodalasa, segmentlararo xarajat ushbu mahsulot, ish yoki xizmatni qabul qiluvchi segment zimmasiga yuklanadigan qiymatni anglatadi. Bunda bir segmentda tan olingan segmentlararo daromad, odatda, boshqa segmentda tegishli xarajat yoki aktiv qiymatining tarkibiy qismi sifatida aks ettiriladi. Shu sababli ularni tashqi mijozlardan olingan daromadlar va tashqi kontragentlar bilan bog‘liq xarajatlardan alohida hisobga olish har bir segmentning moliyaviy natijasini obyektiv baholash, segmentlar rentabelligini taqqoslash hamda segmentar axborotning shaffofligini ta’minlash uchun muhim hisoblanadi.

Segmentlararo daromad va xarajatlar hisobini takomillashtirishda ularni segment – operatsiya turi – mahsulot yoki xizmat turi – transfert

narxi – javobgarlik markazi kesimida analitik hisobga olish maqsadga muvofiq. Bunda segmentlararo operatsiyalar qiymatini aniqlash uchun qo‘llaniladigan transfert narxining shakllanish usuli hisob siyosatida aniq belgilanishi, umumiy va markazlashtirilgan xarajatlar esa iqtisodiy jihatdan asoslangan taqsimlash bazalari orqali tegishli segmentlarga biriktirilishi lozim. Natijada har bir segment bo‘yicha tashqi daromad, segmentlararo daromad, bevosita xarajat, taqsimlangan xarajat, segmentlararo xarajat va segment foydasi alohida aniqlanishi mumkin. Moliyaviy hisobotni umumlashtirish jarayonida esa segmentlararo daromad va xarajatlarning o‘zaro mos summalari chiqarib tashlanishi korxona daromadlari va xarajatlarining sun’iy ravishda oshib ketishining oldini oladi hamda segmentlar faoliyati samaradorligini boshqaruv maqsadlari uchun yanada ishonchli baholash imkonini yaratadi.

Segmentlararo operatsiyalarni chiqarib tashlash xo‘jalik yurituvchi subyektning alohida segmentlari o‘rtasida amalga oshirilgan ichki operatsiyalarning korxona bo‘yicha umumlashtirilgan moliyaviy ko‘rsatkichlarni sun’iy ravishda oshirib yuborishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan hisob jarayonidir. Bir segment tomonidan boshqa segmentga mahsulot sotilishi yoki xizmat ko‘rsatilishi birinchi segmentda segmentlararo daromad, ikkinchi segmentda esa tegishli xarajat yoki aktiv sifatida aks ettirilishi mumkin. Biroq korxona yaxlit iqtisodiy birlik sifatida qaralganda, bunday operatsiyalar tashqi iqtisodiy manfaatlarning kirib kelishi yoki chiqib ketishini yuzaga keltirmaydi. Shu sababli umumlashtirilgan moliyaviy axborotni shakllantirishda segmentlararo sotishlar, xizmatlar, o‘zaro hisob-kitoblar hamda ular bilan bog‘liq ichki daromad va xarajatlar o‘zaro muvofiqlashtirilib, tegishli summalarda chiqarib tashlanishi zarur. Bunda segmentlar kesimidagi axborot boshqaruv va tahlil maqsadlari uchun saqlanib qoladi, chiqarib tashlash esa faqat korxona bo‘yicha yakuniy ko‘rsatkichlarni shakllantirish bosqichida amalga oshiriladi.

Segmentlararo operatsiyalarni chiqarib tashlash mexanizmini takomillashtirish uchun har bir ichki operatsiyaga yagona identifikatsiya belgisi berish, jo‘natuvchi segment – qabul qiluvchi segment – operatsiya turi – summa – transfert narxi – hisobot davri kesimida analitik

ma’lumotlarni shakllantirish hamda qarama-qarshi yozuvlarni avtomatik solishtirish maqsadga muvofiq. Bunda segmentlararo daromadlar tegishli segmentlararo xarajatlar bilan, ichki debitorlik qarzlari kreditorlik qarzlari bilan, shuningdek, zarur hollarda segmentlararo operatsiyalar natijasida aktivlar tarkibida qolgan amalga oshmagan ichki foyda bilan o‘zaro chiqarib tashlanadi. Ushbu yondashuvni qo‘llash segmentlar bo‘yicha axborotning tahliliy qiymatini saqlagan holda korxona miqyosida daromad, xarajat, aktiv, majburiyat va moliyaviy natijalarning takroran hisobga olinishini bartaraf etadi hamda segmentar va umumlashtirilgan moliyaviy axborot o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlikni ta’minlaydi.

Transfert narxlarini belgilash xo‘jalik yurituvchi subyektning alohida segmentlari, tarkibiy bo‘linmalari va javobgarlik markazlari o‘rtasida uzatiladigan mahsulotlar, bajariladigan ishlar, ko‘rsatiladigan xizmatlar hamda boshqa resurslarning ichki hisob-kitob qiymatini aniqlash jarayonini anglatadi. Transfert narxi segmentlararo daromad va xarajatlarning miqdoriga, segment foydasiga, rentabellik ko‘rsatkichlariga hamda javobgarlik markazlari faoliyatini baholash natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli uni belgilashda bozor narxiga asoslangan, xarajatlar asosidagi, kelishilgan hamda marjinal xarajatlarga asoslangan usullardan foydalanish mumkin. Muayyan usulni tanlash mahsulot yoki xizmat uchun faol bozorning mavjudligi, segmentlarning mustaqillik darajasi, xarajatlar tarkibi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish holati va korxonaning strategik maqsadlariga bog‘liq bo‘lishi lozim. Bunda transfert narxlarini shakllantirish tamoyillari korxonaning hisob siyosatida aniq belgilanishi segmentlar faoliyati natijalarining taqqoslanuvchanligi va xolisligini ta’minlaydi.

Segmentar hisob nuqtai nazaridan transfert narxlarini takomillashtirishda “bozor narxi → to‘liq tannarx → o‘zgaruvchan xarajat → kelishilgan narx” ketma-ketligiga asoslangan tabaqalashtirilgan yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiq. Agar segmentlararo uzatilayotgan mahsulot yoki xizmat uchun ishonchli bozor narxi mavjud bo‘lsa, ushbu narx ustuvor mezon sifatida olinishi; faol bozor mavjud bo‘lmaganda esa mahsulot tannarxiga iqtisodiy jihatdan asoslangan foyda ustamasini qo‘shish orqali transfert narxi shakllantirilishi mumkin.

Mazkur rasmda segmentlararo operatsiyalar bo‘yicha transfert narxlarini shakllantirishning o‘zaro bog‘liq tashkiliy-uslubiy elementlari tizimlashtirilgan. Modelga ko‘ra, transfert narxini belgilashda bozor narxining mavjudligi, mahsulot yoki xizmatning xususiyati, xarajatlar tarkibi, segmentlarning mustaqillik darajasi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish holati hamda korxonaning strategik maqsadlari hisobga olinadi. Ushbu omillardan kelib chiqib bozor narxiga, xarajatlarga, o‘zgaruvchan xarajatlarga yoki segmentlar o‘rtasidagi kelishuvga asoslangan narxlash usuli tanlanadi. Transfert obyektini aniqlashdan boshlab narxni hisoblash, tasdiqlash, hujjatlashtirish va davriy monitoring qilishgacha bo‘lgan jarayonlarning izchil tashkil etilishi segmentlararo daromad va xarajatlarning asosli shakllanishini, javobgarlik markazlari faoliyatining xolis baholanishini hamda segmentlar moliyaviy natijalarining sun’iy ravishda qayta taqsimlanishining oldini olish imkonini beradi.

Bunda transfert narxini $TN = TX + (TX \times Fu)$ formulasi orqali ifodalash mumkin, bu yerda TN - transfert narxi, TX - transfert obyektiga tegishli xarajatlar, Fu - belgilangan foyda ustamasi darajasi. Bunday yondashuv segmentlararo operatsiyalarning iqtisodiy mazmunini to‘g‘ri aks ettirish, segmentlar foydasining asossiz qayta taqsimlanishining oldini olish, javobgarlik markazlari faoliyatini xolis baholash va boshqaruv qarorlarining axborot asoslanganligini oshirish imkonini beradi.

Segmentlararo operatsiyalarni chiqarib tashlashda asosiy maqsad segmentlar kesimida hisobga olingan ichki daromadlar, xarajatlar, debitorlik va kreditorlik qarzlari hamda aktivlar tarkibida qolgan amalga oshmagan ichki foydaning xo‘jalik yurituvchi subyekt bo‘yicha umumlashtirilgan ko‘rsatkichlarga takroran kiritilishiga yo‘l qo‘ymaslikdan iborat. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot doirasida segmentlararo operatsiyalarni dastlabki tan olish va hisobot davri yakunida ularni chiqarib tashlash uchun quyidagi buxgalteriya yozuvlari tizimini qo‘llash taklif etiladi.



3.6-rasm. Segmentlararo operatsiyalarda transfert narxlarini belgilashning tashkiliy-uslubiy modeli.[82]

[82] Muallif ishlanmasi

3.10-jadval

Segmentlararo operatsiyalarni hisobga olish va chiqarib tashlash bo‘yicha tavsiya etilayotgan buxgalteriya yozuvlari[83]

№	Xo‘jalik operatsiyasining mazmuni	Debet	Kredit	Izoh
1	A segment tomonidan B segmentga mahsulot berildi	B segment – segmentlararo xarajat (yoki tegishli aktiv)	A segment – segmentlararo daromad	Transfert narxi bo‘yicha aks ettiriladi
2	A segmentda B segmentdan olinadigan ichki qarz tan olindi	A segment – segmentlararo debitorlik qarzi	A segment – segmentlararo daromad	Segmentlar o‘rtasidagi ichki talab shakllanadi
3	B segmentda A segment oldidagi ichki qarz tan olindi	B segment – segmentlararo xarajat yoki aktiv	B segment – segmentlararo kreditorlik qarzi	Qabul qiluvchi segment majburiyati aks ettiriladi
4	Segmentlararo daromad va xarajat chiqarib tashlandi	Segmentlararo daromad	Segmentlararo xarajat	Umumlashtirish bosqichida ichki aylanma bekor qilinadi
5	Segmentlararo debitorlik va kreditorlik qarzlari chiqarib tashlandi	Segmentlararo kreditorlik qarzi	Segmentlararo debitorlik qarzi	Ichki talab va majburiyatlar o‘zaro chiqariladi
6	Segmentlar o‘rtasida ichki xizmat ko‘rsatildi	Xizmatni oluvchi segment – segmentlararo xarajat	Xizmat ko‘rsatuvchi segment – segmentlararo daromad	Masalan, logistika, axborot yoki ta’mirlash xizmati
7	Ichki xizmat bo‘yicha daromad va xarajat chiqarib tashlandi	Segmentlararo xizmatlardan daromad	Segmentlararo xizmatlar xarajati	Korxona umumiy daromad va xarajatlariga ichki xizmat kiritilmaydi
8	Segmentlararo sotilgan mahsulot hisobot davri oxirida qabul qiluvchi segment zaxirasida qoldi	Tovar-moddiy zaxiralar	Segmentlararo daromad / ichki hisob-kitob	Aktiv transfert narxida qayd etilgan bo‘lishi mumkin
9	Zaxira tarkibidagi amalga oshmagan ichki foyda chiqarib tashlandi	Segmentlararo operatsiyalardan foyda (yoki tegishli daromad)	Tovar-moddiy zaxiralar	Aktiv qiymati korxona nuqtai nazaridan tegishli tannarxgacha kamaytiriladi
10	Segmentlar o‘rtasida asosiy vosita berildi	Qabul qiluvchi segment – asosiy vosita	Beruvchi segment – asosiy	Ichki transfert qiymati bo‘yicha qayd etiladi

[83] Muallif ishlanmasi

			vosita/segmentlararo hisob-kitob	
11	Asosiy vosita transfertidan yuzaga kelgan amalga oshmagan ichki foyda chiqarib tashlandi	Asosiy vositani berishdan ichki foyda	Asosiy vosita	Aktivning balans qiymati tegishli miqdorda tuzatiladi
12	Ichki foyda tufayli hisoblangan ortiqcha amortizatsiya tuzatildi	Jamg‘arilgan amortizatsiya	Amortizatsiya xarajati	Keyingi davrlarda ichki ustama hisobidan yuzaga kelgan amortizatsiya farqi bartaraf etiladi

Jadvaldagi “segmentlararo daromad”, “segmentlararo xarajat”, “segmentlararo debitorlik qarzi” va “segmentlararo kreditorlik qarzi” nomlari alohida sintetik hisobvaraqlar bo‘lishi shart degani emas. Ularni korxonaning amaldagi hisobvaraqlar rejasi doirasida alohida analitik hisobvaraqlar yoki ishchi subschyotlar sifatida tashkil etish mumkin. Mazkur yondashuvda ikki bosqichni farqlash muhim. Birinchi bosqichda segmentlararo operatsiya har bir segmentning faoliyat natijasini baholash maqsadida to‘liq hisobga olinadi. Masalan, A segmentning B segmentga 120 mln so‘mlik mahsulot berishi A segment uchun segmentlararo daromad, B segment uchun esa segmentlararo xarajat yoki aktiv sifatida qayd etiladi. Bu axborot segmentlarning daromadliligi, xarajatlari, transfert narxlari va javobgarlik markazlari faoliyatini baholash uchun saqlanib qoladi. Ikkinchi bosqichda korxona bo‘yicha umumlashtirilgan moliyaviy ko‘rsatkichlar shakllantirilganda ichki aylanmalar chiqarib tashlanadi. Bunda segmentlararo daromad ↔ segmentlararo xarajat, segmentlararo debitorlik ↔ segmentlararo kreditorlik o‘zaro bartaraf etiladi. Agar mahsulot hisobot sanasida boshqa segment zaxirasida qolgan bo‘lsa, uning qiymatiga kiritilgan amalga oshmagan ichki foyda ham chiqarib tashlanadi. Shu tariqa, segmentar hisobda ichki operatsiyalar haqidagi boshqaruv axboroti saqlanadi, korxona bo‘yicha umumlashtirilgan hisobotda esa faqat tashqi iqtisodiy munosabatlarning moliyaviy natijaga ta’siri aks ettiriladi.

Segmentlararo operatsiyalarni hisobga olish va ularni umumlashtirilgan moliyaviy natijalardan eliminatsiya qilish segmentar hisob tizimining muhim metodologik bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Chunki alohida segmentlar kesimida tovarlar, xizmatlar, qarzlar, foizlar, aktivlar va boshqa resurslar bo‘yicha amalga oshirilgan ichki operatsiyalar boshqaruv maqsadlarida mustaqil ravishda aks ettirilsa-da, korxona miqyosida ularning takroriy hisobga olinishi daromadlar, xarajatlar, aktivlar va majburiyatlarning asossiz oshib ko‘rsatilishiga olib kelishi mumkin. Shu bois segmentlararo operatsiyalarni ularning iqtisodiy mazmuniga qarab tasniflash, har bir operatsiyaning ikki segmentdagi aksini o‘zaro solishtirish hamda tegishli eliminatsiya usulini qo‘llash zarur. Quyidagi jadvalda segmentlararo operatsiyalarning asosiy turlari, ularning birinchi va ikkinchi segment hisobida aks ettirilishi, eliminatsiya qilinadigan ko‘rsatkichlar, qo‘llaniladigan eliminatsiya usuli hamda yakuniy hisob natijasi tizimlashtirilgan bo‘lib, mazkur yondashuv segmentar hisobotda faqat tashqi iqtisodiy operatsiyalar va real moliyaviy natijalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

3.11-jadval

Segmentlararo operatsiyalarni eliminatsiya qilish turlari, usullari va ularning hisob natijalariga ta’siri[84]

№	Segmentlararo operatsiya	Birinchi segmentda	Ikkinchi segmentda	Eliminatsiya qilinadigan ko‘rsatkich	Eliminatsiya usuli	Yakuniy natija
1	Tovar sotish	Daromad	Xarid/xarajat	Ichki daromad va xarajat	To‘liq	Kompaniya daromadi oshib ketmaydi
2	Xizmat ko‘rsatish	Xizmat daromadi	Xizmat xarajati	Daromad va xarajat	To‘liq	Faqat tashqi xizmatlar qoladi
3	Debitorlik-kreditorlik	Debitorlik	Kreditorlik	O‘zaro talab/majburiyat	To‘liq	Qoldiq 0
4	Ichki qarz	Qarz bo‘yicha talab	Qarz majburiyati	Aktiv va majburiyat	To‘liq	Qoldiq 0
5	Ichki qarz foizi	Foiz daromadi	Foiz xarajati	Daromad/xarajat	To‘liq	Ichki foiz yo‘q qilinadi
6	Yo‘ldagi pul	Debitorlik kamaygan	Qarshi tomonda hali pul yo‘q	Vaqt tafovuti	Avval muvofiqlashtirish	Keyin o‘zaro qarz chiqariladi
7	Yo‘ldagi tovar	Sotish aks etgan	Xarid hali aks etmagan	Vaqt tafovuti	Avval tovar tan olinadi	Keyin eliminatsiya

[84] Muallif ishlanmasi

8	Ichki zaxira transferi	Foyda mavjud	Zaxirada ichki foyda bor	Realizatsiya qilinmagan foyda	Realizatsiya qilinmagan foyda chiqarildi	Zaxira tarixiy qiymatga tushiriladi
9	Asosiy vosita transferi	Ichki foyda	Aktiv yuqori qiymatda	Ichki foyda	Foyda chiqarildi	Aktiv kompaniya tannarxiga qaytariladi
10	Asosiy vosita bo‘yicha amortizatsiya	—	Ortiqcha amortizatsiya	Ichki foyda ta’siri	Amortizatsiya tuzatiladi	Haqiqiy amortizatsiya tiklanadi
11	Bosh ofis xizmatlari	Ichki daromad	Filial xarajati	Ichki aylanma	Siyosatga qarab eliminatsiya	Tashqi natija saqlanadi
12	Segmentlar aro dividend	Dividend daromadi	Kapital taqsimoti	Ichki dividend	To‘liq	Korxona daromadi sifatida qolmaydi

Jadvalda korxonaning alohida operatsion segmentlari o‘rtasida amalga oshiriladigan xo‘jalik operatsiyalarini umumlashtirilgan segmentar hisobotda eliminatsiya qilish mexanizmi tizimlashtirilgan. Unga ko‘ra, segmentlararo tovar va xizmatlar realizatsiyasi, o‘zaro debitorlik va kreditorlik qarzlari, ichki qarzlar va ular bo‘yicha foizlar, yo‘ldagi pul mablag‘lari va tovarlar, aktivlarning ichki transferi, realizatsiya qilinmagan foyda hamda bosh ofis bilan filiallar o‘rtasidagi operatsiyalar dastlab tegishli segmentlarning individual hisobida aks ettiriladi, keyinchalik esa korxona bo‘yicha umumlashtirish jarayonida ularning iqtisodiy mazmuniga mos ravishda muvofiqlashtiriladi va eliminatsiya qilinadi. Bunday yondashuv ichki aylanmalar hisobiga daromad, xarajat, aktiv va majburiyatlarning takroran aks ettirilishining oldini olish, realizatsiya qilinmagan ichki foydani chiqarib tashlash hamda segmentlar kesimidagi ko‘rsatkichlar bilan korxonaning umumiy moliyaviy ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlash imkonini beradi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda segmentar hisob va boshqaruv nazorati tizimini samarali tashkil etishda javobgarlik markazlarini shakllantirish muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Javobgarlik markazi korxonaning muayyan rahbar mas’uliyatiga biriktirilgan,

faoliyati bo‘yicha daromadlar, xarajatlar, moliyaviy natijalar yoki investitsiyalardan foydalanish samaradorligini alohida baholash mumkin bo‘lgan tarkibiy bo‘linmasini ifodalaydi. Boshqaruv vakolatlari va iqtisodiy javobgarlik darajasidan kelib chiqib, bunday markazlarni xarajat markazi, daromad markazi, foyda markazi va investitsiya markazi sifatida tasniflash maqsadga muvofiq. Mazkur tasnif segmentlar faoliyatining natijalarini faqat umumiy moliyaviy ko‘rsatkichlar orqali emas, balki har bir bo‘linma rahbari nazorat qilishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar asosida baholash imkonini beradi.

Segmentar hisob nuqtai nazaridan javobgarlik markazlarini xarajat, daromad, foyda va investitsiya markazlariga ajratish segmentlar faoliyatini baholash mezonlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Xarajat markazida asosiy e’tibor xarajatlarning belgilangan me’yor va budjetlarga muvofiqligiga, daromad markazida tushum va sotish ko‘rsatkichlariga, foyda markazida daromad va xarajatlar o‘rtasidagi nisbat hamda segment foydasiga, investitsiya markazida esa foyda bilan bir qatorda segmentga biriktirilgan aktivlar va investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligiga qaratiladi. Shu sababli har bir segmentning vakolat va mas’uliyat chegaralariga mos javobgarlik markazini belgilash, ular bo‘yicha alohida analitik hisobni tashkil etish hamda natijalarni tegishli samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida baholash segmentar boshqaruv hisobining axborot imkoniyatlarini kengaytiradi va boshqaruv qarorlarining iqtisodiy asoslanganligini oshiradi.

Boshqaruv hisobi va javobgarlik hisobi bo‘yicha manbalarni qiyosiy o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, javobgarlik markazini tasniflashning asosiy mezoni — tegishli markaz rahbari nazorat qila oladigan iqtisodiy ko‘rsatkichlar doirasidir. Adabiyotlarda xarajat markazi xarajatlar uchun, daromad markazi daromadlar uchun, foyda markazi daromad va xarajatlar uchun, investitsiya markazi esa daromad, xarajat va investitsiya qilingan kapital uchun javob berishi ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, nazorat qilinuvchanlik tamoyili bo‘yicha menejer faoliyatini uning vakolatidan tashqaridagi xarajat va natijalar asosida baholash maqsadga muvofiq emas.

3.12-jadval

Segmentar hisob tizimida javobgarlik markazlarining tasnifi va ularning faoliyatini baholash mezonlari[85]

Javobgarlik markazi	Markazning iqtisodiy mazmuni	Rahbar nazorat qiladigan obyektlar	Segmentar hisobda hisobga olinadigan ko‘rsatkichlar	Asosiy baholash mezonlari	Hisoblash ko‘rsatkichlari	Segmentga misol
Xarajat markazi	Daromad olishdan ko‘ra muayyan funksiyani bajarish va xarajatlarni boshqarishga yo‘naltirilgan segment	Nazorat qilinadigan xarajatlar, resurslar sarfi, mehnat va ishlab chiqarish hajmi	Bevosita xarajatlar, o‘zgaruvchan xarajatlar, nazorat qilinadigan doimiy xarajatlar, segmentlararo xizmat xarajatlari	Xarajatlar tejamkorligi, budjetga rioya qilish, resurslardan foydalanish samaradorligi	Haqiqiy xarajat − me’yoriy xarajat; Haqiqiy xarajat − budjet xarajati; bir birlik mahsulot xarajati	Ishlab chiqarish sexi, ta’mirlash, axborot texnologiyalari, ma’muriy xizmat
Daromad markazi	Asosiy vakolati mahsulot yoki xizmatlarni sotish va daromad shakllantirish bilan bog‘liq segment	Sotish hajmi, narxlar, mijozlar, mahsulot tarkibi, ayrim hollarda chegirmalar	Tashqi daromad, segmentlararo daromad, sotish hajmi, mahsulot va xizmatlar bo‘yicha tushum	Daromad rejasining bajarilishi, sotish dinamikasi, bozor ulushi, mijozlar bazasi	Daromad og‘ishi = haqiqiy daromad − rejalashtirilgan daromad; daromadning o‘sish sur’ati	Sotish bo‘limi, savdo filiali, hududiy sotish segmenti

[85] Muallif ishlanmasi

Foyda markazi	Rahbari daromadlarni ham, xarajatlarni ham boshqarish vakolatiga ega segment	Daromad, nazorat qilinadigan xarajatlar, transfert narxlari, segmentlararo operatsiyalar	Tashqi va segmentlararo daromadlar, bevosita va taqsimlangan xarajatlar, segment foydasi	Foyda, marjinal daromad, foyda marjasi, reja va haqiqiy foyda og‘ishi	Segment foydasi = segment daromadi − segment xarajatlari; foyda marjasi = segment foydasi / segment daromadi × 100%	Mahsulot yo‘nalishi, xizmat turi, mustaqil hududiy filial
Investitsiya markazi	Foyda bilan bir qatorda aktivlar va kapital qo‘yilmalar bo‘yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega segment	Daromadlar, xarajatlar, aktivlar, kapital qo‘yilmalar va investitsiyalar	Segment foydasi, segment aktivlari, kapital xarajatlar, investitsiyalar, segment majburiyatlari	Investitsiya rentabelligi, qoldiq foyda, aktivlar rentabelligi, kapital samaradorligi	ROI = segment foydasi / investitsiya bazasi × 100%; RI = segment foydasi − (investitsiya bazasi × talab etiladigan rentabellik)	Strategik biznes birligi, sho‘ba korxona, yirik hududiy yoki biznes segmenti

Investitsiya markazining boshqa javobgarlik markazlaridan asosiy farqi shundaki, uning rahbari faqat daromad va xarajatlarga emas, balki segmentga biriktirilgan kapitaldan foydalanishga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli investitsiya markazini faqat foyda miqdori bilan baholash yetarli emas. Adabiyotlarda bunday markazlar uchun investitsiya rentabelligi (ROI) va qoldiq foyda (RI) asosiy baholash vositalari sifatida tavsiya etiladi. ROI segmentning investitsiya bazasiga nisbatan qancha foyda yaratganligini ko‘rsatsa, RI kapitalning minimal talab etiladigan daromadliligidan ortiq yaratilgan foydani aniqlaydi. Ayrim manbalarda iqtisodiy qo‘shilgan qiymat (EVA) ham investitsiya markazlarini baholashning qo‘shimcha mezoni sifatida keltiriladi. Bunda har bir operatsion segment avtomatik ravishda foyda yoki investitsiya markazi sifatida qaralmasligi kerak; markaz turi segment rahbariga amalda berilgan vakolatlar asosida aniqlanishi lozim. Masalan, hududiy filial faqat sotish hajmini boshqarsa - daromad markazi, daromad va xarajatlarni boshqarsa - foyda markazi, aktivlarni sotib olish va kapital qo‘yilmalar bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolatiga ega bo‘lsa - investitsiya markazi sifatida tasniflanishi mumkin. Bunday yondashuv segment rahbarini faqat u real ta’sir ko‘rsata oladigan ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholashga imkon beradi va nazorat qilinuvchanlik tamoyiliga mos keladi.

IV BOB. JAMOAT AHAMIYATIGA EGA TASHKILOTLARDA SEGMENTAR HISOBOTNI SHAKLLANTIRISH VA UNING TAHLILIY IMKONIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

4.1. Ichki segmentar hisobotning tarkibi, ko‘rsatkichlari va shakllarini takomillashtirish

Ichki segmentar hisobot xo‘jalik yurituvchi subyektning alohida faoliyat yo‘nalishlari, tarkibiy bo‘linmalari, mahsulot va xizmat turlari, geografik hududlari hamda javobgarlik markazlari bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan hisob-tahliliy axborotni shakllantiruvchi boshqaruv hisobi tizimining muhim elementi hisoblanadi. Moliyaviy hisobotdan farqli ravishda, ichki segmentar hisobotning tarkibi va shakllari tashqi foydalanuvchilar talablariga emas, balki korxona rahbariyati va boshqaruvning turli darajalaridagi axborot ehtiyojlariga mos ravishda shakllantiriladi. Shu sababli unda segmentlar bo‘yicha daromadlar, xarajatlar, foyda yoki zarar, aktivlar, majburiyatlar, pul oqimlari, kapital qo‘yilmalar, rentabellik, marjinal daromad, budjet ko‘rsatkichlarining bajarilishi, transfert narxlari hamda segmentlararo operatsiyalar kabi moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda faoliyat samaradorligini tavsiflovchi nomoliyaviy ko‘rsatkichlarning ham aks ettirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday axborot segmentlarning iqtisodiy natijadorligini o‘zaro taqqoslash, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash, xarajatlarning shakllanish sabablarini aniqlash hamda boshqaruvning tegishli darajasida tezkor va strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Amaliyotda ichki segmentar hisobotlarni shakllantirishda ko‘rsatkichlarning yagona tizimga solinmaganligi, moliyaviy va nomoliyaviy axborot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikning yetarli darajada ta’minlanmaganligi, segmentlar faoliyatini baholash mezonlarining turlicha qo‘llanilishi hamda hisobot shakllarining boshqaruv darajalari bo‘yicha tabaqalashtirilmaganligi ularning tahliliy imkoniyatlarini cheklaydi. Mazkur holat ichki segmentar hisobotning tarkibi, ko‘rsatkichlari va shakllarini korxonaning tashkiliy tuzilmasi, segmentlarning iqtisodiy xususiyatlari, javobgarlik markazlari hamda

boshqaruvning axborot ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Bunday yondashuv asosida ishlab chiqilgan segmentar hisobot shakllari nafaqat segment faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasini aks ettiradi, balki natijaga ta’sir ko‘rsatgan omillarni aniqlash, mas’uliyatni belgilash, segmentlar samaradorligini kompleks baholash va istiqboldagi boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

Ichki segmentar hisobot korxona rahbariyati va mas’uliyat markazlarini segmentlar faoliyatining moliyaviy-iqtisodiy natijalari to‘g‘risidagi tezkor, tahliliy va qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan axborot bilan ta’minlaydi. Uning tarkibi tashqi moliyaviy hisobotdan farqli ravishda qat’iy standart shakl bilan cheklanmaydi hamda korxonaning tashkiliy tuzilmasi, faoliyat yo‘nalishlari, boshqaruv darajalari va rahbariyatning axborot ehtiyojlariga muvofiq shakllantiriladi.

4.1-jadval

Ichki segmentar hisobotning tarkibi va asosiy ko‘rsatkichlari[86]

№	Ichki segmentar hisobot tarkibiy qismi	Asosiy ko‘rsatkichlar	Axborotning boshqaruvdagi ahamiyati
1	Segment to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlar	Segment nomi, faoliyat turi, hududi, mahsulot yoki xizmat turi, mas’ul rahbar	Segmentning tashkiliy va iqtisodiy chegaralarini belgilaydi
2	Segment daromadlari	Tashqi mijozlardan daromadlar, segmentlararo daromadlar, boshqa operatsion daromadlar	Segmentning daromad yaratish salohiyatini baholash imkonini beradi
3	Segment xarajatlari	Bevosita xarajatlar, bilvosita xarajatlar, o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlar, taqsimlangan umumiy xarajatlar	Xarajatlarni nazorat qilish va ularni optimallashtirish imkonini beradi
4	Segment moliyaviy natijalari	Yalpi foyda, operatsion foyda, marjinal foyda, segment foydasi yoki zarari	Segment faoliyatining yakuniy iqtisodiy samaradorligini aniqlaydi
5	Segment aktivlari	Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar,	Segmentga biriktirilgan iqtisodiy resurslardan

[86] Muallif ishlanmasi

		zaxiralar, debitorlik qarzlari va boshqa segment aktivlari	foydalanish darajasini baholaydi
6	Segment majburiyatlari	Kreditorlik qarzlari, hisoblangan majburiyatlar va segment faoliyatiga tegishli boshqa majburiyatlar	Segmentning moliyaviy majburiyatlari va moliyalashtirish yukini nazorat qiladi
7	Segmentlararo operatsiyalar	Segmentlararo sotish, xizmatlar, resurslar harakati, ichki hisob-kitoblar	Segmentlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni nazorat qilishga xizmat qiladi
8	Transfert narxlari	Ichki sotish narxi, bozor narxi, tannarxga asoslangan narx, kelishilgan narx	Segmentlar faoliyati natijalarini xolis baholash va ichki manfaatlar muvozanatini ta’minlaydi
9	Byudjet va haqiqiy ko‘rsatkichlar	Reja, byudjet, haqiqiy natija, mutlaq va nisbiy chetlanishlar	Rejalashtirilgan va erishilgan natijalarni taqqoslash imkonini beradi
10	Segment rentabelligi	Sotish rentabelligi, aktivlar rentabelligi, investitsiyalar rentabelligi, foyda marjasi	Segment samaradorligini boshqa segmentlar bilan qiyosiy baholashga xizmat qiladi
11	Investitsiyalar va kapital xarajatlar	Kapital qo‘yilmalar, yangi loyihalar, asosiy vositalarga investitsiyalar	Segment rivojlanishiga yo‘naltirilgan resurslarning samaradorligini baholaydi
12	Pul oqimlari	Operatsion tushumlar va to‘lovlar, investitsion pul oqimlari, sof pul oqimi	Segmentning pul mablag‘larini yaratish qobiliyatini aniqlaydi
13	Debitorlik va kreditorlik qarzlari	Qarzdorlik summasi, muddati, muddati o‘tgan qarzlar, aylanish koeffitsiyenti	Hisob-kitob intizomi va likvidlik holatini nazorat qilish imkonini beradi
14	Nomoliyaviy ko‘rsatkichlar	Mijozlar soni, xizmatlar hajmi, mehnat unumdorligi, sifat ko‘rsatkichlari, mijozlar qoniqishi	Moliyaviy natijalarga ta’sir qiluvchi operatsion omillarni aniqlaydi
15	Mas’uliyat markazlari faoliyati	Xarajat, daromad, foyda va investitsiya markazlari bo‘yicha ko‘rsatkichlar	Rahbarlarning javobgarligi va boshqaruv samaradorligini baholaydi
16	Chetlanishlar tahlili	Reja–haqiqat farqi, narx, hajm, xarajat va	Salbiy chetlanishlarning sabablarini aniqlash va

		samaradorlik chetlanishlari	tuzatish choralarini ishlab chiqishga yordam beradi
17	Asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari	Moliyaviy va nomoliyaviy asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI)	Segment rahbari faoliyatini kompleks baholash imkonini beradi
18	Prognoz ko‘rsatkichlari	Kutilayotgan daromad, xarajat, foyda, pul oqimi va investitsiya ehtiyoji	Kelgusi davr uchun boshqaruv qarorlarini asoslashga xizmat qiladi
19	Risklar va muammoli holatlar	Moliyaviy, operatsion, bozor va boshqa segment risklari	Segment faoliyatidagi tahdidlarni o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi
20	Boshqaruv qarorlari uchun tavsiyalar	Muammo, uning sababi, kutilayotgan ta’siri va tavsiya etiladigan chora-tadbirlar	Segment faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha aniq boshqaruv qarorlarini shakllantiradi

Ichki segmentar hisobotning tarkibi korxona boshqaruv tizimida segmentlar faoliyatini kompleks baholash, nazorat qilish va strategik qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborot elementlarining yagona tizimini shakllantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, segmentlar kesimida faqat daromad va xarajatlarni aks ettirish boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun yetarli emas. Shu sababli zamonaviy boshqaruv hisobi konsepsiyasida segment aktivlari, majburiyatlari, transfert narxlari, investitsiyalar, pul oqimlari hamda moliyaviy bo‘lmagan samaradorlik ko‘rsatkichlarini ham ichki segmentar hisobot tarkibiga kiritish zarur hisoblanadi. Natijada har bir segment korxonaning mustaqil iqtisodiy javobgarlik markazi sifatida baholanadi.

Jadvalda ichki segmentar hisobotning tarkibi beshta o‘zaro bog‘liq axborot blokiga ajratilgan: identifikatsion ma’lumotlar, moliyaviy natijalar, resurslar va majburiyatlar, nazorat hamda tahliliy ko‘rsatkichlar, strategik rivojlanish elementlari. Bunday tuzilma segment faoliyatini nafaqat hisobot davri yakunlari bo‘yicha, balki operatsion jarayonlar, resurslardan foydalanish samaradorligi va kelgusidagi rivojlanish istiqbollari nuqtayi nazaridan ham baholash imkonini beradi. Ayniqsa, byudjet va haqiqiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi chetlanishlar tahlili rahbariyatga salbiy og‘ishlarning sabablarini tezkor aniqlash va tuzatish choralarini ishlab chiqishda muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Ichki segmentar hisobot tarkibida segmentlararo operatsiyalar va transfert narxlari alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Ko‘p tarmoqli

korxonalarda segmentlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar va resurslar almashinuvi keng tarqalgan bo‘lib, ularni noto‘g‘ri baholash segment rentabelligi va boshqaruv natijalarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu bois ichki segmentar hisobotda segmentlararo daromad va xarajatlarni alohida aks ettirish, transfert narxlarini iqtisodiy asoslangan usullar orqali belgilash hamda konsolidatsiya jarayonida ichki operatsiyalarni chiqarib tashlash segment natijalarining haqqoniyligini ta’minlaydi. Bu yondashuv mas’uliyat markazlari faoliyatini xolis baholash va resurslarni optimal taqsimlash imkonini yaratadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, ichki segmentar hisobotning taklif etilgan tarkibi korxonalarda boshqaruv hisobining analitik salohiyatini sezilarli darajada oshiradi. Mazkur model asosida shakllantirilgan hisobotlar segmentlarning daromadlilik darajasi, xarajatlar tuzilmasi, investitsiya samaradorligi, pul oqimlari va asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini yagona axborot maydonida integratsiyalash imkonini beradi. Natijada rahbariyat qisqa muddatli operatsion qarorlar bilan bir qatorda uzoq muddatli strategik rivojlanish, investitsiya siyosati va segmentlar portfelini optimallashtirish bo‘yicha ham ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Sug‘urta tashkilotlari faoliyatida ichki segmentar hisobot shakllarini ishlab chiqishda xalqaro boshqaruv hisobi amaliyotida e’tirof etilgan nazorat qilinuvchanlik va javobgarlik tamoyili muhim metodologik asos sifatida qaralishi lozim. Mazkur tamoyilga ko‘ra, segmentar hisobot qaysi javobgarlik subyekti yoki obyekti bo‘yicha tuzilishidan qat’i nazar, unda aks ettiriladigan ko‘rsatkichlar tegishli segment rahbari tomonidan nazorat qilinishi va uning boshqaruv vakolatlari doirasida bo‘lishi talab etiladi. Sug‘urta tashkilotlarida bunday javobgarlik subyektlari sifatida bosh ofis, hududiy filiallar, sug‘urta xizmatlari yo‘nalishlari, sotuv bo‘linmalari, qayta sug‘urta bo‘limlari va boshqa mas’uliyat markazlarini ajratish mumkin. Javobgarlik obyektlari esa sug‘urta mukofotlari, sug‘urta xizmatlaridan daromadlar, sug‘urta to‘lovlari, sug‘urta shartnomalari bo‘yicha xarajatlar, operatsion xarajatlar, sug‘urta

majburiyatlari, qayta sug‘urta operatsiyalari hamda segmentning moliyaviy natijalarini qamrab oladi.

Ushbu tamoyilga muvofiq, sug‘urta tashkilotining javobgarlik subyektlari va obyektlari bo‘yicha shakllantiriladigan ichki segmentar hisobotlarda, avvalo, tasdiqlangan reja (byudjet) ko‘rsatkichlari hamda ularning haqiqiy ijrosini ifodalovchi miqdoriy, qiymat va nisbiy ko‘rsatkichlar aks ettirilishi maqsadga muvofiq. Jumladan, har bir sug‘urta segmenti bo‘yicha rejalashtirilgan va haqiqatda erishilgan sug‘urta xizmatlari daromadi, tuzilgan sug‘urta shartnomalari soni, sug‘urta to‘lovlari, operatsion xarajatlar, qayta sug‘urtalash natijalari va segment foydasi kabi ko‘rsatkichlar taqqoslanishi lozim. Bunda reja va haqiqiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi mutlaq va nisbiy chetlanishlarning alohida aks ettirilishi segment faoliyatini baholashning muhim elementi hisoblanadi. Segmentar hisobotlarga beriladigan izoh va tushuntirishlarda esa aniqlangan chetlanishlarning yuzaga kelish sabablari, ularga ta’sir ko‘rsatgan ichki va tashqi omillar, shuningdek, tegishli javobgarlik markazlarining mas’uliyati ko‘rsatilishi zarur.

Sug‘urta tashkilotlarida mazkur yondashuvning qo‘llanilishi segmentar hisobotni oddiy axborot taqdim etish vositasidan rejalashtirish, nazorat qilish, javobgarlikni baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish vositasiga aylantiradi. Xususan, sug‘urta turlari, hududiy filiallar, mijozlar guruhlari yoki boshqa boshqaruv segmentlari bo‘yicha byudjet ko‘rsatkichlarining bajarilishini muntazam monitoring qilish orqali qaysi segmentlarda rejalashtirilgan daromadga erishilmagani, sug‘urta to‘lovlari yoki operatsion xarajatlarning me’yordan ortgani, rentabellik pasaygani yoxud boshqa salbiy chetlanishlar yuzaga kelgani aniqlanadi. Shu bilan birga, ijobiy chetlanishlarni yuzaga keltirgan omillarni aniqlash va ilg‘or tajribani boshqa segmentlarga tatbiq etish imkoniyati ham yaratiladi. Demak, segmentar hisobotda faqat chetlanish miqdorini qayd etish emas, balki uning sabablari, ta’sir etuvchi omillari va tegishli javobgarlik markazlari bilan bog‘liqligini aniqlash ham muhim metodologik talab hisoblanadi.

Bosh byudjet (biznes-reja) ijrosi bo‘yicha segmentar hisobotni tuzish

Sug‘urta tashkilotining Bosh byudjeti (biznes-rejasi) o‘z mohiyatiga ko‘ra kompleks boshqaruv hujjati bo‘lib, unda tashkilotning barcha tarkibiy bo‘linmalari, hududiy filiallari va sug‘urta faoliyati segmentlari bo‘yicha rejalashtirilgan asosiy moliyaviy hamda nomoliyaviy ko‘rsatkichlar umumlashtiriladi. Bosh byudjet tarkibiga sug‘urta xizmatlari daromadlari, sug‘urta mukofotlari tushumi, sug‘urta to‘lovlari, qayta sug‘urta operatsiyalari, operatsion va ma’muriy xarajatlar, investitsiya faoliyati natijalari, segmentlar bo‘yicha foyda hamda boshqa asosiy ko‘rsatkichlarni kiritish maqsadga muvofiq. Bunda umumiy byudjet ko‘rsatkichlarini sug‘urta turlari va hududiy filiallar kesimida detallashtirish boshqaruvning turli darajalarida javobgarlikni aniq belgilash imkonini beradi.

Bosh byudjet (biznes-reja) ijrosi bo‘yicha tuziladigan ichki segmentar hisobotda har bir segment va tegishli ko‘rsatkich bo‘yicha hisobot davri uchun tasdiqlangan reja, haqiqatda erishilgan natija, rejaning bajarilish darajasi, mutlaq chetlanish va nisbiy chetlanish aks ettirilishi lozim. Shu bilan birga, aniqlangan chetlanishlarning sabablari va ularni bartaraf etish bo‘yicha boshqaruv choralari ham hisobotning izoh qismida keltirilishi maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv sug‘urta tashkiloti rahbariyatiga har bir segmentning umumiy moliyaviy natijaga qo‘shgan hissasini baholash, muammoli segmentlarni aniqlash, resurslarni qayta taqsimlash va keyingi davr byudjet ko‘rsatkichlarini asosli belgilash imkonini beradi. Aynan ushbu talablardan kelib chiqib, sug‘urta tashkilotining.

4.2-jadval

Sug‘urta tashkilotining Bosh byudjeti (biznes-rejasi) ijrosi bo‘yicha ichki segmentar hisobot shakli

№	Ko‘rsatkich	O‘lchov	Reja yillik	Reja oylik	Haqiqatda yil boshidan	Haqiqatda shu oyda	Bajarilishi yil, %	Bajarilishi oy, %	Chetlanish yil	Chetlanish oy
I	**Sug‘urta faoliyati hajmi**									
1	Tuzilgan sug‘urta shartnomalari soni	dona	950 000	79 167	1 185 000	98 750	124,74	124,74	+235 000	+19 583
2	Sug‘urtalangan obyektlar soni	dona	1 150 000	95 833	1 420 000	118 333	123,48	123,48	+270 000	+22 500
3	Sug‘urta summasi	mln so‘m	70 000 000	5 833 333	85 000 000	7 083 333,33	121,43	121,43	+15 000 000	+1 250 000
4	Hisoblangan sug‘urta mukofotlari	mln so‘m	930 000	77 500	1 260 000	105 000,00	135,48	135,48	+330 000,00	+27 500,00
5	Kelib tushgan sug‘urta mukofotlari	mln so‘m	880 000	73 333	1 200 000	100 000,00	136,36	136,36	+320 000,00	+26 666,67
II	**Sug‘urta xizmatlari daromadlari**									
6	Sug‘urta xizmatlaridan daromad	mln so‘m	430 000	35 833	483 479,36	40 289,95	112,44	112,44	+53 479,36	+4 456,61
7	Qayta sug‘urta operatsiyalaridan daromad	mln so‘m	792 000	66 000	693 400,00	57 783,33	87,55	87,55	−98 600,00	−8 216,67
8	Investitsiya faoliyatidan daromad	mln so‘m	130 000	10 833	153 266,56	12 772,21	117,90	117,90	+23 266,56	+1 938,88
9	Boshqa operatsion daromadlar	mln so‘m	12 000,00	1 000,00	14 401,43	1 200,12	120,01	120,01	+2 401,43	+200,12

10	**Jami daromadlar**	mln so‘m	1 364 000	113 666	1 344 547,34	112 045,61	98,57	98,57	−19 452,66	−1 621,05
III	**Sug‘urta hodisalari va to‘lovlari**									
11	Ariza qilingan sug‘urta hodisalari soni	dona	4 500	375	5 150	429	114,44	114,44	+650	+54
12	Tartibga solingan sug‘urta hodisalari soni	dona	4 300	358	4 920	410	114,42	114,42	+620	+52
13	Sug‘urta to‘lovlari	mln so‘m	330 000,00	27 500,00	451 281,62	37 606,80	136,75	136,75	+121 281,62	+10 106,80
14	Qayta sug‘urtalovchi qoplamalari	mln so‘m	90 000,00	7 500,00	106 437,40	8 869,78	118,26	118,26	+16 437,40	+1 369,78
15	Sof sug‘urta to‘lovlari	mln so‘m	240 000	20 000	344 844,21	28 737,02	143,69	143,69	+104 844,21	+8 737,02
IV	**Sug‘urta faoliyati xarajatlari**									
16	Sug‘urta shartnomalari bo‘yicha xarajat	mln so‘m	45 000,00	3 750,00	42 564,79	3 547,07	94,59	94,59	−2 435,21	−202,93
17	Agentlik va vositachilik xarajatlari	mln so‘m	60 000,00	5 000,00	99 317,83	8 276,49	165,53	165,53	+39 317,83	+3 276,49
18	Sug‘urta hodisalarini boshqarish xarajati	mln so‘m	15 000,00	1 250,00	18 000,00	1 500,00	120,00	120,00	+3 000,00	+250,00
19	Ma’muriy-boshqaruv xarajatlari	mln so‘m	165 000	13 750	190 000,00	15 833,33	115,15	115,15	+25 000,00	+2 083,33
20	Boshqa operatsion xarajatlar	mln so‘m	90 000,00	7 500,00	111 577,69	9 298,14	123,98	123,98	+21 577,69	+1 798,14

21	**Jami xarajatlar**	mln so‘m	375 000,00	31 250,00	461 460,31	38 455,03	123,06	123,06	+86 460,31	+7 205,03
V	**Qayta sug‘urta ko‘rsatkichlari**									
22	Qayta sug‘urtaga berilgan mukofotlar	mln so‘m	370 000,00	30 833,33	439 728,06	36 644,00	118,85	118,85	+69 728,06	+5 810,67
23	Qayta sug‘urtaga qabul qilingan mukofotlar	mln so‘m	792 000,00	66 000,00	693 400,00	57 783,33	87,55	87,55	−98 600,00	−8 216,67
24	Qayta sug‘urtalovchi olinadigan qoplama	mln so‘m	90 000,00	7 500,00	106 437,40	8 869,78	118,26	118,26	+16 437,40	+1 369,78
25	Qayta sug‘urta faoliyatining moliyaviy natijasi	mln so‘m	512 000,00	42 666,67	360 109,35	30 009,11	70,33	70,33	−151 890,65	−12 657,55
VI	**Moliyaviy natija va samaradorlik**									
26	Segmentning operatsion natijasi	mln so‘m	469 000,00	39 083,33	204 952,18	17 079,35	43,70	43,70	−264 047,82	−22 003,99
27	Segment foydasi (zarari)	mln so‘m	20 000,00	1 666,67	74 662,14	6 221,85	373,31	373,31	+54 662,14	+4 555,18
28	Zarar koeffitsiyenti	%	27,27	—	28,74	—	105,37	—	+1,46 %	—
29	Xarajatlar koeffitsiyenti	%	42,61	—	38,46	—	90,24	—	−4,16 %	—
30	Kombinatsiyalashgan koeffitsiyent	%	69,89	—	67,19	—	96,14	—	−2,69 %	—
31	Segment rentabelligi	%	1,47	—	5,55	—	378,71	—	+4,09 %	—

Mazkur ichki segmentar hisobotni tuzish uchun asos bo‘lib sug‘urta tashkilotining har bir javobgarlik markazi tomonidan tegishli ko‘rsatkichlar bo‘yicha shakllantiriladigan birlamchi hujjatlar, hisob registrlari hamda ichki boshqaruv hisobotlari xizmat qiladi. Ushbu ma’lumotlarni umumlashtirish asosida sug‘urta tashkiloti rahbariyati alohida sug‘urta segmentlari, hududiy filiallar va boshqa javobgarlik markazlari faoliyatiga baho beradi, tasdiqlangan byudjet ko‘rsatkichlarining bajarilish darajasini aniqlaydi hamda reja va haqiqiy natijalar o‘rtasidagi chetlanishlarning sabablarini tahlil qiladi. Tahlil natijalari asosida tegishli segmentlar faoliyatini takomillashtirish, resurslarni qayta taqsimlash, xarajatlarni maqbullashtirish, sug‘urta portfelining samaradorligini oshirish hamda javobgarlik markazlari rahbarlarini rag‘batlantirish bo‘yicha boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Sug‘urta xizmatlarini sotish byudjeti ijrosi bo‘yicha segmentar hisobotni tuzish. Sug‘urta tashkilotlarida mazkur byudjet tegishli daromad yoki foyda markazlari tarkibiga kiruvchi sotuv bo‘linmalari, hududiy filiallar, agentlik tarmoqlari hamda sug‘urta mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun mas’ul boshqa tarkibiy bo‘linmalar tomonidan shakllantiriladi. Sotish byudjetida sug‘urta turlari va segmentlari kesimida tuzilishi rejalashtirilgan sug‘urta shartnomalari soni, hisoblanadigan va kelib tushadigan sug‘urta mukofotlari, sug‘urta xizmatlaridan olinadigan daromadlar, mijozlar soni hamda sotuv faoliyatini tavsiflovchi boshqa asosiy ko‘rsatkichlar belgilanadi.

Sug‘urta xizmatlarini sotish byudjeti ijrosi bo‘yicha ichki segmentar hisobotni yillik, choraklik va oylik biznes-reja ko‘rsatkichlari hamda haqiqatda erishilgan natijalarni aks ettiruvchi hisob registrlari va axborot tizimi ma’lumotlari asosida shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunda hisobot davri davomida sotuv hajmi yuqori bo‘lgan yoki boshqaruv nazorati kuchaytirilishi zarur segmentlarda mazkur hisobotni har o‘n kunlik kesimda ham tuzish mumkin. Hisobotda har bir sug‘urta segmenti bo‘yicha rejalashtirilgan ko‘rsatkich, haqiqiy natija, rejaning bajarilish darajasi, mutlaq va nisbiy chetlanishlar hamda ularning yuzaga kelish sabablari alohida aks ettirilishi lozim.

Shundan kelib chiqib, sug‘urta tashkilotlarida sotish faoliyatini segmentlar kesimida muntazam nazorat qilish, reja ko‘rsatkichlaridan chetlanishlarni o‘z vaqtida aniqlash va tegishli javobgarlik markazlari faoliyatiga obyektiv baho berish maqsadida “Sug‘urta xizmatlarini sotish byudjeti ijrosi bo‘yicha ichki segmentar hisobot” shaklini joriy etish taklif etiladi. Mazkur hisobot shakli sug‘urta turlari, hududiy filiallar va sotuv kanallari bo‘yicha natijalarni qiyosiy baholash hamda aniqlangan chetlanishlar yuzasidan tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur axborot bazasini shakllantiradi.

4.3-jadval

Sug‘urta xizmatlarini sotish byudjeti ijrosi bo‘yicha ichki segmentar hisobot

2025-yil yanvar oyi uchun

Segment (filial/sug‘urta turi): Samarqand filiali[87]

(mln so’m)

Sug‘urta turi (mahsuloti)	Reja: oy boshidan	Reja: shu o‘n kunlikda	Haqiqatda: oy boshidan	Haqiqatda: shu o‘n kunlikda	Reja bajarilishi, %: oy boshidan	Reja bajarilishi, %: o‘n kunlikda	Reja dan chetlanish: oy boshidan	Reja dan chetlanish: o‘n kunlikda
Avtotransport vositalarini sug‘urtalash	19 000,00	6 000,00	24 748,91	8 926,41	130,26	148,77	+5 748,91	+2 926,41
Mol-mulkni sug‘urtalash	15 000,00	5 000,00	19 805,52	6 745,28	132,04	134,91	+4 805,52	+1 745,28
Javobgarlikni sug‘urtalash	9 000,00	3 000,00	11 888,94	4 183,72	132,10	139,46	+2 888,94	+1 183,72
Baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash	7 000,00	2 000,00	8 783,54	3 048,16	125,48	152,41	+1 783,54	+1 048,16

[87] https://uzbekinvest.uz/audit-financial

Tibbiy sug‘urta	6 000,00	2 000,00	7 318,10	2 513,47	121,97	125,67	+1 318,10	+513,47
Yuklarni sug‘urtalash	8 000,00	3 000,00	10 282,19	3 596,83	128,53	119,89	+2 282,19	+596,83
Qishloq xo‘jaligi risklarini sug‘urtalash	4 000,00	1 000,00	4 388,38	1 492,76	109,71	149,28	+388,38	+492,76
Boshqa sug‘urta xizmatlari	6 000,00	2 000,00	8 544,42	2 826,70	142,41	141,34	+2 544,42	+826,70
Jami	74 000,00	24 000,0	95 760,00	33 333,33	129,41	138,89	+21 760,00	+9 333,33

Jadval ma’lumotlari sug‘urta kompaniyasida sug‘urta mahsulotlari kesimida mukofot tushumlarining reja ko‘rsatkichlariga nisbatan bajarilishini tezkor baholash imkonini beradi. Hisobot davrida oy boshidan 74 000,00 mln so‘m sug‘urta mukofoti tushumi rejalashtirilgan bo‘lib, haqiqatda 95 760,00 mln so‘m tushum shakllangan. Natijada umumiy reja 129,41 foizga bajarilib, rejaga nisbatan 21 760,00 mln so‘mlik ijobiy chetlanish yuzaga kelgan. Barcha sug‘urta mahsulotlari bo‘yicha reja ko‘rsatkichlarining oshirib bajarilgani kuzatiladi. Sug‘urta mahsulotlari kesimida eng yuqori tushum avtotransport vositalarini sug‘urtalash hissasiga to‘g‘ri kelib, uning haqiqiy hajmi 24 748,91 mln so‘mni tashkil etgan. Reja bajarilishining eng yuqori darajasi esa boshqa sug‘urta xizmatlarida – 142,41 foiz qayd etilgan. Mazkur segmentar hisobot shakli sug‘urta mahsulotlarining daromad shakllantirishdagi hissasini aniqlash, reja va haqiqiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi chetlanishlarni tezkor nazorat qilish hamda istiqboldagi boshqaruv qarorlarini asoslash uchun axborot

Mazkur ichki segmentar hisobotni tuzish uchun asos bo‘lib sug‘urta tashkilotining sotuv bo‘limi, hududiy filiallari, agentlik tarmog‘i va boshqa sotuv kanallari tomonidan sug‘urta turlari hamda segmentlari kesimida shakllantiriladigan analitik jadvallar hisoblanadi. Ushbu analitik jadvallarda tuzilgan sug‘urta shartnomalari soni va qiymati, hisoblangan hamda kelib tushgan sug‘urta mukofotlari, sug‘urta xizmatlaridan daromadlar, yangi tuzilgan va uzaytirilgan shartnomalar to‘g‘risidagi

ma’lumotlar aks ettiriladi. Mazkur ma’lumotlar, o‘z navbatida, sug‘urta shartnomalari reyestri, sug‘urta polislarini hisobga olish registrlari, agentlar va brokerlar hisobotlari, bank va kassa operatsiyalari ma’lumotlari, buxgalteriya hisobining tegishli analitik registrlari hamda sug‘urta tashkilotining axborot tizimida shakllantiriladigan ma’lumotlar asosida umumlashtiriladi.

Sug‘urta xizmatlarini sotish byudjeti ijrosi bo‘yicha shakllantirilgan ichki segmentar hisobot asosida tashkilot rahbariyati tegishli daromad yoki foyda markazlari hisoblangan sotuv bo‘linmalari, hududiy filiallar va boshqa javobgarlik markazlari faoliyatiga baho beradi. Bunda sug‘urta mukofotlari bo‘yicha belgilangan rejaning bajarilishi, yangi sug‘urta shartnomalarini jalb qilish darajasi, sug‘urta portfelining o‘sishi, mijozlarni saqlab qolish ko‘rsatkichi va segmentlarning daromad yaratish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Aniqlangan chetlanishlarning sabablari va ularga ta’sir etgan omillar asosida sotuv siyosatini takomillashtirish, sug‘urta portfelini diversifikatsiyalash, sotuv kanallari samaradorligini oshirish, resurslarni segmentlar o‘rtasida qayta taqsimlash hamda javobgarlik markazlari faoliyatini rag‘batlantirish bo‘yicha tegishli boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Kelgusi davr sug‘urta xizmatlarini sotish hajmini ta’minlovchi sug‘urta portfeli byudjeti ijrosi bo‘yicha segmentar hisobotni tuzish. Ishlab chiqarish korxonalarida kelgusi sotish hajmini ta’minlash uchun tayyor mahsulotlarning zarur qoldig‘i shakllantirilsa, sug‘urta tashkilotlarida bunday vazifani amaldagi sug‘urta portfeli, faol sug‘urta shartnomalari, yangilanishi kutilayotgan shartnomalar va istiqbolli mijozlar portfeli bajaradi. Shu sababli sug‘urta tashkilotlari uchun “tayyor mahsulotlar qoldig‘i byudjeti” tushunchasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash metodologik jihatdan maqsadga muvofiq emas. Uning o‘rniga kelgusi davrda sug‘urta xizmatlarini sotish bo‘yicha belgilangan ko‘rsatkichlarning bajarilishini ta’minlovchi sug‘urta portfeli holatini rejalashtirish va nazorat qilishga yo‘naltirilgan alohida byudjet hamda segmentar hisobot shaklini joriy etish taklif etiladi.

Mazkur byudjet va uning ijrosi bo‘yicha segmentar hisobot tegishli sotuv bo‘linmalari, hududiy filiallar hamda sug‘urta portfelini boshqarish

uchun mas’ul javobgarlik markazlari tomonidan shakllantirilishi maqsadga muvofiq. Hisobotning boshqaruv ahamiyati shundaki, uning asosida amaldagi va yangilanishi kutilayotgan sug‘urta shartnomalari kelgusi davr uchun belgilangan sug‘urta mukofotlari va sug‘urta xizmatlarini sotish rejasini qay darajada ta’minlashi oldindan baholanadi. Bunda sug‘urta turlari va segmentlari kesimida davr boshidagi faol shartnomalar, yangi tuzilishi rejalashtirilgan shartnomalar, muddati tugaydigan va yangilanishi kutilayotgan shartnomalar, bekor qilinishi mumkin bo‘lgan shartnomalar hamda ular bo‘yicha kutilayotgan sug‘urta mukofotlari nazorat qilinishi lozim. Ushbu segmentar hisobotni hisobot oyining har o‘n kunligi yakunida shakllantirish sotuv rejasining bajarilishiga ta’sir etuvchi omillarni oldindan aniqlash va zarur tezkor boshqaruv choralarini ko‘rish imkonini beradi.

Jadval ma’lumotlari sug‘urta kompaniyasida sotish rejasining mavjud sug‘urta portfeli bilan ta’minlanganlik holatini segmentlar kesimida baholash imkonini beradi.

4.4-jadval

Kelgusi davr sug‘urta xizmatlarini sotish hajmini ta’minlovchi sug‘urta portfeli byudjeti ijrosi bo‘yicha ichki segmentar hisobot 2025-yil yanvar oyi uchun[88]

Sug‘urta turi (segmenti)	Sotish rejasi:		Sotish rejasini ta’minlovchi sug‘urta portfeli:		Sotish rejasining ta’minlanganlik darajasi, %:		Ta’minlanganlik darajasidan chetlanish:	
	oy boshidan	shu o‘n kunlikda	oy boshiga	shu o‘n kunlik boshiga	oy boshiga	shu o‘n kunlik boshiga	oy boshiga	shu o‘n kunlik boshiga
Avtotransport vositalarini sug‘urtalash	19 284	6 137	23 846	7 418	123,66	120,88	+23,66	+20,88
Mol-mulkni sug‘urtalash	14 763	4 892	18 625	6 185	126,16	126,43	+26,16	+26,43
Javobgarlikni sug‘urtalash	9 146	3 048	10 864	3 642	118,78	119,49	+18,78	+19,49
Baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash	6 874	2 241	8 136	2 476	118,36	110,49	+18,36	+10,49

[88] https://uzbekinvest.uz/audit-financial

Tibbiy sug‘urta	5 918	1 967	6 784	2 288	114,63	116,32	+14,63	+16,32
Yuklarni sug‘urtalash	7 936	2 674	9 763	3 416	123,02	127,75	+23,02	+27,75
Qishloq xo‘jaligi risklarini sug‘urtalash	4 127	1 352	4 263	1 185	103,30	87,65	+3,30	−12,35
Boshqa sug‘urta turlari	5 952	1 689	7 843	2 464	131,77	145,89	+31,77	+45,89
Jami	**74 000**	**24 000**	**90 124**	**29 074**	**121,79**	**121,14**	**+21,79**	**+21,14**

Oy boshiga jami 74 000 mln so‘mlik sotish rejasiga 90 124 mln so‘mlik sug‘urta portfeli shakllantirilgan bo‘lib, ta’minlanganlik darajasi 121,79 foizni tashkil etgan. Aksariyat segmentlarda portfel hajmi sotish rejasidan yuqori bo‘lsa-da, shu o‘n kunlik boshiga qishloq xo‘jaligi risklarini sug‘urtalash segmentida ta’minlanganlik 87,65 foizni tashkil etib, 12,35 foiz bandlik salbiy chetlanish kuzatilgan. Mazkur holat segmentar boshqaruv hisobida sug‘urta portfelining yetarliligini muntazam nazorat qilish, reja bajarilishi xavfi mavjud yo‘nalishlarni o‘z vaqtida aniqlash hamda ular bo‘yicha sotish va mijozlarni jalb qilish choralarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur ichki segmentar hisobotni tuzish uchun asos bo‘lib sug‘urta tashkilotida sug‘urta shartnomalarini hisobga olish bo‘yicha yuritiladigan analitik registrlar, sug‘urta polislarining elektron reyestri, amaldagi va muddati tugayotgan sug‘urta shartnomalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, hisoblangan va kelib tushgan sug‘urta mukofotlari bo‘yicha buxgalteriya registrlari, shuningdek, hududiy filiallar, agentlar, brokerlar va boshqa sotuv kanallari tomonidan taqdim etiladigan ichki hisobotlar xizmat qiladi. Ushbu axborot manbalari asosida har bir sug‘urta turi, hududiy filial va boshqa boshqaruv segmentlari kesimida amaldagi sug‘urta portfeli, yangilanishi kutilayotgan shartnomalar hamda yangi tuzilishi rejalashtirilgan shartnomalar bo‘yicha kutilayotgan sug‘urta mukofotlari aniqlanadi.

Kelgusi davr sotuv rejasining sug‘urta portfeli bilan ta’minlanganligi bo‘yicha tuzilgan ichki segmentar hisobot asosida sug‘urta tashkiloti rahbariyati tegishli javobgarlik markazlari faoliyatiga

kompleks baho beradi. Xususan, sug‘urta mahsulotlarini shakllantirish va anderrayting jarayonlari uchun mas’ul bo‘linmalar, hududiy filiallar, sotuv bo‘limlari, agentlik tarmoqlari hamda boshqa sotuv kanallarining belgilangan reja ko‘rsatkichlariga erishishdagi hissasi baholanadi. Bunda sug‘urta portfelining mavjud holati, yangi shartnomalarni jalb qilish darajasi, amaldagi shartnomalarni uzaytirish ko‘rsatkichi va kutilayotgan sug‘urta mukofotlarining sotuv rejasini qoplash darajasi asosiy nazorat mezonlari sifatida olinadi. Tahlil natijalariga muvofiq rahbariyat tegishli segmentlar bo‘yicha sotuv faolligini oshirish, sug‘urta portfelini diversifikatsiyalash, tarif va anderrayting siyosatini qayta ko‘rib chiqish, resurslarni qayta taqsimlash hamda javobgarlik markazlari faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qiladi.

Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish va yangi sug‘urta shartnomalarini shakllantirish byudjeti ijrosi bo‘yicha segmentar hisobotni tuzish. Ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish byudjeti sotish rejasini zarur miqdordagi tayyor mahsulot bilan ta’minlashga xizmat qilsa, sug‘urta tashkilotlarida ushbu funksiyani yangi sug‘urta shartnomalarini tuzish, amaldagi shartnomalarni uzaytirish va tegishli sug‘urta portfelini shakllantirish jarayonlarini rejalashtiruvchi byudjet bajaradi. Shu sababli sug‘urta tashkilotlarida mazkur byudjetni sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish hajmi, tuzilishi rejalashtirilgan shartnomalar soni, ular bo‘yicha kutilayotgan sug‘urta mukofotlari hamda sug‘urta portfelining belgilangan o‘sish ko‘rsatkichlari asosida shakllantirish maqsadga muvofiq.

Mazkur byudjet ijrosi bo‘yicha ichki segmentar hisobotning ahamiyati shundaki, uning asosida kelgusi davr uchun belgilangan sug‘urta xizmatlarini sotish rejasi yangi va uzaytirilayotgan sug‘urta shartnomalari bilan qay darajada ta’minlanayotganligini oldindan nazorat qilish imkoniyati yaratiladi. Hisobotda har bir sug‘urta turi va segmenti bo‘yicha rejalashtirilgan shartnomalar soni va sug‘urta mukofotlari, haqiqatda tuzilgan shartnomalar va hisoblangan mukofotlar, rejaning bajarilish darajasi hamda rejadan chetlanishlar aks ettirilishi lozim. Bunday axborot sotuv rejasining bajarilishiga xavf tug‘dirayotgan

segmentlarni hisobot davri yakunini kutmasdan aniqlash va ularga nisbatan tezkor boshqaruv choralarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish va yangi sug‘urta shartnomalarini shakllantirish byudjeti ijrosi bo‘yicha segmentar hisobotni sug‘urta tashkilotining axborot tizimida kunlik asosda, sotuv faolligi yuqori bo‘lgan yoki operativ nazorat talab etiladigan holatlarda esa real vaqt rejimiga yaqin davriylikda shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunda hisobotni “har smenada” tuzish sug‘urta faoliyatining iqtisodiy mazmuniga mos kelmaydi, chunki sug‘urta xizmatlari ishlab chiqarish korxonalaridagi smenali ishlab chiqarish jarayoniga ega emas. Kunlik monitoring esa rahbariyatga yangi shartnomalar tuzilishi, sug‘urta mukofotlari shakllanishi va sotuv rejasining bajarilish holatini segmentlar kesimida muntazam nazorat qilish imkonini beradi. Shundan kelib chiqib, ushbu byudjet ijrosi bo‘yicha ichki segmentar hisobotni quyidagi shaklda tuzish taklif etiladi.

4.5-jadval

Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish va sug‘urta shartnomalarini shakllantirish byudjeti ijrosi bo‘yicha ichki segmentar hisobot 2025-yil yanvar oyi uchun

Javobgarlik markazi (filial/bo‘lim): Samarqand[89]

Sug‘urta turi (segmenti)	Reja:		Haqiqatda tuzilgan:		Reja bajarilishi, %:		Rejadan chetlanish:	
	oy boshidan, dona	shu kunda, dona	oy boshidan, dona	shu kunda, dona	oy boshidan	shu kunda	oy boshidan, dona	shu kunda, dona
Avtotransport vositalarini sug‘urtalash	18 500	650	23 847	824	128,90	126,77	+5 347	+174
Mol-mulkni sug‘urtalash	7 500	260	9 186	314	122,48	120,77	+1 686	+54
Javobgarlikni sug‘urtalash	12 000	420	14 673	493	122,28	117,38	+2 673	+73
Baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash	9 500	330	11 284	386	118,78	116,97	+1 784	+56

[89] https://uzbekinvest.uz/audit-financial

Tibbiy sug‘urta	6 000	210	7 136	247	118,93	117,62	+1 136	+37
Yuklarni sug‘urtalash	4 500	160	5 247	181	116,60	113,13	+747	+21
Qishloq xo‘jaligi risklarini sug‘urtalash	3 000	100	2 846	94	94,87	94,00	−154	−6
Boshqa sug‘urta turlari	5 000	170	6 483	221	129,66	130,00	+1 483	+51
Jami	66 000	2 300	80 702	2 760	122,28	120,00	+14 702	+460

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, oy boshidan 66 000 ta sug‘urta shartnomasi tuzish rejalashtirilgan bo‘lib, haqiqatda 80 702 ta shartnoma tuzilgan va reja 122,28 foizga bajarilgan. Eng katta shartnomalar soni avtotransport vositalarini sug‘urtalash segmentiga to‘g‘ri kelib, 23 847 ta shartnomani tashkil etgan.

Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi risklarini sug‘urtalashda reja 94,87 foizga bajarilib, 154 ta shartnomaga salbiy chetlanish kuzatilgan. Mazkur hisobot shakli sug‘urta mahsulotlari kesimida sotish faolligini tezkor nazorat qilish va reja bajarilishi past bo‘lgan segmentlarni aniqlash imkonini beradi.

Mazkur ichki segmentar hisobotni tuzish uchun asos bo‘lib sug‘urta tashkilotining axborot tizimida shakllantiriladigan sug‘urta shartnomalari va polislar reyestri, hisoblangan sug‘urta mukofotlari bo‘yicha analitik registrlar, hududiy filiallar va sotuv bo‘linmalari hisobotlari, agentlar va brokerlar tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotlar hamda buxgalteriya hisobining tegishli registrlari xizmat qiladi. Ushbu axborot manbalari asosida sug‘urta turlari, hududiy filiallar va boshqa boshqaruv segmentlari bo‘yicha rejalashtirilgan hamda haqiqatda tuzilgan sug‘urta shartnomalari soni, hisoblangan sug‘urta mukofotlari va boshqa operatsion ko‘rsatkichlar umumlashtiriladi.

Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish va sug‘urta shartnomalarini shakllantirish byudjeti ijrosi bo‘yicha tuzilgan ichki segmentar hisobot asosida tashkilot rahbariyati tegishli javobgarlik markazlari faoliyatiga baho beradi. Bunda sug‘urta mahsulotlari va anderrayting uchun mas’ul bo‘linmalar, hududiy filiallar, sotuv bo‘limlari hamda boshqa javobgarlik

markazlari bo‘yicha belgilangan rejalarning bajarilishi, haqiqiy natijalarning reja ko‘rsatkichlaridan chetlanishi va ushbu chetlanishlarni yuzaga keltirgan omillar aniqlanadi. Tahlil natijalari asosida rahbariyat segmentlar faoliyatini muvofiqlashtirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, sug‘urta xizmatlari hajmini oshirish va javobgarlik markazlari faoliyatini rag‘batlantirish bo‘yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qiladi.

Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish uchun zarur operatsion resurslar va xizmatlar xaridi byudjeti ijrosi bo‘yicha segmentar hisobotni tuzish. Sug‘urta tashkilotlarida xizmat ko‘rsatish jarayonining uzluksizligini ta’minlash uchun moddiy ishlab chiqarish korxonalaridagi xomashyo va materiallardan farqli ravishda turli operatsion resurslar va tashqi xizmatlardan foydalaniladi. Ularga sug‘urta polislarini rasmiylashtirish vositalari, axborot-kommunikatsiya va dasturiy ta’minot xizmatlari, aloqa xizmatlari, blankalar va boshqa ofis materiallari, ekspert va baholovchi xizmatlari, assistans xizmatlari, axborot bazalaridan foydalanish xizmatlari hamda sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur boshqa resurslarni kiritish mumkin. Shu sababli sug‘urta tashkilotlarida ishlab chiqarish materiallari xaridi byudjeti o‘rniga operatsion resurslar va xizmatlar xaridi byudjetini shakllantirish metodologik jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur byudjetni tegishli xarajat markazlari, ta’minot uchun mas’ul bo‘linma hamda zarur hollarda axborot texnologiyalari, sug‘urta operatsiyalari va ma’muriy bo‘linmalar hamkorligida shakllantirish taklif etiladi. Uning asosiy vazifasi kelgusi davrda rejalashtirilgan sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish hajmini zarur resurslar va xizmatlar bilan o‘z vaqtida ta’minlashdan iborat. Bunda har bir segment bo‘yicha resurs va xizmatlarga bo‘lgan rejalashtirilgan ehtiyoj, xarid qilinishi lozim bo‘lgan miqdor va qiymat, haqiqatda xarid qilingan resurslar va xizmatlar, foydalanilgan qismi, mavjud qoldiq hamda reja ko‘rsatkichlaridan chetlanishlar aniqlanishi lozim. Natijada rahbariyat sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish rejasi zarur operatsion resurslar bilan qay darajada ta’minlanganligini oldindan nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ushbu ichki segmentar hisobotni shakllantirish uchun asosiy axborot manbalari sifatida xarid shartnomalari, yetkazib beruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchilar hisobvaraqlari, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarni tasdiqlovchi hujjatlar, moddiy boyliklar bo‘yicha kirim-chiqim hujjatlari, buxgalteriya hisobining xarajat va kreditorlik qarzlari bo‘yicha analitik registrlari, shuningdek, tegishli javobgarlik markazlarining ichki hisobotlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Moddiy xususiyatga ega resurslar bo‘yicha ularning mavjud qoldig‘i nazorat qilinsa, axborot, ekspert, assistans va boshqa xizmatlarda esa xarid hajmi, foydalanish darajasi, shartnoma limiti va xizmat qiymati asosiy nazorat ko‘rsatkichlari sifatida olinishi lozim.

Operatsion resurslar va xizmatlar xaridi byudjeti ijrosi bo‘yicha shakllantirilgan segmentar hisobot asosida sug‘urta tashkiloti rahbariyati ta’minot, xarajat va boshqa tegishli javobgarlik markazlari faoliyatiga baho beradi. Xususan, xaridlarning belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi, xarid qiymatining byudjetga muvofiqligi, mavjud resurslarning yetarliligi, xizmatlardan foydalanish samaradorligi va byudjetdan chetlanishlar nazorat qilinadi. Aniqlangan chetlanishlar bo‘yicha ularning sabablari va mas’ul javobgarlik markazlari aniqlanib, xaridlarni maqbullashtirish, ortiqcha xarajatlarni qisqartirish, resurslar taqchilligining oldini olish hamda keyingi davr byudjet parametrlarini aniqlashtirish yuzasidan boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish uchun zarur operatsion resurslar va xizmatlar xaridi byudjeti ijrosi bo‘yicha ichki segmentar hisobotni hisobot oyining har o‘n kunligi yakunida shakllantirish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, axborot tizimlarining uzluksiz ishlashi, assistans xizmatlari yoki sug‘urta operatsiyalariga bevosita ta’sir qiluvchi muhim resurslar bo‘yicha nazoratni yanada tezkor davriylikda amalga oshirish mumkin. Shundan kelib chiqib, sug‘urta tashkilotlarida mazkur segmentar hisobotni quyidagi shaklda tuzish taklif etiladi.

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, oy boshiga operatsion resurslarga bo‘lgan jami ehtiyoj 150 000 birlikni tashkil etgan holda, haqiqatda 161 569 birlik resurs mavjud bo‘lib, umumiy ta’minlanganlik darajasi 107,71 foizni tashkil etgan. Shu o‘n kunlik boshiga esa 49 500 birlik ehtiyojga

nisbatan 52 424 birlik resurs mavjud bo‘lib, ta’minlanganlik 105,91 foizga yetgan. Barcha resurs turlari bo‘yicha 100 foizlik me’yoriy darajadan ijobiy chetlanish kuzatilishi sug‘urta operatsiyalarining uzluksiz amalga oshirilishi uchun zarur resurs zaxirasi shakllantirilganligini ko‘rsatadi.

4.6-jadval

Sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish uchun zarur operatsion resurslar xaridi va ularning me’yoriy qoldig‘i byudjeti ijrosi bo‘yicha ichki segmentar hisobot 2025-yil yanvar oyi uchun

Javobgarlik markazi (filial/bo‘lim): Samarqand[90]

Operatsion resurs turi	**Rejalashtirilgan ehtiyoj:**		**Haqiqatda mavjud resurslar:**		**Rejaning resurslar bilan ta’minlanganligi, %:**		**Me’yoriy ta’minlanganlikdan chetlanish:**	
	oy boshidan	**10 kunlik**	**oy boshiga**	**10 kunlik**	**oy boshiga**	**10 kunlik**	**oy boshiga**	**10 kunlik**
Sug‘urta polisi va boshqa maxsus blankalar	85 000	28 000	91 846	29 573	108,05	105,62	+8,05	+5,62
Ofis va sarflanadigan materiallar	12 000	4 000	12 784	4 218	106,53	105,45	+6,53	+5,45
Axborot texnologiyalari uchun sarflanadigan resurslar	4 500	1 500	4 736	1 582	105,24	105,47	+5,24	+5,47
Reklama va axborot materiallari	15 000	5 000	16 247	5 384	108,31	107,68	+8,31	+7,68
Arxivlash va hujjatlashtirish materiallari	8 000	2 500	8 426	2 617	105,33	104,68	+5,33	+4,68
Filiallar faoliyati uchun zarur operatsion resurslar	20 000	6 500	21 683	6 914	108,42	106,37	+8,42	+6,37
Boshqa operatsion resurslar	5 500	2 000	5 847	2 136	106,31	106,80	+6,31	+6,80
Jami	**150 000**	**49 500**	**161 569**	**52 424**	**107,71**	**105,91**	**+7,71**	**+5,91**

Foyda va zarar ko‘rsatkichlari byudjeti ijrosi bo‘yicha ichki segmentar hisobot. Sug‘urta tashkilotlarida mazkur hisobot bosh ofis rahbariyati talablariga muvofiq tegishli foyda markazlari, hududiy filiallar, sug‘urta xizmatlari yo‘nalishlari, reja-iqtisod va moliya bo‘linmalari hamda buxgalteriya xizmati hamkorligida shakllantirilishi

[90] https://uzbekinvest.uz/audit-financial

maqsadga muvofiq. Hisobotni tuzishda sug‘urta tashkilotining tasdiqlangan biznes-rejasi va byudjeti, sug‘urta shartnomalari bo‘yicha analitik registrlar, sug‘urta xizmatlaridan olingan daromadlar, sug‘urta to‘lovlari va boshqa xarajatlar, qayta sug‘urta operatsiyalari, investitsiya faoliyati hamda boshqa daromad va xarajatlar to‘g‘risidagi buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan foydalaniladi.

Mazkur segmentar hisobotning asosiy maqsadi sug‘urta tashkilotining alohida segmentlari bo‘yicha rejalashtirilgan moliyaviy natijalar bilan haqiqatda erishilgan natijalarni taqqoslash, yuzaga kelgan ijobiy va salbiy chetlanishlarni aniqlash hamda ularning sabablarini baholashdan iborat. Shu maqsadda hisobot tarkibida sug‘urta xizmatlaridan daromadlar, sug‘urta xizmatlari xarajatlari, qayta sug‘urta natijalari, investitsiya daromadlari, operatsion va ma’muriy xarajatlar hamda segmentning yakuniy foydasi yoki zarari kabi asosiy ko‘rsatkichlarni aks ettirish lozim. Har bir ko‘rsatkich bo‘yicha tasdiqlangan byudjet, haqiqiy natija, mutlaq chetlanish va rejaning bajarilish darajasi aniqlanishi segment faoliyatining moliyaviy samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi.

Foyda va zarar ko‘rsatkichlari byudjeti ijrosi bo‘yicha ichki segmentar hisobotni **sug‘urta turlari, hududiy filiallar va boshqa foyda markazlari kesimida**, choraklar hamda ularning tarkibidagi oylar bo‘yicha shakllantirish taklif etiladi. Bunday davriylik rahbariyatga nafaqat hisobot davri yakunidagi moliyaviy natijani, balki uning shakllanish dinamikasini ham kuzatish imkonini beradi. Jumladan, qaysi segmentda sug‘urta xizmatlaridan daromadlar rejasining bajarilmagani, sug‘urta to‘lovlari yoki operatsion xarajatlarning byudjetdan oshgani, qayta sug‘urta operatsiyalari natijasining o‘zgargani hamda ushbu omillarning segment foydasiga ta’siri aniqlanadi.

Mazkur hisobot ma’lumotlari asosida sug‘urta tashkiloti rahbariyati har bir foyda markazi va segmentning umumiy moliyaviy natijaga qo‘shgan hissasini baholaydi, rentabelligi yuqori va past segmentlarni aniqlaydi hamda ular bo‘yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qiladi. Xususan, sug‘urta portfeli tarkibini maqbullashtirish, zarar koeffitsiyenti yuqori bo‘lgan yo‘nalishlarni qayta ko‘rib chiqish, xarajatlarni

qisqartirish, qayta sug‘urta siyosatini takomillashtirish va resurslarni yuqori samaradorlikka ega segmentlarga yo‘naltirish imkoniyati yaratiladi. Shundan kelib chiqib, sug‘urta tashkilotlarida foyda va zarar ko‘rsatkichlari byudjeti ijrosi bo‘yicha ichki segmentar hisobotni choraklar va ularning oylari kesimida quyidagi shaklda tuzish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jadval ma’lumotlari segment faoliyatida chorak boshidan sug‘urta xizmatlaridan 304 820 mln so‘m daromad olinganini va bu biznes-rejaga nisbatan 105,11 foizni tashkil etganini ko‘rsatadi. Sug‘urta xizmatlari natijasi 120 460 mln so‘m, sug‘urta va qayta sug‘urta faoliyatining umumiy natijasi 48 100 mln so‘m, investitsiya va moliyaviy faoliyat natijasi esa 67 980 mln so‘mni tashkil etgan. Natijada segmentning operatsion foydasi 44 580 mln so‘m, soliqqa tortilgunga qadar foydasi 42 860 mln so‘m va sof foydasi 29 680 mln so‘mga yetib, sof foyda rejasi 122,14 foizga bajarilgan. Shu bilan birga, kombinatsiyalashgan koeffitsiyentning rejalashtirilgan 61,38 foizdan 60,49 foizga kamayishi va segment rentabelligining 8,38 foizdan 9,74 foizga oshishi segment faoliyati samaradorligida ijobiy o‘zgarish mavjudligini ifodalaydi.

Ushbu ichki segmentar hisobotni tuzish uchun asos bo‘lib sug‘urta tashkiloti buxgalteriya hisobida yuritiladigan sug‘urta xizmatlaridan daromadlar va sug‘urta xizmatlari xarajatlari, sug‘urta to‘lovlari, qayta sug‘urta operatsiyalari, investitsiya va moliyaviy faoliyat natijalari, operatsion hamda ma’muriy xarajatlar, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha sintetik va analitik hisob registrlari xizmat qiladi. Shuningdek, hisobotni shakllantirishda sug‘urta shartnomalari reyestri, sug‘urta hodisalari va to‘lovlari bo‘yicha ma’lumotlar, hududiy filiallar va boshqa javobgarlik markazlarining ichki hisobotlari hamda tegishli byudjet ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi. Mazkur axborotlarning segmentlar kesimida umumlashtirilishi har bir javobgarlik markazining daromad, xarajat va moliyaviy natijalarni shakllantirishdagi hissasini aniqlash imkonini beradi.

4.7-jadval

Sug‘urta tashkilotida moliyaviy natijalar byudjeti ijrosi bo‘yicha ichki segmentar hisobot

Segment (sug‘urta turi/filial): Saamrqand **mln so‘m**

Ko‘rsatkichlar	Biznes-reja:		Haqiqatda:		Bajarilishi,		Chetlanish:	
	chorak	shu oy	chorak boshidan	shu oyda	%: chorak	%: oy	chorak	oy
I. Sug‘urta faoliyati natijalari								
Sug‘urta xizmatlaridan daromad	290 000	100 000	304 820	106 450	105,11	106,45	+14 820	+6 450
Sug‘urta xizmatlari xarajatlari	178 000	61 000	184 360	63 280	103,57	103,74	+6 360	+2 280
└ Sug‘urta hodisalari va to‘lovlari bilan bog‘liq xarajatlar	112 000	38 000	116 740	40 150	104,23	105,66	+4 740	+2 150
└ Sug‘urta shartnomalarini jalb qilish xarajatlari	35 000	12 000	36 280	12 460	103,66	103,83	+1 280	+460
└ Sug‘urta shartnomalariga xizmat ko‘rsatish xarajatlari	31 000	11 000	31 340	10 670	101,10	97,00	+340	−330
Sug‘urta xizmatlari natijasi	**112 000**	**39 000**	**120 460**	**43 170**	**107,55**	**110,69**	**+8 460**	**+4 170**
II. Qayta sug‘urta faoliyati natijalari								
Qayta sug‘urta shartnomalari bo‘yicha daromadlar (qoplamalar)	27 000	9 000	28 460	9 780	105,41	108,67	+1 460	+780
Qayta sug‘urta bilan bog‘liq xarajatlar	96 000	33 000	100 820	34 560	105,02	104,73	+4 820	+1 560
Qayta sug‘urta faoliyati natijasi	**−69 000**	**−24 000**	**−72 360**	**−24 780**	**104,87**	**103,25**	**−3 360**	**−780**
III. Sug‘urta va qayta sug‘urta faoliyatining umumiy natijasi	**43 000**	**15 000**	**48 100**	**18 390**	**111,86**	**122,60**	**+5 100**	**+3 390**
IV. Investitsiya va moliyaviy faoliyat natijalari								
Investitsiya faoliyatidan daromadlar	39 000	13 500	41 680	14 320	106,87	106,07	+2 680	+820

Foiz daromadlari	21 000	7 200	22 460	7 650	106,95	106,25	+1 460	+450
Dividend daromadlari	6 500	2 200	6 840	2 310	105,23	105,00	+340	+110
Valyuta operatsiyalaridan daromadlar	8 500	3 000	9 160	3 260	107,76	108,67	+660	+260
Boshqa moliyaviy daromadlar	3 000	1 100	3 220	1 100	107,33	100,00	+220	0
Investitsiya va moliyaviy faoliyat xarajatlari	14 500	5 000	15 380	5 260	106,07	105,20	+880	+260
Investitsiya va moliyaviy faoliyat natijasi	**63 500**	**22 000**	**67 980**	**23 380**	**107,06**	**106,27**	**+4 480**	**+1 380**
V. Operatsion va boshqaruv xarajatlari								
Sotuv va marketing xarajatlari	6 500	2 200	6 840	2 360	105,23	107,27	+340	+160
Agentlik va vositachilik xarajatlari	24 000	8 200	25 180	8 640	104,92	105,37	+1 180	+440
Ma’muriy-boshqaruv xarajatlari	28 000	9 500	29 360	10 080	104,86	106,11	+1 360	+580
Axborot texnologiyalari xarajatlari	5 500	1 900	5 840	2 010	106,18	105,79	+340	+110
Boshqa operatsion xarajatlar	8 500	2 900	9 140	3 120	107,53	107,59	+640	+220
Boshqa operatsion daromadlar	4 500	1 500	4 860	1 680	108,00	112,00	+360	+180
VI. Segmentning operatsion foydasi (zarari)	**38 500**	**13 800**	**44 580**	**17 240**	**115,79**	**124,93**	**+6 080**	**+3 440**
Boshqa daromadlar	3 500	1 200	3 820	1 310	109,14	109,17	+320	+110
Boshqa xarajatlar	5 200	1 800	5 540	1 910	106,54	106,11	+340	+110
VII. Soliqqa tortilgunga qadar foyda (zarar)	**36 800**	**13 200**	**42 860**	**16 640**	**116,47**	**126,06**	**+6 060**	**+3 440**
Foyda solig‘i xarajatlari	12 500	4 300	13 180	4 540	105,44	105,58	+680	+240
VIII. Sof foyda (zarar)	**24 300**	**8 900**	**29 680**	**12 100**	**122,14**	**135,96**	**+5 380**	**+3 200**
IX. Segment samaradorligining nazorat ko‘rsatkichlari								
Zarar koeffitsiyenti, %	38,62	38,00	38,30	37,72	99,17	99,26	−0,32*	−0,28*
Xarajatlar koeffitsiyenti, %	22,76	23,00	22,19	21,73	97,50	94,48	−0,57*	−1,27*
Kombinatsiyalashgan koeffitsiyent, %	61,38	61,00	60,49	59,45	98,55	97,46	−0,89*	−1,55*
Segment rentabelligi, %	8,38	8,90	9,74	11,37	116,23	127,75	+1,36*	+2,47*

Moliyaviy natijalar byudjeti ijrosi bo‘yicha tuzilgan ichki segmentar hisobot asosida sug‘urta tashkiloti rahbariyati sug‘urta turlari, hududiy filiallar, foyda va xarajat markazlari hamda boshqa javobgarlik markazlari faoliyatiga kompleks baho beradi. Bunda rejalashtirilgan va haqiqatda erishilgan moliyaviy natijalar taqqoslanib, yuzaga kelgan ijobiy va salbiy chetlanishlar, ularning sabablari hamda tegishli javobgarlik markazlarining ushbu chetlanishlarga ta’siri aniqlanadi. Tahlil natijalari asosida sug‘urta portfelini maqbullashtirish, xarajatlarni nazorat qilish, zarar koeffitsiyentini pasaytirish, rentabellikni oshirish, resurslarni segmentlar o‘rtasida samarali taqsimlash hamda javobgarlik markazlari faoliyatini rag‘batlantirish yoki zarur tuzatish choralarini belgilash bo‘yicha tegishli boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

4.2. MHXS talablari asosida tashqi segmentar hisobotni shakllantirish metodikasi

Korporativ boshqaruv va moliyaviy axborotni oshkor qilish tizimida agentlik xarajatlari hamda mulkiy axborotni oshkor qilish xarajatlari xo‘jalik yurituvchi subyektlarning axborot siyosatini belgilovchi muhim iqtisodiy omillardan hisoblanadi. Agentlik xarajatlari mulkdorlar (prinsipallar) va boshqaruvchilar (agentlar) manfaatlarining o‘zaro nomuvofiqligi, axborot assimetriyasi hamda boshqaruv faoliyatini nazorat qilish zarurati natijasida yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan, segmentlar kesimida daromadlar, xarajatlar, aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi axborotlarning batafsil taqdim etilishi investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning boshqaruv qarorlarini baholash imkoniyatini kengaytiradi, axborot assimetriyasini kamaytiradi hamda menejment faoliyati ustidan samarali nazoratni ta’minlaydi. Binobarin, segmentar axborotning shaffofligini oshirish agentlik munosabatlaridan kelib chiqadigan monitoring va nazorat xarajatlarini kamaytiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq segmentar axborotni batafsil oshkor qilish korxona uchun faqat iqtisodiy manfaatlarni emas, balki mulkiy axborotni oshkor qilish xarajatlarini ham yuzaga keltirishi mumkin. Bunday xarajatlar korxonaning rentabelli faoliyat yo‘nalishlari, istiqbolli bozorlar, mahsulot yoki xizmatlar marjasi,

hududiy ustunliklari va boshqa strategik ahamiyatga ega ma’lumotlarning raqobatchilar, mijozlar hamda yetkazib beruvchilarga ma’lum bo‘lishi natijasida raqobat pozitsiyasining zaiflashishi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun segmentar hisobotni shakllantirishda axborot shaffofligini oshirish orqali agentlik xarajatlarini kamaytirish bilan tijorat jihatdan muhim axborotni himoya qilish o‘rtasida maqbul muvozanatni ta’minlash zarur. Mazkur muvozanat segmentar axborotni oshkor qilishning chegaralari va dezagregatsiya darajasini belgilash, shuningdek, foydalanuvchilarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini korxonaning raqobat manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishning muhim metodologik masalalaridan biri hisoblanadi.

Agentlik xarajatlari (agency costs) — korxona egalari (aksiyadorlar) bilan korxona boshqaruvchilari (menejerlar) manfaatlari bir-biriga to‘liq mos kelmasligi natijasida yuzaga keladigan xarajatlardir. Masalan, aksiyador korxona qiymati va foydasining oshishini istaydi, menejer esa ayrim hollarda o‘z vakolati, mukofoti yoki boshqaruvdagi mavqeini saqlashga ko‘proq manfaatdor bo‘lishi mumkin. Shu sababli aksiyadorlar menejerlar faoliyatini nazorat qilish, audit o‘tkazish, ichki nazorat tizimini tashkil etish va qo‘shimcha hisobotlar talab qilishga xarajat qiladi. Segmentar hisobotning batafsil oshkor qilinishi agentlik xarajatlarini kamaytirishi mumkin, chunki aksiyadorlar qaysi segment qancha daromad, xarajat va foyda keltirayotganini yaxshiroq kuzata oladi.

Mulkiy axborotni oshkor qilish xarajatlari (proprietary disclosure costs) esa korxonaning tijorat jihatdan muhim axborotini oshkor qilishi natijasida uning raqobat ustunligiga zarar yetishi mumkinligi bilan bog‘liq iqtisodiy yo‘qotishlardir. Bu yerda “mulkiy axborot” deganda bino yoki boshqa mol-mulk haqidagi axborot emas, balki korxonaning o‘ziga tegishli, raqobatchilar uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan axborot tushuniladi. Masalan, segmentar hisobotda ma'lum mahsulot segmentining juda yuqori foyda marjasi oshkor qilinsa, raqobatchilar ushbu bozorga kirishga harakat qilishi mumkin. Yoki ma'lum hududda sotuvlar juda tez o‘sayotgani ko‘rsatilsa, raqobatchilar o‘z resurslarini aynan shu hududga yo‘naltirishi mumkin.

Segmentlar bo‘yicha axborotni oshkor qilishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda, jumladan Harris (1998), Botosan va Stanford (2005),

Berger va Hann (2007) ishlarida rahbariyatning segmentlarni agregatsiyalash bo‘yicha qarorlari ommaga e’lon qilingan moliyaviy hisobotlardagi segment ma’lumotlari hajmini baholash orqali o‘rganilgan. Bunday yondashuvning muhim cheklovi shundaki, tadqiqotchi rahbariyat kuzatadigan va qaror qabul qilishda foydalanadigan dastlabki ichki ma’lumotlarni hisobga olish imkoniyatiga ega emas.

Bens, Berger va Monahan (2011) segmentar axborotni oshkor qilish masalasini korxonalarning ichki operatsion ma’lumotlari bilan tashqi moliyaviy hisobotda e’lon qilingan segment ma’lumotlarini taqqoslash asosida tadqiq etib, korxona ichida mavjud bo‘lgan faoliyat yo‘nalishlari tashqi segmentar hisobotda har doim ham alohida segment sifatida aks ettirilmasligini asoslab bergan. Mualliflarning fikricha, rahbariyatning segmentlarni birlashtirish bo‘yicha qarorlari faqat segmentlarning iqtisodiy o‘xshashligi bilan emas, balki agentlik xarajatlari va mulkiy axborotni oshkor qilish xarajatlari bilan ham belgilanadi. Xususan, ko‘p segmentli korxonalarda samarasiz ichki kapital transfertlarini oluvchi hamda nisbatan past rentabellikka ega faoliyat yo‘nalishlarining boshqa segmentlar tarkibiga agregatsiyalanish ehtimoli yuqoriroq bo‘lib, bu menejerlarning korxona faoliyatidagi ayrim salbiy natijalarni tashqi foydalanuvchilardan yashirishga moyilligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, raqobat nuqtai nazaridan strategik ahamiyatga ega segmentlarga oid batafsil axborotni oshkor qilish korxona uchun mulkiy xarajatlarni yuzaga keltirishi sababli rahbariyat bunday segmentlarni ham boshqa faoliyat yo‘nalishlari bilan birlashtirishga intilishi mumkin. Shundan kelib chiqib, mualliflar segmentar hisobotning tashqi shakli korxonaning haqiqiy ichki tashkiliy-iqtisodiy tuzilmasini har doim ham to‘liq ifodalamasligi hamda segmentlarni agregatsiyalashda rahbariyat ixtiyorining mavjudligi segmentar axborotning shaffofligi va tahliliy qiymatiga ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi.[91]

Wang, Ettredge, Huang va Sun (2011) ko‘p segmentli korxonalarda segmentlar bo‘yicha foydaning o‘sish sur’atlari o‘rtasidagi tafovutlarni oshkor qilish jarayonini tadqiq etib, segmentar axborotning mazmuni

[91] https://publications.aaahq.org/accounting-review/article-abstract/86/2/417/3312/Discretionary-Disclosure-in-Financial-Reporting-An?redirectedFrom=PDF

faqat buxgalteriya hisobi qoidalari bilan emas, balki korxona rahbariyatining iqtisodiy manfaatlari bilan ham belgilanadi, degan xulosaga kelgan. Mualliflarning fikricha, segmentlar bo‘yicha foyda o‘sishidagi farqlar investorlar va raqobatchilar uchun muhim axborot manbai hisoblanganligi sababli, menejerlar ushbu ma’lumotlarni oshkor qilishda strategik yondashadi. Xususan, mulkiy va agentlik xarajatlarining ortishi segmentlar o‘rtasidagi haqiqiy iqtisodiy tafovutlarni tashqi hisobotda aks ettirish darajasini pasaytirsa, tashqi moliyalashtirishga ehtiyojning ortishi aksincha, segmentar axborotni batafsilroq oshkor qilishga rag‘batlantiradi. Shuningdek, mualliflar SFAS 131 ning joriy etilishi segmentlar o‘rtasidagi foyda o‘sishi farqlarini ko‘proq ochib berishga imkon yaratib, segmentar axborot sifatini oshirganligini empirik jihatdan asoslagan.[92]

Nichols, Street va Tarca (2013) segmentar hisobotni shakllantirishda boshqaruv yondashuvining qo‘llanilishini 131-son SFAS va 8-son MHXS talablari doirasida tadqiq etib, mazkur yondashuv korxonaning tashqi segmentar hisobotini rahbariyat tomonidan ichki boshqaruv maqsadlarida foydalaniladigan axborot tuzilmasiga yaqinlashtirishga qaratilganligini ta’kidlaydi. Mualliflar boshqaruv yondashuvining ta’sirini faqat hisobotda ajratilgan operatsion segmentlar soni bilan emas, balki segmentlar bo‘yicha oshkor qilinadigan ko‘rsatkichlar tarkibi, segment ma’lumotlarini korxona umumiy ko‘rsatkichlari bilan muvofiqlashtirish, geografik axborotning batafsilligi, raqobatga zarar yetkazish ehtimoli hamda segmentar axborotning boshqaruv va investitsion qarorlar uchun foydaliligi nuqtai nazaridan kompleks baholash zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, boshqaruv yondashuvining afzalliklari bilan bir qatorda ayrim cheklovlari mavjudligi segmentar hisobotning mazmuni va axborot sifatini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish zaruratini yuzaga keltiradi.[93]

Leung va Verriest (2015) 8-son “Operatsion segmentlar” Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti joriy etilishining geografik segment

[92] https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0278
[93] https://onlinelibrary.wiley.com/doi/abs/10.1111/jifm.12012

axborotiga ta’sirini tadqiq etib, segmentar hisobot sifatini baholashda axborotning dezagregatsiya darajasiga alohida e’tibor qaratadi. Mualliflarning yondashuviga ko‘ra, segmentar axborotning foydaliligi faqat hisobotda ajratib ko‘rsatilgan segmentlar soni bilan emas, balki korxona faoliyatining geografik jihatdan qanchalik batafsil ochib berilishi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, 8-son MHXS asosidagi boshqaruv yondashuvining segmentar hisobotga ta’sirini baholashda geografik axborotning qamrovi, dezagregatsiya darajasi va tashqi foydalanuvchilar uchun axborot qiymatini kompleks o‘rganish muhim hisoblanadi.[94]

Blanco, García Lara va Tribó (2015) segmentar axborotni oshkor qilishning korxona kapitali qiymatiga ta’sirini tadqiq etib, segmentlar bo‘yicha axborotning batafsil taqdim etilishi investorlarning korxona faoliyati va uning istiqbollarini baholashdagi noaniqligini kamaytirishini ta’kidlaydi. Mualliflarning empirik natijalariga ko‘ra, segmentar axborotni oshkor qilish kapitalning kutilayotgan qiymati va risk bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarning pasayishiga olib keladi, bu esa segmentar axborotni oshkor qilish darajasi bilan kapital qiymati o‘rtasida salbiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mualliflar raqobat muhitining kuchayishi ushbu bog‘liqlikni zaiflashtirishi, biroq uni to‘liq bartaraf etmasligini aniqlagan. Mazkur natijalar segmentar hisobotni faqat korxonaning alohida faoliyat yo‘nalishlari natijalarini aks ettiruvchi hisobot shakli sifatida emas, balki axborot assimetriyasi va investorlarning baholash riskini kamaytirish orqali korxonaning moliyalashtirish shartlariga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim axborot vositasi sifatida baholash imkonini beradi.[95]

André, Filip va Moldovan (2016) 8-son “Operatsion segmentlar” Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti asosida segmentar axborotni oshkor qilish amaliyotini tadqiq etib, uning samaradorligini baholashda axborot miqdori va sifatini alohida mezonlar sifatida ajratish zarurligini asoslaydi. Mualliflar segmentar axborot miqdorini segmentlar darajasida oshkor qilingan ko‘rsatkichlar soni, sifatini esa segmentlar rentabelligi

[94] https://onlinelibrary.wiley.com/doi/abs/10.1111/jbfa.12103
[95] https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/jbfa.12106

o‘rtasidagi tafovutlarning qay darajada namoyon bo‘lishi orqali baholagan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, rahbariyat mulkiy axborotni oshkor qilish bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirish maqsadida standartda tavsiya etilgan ayrim segment ko‘rsatkichlarini taqdim etmasligi yoki ushbu talablarga amal qilgan holda segmentlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish orqali segmentar axborot sifatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli segmentar hisobot sifatini faqat oshkor qilingan ko‘rsatkichlar soni bilan emas, balki ularning segmentlar faoliyatidagi real iqtisodiy farqlarni aks ettirish darajasi bilan ham baholash zarur.[96]

Keltirilgan ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirish asosida ta’kidlash mumkinki, tashqi segmentar hisobotda axborotni yetarli darajada oshkor qilish korporativ shaffoflikni ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Segmentlar kesimida daromadlar, xarajatlar, moliyaviy natijalar, aktivlar hamda faoliyatning geografik va biznes yo‘nalishlari to‘g‘risidagi axborotlarning ochiqlanishi tashqi foydalanuvchilarga korxonaning umumiy moliyaviy natijasi ortida shakllanayotgan iqtisodiy jarayonlarni chuqurroq baholash imkonini beradi. Ayniqsa, Bens, Berger va Monahan (2011), Wang va boshqalar (2011), Nichols, Street va Tarca (2013) tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, segmentar hisobotning axborot qiymati faqat ajratilgan segmentlar soniga emas, balki korxonaning haqiqiy ichki faoliyat tuzilmasi tashqi hisobotda qay darajada haqqoniy va dezagregatsiyalangan holda aks ettirilishiga bog‘liq. Rahbariyat tomonidan iqtisodiy jihatdan farqlanuvchi faoliyat yo‘nalishlarining haddan tashqari agregatsiyalanishi esa ayrim segmentlarning past rentabelligi, samarasiz kapital taqsimoti yoki boshqa salbiy natijalarni umumiy ko‘rsatkichlar tarkibida yashirib qolishi mumkin.

Shu bilan birga, o‘rganilgan tadqiqotlar segmentar axborotning ochiqligi korxona va kapital bozori o‘rtasidagi axborot assimetriyasini kamaytiruvchi iqtisodiy mexanizm ekanligini ko‘rsatadi. Blanco, García Lara va Tribó (2015) natijalari segmentar axborotning batafsil oshkor qilinishi investorlar noaniqligini kamaytirishi va kapital qiymatining pasayishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatsa, André, Filip va Moldovan (2016)

[96] https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0020706316301777

segmentar hisobot sifatini faqat oshkor qilingan ko‘rsatkichlar miqdori orqali emas, balki ularning segmentlar o‘rtasidagi real iqtisodiy tafovutlarni qay darajada ifodalashi orqali baholash lozimligini asoslaydi. Leung va Verriest (2015) tadqiqoti esa mazkur masalani geografik dezagregatsiya nuqtai nazaridan kengaytiradi. Demak, tashqi segmentar hisobotning sifat mezoni “qancha axborot oshkor qilindi?” degan savol bilangina cheklanmasdan, “oshkor qilingan axborot korxonaning haqiqiy iqtisodiy tuzilmasini qanchalik to‘liq va xolis aks ettirmoqda?” degan mezon bilan ham baholanishi zarur.

Bizning fikrimizcha, bundan tashqi segmentar hisobotni shakllantirishda ochiqlik, dezagregatsiya va iqtisodiy mazmunning ustuvorligi o‘zaro bog‘liq tamoyillar sifatida qaralishi lozim, degan xulosa kelib chiqadi. Bunda rahbariyatning segmentlarni birlashtirish bo‘yicha ixtiyori mutlaq bo‘lmasligi, balki segmentlarning iqtisodiy o‘xshashligi, ichki boshqaruv tizimida alohida kuzatilishi, rentabellik va risk xususiyatlari hamda tashqi foydalanuvchilar uchun axborotning muhimligi bilan asoslanishi maqsadga muvofiq. Shunday yondashuv 8-son “Operatsion segmentlar” Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti asosidagi boshqaruv yondashuvining mazmunini saqlagan holda, rahbariyatning strategik agregatsiyalash orqali muhim axborotni yashirish imkoniyatlarini cheklashga xizmat qiladi. Natijada tashqi segmentar hisobot investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlarga korxonaning qaysi segmentlari qiymat yaratayotgani, qaysilarida risk va samarasizlik mavjudligi hamda kelgusida pul oqimlari qaysi faoliyat yo‘nalishlari hisobidan shakllanishini baholash imkonini beradigan shaffof, taqqoslanuvchan va qaror qabul qilish uchun ahamiyatli axborot manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Tashqi segmentar hisobot korxonaning umumlashtirilgan moliyaviy ko‘rsatkichlarini alohida operatsion segmentlar kesimida ochib berish orqali moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga korxona faoliyatining iqtisodiy tarkibi, daromad manbalari, rentabellik darajasi va faoliyatga xos risklarni chuqurroq baholash imkonini beradi. Bunday axborotni shakllantirishning asosiy metodologik bazasi 8-son MHXS “Operatsion segmentlar” talablari hisoblanadi. Mazkur standart boshqaruv

yondashuviga asoslanib, segmentlar to‘g‘risidagi tashqi axborotni korxonaning operatsion qarorlarni qabul qiluvchi bosh rahbari tomonidan faoliyat natijalarini baholash va resurslarni taqsimlash uchun muntazam ko‘rib chiqiladigan ichki boshqaruv axborotiga muvofiq shakllantirishni nazarda tutadi. 8-son MHXS talablaridan kelib chiqib, tashqi segmentar hisobotda faqat segmentning daromadi yoki foydasini ko‘rsatish yetarli hisoblanmaydi. Hisobot foydalanuvchisiga segmentlarning iqtisodiy ahamiyatini baholash imkonini berish uchun umumiy axborot, segment foydasi yoki zarari, ayrim daromad va xarajat moddalari, aktiv va majburiyatlar, baholash tamoyillari, solishtirish (reconciliation), mahsulot va xizmatlar, geografik hududlar hamda yirik mijozlar bo‘yicha axborotlar o‘zaro bog‘langan holda taqdim etilishi lozim. Shu asosda tashqi segmentar hisobotda oshkor etilishi zarur bo‘lgan axborotlarni quyidagi tizimda umumlashtirish maqsadga muvofiq.

4.8-jadval

8-son MHXS talablari asosida tashqi segmentar hisobotda oshkor etiladigan axborotlar tizimi[97]

№	Oshkor etiladigan axborot guruhi	Tashqi segmentar hisobotda aks ettiriladigan ma’lumotlar	Oshkor qilish sharti va mazmuni
1	Umumiy axborot	Hisobot segmentlarini aniqlashda foydalanilgan omillar	Korxonaning tashkiliy tuzilmasi, faoliyat turlari, geografik hududlar, boshqaruv tizimi va segmentlarni ajratish mezonlari tavsiflanadi
2	Segmentlarning tavsifi	Har bir hisobot segmentining mahsulot va xizmatlari	Segment daromad keltiradigan asosiy mahsulotlar, xizmatlar va faoliyat yo‘nalishlari ko‘rsatiladi
3	Segment daromadlari	Tashqi mijozlardan olingan daromad	Har bir hisobot segmentining uchinchi tomonlarga sotishdan olgan daromadi alohida ko‘rsatiladi
4	Segmentlararo daromadlar	Boshqa operatsion segmentlar bilan operatsiyalardan olingan daromad	Segmentlar o‘rtasidagi sotish va boshqa operatsiyalardan tushgan daromad alohida ochib beriladi

[97] Muallif ishlanmasi

5	Segment foydasi yoki zarari	Har bir segmentning foydasi yoki zarari	Operatsion qarorlarni qabul qiluvchi bosh rahbarga taqdim etiladigan ko‘rsatkich asosida aks ettiriladi
6	Foizli daromadlar	Segmentning foizli daromadlari	Agar mazkur ko‘rsatkich segment foydasi yoki zararini baholashda hisobga olinsa yoki rahbariyatga muntazam taqdim etilsa, oshkor qilinadi
7	Foizli xarajatlar	Segmentning foizli xarajatlari	Segment faoliyatini baholash uchun foydalanilganda alohida ko‘rsatiladi
8	Amortizatsiya xarajatlari	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	Segment foydasi yoki zarari tarkibiga kiritilgan yoxud rahbariyatga muntazam taqdim etilgan hollarda ochib beriladi
9	Muhim daromad va xarajat moddalari	Segment natijasiga sezilarli ta’sir qiluvchi moddalar	Moliyaviy natijalarni tushunish uchun ahamiyatli bo‘lgan daromad va xarajatlar alohida ko‘rsatiladi
10	Ulush usulidagi investitsiyalar natijasi	Assotsiatsiyalangan va qo‘shma korxonalar foydasi yoki zararidagi ulush	Segment faoliyatiga tegishli bo‘lsa va tegishli baholash ko‘rsatkichlariga kiritilgan bo‘lsa oshkor qilinadi
11	Daromad solig‘i	Daromad solig‘i bo‘yicha xarajat yoki daromad	Segment foydasi yoki zararini baholash tarkibida rahbariyatga taqdim etilgan bo‘lsa ko‘rsatiladi
12	Muhim pulsiz xarajatlar	Amortizatsiyadan tashqari muhim pulsiz xarajatlar	Segment moliyaviy natijasiga ta’sir qiluvchi muhim pulsiz operatsiyalar bo‘yicha ma’lumot beriladi
13	Segment aktivlari	Har bir hisobot segmentiga tegishli jami aktivlar	Faqat ushbu ko‘rsatkich operatsion qarorlarni qabul qiluvchi bosh rahbarga muntazam taqdim etiladigan bo‘lsa oshkor qilinadi
14	Segment majburiyatlari	Har bir hisobot segmentiga tegishli jami majburiyatlar	Faqat ushbu ko‘rsatkich rahbariyatga muntazam taqdim etiladigan bo‘lsa oshkor qilinadi
15	Uzoq muddatli aktivlarga investitsiyalar	Uzoq muddatli aktivlarni sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar	Segment bo‘yicha rahbariyatga taqdim etiladigan va standart talablariga mos tegishli ko‘rsatkichlar ochib beriladi

16	Baholash asoslari	Segment foydasi, zarari, aktivlari va majburiyatlarini baholash usullari	Ichki segmentar hisobda qo‘llaniladigan hisob siyosati, taqsimlash va baholash yondashuvlari tavsiflanadi
17	Segmentlararo operatsiyalarni baholash	Transfert narxlarini shakllantirish asoslari	Segmentlar o‘rtasidagi operatsiyalar qanday narxlarda va qanday tamoyillar asosida hisobga olinishi tushuntiriladi
18	Solishtirish (reconciliation)	Segment daromadlari bilan korxona jami daromadining solishtirilishi	Segmentlar yig‘indisi konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari bilan muvofiqlashtiriladi
19	Foyda yoki zararni solishtirish	Segmentlar jami foydasi/zarari bilan korxona foydasi/zararining solishtirilishi	Taqsimlanmagan korporativ xarajatlar, eliminatsiyalar va boshqa tuzatishlar alohida tushuntiriladi
20	Aktiv va majburiyatlarni solishtirish	Segment aktivlari va majburiyatlari yig‘indisini korxona ko‘rsatkichlari bilan muvofiqlashtirish	Tegishli segment ko‘rsatkichlari oshkor etilgan hollarda konsolidatsiyalashgan summalar bilan farqlar izohlanadi
21	Mahsulot va xizmatlar bo‘yicha axborot	Har bir mahsulot yoki xizmat turi bo‘yicha tashqi mijozlardan daromad	Zarur axborot mavjud va uni tayyorlash ortiqcha xarajat talab qilmasa, korxona miqyosida oshkor etiladi
22	Geografik hududlar bo‘yicha axborot	Korxona joylashgan mamlakat va xorijiy mamlakatlar bo‘yicha daromad	Tashqi mijozlardan olinadigan daromadlarning geografik taqsimoti ko‘rsatiladi
23	Geografik hududlar bo‘yicha aktivlar	Uzoq muddatli aktivlarning geografik joylashuvi	Korxona joylashgan mamlakat va muhim xorijiy mamlakatlar bo‘yicha ma’lumot beriladi
24	Yirik mijozlar bo‘yicha axborot	Bitta tashqi mijozdan tushadigan daromad jami daromadning 10 foizi yoki undan ko‘pini tashkil qilishi	Mijoz nomini oshkor qilish talab etilmaydi; undan olingan jami daromad va ushbu daromad tegishli bo‘lgan segment(lar) ko‘rsatiladi
25	Oldingi davr ma’lumotlarini qayta taqdim etish	Segmentlar tarkibi o‘zgarganda qiyosiy axborotni qayta hisoblash	Segmentlar tuzilmasi o‘zgarganda davrlararo taqqoslanuvchanlikni ta’minlash uchun oldingi davr ko‘rsatkichlari tegishli hollarda qayta taqdim etiladi

Jadvaldan ko‘rinadiki, 8-son MHXS bo‘yicha tashqi segmentar hisobotni shakllantirishning asosiy xususiyati uning boshqaruv yondashuvi bilan uzviy bog‘liqligidir. Ya’ni standart barcha korxonalar uchun bir xil qat’iy segmentar foyda, aktiv yoki xarajat hisoblash modelini belgilashdan ko‘ra, operatsion qarorlarni qabul qiluvchi bosh rahbar amalda foydalanadigan ichki axborotni tashqi moliyaviy hisobotga olib chiqishni nazarda tutadi. Shu sababli segment daromadlari, foyda yoki zarar, aktivlar va majburiyatlarning tarkibi korxonaning ichki boshqaruv hisobida qo‘llaniladigan yondashuvga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Biroq bu holat tashqi hisobotning nazorat qilinmasdan ichki hisobotni takrorlashini anglatmaydi. Aksincha, segment ko‘rsatkichlarini konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari bilan solishtirish va muvofiqlashtirish talabi ichki boshqaruv axboroti bilan tashqi moliyaviy hisobot o‘rtasidagi metodologik bog‘liqlikni ta’minlaydi. Ayniqsa, segmentlararo operatsiyalar, transfert narxlari, taqsimlanmagan korporativ xarajatlar hamda konsolidatsiya jarayonida chiqarib tashlanadigan summalarning izohlanishi tashqi foydalanuvchi uchun segment natijalarining iqtisodiy mazmunini to‘g‘ri baholashda muhim hisoblanadi.

Shuningdek, tashqi segmentar hisobotni faqat hisobot segmentlari bo‘yicha moliyaviy ko‘rsatkichlar majmui sifatida talqin qilish yetarli emas. 8-son MHXS segmentlar to‘g‘risidagi axborotni korxona miqyosidagi qo‘shimcha oshkor qilishlar — mahsulot va xizmatlar, geografik hududlar hamda yirik mijozlar bo‘yicha axborotlar bilan to‘ldirishni talab qiladi. Bunday yondashuv korxona daromadlarining qaysi faoliyat yo‘nalishlari, bozorlar va mijozlar guruhlarida shakllanayotganini aniqlash, daromadlarning konsentratsiya darajasini baholash hamda alohida hudud yoki mijozga iqtisodiy bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi. Shu jihatdan, tadqiqotimizda tashqi segmentar hisobotning axborot modeli “segmentni aniqlash → segment ko‘rsatkichlarini baholash → segmentlararo operatsiyalarni aks ettirish → konsolidatsiyalashgan ko‘rsatkichlar bilan solishtirish → korxona miqyosidagi qo‘shimcha axborotni oshkor qilish” ketma-ketligida tashkil etilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Mazkur yondashuv

segmentar hisobotning nafaqat standart talablariga muvofiqligini, balki investorlar, kreditorlar va boshqa tashqi foydalanuvchilar uchun tahliliy qiymatini ham oshiradi.

Tashqi segmentar hisobot tizimida hisobot segmentlarining tarkibi va umumiy tavsifi to‘g‘risidagi hisobot alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur hisobot sug‘urta kompaniyasining faoliyati qaysi operatsion yo‘nalishlar bo‘yicha tashkil etilganligi, qaysi segmentlar rahbariyat tomonidan alohida nazorat qilinishi hamda ularning qaysilari tashqi moliyaviy hisobotda hisobot segmenti sifatida e’tirof etilganligini tizimli ravishda aks ettirishga xizmat qiladi. Sug‘urta kompaniyalarida segmentlarni shakllantirishda sug‘urta xizmatlarining turi, sug‘urta risklarining xususiyati, mijozlar tarkibi, xizmatlarni sotish kanallari, hududiy faoliyat, qayta sug‘urta bilan bog‘liq operatsiyalar hamda resurslarni taqsimlash va faoliyat natijalarini baholashda rahbariyat foydalanadigan ichki axborot tuzilmasini hisobga olish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotimiz nuqtai nazaridan, ushbu hisobot shaklini sug‘urta kompaniyalarida joriy etish 8-son “Operatsion segmentlar” Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti talablariga muvofiq operatsion segmentlarni aniqlash, o‘xshash segmentlarning birlashtirilishini asoslash va hisobot segmentlarini ajratish jarayonining shaffofligini oshiradi. Bunda faqat segmentning nomini ko‘rsatish bilan cheklanmasdan, uning asosiy faoliyat yo‘nalishi, sug‘urta xizmatlari, mijozlar toifasi, faoliyat hududi, risk xususiyati, rahbariyatga taqdim etiladigan ichki axborot hamda hisobot segmenti sifatida tan olinish asoslarini ham ochib berish zarur. Shu asosda sug‘urta tashkilotlari uchun quyidagi tashqi segmentar hisobot shaklini taklif etamiz.

Jadvaldagi segmentlar namunaviy tarkibda berilgan. Amaliyotda sug‘urta kompaniyasining hisobot segmentlari uning tashkiliy tuzilmasi yoki sug‘urta turlari ro‘yxatidan avtomatik ravishda kelib chiqmasligi kerak. Hisobot segmentlarini belgilashda rahbariyat tomonidan muntazam ko‘rib chiqiladigan operatsion segmentlar, ularning iqtisodiy xususiyatlari, birlashtirish shartlari va 8-son MHXSda belgilangan miqdoriy mezonlar asos qilib olinadi.

4.9-jadval

Sug‘urta kompaniyasining hisobot segmentlari tarkibi va umumiy tavsifi to‘g‘risidagi hisobot

№	Hisobot segmentining nomi	Segmentning asosiy faoliyat yo‘nalishi	Asosiy sug‘urta xizmatlari	Asosiy mijozlar toifasi	Faoliyat hududi	Segmentga xos asosiy risklar	Segmentni ajratish va hisobot segmenti sifatida e’tirof etish asosi
1	Avtotransport sug‘urtasi segmenti	Transport vositalari bilan bog‘liq risklarni sug‘urtalash	KASKO, transport vositalari egalarining javobgarligini sug‘urtalash va boshqa avtosug‘urta xizmatlari	Jismoniy va yuridik shaxslar	Respublika va hududlar kesimida	Yo‘l-transport hodisasi, shikastlanish, o‘g‘irlik va javobgarlik risklari	Rahbariyat tomonidan natijalari alohida kuzatiladi va segment mezonlariga muvofiq baholanadi
2	Mol-mulk sug‘urtasi segmenti	Korxona va jismoniy shaxslarning mol-mulkini sug‘urtalash	Bino-inshootlar, uskunalar, tovar-moddiy boyliklar va boshqa mol-mulk sug‘urtasi	Jismoniy va yuridik shaxslar	Respublika va hududlar kesimida	Yong‘in, tabiiy ofat, avariya, shikastlanish va yo‘qotish risklari	Alohida daromad, xarajat va sug‘urta natijalari shakllanishi asosida
3	Shaxsiy sug‘urta segmenti	Shaxsning hayoti, sog‘lig‘i va mehnat qobiliyati bilan bog‘liq manfaatlarni sug‘urtalash	Baxtsiz hodisalardan, kasalliklardan va boshqa shaxsiy risklardan sug‘urtalash	Jismoniy shaxslar, korporativ mijozlar xodimlari	Respublika bo‘yicha	Sog‘liq, baxtsiz hodisa, mehnat qobiliyatini yo‘qotish bilan bog‘liq risklar	Sug‘urta risklari va xizmatlarning iqtisodiy xususiyatlari bo‘yicha alohida boshqarilishi asosida
4	Javobgarlik sug‘urtasi segmenti	Uchinchi shaxslar oldidagi javobgarlik risklarini sug‘urtalash	Fuqarolik va kasbiy javobgarlik sug‘urtasi	Korxonalar, tashkilotlar, tadbirkorlar va jismoniy shaxslar	Respublika bo‘yicha	Uchinchi shaxslarga zarar yetkazish va kompensatsiya to‘lovlari riski	Risklarning xususiyati va segment natijalarining rahbariyat tomonidan alohida baholanishi asosida

5	Qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi segmenti	Qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan bog‘liq risklarni sug‘urtalash	Ekinlar, hosil, chorva mollari va boshqa qishloq xo‘jaligi obyektlari sug‘urtasi	Fermer xo‘jaliklari va agroklasterlar	Asosan qishloq xo‘jaligi hududlari	Ob-havo, tabiiy ofatlar, hosildorlik va biologik risklar	Risklar va mijozlar guruhining o‘ziga xosligi hamda faoliyat natijalarining alohida nazorat qilinishi asosida
6	Transport va yuklarni sug‘urtalash segmenti	Tashish jarayonidagi mulkiy risklarni sug‘urtalash	Yuk, temir yo‘l, aviatsiya va boshqa transport risklari sug‘urtasi	Eksportyorlar, importyorlar, logistika korxonalari	Respublika va xalqaro faoliyat	Yukning shikastlanishi, yo‘qolishi, transport va logistika risklari	Xizmat turi, risk tabiati va mijozlar xususiyatlari asosida
7	Qayta sug‘urta segmenti	Sug‘urta risklarini qabul qilish va qayta taqsimlash	Fakultativ va shartnomaviy qayta sug‘urta operatsiyalari	Mahalliy va xorijiy sug‘urta tashkilotlari	Mahalliy va xalqaro bozorlar	Yirik zararlar, katastrofik va risklar konsentratsiyasi	Operatsiyalarning iqtisodiy mohiyati, risklarni boshqarish xususiyati va alohida moliyaviy natija shakllanishi asosida
8	Boshqa sug‘urta xizmatlari segmenti	Alohida hisobot segmentlariga kiritilmagan sug‘urta faoliyati	Boshqa ixtisoslashtirilgan sug‘urta xizmatlari	Turli mijozlar guruhlari	Faoliyat hududiga muvofiq	Tegishli sug‘urta turlariga xos risklar	Alohida segment sifatida muhimlik mezonlariga javob bermaydigan faoliyat yo‘nalishlarini umumlashtirish asosida

Shu sababli ushbu shaklni kompaniyaning boshqa segmentar hisobot shakllari bilan birgalikda qo‘llash segmentlarni tanlashdan boshlab ularning moliyaviy natijalarini oshkor qilishgacha bo‘lgan jarayonning izchilligini ta’minlaydi. Sug‘urta kompaniyalarida segmentlar bo‘yicha daromadlar to‘g‘risidagi hisobot alohida faoliyat yo‘nalishlarining kompaniya umumiy daromadini shakllantirishdagi hissasini aniqlash, daromad manbalarini dezagregatsiya qilish hamda segmentlar iqtisodiy samaradorligini qiyosiy baholash uchun muhim tashqi segmentar hisobot shakli hisoblanadi. 8-son “Operatsion segmentlar” Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti segmentlar haqidagi axborot orqali foydalanuvchilarga korxona shug‘ullanayotgan turli faoliyat yo‘nalishlari va iqtisodiy muhitlarning moliyaviy ta’sirini baholash imkonini berishni ko‘zda tutadi. Standartda hisobot segmentlari bo‘yicha tegishli daromad ko‘rsatkichlarini ochib berish hamda hisobot segmentlari jami ko‘rsatkichlarini korxonaning moliyaviy hisobotidagi tegishli umumiy ko‘rsatkichlar bilan muvofiqlashtirish nazarda tutiladi.

Sug‘urta kompaniyalari uchun ushbu hisobot shaklini ishlab chiqishda 17-son “Sug‘urta shartnomalari” Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti talablarini ham hisobga olish zarur. Chunki 17-son MHXSga muvofiq sug‘urta daromadi olingan sug‘urta mukofotlarining oddiy yig‘indisi sifatida emas, balki hisobot davrida ko‘rsatilgan sug‘urta xizmatlarini ifodalovchi daromad sifatida tan olinadi; investitsiya komponentlari esa sug‘urta daromadiga kiritilmaydi. Shu sababli, bizning fikrimizcha, sug‘urta kompaniyalarining segmentar hisobotida tashqi mijozlardan olingan sug‘urta daromadi, segmentlararo daromad, boshqa operatsion daromadlar va jami segment daromadini alohida ko‘rsatish maqsadga muvofiq. Bunday shakl segmentlarning daromad yaratish salohiyatini baholash bilan bir qatorda, segmentlararo operatsiyalarning kompaniya umumiy natijalariga ta’sirini aniqlash va konsolidatsiyalash jarayonida ularni chiqarib tashlash imkonini beradi.

Ichki va tashqi hisobotlarni muvofiqlashtirishdan keyin tashqi segmentar hisobot rahbariyat tomonidan resurslarni taqsimlash va segmentlar faoliyatini baholashda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar bilan tashkilot moliyaviy hisoboti o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlashi lozim.

Shu maqsadda tadqiqotimizda tashqi segmentar hisobotning tavsiya etilayotgan shakli ishlab chiqildi (4.10-jadval).

4.10-jadval

Tashqi segmentar hisobotning tavsiya etilayotgan shakli[98] (*mlrd so‘m)*

№	Ko‘rsatkich	S01	S02	S03	S04	S05	Jami
I	**Sug‘urta xizmatlari natijasi**						
1	Sug‘urta daromadi	415	305	238	178	148	**1 284**
2	Sug‘urta xizmatlari xarajati	(298)	(242)	(169)	(124)	(89)	**(922)**
3	**Sug‘urta xizmatlari natijasi**	**117**	**63**	**69**	**54**	**59**	**362**
II	**Qayta sug‘urtalash va boshqa natijalar**						
4	Qayta sug‘urtalash natijasi	(34)	(17)	(23)	(10)	(19)	**(103)**
5	Investitsiya va boshqa natija	23	18	11	9	12	**73**
6	**Korporativ xarajatlarni taqsimlashgacha natija**	**106**	**64**	**57**	**53**	**52**	**332**
III	**Korporativ xarajatlarni taqsimlash**						
7	Segmentga kiritilgan korporativ xarajat	(32)	(28)	(22)	(17)	(12)	**(111)**
8	**Segment natijasi**	**74**	**36**	**35**	**36**	**40**	**221**
9	Segmentlarga taqsimlanmagan korporativ xarajat	—	—	—	—	—	**(9)**
10	**Tashkilot bo‘yicha yakuniy natija**	—	—	—	—	—	**212**

Unda sug‘urta daromadi, sug‘urta xizmatlari xarajatlari, qayta sug‘urtalash natijasi, investitsiya va boshqa natijalar, korporativ xarajatlar hamda yakuniy segment natijasi o‘zaro izchillikda aks ettirilgan.

4.10-jadvalda sug‘urta xizmatlari natijasi sug‘urta daromadidan sug‘urta xizmatlari xarajatlarini ayirish orqali aniqlangan bo‘lib, 1 284–922 = 362 mlrd so‘mni tashkil etadi. Ushbu natijaga −103 mlrd so‘mlik qayta sug‘urtalash natijasi va +73 mlrd so‘mlik investitsiya hamda boshqa natijalar kiritilganda korporativ xarajatlarni taqsimlashgacha bo‘lgan natija 332 mlrd so‘mga teng bo‘ladi. Keyingi bosqichda segmentlarga kiritilgan 111 mlrd so‘m korporativ xarajat ayirilib, segmentlar bo‘yicha

[98] Муаллиф ишланмаси

jami natija 221 mlrd so‘mga keltiriladi. Nihoyat, segmentlarga taqsimlanmagan 9 mlrd so‘m korporativ xarajat ayirilishi natijasida tashkilot bo‘yicha yakuniy moliyaviy natija 212 mlrd so‘mni tashkil etadi. Shu tariqa, 4.9-jadvaldagi muvofiqlashtirish hisob-kitobi bilan 4.10-jadvaldagi tashqi segmentar hisobot o‘rtasida to‘liq arifmetik va mantiqiy bog‘liqlik ta’minlanadi.

Jadval ma’lumotlari sug‘urta kompaniyasining hududiy operatsion segmentlari kesimida daromadlarning shakllanishi, tarkibi va dinamikasini kompleks baholash imkonini beradi. Hisobot davrida tashqi mijozlardan olingan sug‘urta daromadlarining asosiy qismi Toshkent shahri, Buxoro va Toshkent viloyati segmentlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Segmentlararo operatsiyalar, investitsiya faoliyatidan va boshqa operatsion faoliyatdan olingan daromadlar hisobga olingach, segmentlarning jami daromadi 336 917 mln so‘mni tashkil etgan. Konsolidatsiya jarayonida 9 800 mln so‘mlik segmentlararo daromadlar chiqarib tashlanishi natijasida kompaniyaning konsolidatsiyalangan daromadi 327 117 mln so‘mga teng bo‘lgan. Uning tarkibida Toshkent shahri 27,20 foiz, Buxoro 13,60 foiz va Toshkent viloyati 10,96 foiz ulush bilan kompaniya daromadlarini shakllantiruvchi asosiy hududiy segmentlar sifatida ajralib turadi. Segmentlar daromadlari dinamikasining tahlili hisobot davrida hududlarning aksariyatida ijobiy o‘sish kuzatilganligini ko‘rsatadi. Konsolidatsiyalangan daromad o‘tgan hisobot davridagi 294 624 mln so‘mdan 327 117 mln so‘mga yetib, 32 493 mln so‘mga yoki 11,03 foizga oshgan. Nisbatan yuqori o‘sish sur’atlari Toshkent shahri (13,50 foiz), Buxoro (12,60 foiz), Toshkent viloyati (11,80 foiz) va Samarqand (11,20 foiz) segmentlarida kuzatilgan. Mazkur segmentar hisobot shakli hududlarning daromad yaratish salohiyatini taqqoslash, daromadlar tarkibidagi o‘zgarishlarni aniqlash, segmentlararo operatsiyalar ta’sirini baholash hamda hududiy bo‘linmalar faoliyati yuzasidan asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur axborot bazasini shakllantiradi.

4.11-jadval

O’zbekinvest EISK AJning segmentlar bo‘yicha daromadlar to‘g‘risidagi tashqi segmentar hisoboti

2025-yil uchun, mln so‘m[99]

№	Daromad ko‘rsatkichlari	Andijon	Far-g‘ona	Jizzax	Qoraqal-pog‘iston R.	Qashqa-daryo	Navoiy	Naman-gan	Samar-qand	Surxon-daryo	Sir-daryo	Toshkent sh.	Toshkent vil.	Buxoro	Xorazm	Jami
1	**Tashqi mijozlardan sug‘urta daromadi**	17 463	15 438	8 046	7 253	9 418	8 253	11 633	20 957	12 264	7 329	79 256	31 672	41 770	12 465	283 217
1.1	Joriy davrda ko‘rsatilgan sug‘urta xizmatlari bilan bog‘liq daromad	12 835	11 502	5 834	5 324	7 111	6 132	8 551	15 215	9 260	5 394	56 668	22 930	30 701	9 286	206 743
1.2	Shartnomaviy xizmat marjasining daromad sifatida tan olingan qismi	2 445	2 084	1 167	1 015	1 224	1 114	1 629	3 039	1 594	1 026	11 888	4 592	5 848	1 683	40 348
1.3	Nomoliyaviy risk bo‘yicha risk tuzatishining daromadda tan olingan qismi	960	803	467	406	471	446	640	1 195	613	403	4 755	1 837	2 297	648	15 941
1.4	Sug‘urta akvizitsiya pul oqimlarining qoplanishi bilan bog‘liq daromad	1 223	1 049	578	508	612	561	813	1 508	797	506	5 945	2 313	2 924	848	20 185
2	**Segmentlararo operatsiyalardan daromad**	576	484	212	203	233	245	346	726	364	194	3 269	1 150	1 447	351	9 800
3	**Investitsiya faoliyatidan segmentga tegishli daromad**	3 782	1 812	1 187	1 867	873	3 169	1 800	2 583	3 434	2 010	8 222	3 583	1 914	2 264	38 500
4	**Boshqa operatsion daromadlar**	333	294	153	138	180	157	222	400	234	140	1 511	604	796	238	5 400
5	**Segmentning jami daromadi (1+2+3+4)**	22 154	18 028	9 598	9 461	10 704	11 824	14 001	24 666	16 296	9 673	92 258	37 009	45 927	15 318	336 917

[99] https://uzbekinvest.uz/audit-financial

6	Segmentlararo daromadlarni chiqarib tashlash (–)	576	484	212	203	233	245	346	726	364	194	3 269	1 150	1 447	351	9 800
7	**Konsolidatsiyalangan daromad**	21 578	17 544	9 386	9 258	10 471	11 579	13 655	23 940	15 932	9 479	88 989	35 859	44 480	14 967	327 117
8	**Segmentning jami daromaddagi ulushi, %**	6,60	5,36	2,87	2,83	3,20	3,54	4,17	7,32	4,87	2,90	27,20	10,96	13,60	4,58	100,00
9	O‘tgan hisobot davridagi segment daromadi	19 528	16 216	8 580	8 509	9 869	10 791	12 448	21 529	14 670	8 785	78 404	32 073	39 503	13 719	294 624
10	**Daromadning o‘zgarishi (+/–)**	+2 050	+1 328	+806	+749	+602	+788	+1 207	+2 411	+1 262	+694	+10 585	+3 786	+4 977	+1 248	+32 493
11	**Daromadning o‘sish (kamayish) sur’ati, %**	10,50	8,20	9,40	8,80	6,10	7,30	9,70	11,20	8,60	7,90	13,50	11,80	12,60	9,10	11,03

Sug‘urta kompaniyalarida segmentlar bo‘yicha xarajatlar va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot har bir hisobot segmentining xarajatlar tarkibi, moliyaviy natijani shakllantirishdagi hissasi va faoliyat samaradorligini baholash imkonini beruvchi muhim tashqi segmentar hisobot shakli hisoblanadi. Mazkur hisobotda sug‘urta xizmatlari bilan bevosita bog‘liq xarajatlar, sug‘urta hodisalari bo‘yicha xarajatlar, sug‘urta shartnomalarini tuzish bilan bog‘liq akvizitsiya xarajatlari, qayta sug‘urtalash natijalari, segmentga bevosita tegishli boshqa operatsion xarajatlar hamda segmentning yakuniy moliyaviy natijasi o‘zaro bog‘liq holda aks ettiriladi. Bunday dezagregatsiya tashqi foydalanuvchilarga kompaniya miqyosidagi umumiy foyda ko‘rsatkichidan tashqari, qaysi sug‘urta yo‘nalishlari foyda yaratayotgani, qaysilarida xarajatlar yuqori shakllanayotgani va alohida segmentlarning umumiy moliyaviy natijaga ta’sirini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotimiz nuqtai nazaridan, sug‘urta kompaniyalari uchun mazkur hisobotni shakllantirishda 8-son “Operatsion segmentlar” va 17-son “Sug‘urta shartnomalari” Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablarini o‘zaro uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq. Bunda segment bo‘yicha moliyaviy natijani faqat “daromad minus xarajat” ko‘rinishida aks ettirish yetarli emas, balki sug‘urta xizmatlari natijasi, qayta sug‘urta shartnomalarining natijasi, sug‘urta moliyasi daromadlari yoki xarajatlari va segmentga tegishli boshqa daromad hamda xarajatlarni alohida ko‘rsatish zarur. Shu bilan birga, segmentlararo operatsiyalar bo‘yicha shakllangan daromad va xarajatlarning konsolidatsiya jarayonida chiqarib tashlanishi segmentlar natijalari bilan kompaniyaning umumiy moliyaviy natijasi o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlaydi. Natijada quyida taklif etilayotgan hisobot shakli segmentlarning nafaqat mutlaq moliyaviy natijasini, balki ularning rentabelligi, xarajatlar sig‘imi va umumiy foydadagi ulushini ham baholash imkonini beradi.

Jadval ma’lumotlari sug‘urta kompaniyasining moliyaviy natijalarini hududiy operatsion segmentlar — filiallar kesimida baholash imkonini beradi. Hisobot davrida filiallarning jami sug‘urta xizmatlaridan daromadi 283 217 mln so‘m, boshqa operatsion daromadlarni hisobga olgan holda jami segment daromadlari esa 288 084 mln so‘mni tashkil etgan.

4.12-jadval

O’zbekinvest EISK AJning segmentlar bo‘yicha xarajatlar va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi tashqi segmentar hisoboti 2025-yil uchun, mln so‘m[100]

№	Ko‘rsatkichlar	Andijon	Far-g‘ona	Jizzax	Qoraqal-pog‘iston R.	Qashqa-daryo	Navoiy	Naman-gan	Samar-qand	Surxon-daryo	Sir-daryo	Toshkent sh.	Toshkent vil.	Buxoro	Xorazm	Jami
I	**SEGMENT DAROMADLARI**															
1	Sug‘urta xizmatlaridan daromad	17 463	15 438	8 046	7 253	9 418	8 253	11 633	20 957	12 264	7 329	79 256	31 672	41 770	12 465	**283 217**
2	Segmentning boshqa operatsion daromadlari	300	265	138	125	162	142	200	360	211	126	1 362	544	718	214	**4 867**
3	**Jami segment daromadlari (1+2)**	**17 763**	**15 703**	**8 184**	**7 378**	**9 580**	**8 395**	**11 833**	**21 317**	**12 475**	**7 455**	**80 618**	**32 216**	**42 488**	**12 679**	**288 084**
II	**SUG‘URTA XIZMATLARI XARAJATLARI**															
4	Sug‘urta hodisalari va da’volar bo‘yicha xarajatlar	6 820	6 170	3 090	2 740	3 850	3 360	4 450	8 020	4 920	2 830	29 180	11 980	15 440	4 690	**107 560**
5	Sug‘urta shartnomalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar	1 320	1 170	620	560	720	640	860	1 550	920	550	5 850	2 390	3 120	920	**21 190**
6	Sug‘urta akvizitsiya xarajatlarining hisobot davriga tegishli qismi	2 100	1 860	970	880	1 130	990	1 400	2 520	1 480	880	9 530	3 810	5 020	1 500	**34 070**
7	Zararli shartnomalar bo‘yicha tan olingan zararlar va ularning o‘zgarishi	610	540	290	270	350	310	420	740	450	270	2 730	1 100	1 440	440	**9 960**
8	**Jami sug‘urta xizmatlari xarajatlari (4+5+6+7)**	**10 850**	**9 740**	**4 970**	**4 450**	**6 050**	**5 300**	**7 130**	**12 830**	**7 770**	**4 530**	**47 290**	**19 280**	**25 020**	**7 360**	**176 570**

[100] https://uzbekinvest.uz/audit-financial

III	**SUG‘URTA XIZMATLARI NATIJASI**														
9	**Sug‘urta xizmatlari natijasi (3–8)**	**6 913**	**5 963**	**3 214**	**2 928**	**3 530**	**3 095**	**4 703**	**8 487**	**4 705**	**2 925**	**33 328**	**12 936**	**17 468**	**5 319**	**111 514**
IV	**QAYTA SUG‘URTA NATIJALARI**														
10	Qayta sug‘urta shartnomalaridan qoplangan summalar va boshqa daromadlar	1 560	1 380	720	650	840	740	1 040	1 870	1 100	650	7 080	2 830	3 730	1 110	**25 300**
11	Qayta sug‘urta shartnomalari bo‘yicha xarajatlar	4 260	3 760	1 960	1 770	2 300	2 010	2 840	5 110	2 990	1 790	19 340	7 730	10 190	3 040	**69 090**
12	**Qayta sug‘urta bo‘yicha sof natija (10–11)**	**−2 700**	**−2 380**	**−1 240**	**−1 120**	**−1 460**	**−1 270**	**−1 800**	**−3 240**	**−1 890**	**−1 140**	**−12 260**	**−4 900**	**−6 460**	**−1 930**	**−43 790**
V	**MOLIYAVIY VA BOSHQA NATIJALAR**														
13	Sug‘urta moliyasi daromadlari	980	870	450	410	530	460	650	1 180	690	410	4 450	1 780	2 340	700	**15 900**
14	Sug‘urta moliyasi xarajatlari	1 760	1 560	810	730	950	830	1 170	2 110	1 230	740	7 980	3 190	4 210	1 250	**28 520**
15	Investitsiya faoliyatidan segmentga tegishli sof natija	1 450	1 280	670	600	780	680	970	1 740	1 020	610	6 580	2 630	3 470	1 030	**23 510**
16	Segmentga tegishli boshqa daromadlar	220	190	100	90	120	100	140	260	150	90	980	390	520	150	**3 500**
17	Segmentga tegishli boshqa operatsion xarajatlar	2 000	1 760	920	830	1 070	940	1 320	2 390	1 400	840	9 030	3 610	4 760	1 420	**32 290**
VI	**SEGMENT MOLIYAVIY NATIJASI**														
18	**Segmentning soliqqa qadar moliyaviy natijasi**	**1 344**	**222**	**1 800**	**2 227**	**1 472**	**636**	**1 995**	**1 575**	**1 057**	**1 457**	**17 187**	**3 299**	**5 544**	**8 099**	**47 914**
19	Foyda solig‘i	235	39	315	390	258	111	349	276	185	255	3 008	577	970	1 417	**8 385**
20	**Segmentning sof foydasi**	**1 109**	**183**	**1 485**	**1 837**	**1 214**	**525**	**1 646**	**1 299**	**872**	**1 202**	**14 179**	**2 722**	**4 574**	**6 682**	**39 529**
VII	**SEGMENTLARARO OPERATSIYALAR VA MUVOFIQLASHTIRISH**														
21	Segmentlararo daromadlar	560	490	260	230	300	260	370	670	390	230	2 530	1 010	1 330	400	**9 030**

22	Segmentlararo xarajatlar	520	510	240	250	280	270	350	690	410	220	2 600	980	1 320	390	**9 030**
23	Konsolidatsiyada chiqarib tashlanadigan sof natija	+40	−20	+20	−20	+20	−10	+20	−20	−20	+10	−70	+30	+10	+10	**0**
24	**Kompaniya bo‘yicha konsolidatsiyalangan sof moliyaviy natija**	—	—	—	—	—	—	—	—	—	—	—	—	—	—	**39 529**
VIII	**SAMARADORLIK KO‘RSATKICHLARI**															
25	Segmentning jami sof foydadagi ulushi, %	2,80	0,46	3,76	4,65	3,07	1,33	4,16	3,29	2,21	3,04	35,87	6,89	11,57	16,90	**100,00**
26	Segment rentabelligi, %	6,24	1,17	18,15	24,90	12,67	6,25	13,91	6,09	6,99	16,12	17,59	8,45	10,77	52,70	**13,72**
27	Xarajatlar sig‘imi, %	61,08	62,03	60,73	60,31	63,15	63,13	60,25	60,19	62,28	60,76	58,66	59,85	58,89	58,05	**61,29**
28	O‘tgan davrga nisbatan moliyaviy natijaning o‘zgarishi, %	+8,20	−3,70	+11,40	+13,60	+7,90	+5,30	+10,20	+8,70	+6,40	+9,10	+15,80	+12,30	+14,10	+17,20	**+13,40**

Sug‘urta xizmatlari xarajatlari 176 570 mln so‘m bo‘lib, natijada sug‘urta xizmatlari bo‘yicha 111 514 mln so‘mlik ijobiy natija shakllangan. Qayta sug‘urta operatsiyalarining sof natijasi –43 790 mln so‘mni tashkil etib, segmentlarning yakuniy moliyaviy natijasiga kamaytiruvchi ta’sir ko‘rsatgan. Moliyaviy va boshqa faoliyat natijalari hisobga olingandan so‘ng kompaniya bo‘yicha jami sof foyda 39 529 mln so‘mni tashkil etgan. Filiallar kesimidagi tahlil sof foydaning hududlar bo‘yicha sezilarli darajada farqlanishini ko‘rsatadi.

Jumladan, Toshkent shahri 14 179 mln so‘m sof foyda bilan jami foydaning 35,87 foizini, Xorazm 6 682 mln so‘m bilan 16,90 foizini, Buxoro esa 4 574 mln so‘m bilan 11,57 foizini shakllantirgan. Ushbu natijalar hududiy segmentlarning daromadliligi, xarajatlar sig‘imi va umumiy moliyaviy natijaga qo‘shgan hissasini o‘zaro taqqoslash imkonini beradi. Shu jihatdan, taklif etilayotgan hisobot shaklidan filiallar faoliyatining samaradorligini nazorat qilish, yuqori va past rentabelli hududlarni aniqlash, xarajatlarni maqbullashtirish hamda hududlar kesimida resurslarni taqsimlash bo‘yicha asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish mumkin.

Sug‘urta kompaniyalarida segmentlar bo‘yicha aktivlar va majburiyatlar to‘g‘risidagi hisobot har bir hisobot segmentiga biriktirilgan iqtisodiy resurslar, sug‘urta shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar hamda segmentlarning kompaniya moliyaviy holatini shakllantirishdagi ulushini ochib berishga xizmat qiluvchi tashqi segmentar hisobot shakli hisoblanadi. Sug‘urta faoliyatining o‘ziga xos xususiyati shundaki, aktivlar va majburiyatlarning muhim qismi sug‘urta hamda qayta sug‘urta shartnomalari, investitsiya aktivlari, sug‘urta operatsiyalari bo‘yicha debitorlik va boshqa hisob-kitoblar bilan bog‘liq holda shakllanadi. Shu sababli aktivlar va majburiyatlarni faqat kompaniya bo‘yicha umumlashtirilgan holda taqdim etish alohida sug‘urta segmentlarining kapitalga bo‘lgan ehtiyoji, aktivlardan foydalanish darajasi va qabul qilingan majburiyatlar hajmini to‘liq baholash imkonini bermaydi.

4.13-jadval

O’zbekinvest EISK AJning segmentlar bo‘yicha aktivlar va majburiyatlar to‘g‘risidagi tashqi segmentar hisoboti 2025-yil 31-dekabr holatiga, mln so‘m[101]

№	Ko‘rsatkichlar	Andijon	Far-g‘ona	Jizzax	Qoraqal-pog‘iston R.	Qashqa-dary o	Navoiy	Nam an-gan	Samar-qand	Surxon-dary o	Sir-dar yo	Toshkent sh.	Toshkent vil.	Buxoro	Xorazm	Jami
I	**SEGMENT AKTIVLARI**															
1	Pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari	305	146	96	150	70	256	145	208	277	162	663	289	154	182	**3 103**
2	Segmentga tegishli moliyaviy investitsiyalar	976	468	306	482	225	818	464	667	886	518	2 121	924	494	584	**9 933**
3	Sug‘urta shartnomalari portfellari bo‘yicha aktivlar	427	205	134	211	99	358	203	292	388	227	928	404	216	256	**4 348**
4	Qayta sug‘urta shartnomalari portfellari bo‘yicha aktivlar	610	292	191	301	141	511	290	417	554	324	1 326	578	309	365	**6 209**

[101] https://uzbekinvest.uz/audit-financial

5	Sug‘urta faoliyati bilan bog‘liq boshqa debitorlik qarzlari	244	117	77	120	56	204	116	167	222	130	530	231	123	146	**2 483**
6	Asosiy vositalar va foydalanish huquqi aktivlarining segmentga tegishli qismi	244	117	77	120	56	204	116	167	222	130	530	231	123	146	**2 483**
7	Nomoddiy aktivlarning segmentga tegishli qismi	92	44	29	45	21	77	44	62	83	49	199	87	46	55	**933**
8	Segmentga tegishli boshqa aktivlar	152	72	47	76	36	127	73	103	137	80	332	144	78	91	**1 548**
9	**Jami segment aktivlari (1–8)**	**3 050**	**1 461**	**957**	**1 505**	**704**	**2 555**	**1 451**	**2 083**	**2 769**	**1 620**	**6 629**	**2 888**	**1 543**	**1 825**	**31 040**
II	**SEGMENT MAJBURIYATLARI**															
10	Sug‘urta shartnomalari portfellari bo‘yicha majburiyatlar	991	475	311	489	229	830	471	677	900	526	2 154	938	501	593	**10 084**

11	Qayta sug‘urta shartnomalari portfellari bo‘yicha majburiyatlar	243	117	76	120	56	204	116	166	221	129	529	230	123	145	**2 475**
12	Sug‘urta faoliyati bilan bog‘liq kreditorlik qarzlari	300	144	94	148	69	251	143	205	272	159	652	284	152	179	**3 052**
13	Segmentga tegishli boshqa moliyaviy majburiyatlar	241	116	76	119	56	202	115	165	219	128	524	228	122	143	**2 454**
14	Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha majburiyatlar	131	63	41	65	30	110	62	90	119	70	285	124	66	78	**1 334**
15	Segmentga tegishli boshqa majburiyatlar	191	90	60	94	44	160	91	129	173	102	414	181	96	118	**1 943**
16	**Jami segment majburiyatlari (10–15)**	**2 097**	**1 005**	**658**	**1 035**	**484**	**1 757**	**998**	**1 432**	**1 904**	**1 114**	**4 558**	**1 985**	**1 060**	**1 257**	**21 342**
III	**SEGMENTNING SOF AKTIVLARI**															

17	**Sof aktivlar (9–16)**	**953**	**456**	**299**	**470**	**220**	**798**	**453**	**651**	**865**	**506**	**2 071**	**903**	**483**	**568**	**9 698**
IV	**SEGMENTLARARO HISOB-KITOBLAR**															
18	Segmentlararo debitorlik qarzlari	61	29	19	30	14	51	29	42	55	32	133	58	31	36	**620**
19	Segmentlararo kreditorlik qarzlari	61	29	19	30	14	51	29	42	55	32	133	58	31	36	**620**
20	Segmentlararo hisob-kitoblarni chiqarib tashlash	61	29	19	30	14	51	29	42	55	32	133	58	31	36	**620**
V	**MUVOFIQLASHTIRISH**															
21	**Konsolidatsiy alangan jami aktivlar**	2 989	1 432	938	1 475	690	2 504	1 422	2 041	2 714	1 588	6 496	2 830	1 512	1 789	**30 420**
22	**Konsolidatsiy alangan jami majburiyatlar**	2 036	976	639	1 005	470	1 706	969	1 390	1 849	1 082	4 425	1 927	1 029	1 221	**20 722**
23	**Konsolidatsiy alangan sof aktivlar**	953	456	299	470	220	798	453	651	865	506	2 071	903	483	568	**9 698**
VI	**TAHLILIY KO‘RSATKICHLAR**															
24	**Segment aktivlarining**	**9,83**	**4,71**	**3,08**	**4,85**	**2,27**	**8,23**	**4,67**	**6,71**	**8,92**	**5,22**	**21,36**	**9,30**	**4,97**	**5,88**	**100,00**

	jami aktivlardagi ulushi, %															
25	Segment majburiyatlarining jami majburiyatlardagi ulushi, %	9,83	4,71	3,08	4,85	2,27	8,23	4,68	6,71	8,92	5,22	21,36	9,30	4,97	5,89	**100,00**
26	Aktivlar rentabelligi, %	0,04	0,01	0,16	0,12	0,17	0,02	0,11	0,06	0,03	0,07	0,21	0,09	0,30	0,37	**0,13**
27	Majburiyatlarning aktivlarga nisbati, %	68,75	68,79	68,76	68,77	68,75	68,77	68,78	68,75	68,76	68,77	68,76	68,73	68,70	68,88	**68,76**

Ularni segmentlar kesimida dezagregatsiya qilish esa tashqi foydalanuvchilarga alohida faoliyat yo‘nalishlarining moliyaviy holati va risk konsentratsiyasini chuqurroq tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqotimiz nuqtai nazaridan, ushbu hisobot shaklini ishlab chiqishda 8-son “Operatsion segmentlar” hamda 17-son “Sug‘urta shartnomalari” Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablarini o‘zaro uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq. Bunda segment aktivlari va majburiyatlari tarkibiga faqat tegishli segmentga bevosita mansub yoki asoslangan taqsimlash mezonlari yordamida unga biriktiriladigan moddalarni kiritish lozim.

Ayniqsa, sug‘urta shartnomalari portfellari bo‘yicha aktiv va majburiyatlar, qayta sug‘urta shartnomalari bo‘yicha aktivlar, investitsiya aktivlari hamda segment faoliyatiga xizmat qiluvchi boshqa aktivlarni alohida ko‘rsatish segmentlarning resurs sig‘imi va moliyaviy barqarorligini baholash imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, bosh ofis darajasida boshqariladigan va alohida segmentlarga asosli ravishda taqsimlab bo‘lmaydigan aktiv hamda majburiyatlarning “taqsimlanmagan moddalar” sifatida alohida aks ettirilishi segment ko‘rsatkichlarining xolisligini oshiradi.

Jadval ma’lumotlari sug‘urta kompaniyasining hududiy filiallari kesimida aktivlar va majburiyatlarning shakllanishi hamda joylashuvini baholash imkonini beradi. Hisobot davrida jami segment aktivlari 31 040 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lib, ularning eng katta qismi Toshkent shahri filialiga — 6 629 mln so‘m yoki 21,36 foiz, Toshkent viloyati filialiga — 2 888 mln so‘m yoki 9,30 foiz, Surxondaryo filialiga — 2 769 mln so‘m yoki 8,92 foiz hamda Navoiy filialiga — 2 555 mln so‘m yoki 8,23 foiz to‘g‘ri kelgan. Segment majburiyatlarining umumiy miqdori 21 342 mln so‘m, sof aktivlar esa 9 698 mln so‘mni tashkil etgan. Mazkur ko‘rsatkichlar filiallarning kompaniya resurslarini shakllantirishdagi ulushini aniqlash hamda hududlar bo‘yicha aktiv va majburiyatlarning mutanosibligini baholashga xizmat qiladi. Segmentlararo hisob-kitoblarni muvofiqlashtirish jarayonida 620 mln so‘mlik debitorlik va kreditorlik qarzlari konsolidatsiyada o‘zaro chiqarib tashlangan, natijada konsolidatsiyalangan jami aktivlar 30 420 mln so‘m, jami majburiyatlar

20 722 mln so‘m va sof aktivlar 9 698 mln so‘mni tashkil etgan. Tahlil natijalari hududiy filiallar o‘rtasida aktivlardan foydalanish samaradorligi va moliyaviy barqarorlik darajasida muayyan tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, taklif etilayotgan segmentar hisobot shakli filiallarning aktivlar bilan ta’minlanganligi, majburiyatlar yuklamasi va aktivlar rentabelligini muntazam nazorat qilish, hududlarning moliyaviy salohiyatini o‘zaro taqqoslash hamda resurslarni filiallar o‘rtasida samarali taqsimlash bo‘yicha asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.

Sug‘urta kompaniyalarida segmentlar bo‘yicha shakllantirilgan moliyaviy axborotni konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro muvofiqlashtirish tashqi segmentar hisobotning muhim yakuniy bosqichlaridan biri hisoblanadi. Segmentlar kesimida tan olingan sug‘urta daromadlari, sug‘urta xizmatlari xarajatlari, investitsiya natijalari, foyda yoki zarar, aktivlar va majburiyatlarning yig‘indisi har doim ham kompaniyaning konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotidagi tegishli ko‘rsatkichlarga bevosita teng kelmasligi mumkin. Bunga segmentlararo operatsiyalar, bosh ofisga tegishli taqsimlanmagan daromad va xarajatlar, korporativ aktiv va majburiyatlar, hisob siyosatidagi farqlar hamda konsolidatsiya jarayonida amalga oshiriladigan eliminatsiya va boshqa tuzatishlar sabab bo‘ladi. Shu jihatdan, 8-son MHXS “Operatsion segmentlar” talablariga muvofiq segment ko‘rsatkichlarini korxonaning tegishli moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari bilan solishtirish segmentar axborotning ishonchliligi, shaffofligi va o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash vositasi sifatida qaralishi lozim. Sug‘urta tashkilotlari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olganda, mazkur solishtirish mexanizmini shakllantirishda 17-son MHXS “Sug‘urta shartnomalari” bo‘yicha tan olinadigan sug‘urta daromadi, sug‘urta xizmatlari xarajatlari, sug‘urta moliyasi daromadlari yoki xarajatlari, qayta sug‘urta shartnomalari natijalari hamda sug‘urta shartnomalari aktivlari va majburiyatlarini segmentlar kesimida to‘g‘ri bog‘lash alohida ahamiyat kasb etadi.

4.14-jadval

O’zbekinvest EISK AJning segment ko‘rsatkichlarini konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot bilan solishtirish hisoboti shakli 2025-yil uchun (mln so‘m)

№	Ko‘rsatkichlar	Hisobot segmentlari jami (A)	Segmentlararo operatsiyalarni chiqarish (B)	Bosh ofis va taqsimlanmagan moddalar (C)	Boshqa konsolidatsion tuzatishlar (D)	Konsolidatsiyalashgan summa (E)	Farq
I	**DAROMADLARNI SOLISHTIRISH**						
1	Sug‘urta xizmatlaridan daromad	283 217	7 200	8 450	−350	**284 117**	0
2	Qayta sug‘urta shartnomalari bilan bog‘liq daromadlar	25 300	650	1 240	−90	**25 800**	0
3	Investitsiya daromadlari	23 510	280	4 680	120	**28 030**	0
4	Foizli va boshqa moliyaviy daromadlar	15 900	150	2 760	−60	**18 450**	0
5	Boshqa operatsion daromadlar	4 867	750	1 420	−70	**5 467**	0
6	**Jami daromadlar**	**352 794**	**9 030**	**18 550**	**−450**	**361 864**	**0**
II	**XARAJATLARNI SOLISHTIRISH**						
7	Sug‘urta xizmatlari xarajatlari	176 570	5 100	3 850	−220	**175 100**	0
8	Sug‘urta hodisalari va da’volar bilan bog‘liq xarajatlar*	107 560	2 600	1 450	−110	**106 300**	0
9	Sug‘urta shartnomalarini tuzish bilan bog‘liq xarajatlar*	34 070	1 100	780	−50	**33 700**	0

10	Qayta sug‘urta shartnomalari bo‘yicha xarajatlar	69 090	1 850	2 360	−160	**69 440**	0
11	Sug‘urta moliyasi daromadlari/(xarajatlari)	12 620	180	1 140	−80	**13 500**	0
12	Ma’muriy va boshqa operatsion xarajatlar	32 290	1 900	5 870	−240	**36 020**	0
13	**Jami xarajatlar**	**290 570**	**9 030**	**13 220**	**−700**	**294 060**	**0**
III	**MOLIYAVIY NATIJANI SOLISHTIRISH**						
14	Sug‘urta xizmatlari natijasi	111 514	2 100	4 600	−180	**113 834**	0
15	Investitsiya faoliyati natijasi	23 510	280	4 680	120	**28 030**	0
16	Moliyaviy natija	−12 620	−180	−1 140	80	**−13 500**	0
17	**Soliq to‘langunga qadar foyda/(zarar)**	**47 914**	**0**	**5 420**	**−840**	**52 494**	**0**
18	Foyda solig‘i xarajati	8 385	0	1 060	−180	**9 265**	0
19	**Sof foyda/(zarar)**	**39 529**	**0**	**4 360**	**−660**	**43 229**	**0**
IV	**AKTIVLARNI SOLISHTIRISH**						
20	Sug‘urta shartnomalari bo‘yicha aktivlar	4 348	0	320	−45	**4 623**	0
21	Qayta sug‘urta shartnomalari bo‘yicha aktivlar	6 209	0	540	−80	**6 669**	0
22	Moliyaviy investitsiyalar	9 933	0	5 780	160	**15 873**	0
23	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar	3 416	0	4 260	−120	**7 556**	0
24	Pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari	3 103	0	2 870	0	**5 973**	0
25	Boshqa aktivlar	4 031	620	1 740	−90	**5 061**	0

26	**Jami aktivlar**	**31 040**	**620**	**15 510**	**−175**	**45 755**	**0**
V	**MAJBURIYATLARNI SOLISHTIRISH**						
27	Sug‘urta shartnomalari bo‘yicha majburiyatlar	10 084	0	780	−90	**10 774**	0
28	Qayta sug‘urta shartnomalari bo‘yicha majburiyatlar	2 475	0	340	−45	**2 770**	0
29	Moliyaviy majburiyatlar	2 454	0	2 460	−80	**4 834**	0
30	Kreditorlik va boshqa majburiyatlar	6 329	620	2 350	−110	**7 949**	0
31	**Jami majburiyatlar**	**21 342**	**620**	**5 930**	**−325**	**26 327**	**0**

** **Izoh:** 8 va 9-qatorlar 7-qator — “Sug‘urta xizmatlari xarajatlari”ning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Shu sababli 13-qator “Jami xarajatlar”ni hisoblashda ular 7-qatorga ikkinchi marta qo‘shilmaydi**.** Bu ikki qator xarajatlar tarkibini tahliliy ochib berish maqsadida alohida ko‘rsatilgan.*

Tadqiqotimizda ushbu jarayonni tartibga solish maqsadida segmentlar bo‘yicha yig‘ma ko‘rsatkichlardan boshlab, segmentlararo operatsiyalarni chiqarib tashlash, bosh ofis va segmentlarga taqsimlanmagan moddalarni qo‘shish, boshqa konsolidatsion tuzatishlarni amalga oshirish hamda yakuniy konsolidatsiyalashgan summani aniqlash imkonini beruvchi alohida “Segment ko‘rsatkichlarini konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot bilan solishtirish hisoboti” shaklidan foydalanishni taklif etamiz. Ushbu shakl segmentar hisob, moliyaviy hisob va konsolidatsiyalashgan hisobot o‘rtasida nazorat bog‘liqligini yaratishga xizmat qiladi.

Jadval ma’lumotlari filiallar kesimida shakllantirilgan segmentar hisob ko‘rsatkichlarini kompaniyaning konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisoboti bilan muvofiqlashtirish jarayonini aks ettiradi. Hisobot segmentlari bo‘yicha shakllangan daromad, xarajat, moliyaviy natija, aktiv va majburiyatlar dastlab segmentlararo operatsiyalarni chiqarib tashlash orqali tuzatiladi, so‘ngra bosh ofisga tegishli va segmentlarga taqsimlanmagan moddalar hamda boshqa konsolidatsion tuzatishlar hisobga olinadi. Natijada segmentlar bo‘yicha 31 040 mln so‘mlik jami aktivlar tegishli tuzatishlardan keyin 45 755 mln so‘mlik konsolidatsiyalashgan aktivlarga, 21 342 mln so‘mlik majburiyatlar esa 26 327 mln so‘mlik konsolidatsiyalashgan majburiyatlarga muvofiqlashtirilgan. Shu bilan birga, segmentlar bo‘yicha 39 529 mln so‘mlik sof foyda bosh ofis va boshqa konsolidatsion tuzatishlar hisobga olingach 43 229 mln so‘mni tashkil etgan. Mazkur muvofiqlashtirish shaklining amaliy ahamiyati shundaki, u filial → hisobot segmenti → segmentlararo eliminatsiya → bosh ofis va taqsimlanmagan moddalar → konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot zanjiri bo‘yicha axborot harakatini kuzatish imkonini beradi. Ayniqsa, segmentlararo daromadlar, xarajatlar, debitorlik va kreditorlik qarzlarining chiqarib tashlanishi filiallar faoliyatining natijalarini sun’iy ravishda oshirib ko‘rsatishning oldini oladi, bosh ofis va taqsimlanmagan moddalarni alohida aks ettirish esa hududiy segmentlarning real iqtisodiy samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi. Jadvaldagi “Farq” ko‘rsatkichining nolga tengligi segmentar hisob ma’lumotlari tegishli tuzatishlardan so‘ng

konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari bilan to‘liq muvofiqlashtirilganligini ko‘rsatib, taklif etilayotgan hisobot shaklidan ichki nazorat va boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta’minlash vositasi sifatida foydalanish imkonini beradi.

Sug‘urta kompaniyalarida tashqi segmentar hisobotning axborot imkoniyatlarini kengaytirishda hisobot segmentlari bo‘yicha moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda, butun korxona miqyosidagi qo‘shimcha axborotlarni oshkor etish muhim ahamiyat kasb etadi. 8-son MHXS “Operatsion segmentlar” talablariga ko‘ra, korxona hisobot segmentlari tarkibidan qat’i nazar, mahsulot va xizmatlar, geografik hududlar hamda yirik mijozlarga bog‘liqlik to‘g‘risidagi korxona miqyosidagi axborotlarni tegishli shartlarda taqdim etishi lozim. Sug‘urta kompaniyalari faoliyatida ushbu talab sug‘urta xizmatlari turlari, hududiy bozorlar va sug‘urta daromadlarining alohida mijozlarda konsentratsiyalashuvi bo‘yicha ma’lumotlarni tizimlashtirishni talab qiladi. Bunday axborot tashqi foydalanuvchilarga kompaniya daromadlarining diversifikatsiya darajasi, muayyan sug‘urta turi yoki geografik hududga iqtisodiy bog‘liqligi hamda mijozlar konsentratsiyasi bilan bog‘liq risklarni baholash imkonini beradi. Tadqiqotimizda 8-son MHXSning korxona miqyosidagi oshkor qilish talablarini sug‘urta faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirgan holda “Korxona miqyosidagi qo‘shimcha segmentar axborot hisoboti”ni tashqi segmentar hisobotning alohida shakli sifatida joriy etish taklif etiladi. Mazkur shaklda axborotni uchta asosiy yo‘nalish - sug‘urta xizmatlari turlari, geografik hududlar va yirik mijozlar bo‘yicha shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunda sug‘urta xizmatlari bo‘yicha daromadlarning tarkibi kompaniya faoliyatining mahsulot diversifikatsiyasini, geografik axborot hududiy diversifikatsiyani, yirik mijozlar bo‘yicha axborot esa daromadlar konsentratsiyasini tavsiflaydi. Natijada mazkur hisobot shakli an’anaviy segmentar ko‘rsatkichlarni to‘ldirib, sug‘urta kompaniyasining faoliyat ko‘lami va daromad manbalarini kompleks baholash uchun yagona axborot maydonini shakllantiradi.

Quyidagi jadvalda sug‘urta xizmatlari turlari bo‘yicha jami daromad 283 217 mln so‘m miqdorida saqlandi va u yuqorida filiallar kesimida

shakllantirilgan sug‘urta xizmatlari daromadining jami ko‘rsatkichiga muvofiqlashtirildi. Tarkibiy tahlilga ko‘ra, avtotransport sug‘urtasi 24,15 foiz, mol-mulk sug‘urtasi 20,02 foiz, javobgarlik sug‘urtasi 13,24 foiz va shaxsiy sug‘urta 12,22 foiz ulushni egallaydi. Bu daromadlarning bir nechta sug‘urta yo‘nalishlari o‘rtasida taqsimlanganligini ko‘rsatsa-da, avtotransport va mol-mulk sug‘urtasi birgalikda jami sug‘urta daromadining 44,17 foizini shakllantirmoqda. Joriy yil daromadining o‘tgan yilga nisbatan 31 093 mln so‘m yoki 12,33 foizga oshishi sug‘urta portfeli bo‘yicha umumiy ijobiy dinamikani ifodalaydi.

4.15-jadval

Sug‘urta kompaniyalarida korxona miqyosidagi qo‘shimcha segmentar axborot hisoboti shakli O’zbekinvest EISK AJning 2025 yil uchun (mln so‘m)[102]

№	Qo‘shimcha segmentar axborot ko‘rsatkichlari	Joriy yil	O‘tgan yil	O‘zgarish (+/–)	Ulushi, %	Izoh
I	SUG‘URTA XIZMATLARI TURLARI BO‘YICHA AXBOROT					
1	Avtotransport sug‘urtasi bo‘yicha sug‘urta daromadi	68 400	60 250	+8 150	24,15	Yetakchi xizmat turi
2	Mol-mulk sug‘urtasi bo‘yicha sug‘urta daromadi	56 700	50 300	+6 400	20,02	Yuqori ulush
3	Shaxsiy sug‘urta bo‘yicha sug‘urta daromadi	34 600	31 200	+3 400	12,22	Barqaror o‘sish
4	Javobgarlik sug‘urtasi bo‘yicha sug‘urta daromadi	37 500	33 600	+3 900	13,24	Ijobiy dinamika

[102] https://uzbekinvest.uz/uz/audit-financial

5	Qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi bo‘yicha sug‘urta daromadi	18 900	17 100	+1 800	6,67	Nisbatan kichik ulush
6	Transport va yuklar sug‘urtasi bo‘yicha sug‘urta daromadi	29 700	26 400	+3 300	10,49	O‘suvchi segment
7	Boshqa sug‘urta xizmatlari bo‘yicha daromad	37 417	33 274	+4 143	13,21	Diversifikatsion daromad
8	**Jami sug‘urta xizmatlari bo‘yicha daromad**	**283 217**	**252 124**	**+31 093**	**100,00**	**12,33% o‘sish**
II	**GEOGRAFIK HUDUDLAR BO‘YICHA AXBOROT**					
9	O‘zbekiston Respublikasi hududida tashqi mijozlardan sug‘urta daromadi	269 340	240 450	+28 890	95,10	Asosiy geografik bozor
10	Xorijiy mamlakatlarda n olingan sug‘urta daromadi	13 877	11 674	+2 203	4,90	Xalqaro operatsiyalar
11	**Jami tashqi mijozlardan sug‘urta daromadi**	**283 217**	**252 124**	**+31 093**	**100,00**	**Jami tashqi daromad**
12	O‘zbekiston hududida joylashgan tegishli uzoq muddatli aktivlar	7 180	6 620	+560	95,03	Aktivlarning asosiy qismi
13	Xorijiy mamlakatlarda	376	340	+36	4,97	Xorijdagi aktivlar

	joylashgan tegishli uzoq muddatli aktivlar					
14	**Jami tegishli uzoq muddatli aktivlar**	**7 556**	**6 960**	**+596**	**100,00**	**8,56% o‘sish**
III	**YIRIK MIJOZLAR BO‘YICHA DAROMADLAR KONSENTRATSIYASI**					
15	1-yirik mijozdan olingan daromad*	31 500	28 300	+3 200	11,12	10% mezonidan yuqori
16	2-yirik mijozdan olingan daromad*	30 100	27 200	+2 900	10,63	10% mezonidan yuqori
17	3-yirik mijozdan olingan daromad*	29 200	26 100	+3 100	10,31	10% mezonidan yuqori
18	Boshqa 10 foizlik mezondan yuqori yirik mijozlardan daromad	—	—	—	—	Mavjud emas
19	**Yirik mijozlardan olingan jami daromad**	**90 800**	**81 600**	**+9 200**	**32,06**	**3 ta yirik mijoz**
20	Boshqa mijozlardan olingan daromad	192 417	170 524	+21 893	67,94	Diversifikatsiyalangan mijozlar
21	**Korxonaning jami daromadi**	**283 217**	**252 124**	**+31 093**	**100,00**	**Jami**
IV	**DAROMADLAR KONSENTRATSIYASI VA DIVERSIFIKATSIYASI**					
22	Eng yirik sug‘urta xizmat turi ulushi	24,15 %	23,90 %	+0,25 f.p.	24,15	Avtotransport sug‘urtasi
23	Eng yirik geografik bozor ulushi	95,10 %	95,37 %	−0,27 f.p.	95,10	O‘zbekiston bozori

24	10% va undan yuqori ulushga ega yirik mijozlar soni	3	3	0	—	Mijozlar soni
25	10% va undan yuqori ulushga ega mijozlar jami ulushi	32,06 %	32,37 %	−0,31 f.p.	32,06	Daromad konsentratsiyasi

Geografik va mijozlar konsentratsiyasi bo‘yicha axborot esa segmentar hisobotning boshqa muhim jihatini ochib beradi. Daromadlarning 95,10 foizi O‘zbekiston Respublikasi hududida, 4,90 foizi esa xorijiy bozorlarda shakllangan deb modellashtirilgan. Yirik mijozlar bo‘yicha uchta mijozning har biri kompaniya daromadining 10 foizidan yuqori qismini shakllantirib, ularning jami ulushi 32,06 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, ushbu jadvaldagi sug‘urta turlari, xorijiy daromad va yirik mijozlar bo‘yicha taqsimotlar kompaniyaning ochiq hisobotida aynan shu kesimda berilgan faktik ma’lumotlar emas, balki yuqoridagi jami ko‘rsatkichlarga muvofiqlashtirilgan analitik segmentar model hisob-kitoblaridir. Dissertatsiyada ushbu farqni qayd etish ma’lumotlarning ilmiy ishonchliligini saqlash nuqtai nazaridan muhim.

4.3. Segmentar hisobot ma’lumotlari asosida samaradorlikni baholash, tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish metodikasi

Segmentar hisobot ma’lumotlari xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini alohida biznes yo‘nalishlari, mahsulot va xizmat turlari, hududiy bo‘linmalar hamda javobgarlik markazlari kesimida kompleks baholash uchun muhim axborot manbai hisoblanadi. Korxonaning umumlashtirilgan moliyaviy ko‘rsatkichlari uning umumiy holatini ifodalasa-da, ular alohida segmentlarning daromad yaratish salohiyati, xarajatlar tarkibi, rentabellik darajasi, aktivlardan foydalanish samaradorligi va moliyaviy natijaga qo‘shgan hissasini to‘liq ochib bera olmaydi. Shu sababli segmentar hisobot ma’lumotlarini tizimli tahlil qilish orqali har bir segmentning iqtisodiy samaradorligini aniqlash, natijalarni o‘zaro taqqoslash, reja va haqiqiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi chetlanishlarni baholash hamda ularning yuzaga kelish sabablarini

aniqlash imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, sug‘urta kompaniyalarida hududiy filiallar va sug‘urta xizmatlari segmentlari bo‘yicha daromad, xarajat, sug‘urta to‘lovlari, aktivlar, moliyaviy natija va rentabellik ko‘rsatkichlarini alohida tahlil qilish mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini baholashning muhim metodik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Segmentar hisobot asosida samaradorlikni baholash metodikasini shakllantirish faqat segmentlarning moliyaviy natijalarini aniqlash bilan cheklanmasdan, olingan tahliliy natijalarni boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni bilan uzviy bog‘lashni talab etadi. Bunda segmentlar faoliyatini baholash uchun daromadlarning o‘sish sur’ati, xarajatlar sig‘imi, segment foydasi, foyda marjasi, aktivlar rentabelligi, investitsiyalar rentabelligi, xarajatlarning qoplanish darajasi hamda segmentning korxona umumiy natijasiga qo‘shgan hissasi kabi moliyaviy ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur ko‘rsatkichlarni dinamik, qiyosiy, omilli va chetlanishlar tahlili asosida baholash segmentlarni yuqori samarali, barqaror, rivojlantirish talab etiladigan va samarasiz segmentlar guruhlariga ajratish imkonini beradi. Natijada rahbariyat uchun resurslarni segmentlar o‘rtasida qayta taqsimlash, istiqbolli faoliyat yo‘nalishlariga investitsiyalarni ko‘paytirish, xarajatlarni optimallashtirish, zarar keltirayotgan segmentlar faoliyatini qayta tashkil etish hamda segmentlarni kengaytirish, qisqartirish yoki tugatish bo‘yicha iqtisodiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qiluvchi yaxlit axborot-tahliliy mexanizm shakllantiriladi.

Durney, Gee va Wiebe[103] tomonidan segmentar hisobotning boshqaruv yondashuviga asoslangan modelini tadqiq etish natijalari segment foydasi yoki zararini shakllantirishda muhim metodologik muammo mavjudligini ko‘rsatadi. Mualliflarning fikricha, ASC 280 doirasidagi boshqaruv yondashuvi segmentlar faoliyati natijalarini korxona rahbariyati, ya’ni operatsion qarorlarni qabul qiluvchi bosh rahbar resurslarni taqsimlashda foydalanadigan ko‘rsatkichlar asosida aks

[103] Durney, M. T., Gee, K. H., & Wiebe, Z. (2025). Segment profit/loss and the limitations of a “management approach”. Management Science, 71(9), 7474–7496. doi:10.1287/mnsc.2023.01224. https://pubsonline.informs.org/doi/epdf/10.1287/mnsc.2023.01224

ettirishni nazarda tutadi. Biroq bunday yondashuvda segment foydasi yoki zararining tarkibi, birinchi navbatda, daromad va xarajatlarning kelgusida takrorlanishi yoki barqarorligiga emas, balki ularning segment rahbari tomonidan nazorat qilinishi mumkinligiga bog‘liq holda shakllanadi. Natijada segment foydasi tarkibidan foiz xarajatlari, sotish, umumiy va ma’muriy xarajatlar hamda ilmiy-tadqiqot xarajatlari kabi faoliyatning barqaror elementlari chiqarib tashlanishi, aksincha, restrukturizatsiya xarajatlari, aktivlarning qadrsizlanishidan zararlar hamda qo‘shib olish va birlashish bilan bog‘liq bir martalik xarajatlar segment natijalarida aks ettirilishi mumkin. Bu holat segmentar hisobotning ichki boshqaruv maqsadlari bilan tashqi foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlari o‘rtasidagi metodologik nomuvofiqlikni yuzaga keltiradi.

Mazkur muammoning ahamiyati Durney, Gee va Wiebe tomonidan o‘tkazilgan professional investorlar so‘rovi natijalarida ham o‘z tasdig‘ini topgan. Tadqiqotda o‘rtacha 20,7 yillik kasbiy tajribaga ega 96 nafar professional investor ishtirok etgan bo‘lib, respondentlar segment faoliyati ko‘rsatkichlaridan asosan korxona va uning segmentlarining kelgusidagi operatsion natijalarini prognozlash, ya’ni qiymatni baholash maqsadida foydalanishi aniqlangan. Xususan, respondentlar qiymatni baholash bilan bog‘liq maqsadlarga o‘rtacha 57,40 ball, boshqaruv mas’uliyatini baholash bilan bog‘liq maqsadlarga esa 19,69 ball ajratgan; segmentar axborotdan foydalanadigan respondentlar orasida qiymatni baholash maqsadlarining ulushi taxminan 70 foizni tashkil etgan. Shuningdek, investorlar segment foydasi yoki zarari tarkibiga takrorlanuvchi va barqaror daromad hamda xarajat elementlarini kiritishni bir martalik elementlarga nisbatan ustun deb hisoblaganlar. Demak, investor uchun segment samaradorligini baholashda ko‘rsatkichning barqarorligi va prognozlash imkoniyati, ichki boshqaruv uchun esa ko‘rsatkichning segment rahbari tomonidan nazorat qilinishi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Aynan ushbu ikki mezon o‘rtasidagi tafovut boshqaruv yondashuviga asoslangan segmentar hisobotning asosiy metodologik cheklovlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Fikrimizcha, ushbu natijalar segmentar hisobotni takomillashtirishda faqat operatsion qarorlarni qabul qiluvchi bosh rahbarga taqdim etiladigan ichki ko‘rsatkichlarni tashqi hisobotga ko‘chirish bilan cheklanmaslik zarurligini ko‘rsatadi. Segment samaradorligini baholash tizimida boshqaruv nazorati va investitsion qiymatni baholash maqsadlari o‘zaro farqlanishi, segment foydasi yoki zararini shakllantiruvchi moddalar esa ularning nazorat qilinishi, takrorlanuvchanligi va kelgusidagi pul oqimlarini prognozlashdagi ahamiyati bo‘yicha alohida tasniflanishi maqsadga muvofiq. Bunda segment foydasi yoki zarariga kiritilgan bir martalik muhim moddalar hamda segmentlarga taqsimlanmagan, biroq faoliyatning barqarorligini ifodalovchi markazlashgan xarajatlarni alohida oshkor qilish segmentar axborotning tahliliy imkoniyatini oshiradi. Shu jihatdan Durney, Gee va Wiebe tadqiqoti boshqaruv yondashuvini inkor etmaydi, aksincha, uning afzalliklarini saqlagan holda segment foydasi yoki zarari tarkibini batafsil ochib berish zarurligini asoslaydi. Bu esa segmentar hisobotni ichki boshqaruv qarorlarini qabul qilish vositasidan tashqari, investorlar tomonidan segmentlarning istiqboldagi samaradorligini baholashga xizmat qiluvchi axborot tizimi sifatida rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Nichols, Street va Tarca (2013)[104] segmentar hisobotni shakllantirishda boshqaruv yondashuvi (management approach)ning joriy etilishini segmentar axborot metodologiyasidagi muhim o‘zgarish sifatida baholaydilar. Mualliflar SFAS 131 hamda 8-son MHXS “Operatsion segmentlar” talablarini qo‘llash bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarni umumlashtirib, boshqaruv yondashuvining ta’sirini bir necha yo‘nalishda, jumladan, hisobotda aks ettiriladigan operatsion segmentlar soni, segmentlar bo‘yicha oshkor qilinadigan ko‘rsatkichlar tarkibi, segmentar hisobotdagi tafovutlar va ularni konsolidatsiyalashgan ko‘rsatkichlar bilan muvofiqlashtirish, korxona miqyosidagi geografik axborotni oshkor qilish, tijorat nuqtayi nazaridan raqobatga zarar yetkazish ehtimoli hamda segmentar axborotning iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi foydaliligi

[104] Nichols, N. B., Street, D. L., & Tarca, A. (2013). *The impact of segment reporting under the IFRS 8 and SFAS 131 management approach: A research review*. Journal of International Financial Management & Accounting, 24(3), 261–312. https://onlinelibrary.wiley.com/doi/abs/10.1111/jifm.12012

bo‘yicha tadqiq etganlar. Bunday yondashuvning asosiy mohiyati tashqi segmentar hisobotni korxonaning amaldagi ichki boshqaruv tizimiga yaqinlashtirishdan iborat bo‘lib, natijada tashqi foydalanuvchilar korxona faoliyatini rahbariyat tomonidan resurslarni taqsimlash va segmentlar faoliyatini baholashda qo‘llaniladigan tuzilma asosida tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Mualliflarning ilmiy sharhi boshqaruv yondashuvining afzalliklari bilan bir qatorda uning ayrim metodologik cheklovlari mavjudligini ham ko‘rsatadi. Xususan, segmentlarning tarkibi va segmentar ko‘rsatkichlarning shakllanishi korxonaning ichki boshqaruv tuzilmasiga bog‘langanligi sababli bir xil yoki o‘xshash faoliyat bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning segmentar hisobotlari o‘rtasidagi taqqoslanuvchanlik masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, segmentlar bo‘yicha axborotni batafsil oshkor qilish korxonaning raqobat muhiti va tijorat manfaatlariga ta’sir qilishi mumkinligi segmentar axborotning foydaliligi bilan uni oshkor qilish xarajatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli Nichols, Street va Tarca segmentar hisobot samaradorligini faqat oshkor qilinadigan segmentlar soni bilan baholash emas, balki segmentlar bo‘yicha taqdim etiladigan axborot tarkibi, muvofiqlashtirishlar, geografik axborot hamda mazkur ma’lumotlarning foydalanuvchilar qarorlariga ta’siri bilan birgalikda o‘rganish lozimligini ko‘rsatadilar.

Bizning fikrimizcha, Nichols, Street va Tarca tomonidan umumlashtirilgan natijalar segmentar hisobot metodologiyasini takomillashtirishda “boshqaruv maqsadlari uchun foydalilik” va “tashqi foydalanuvchilar uchun axborotning taqqoslanuvchanligi” o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash zarurligini asoslaydi. Boshqaruv yondashuvi korxonaning real tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini segmentar hisobotda aks ettirish imkonini bersa-da, segmentlarni aniqlash, o‘xshash segmentlarni birlashtirish, segment daromadlari va xarajatlarini taqsimlash, segment natijalarini konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari bilan muvofiqlashtirish hamda korxona miqyosidagi qo‘shimcha geografik axborotni oshkor qilish bo‘yicha aniq uslubiy

mexanizmlarning mavjudligi muhimdir. Shu nuqtayi nazardan, segmentar hisobotni shakllantirish metodikasida operatsion segmentlarni aniqlash → hisobot segmentlarini ajratish → segment ko‘rsatkichlarini shakllantirish → segmentlararo operatsiyalarni hisobga olish → konsolidatsiyalashgan ko‘rsatkichlar bilan muvofiqlashtirish → qo‘shimcha segmentar axborotni oshkor qilish bosqichlarini o‘zaro bog‘langan yagona tizim sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv 8-son MHXSning boshqaruv yondashuvi afzalliklarini saqlagan holda segmentar axborotning shaffofligi, tahliliy imkoniyati va tashqi foydalanuvchilar uchun foydaliligini oshirishga xizmat qiladi.

Hinson, Tucker va Weng (2019)[105] segmentar hisobotni shakllantirishda boshqaruv yondashuvining joriy etilishini moliyaviy axborotning sifat xususiyatlari nuqtayi nazaridan tadqiq etib, o‘rinlilik va taqqoslanuvchanlik o‘rtasida muayyan metodologik qarama-qarshilik mavjudligini asoslaydilar. Mualliflarning fikricha, SFAS 131 bilan boshqaruv yondashuvining joriy qilinishi tashqi foydalanuvchilarga segmentlarni korxona rahbariyati qanday boshqarsa va baholasa, shunday ko‘rinishda kuzatish imkonini bergan. Natijada segmentar axborot korxonaning haqiqiy tashkiliy tuzilmasi, faoliyat yo‘nalishlari hamda resurslarni taqsimlash jarayoniga yaqinlashib, uning foydalanuvchilar qarorlariga ta’sir ko‘rsatish qobiliyati, ya’ni o‘rinliligi oshgan. Biroq boshqaruv yondashuvi korxonalarga segment foydasi ko‘rsatkichlarini ichki boshqaruv va baholash tizimida foydalaniladigan usullar asosida shakllantirish imkonini berganligi sababli bir xil tarmoqda faoliyat yurituvchi korxonalar segmentlarining moliyaviy natijalarini o‘zaro taqqoslash imkoniyati pasaygan. Shu jihatdan, boshqaruv yondashuvi segmentar axborotning o‘rinliligini oshirishi bilan bir vaqtda uning korxonalararo taqqoslanuvchanligini cheklashi mumkinligi segmentar hisobotning muhim metodologik muammolaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Mualliflar ushbu muammoni empirik baholash uchun segmentar hisobot qoidalari o‘zgargan davrdagi korxonalarga xos o‘rinlilik va

[105] Hinson, L., Tucker, J. W., & Weng, D. (2019). *The tradeoff between relevance and comparability in segment reporting*. Journal of Accounting Literature, 43, 70–86. DOI: 10.1016/j.acclit.2019.11.003. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0737460719300989

taqqoslanuvchanlik ko‘rsatkichlarini ishlab chiqqanlar hamda moliyaviy tahlilchilarning foyda prognozlaridagi xatolik va tafovutlarni tadqiq etganlar. Tahlilda boshqaruv yondashuviga o‘tish natijasida segmentar axborotning o‘rinliligi oshgan, ammo segment foydasi ko‘rsatkichlarining taqqoslanuvchanligi sezilarli darajada kamaygan 136 ta korxonaga alohida e’tibor qaratilgan. Empirik natijalarga ko‘ra, segmentar axborot e’lon qilinishi atrofida moliyaviy tahlilchilar prognoz xatolarining kamayishida standart o‘zgarishidan oldingi va keyingi davrlar o‘rtasida sezilarli farq aniqlanmagan. Shu bilan birga, tahlilchilar prognozlari o‘rtasidagi tafovutning kamayishi yangi segmentar hisobot qoidalari joriy etilganidan keyin sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Bu natija segment foydasi ko‘rsatkichlarining taqqoslanuvchanligi pasaygan bo‘lsa ham, boshqaruv yondashuvi tahlilchilar o‘rtasidagi axborotga oid kelishmovchilikni kamaytirish orqali segmentar axborotning iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi foydaliligini oshirganligini ko‘rsatadi.

Bizning fikrimizcha, Hinson, Tucker va Weng tomonidan olingan natijalar segmentar hisobotni takomillashtirishda o‘rinlilikni oshirish bilan taqqoslanuvchanlikni ta’minlash o‘rtasidagi optimal muvozanatni shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Boshqaruv yondashuvi asosida segmentlarni operatsion qarorlarni qabul qiluvchi bosh rahbarga taqdim etiladigan ichki axborot asosida shakllantirish korxonaning real iqtisodiy va boshqaruv tuzilmasini tashqi hisobotda aks ettirish imkonini beradi. Biroq korxonalar segment foydasi yoki zararini turlicha hisoblash usullaridan foydalanishi tashqi foydalanuvchilarning bir korxona segmentini boshqa korxonaning o‘xshash segmenti bilan qiyosiy baholash imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Shu sababli segmentar hisobot metodikasida boshqaruv yondashuvini saqlab qolgan holda, segment foydasi yoki zararini shakllantiruvchi asosiy daromad va xarajatlarni alohida oshkor qilish, ularni hisoblash tamoyillarini tushuntirish hamda segment ko‘rsatkichlarini konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari bilan muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv segmentar axborotning boshqaruv nuqtayi nazaridan o‘rinliligini pasaytirmasdan, uning korxonalararo taqqoslanuvchanligi va tahliliy imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Deloitte (2025)[106] tomonidan ishlab chiqilgan segmentar hisobot bo‘yicha uslubiy yondashuvlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, segmentar axborotdan samarali foydalanish faqat hisobot segmentlarini aniqlash va ularning moliyaviy ko‘rsatkichlarini oshkor qilish bilan cheklanmasdan, balki segmentlar faoliyati natijalarini tizimli tahlil qilishni ham talab etadi. Bunda operatsion qarorlarni qabul qiluvchi bosh rahbar tomonidan muntazam ko‘rib chiqiladigan segment daromadi, foydasi yoki zarari, aktivlari va muhim xarajatlari segmentlar kesimida taqqoslanib, ularning korxona umumiy natijalarini shakllantirishdagi hissasi baholanishi lozim. Ayniqsa, segment ko‘rsatkichlarini konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ma’lumotlari bilan muvofiqlashtirish segmentlar faoliyatidagi tafovutlarni aniqlash, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash va boshqaruv qarorlarini asoslash uchun muhim tahliliy axborot bazasini yaratadi.

4.16-jadval

Segmentlar faoliyatini tahlil qilish va samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimi[107]

№	Ko‘rsatkich	Iqtisodiy mazmuni	Tahliliy yo‘nalish
1	Segment daromadi	Segment tomonidan shakllantirilgan jami daromad	Daromadlilik
2	Daromadning o‘sish sur’ati	Segment daromadining oldingi davrga nisbatan o‘zgarishini ko‘rsatadi	Dinamik tahlil
3	Segmentning jami daromaddagi ulushi	Segmentning kompaniya daromadini shakllantirishdagi hissasini ifodalaydi	Tarkibiy tahlil
4	Segment xarajatlari	Segment faoliyatiga tegishli jami xarajatlarni ifodalaydi	Xarajatlar tahlili
5	Xarajatlar sig‘imi	100 so‘mlik daromad olish uchun qancha xarajat qilinganini ko‘rsatadi	Tejamkorlik
6	Segment foydasi (zarari)	Segment faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasini ifodalaydi	Natijaviylik
7	Foydaning o‘sish sur’ati	Segment foydasining davrlar bo‘yicha o‘zgarishini ko‘rsatadi	Dinamik tahlil

[106] https://www.deloitte.com/us/en/services/audit-assurance/articles/a-roadmap-to-segment-reporting.html
[107] Muallif ishlanmasi

8	Segment foyda marjasi	Har 100 so‘mlik segment daromadiga to‘g‘ri keladigan foydani ko‘rsatadi	Rentabellik
9	Segmentning jami foydadagi ulushi	Segmentning kompaniya umumiy foydasiga qo‘shgan hissasini ifodalaydi	Tarkibiy tahlil
10	Segment aktivlari	Segment tasarrufidagi iqtisodiy resurslar qiymatini ko‘rsatadi	Resurs salohiyati
11	Segmentning jami aktivlardagi ulushi	Kompaniya aktivlarining qanchasi segmentga biriktirilganini ko‘rsatadi	Resurs taqsimoti
12	Aktivlar rentabelligi (ROA)	Segment aktivlaridan foyda olish samaradorligini ko‘rsatadi	Resurs samaradorligi
13	Aktivlar aylanuvchanligi	Aktivlarning daromad yaratish qobiliyatini ifodalaydi	Ish faolligi
14	Xarajatlar rentabelligi	Sarflangan xarajatlarning qancha foyda keltirganini ko‘rsatadi	Xarajat samaradorligi
15	Daromad–aktiv samaradorligi	Segmentga biriktirilgan aktivlarning daromad yaratish darajasini ko‘rsatadi	Resurs samaradorligi
16	Reja bajarilish darajasi	Haqiqiy natijaning rejalashtirilgan ko‘rsatkichga nisbati	Reja–haqiqat tahlili
17	Rejadan mutlaq chetlanish	Reja va haqiqiy natija o‘rtasidagi farqni aniqlaydi	Chetlanishlar tahlili
18	Segment samaradorligi nisbati	Segmentning foydadagi hissasini unga biriktirilgan aktivlar ulushi bilan taqqoslaydi	Nisbiy samaradorlik
19	Daromad samaradorligi nisbati	Aktivlar ulushiga nisbatan segmentning daromad yaratish salohiyatini ko‘rsatadi	Resurs samaradorligi
20	Integral samaradorlik indeksi	Bir nechta mezonlarni vazn koeffitsiyentlari orqali yagona bahoga birlashtiradi	Kompleks baholash

Mazkur ko‘rsatkichlar tizimida 1–3-ko‘rsatkichlar segmentning bozor va daromad yaratish salohiyatini, 4–9-ko‘rsatkichlar moliyaviy natijaviyligini, 10–15-ko‘rsatkichlar resurslardan foydalanish samaradorligini, 16–17-ko‘rsatkichlar reja ko‘rsatkichlarining bajarilishini, 18–20-ko‘rsatkichlar esa segmentning nisbiy va kompleks samaradorligini baholashga xizmat qiladi. Shu sababli alohida ko‘rsatkich bo‘yicha xulosa chiqarishdan ko‘ra, ularni o‘zaro bog‘langan tizim sifatida qo‘llash segment faoliyatining haqiqiy iqtisodiy holatini aniqroq ifodalaydi.

Segment daromadi muayyan operatsion yoki hududiy segmentning hisobot davri davomida o‘z faoliyati natijasida shakllantirgan iqtisodiy manfaatlari qiymatini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich bo‘lib, segmentning daromad yaratish salohiyati va korxona umumiy moliyaviy natijasiga qo‘shgan hissasini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Segment daromadini aniqlashda tashqi mijozlardan olingan daromadlar bilan bir qatorda, agar boshqaruv hisobi va segmentar hisobot metodikasida nazarda tutilgan bo‘lsa, boshqa segmentlar bilan amalga oshirilgan ichki operatsiyalardan olingan daromadlar ham alohida hisobga olinadi. Sug‘urta kompaniyalarining hududiy segmentlari kesimida ushbu ko‘rsatkich tegishli filial tomonidan shakllantirilgan sug‘urta xizmatlari daromadi va segmentga bevosita tegishli boshqa operatsion daromadlarni qamrab olishi mumkin. Segment daromadini davrlar va segmentlar kesimida taqqoslash segmentning iqtisodiy faolligi, daromad bazasining kengayishi yoki qisqarishi hamda uning kompaniya faoliyatidagi ahamiyatini baholash imkonini beradi.

Segment daromadini aniqlash formulasi:

$$SD_i = TD_i + SID_i + BD_i$$

bu yerda: SD_i - i-segmentning jami daromadi; TD_i - tashqi mijozlardan olingan daromad; SID_i - segmentlararo operatsiyalardan olingan daromad; BD_i - segmentga tegishli boshqa daromadlar.

Agar tahlil konsolidatsiyalashgan darajada amalga oshirilsa, segmentlararo daromadlar eliminatsiya qilinadi:

$$SD_{kons} = \sum_{i=1}^{n} SD_i - \sum SID_i$$

ya’ni segmentlar daromadlari yig‘indisidan guruh ichidagi segmentlararo operatsiyalar natijasida yuzaga kelgan daromadlar chiqarib tashlanadi.

Daromadning o‘sish sur’ati segment faoliyatining dinamik rivojlanishini tavsiflovchi muhim nisbiy ko‘rsatkich bo‘lib, joriy hisobot davridagi segment daromadining oldingi davrga nisbatan qanday o‘zgarganligini ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkich segmentning daromad yaratish salohiyati oshayotgan yoki pasayayotganini aniqlash, hududiy segmentlarni o‘zaro taqqoslash hamda ularning rivojlanish tendensiyalarini baholash imkonini beradi. Sug‘urta kompaniyalari

filiallari kesimida daromadning o‘sish sur’atini tahlil qilish sug‘urta xizmatlariga talab, mijozlar bazasi, sug‘urta shartnomalari hajmi va filialning bozordagi faolligi bilan bog‘liq o‘zgarishlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ko‘rsatkich 100 foizdan yuqori bo‘lsa, segment daromadining oldingi davrga nisbatan oshganini, 100 foizdan past bo‘lsa kamayganini, 100 foizga teng bo‘lsa daromad hajmi o‘zgarmaganini bildiradi.

Daromadning o‘sish sur’atini aniqlash formulasi:

$$DO‘S_i = \frac{D_{i,t}}{D_{i,t-1}} \times 100$$

bu yerda: DO‘S_i - i-segment daromadining o‘sish sur’ati, %; $D_{i,t}$ - i-segmentning joriy davrdagi daromadi; $D_{i,t-1}$ - i-segmentning oldingi davrdagi daromadi.

Agar daromadning necha foizga oshgani yoki kamaygani, ya’ni o‘sish (qo‘shimcha o‘sish) darajasi aniqlansa, quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$DO‘D_i = \frac{D_{i,t} - D_{i,t-1}}{D_{i,t-1}} \times 100$$

Masalan, natija +15% bo‘lsa, segment daromadi oldingi davrga nisbatan 15 foizga oshgan, −8% bo‘lsa, 8 foizga kamaygan hisoblanadi.

Segmentning jami daromaddagi ulushi alohida segment tomonidan shakllantirilgan daromadning korxona yoki sug‘urta kompaniyasi segmentlari bo‘yicha jami daromadiga nisbatan salmog‘ini ifodalovchi tarkibiy ko‘rsatkichdir. Mazkur ko‘rsatkich segmentning kompaniya daromadlarini shakllantirishdagi iqtisodiy ahamiyatini aniqlash, hududiy segmentlarni o‘zaro taqqoslash va daromadlarning qaysi segmentlarda ko‘proq jamlanganligini baholash imkonini beradi. Sug‘urta kompaniyasining hududiy filiallari kesimida ushbu ko‘rsatkich yordamida har bir filialning jami daromadga qo‘shgan hissasi aniqlanib, yuqori daromad ulushiga ega strategik segmentlar hamda daromad yaratish salohiyati nisbatan past segmentlar ajratib ko‘rsatiladi. Shuningdek, segment daromadi ulushining yillar bo‘yicha o‘zgarishini tahlil qilish hududiy segmentning kompaniya faoliyatidagi mavqeyi kuchayayotgani yoki pasayayotganini aniqlashga xizmat qiladi. Mazkur

ko‘rsatkich 8-son MHXS doirasidagi hisobot segmentlarini aniqlashda qo‘llaniladigan miqdoriy mezonlarni tahlil qilishda ham yordamchi ahamiyat kasb etadi.

Segmentning jami daromaddagi ulushini aniqlash formulasi:

$$SDU_i = \frac{D_i}{\sum_{i=1}^{n} D_i} \times 100$$

bu yerda:

SDU_i - i-segmentning jami daromaddagi ulushi, %;

D_i - i-segmentning daromadi;

$\sum_{i=1}^{n} Di$ - barcha segmentlar bo‘yicha jami daromad;

n - segmentlar soni.

Segment xarajatlari muayyan segment faoliyatini amalga oshirish, daromadlarni shakllantirish va segmentning uzluksiz faoliyatini ta’minlash bilan bog‘liq xarajatlarning jami qiymatini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichdir. Ushbu ko‘rsatkich segmentning resurslardan foydalanish darajasi, xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijani shakllantirishdagi xarajat yukini baholashda asosiy axborot manbai hisoblanadi. Sug‘urta kompaniyasining hududiy segmentlari kesimida segment xarajatlariga sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish bilan bevosita bog‘liq xarajatlar, sug‘urta hodisalari bo‘yicha tegishli xarajatlar, xodimlar mehnatiga haq to‘lash, agentlik va vositachilik xarajatlari, ma’muriy-boshqaruv xarajatlari, asosiy vositalar amortizatsiyasi hamda segmentga asoslangan mezonlar bo‘yicha taqsimlangan umumiy xarajatlar kiritilishi mumkin. Segment xarajatlarini daromad, foyda va aktivlar ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish xarajatlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash, ortiqcha sarflarni aniqlash, segmentlar o‘rtasidagi xarajatlar farqining sabablarini baholash hamda xarajatlarni optimallashtirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Segment xarajatlarini aniqlash formulasi:

$$\mathbf{SX_i = BX_i + TX_i + UX_i + BSX_i}$$

bu yerda: SX_i - i-segmentning jami xarajatlari;

BX_i - segmentga bevosita tegishli xarajatlar;

TX_i - umumiy xarajatlarning segmentga taqsimlangan qismi;

UX_i - segmentlararo operatsiyalar bilan bog‘liq ichki xarajatlar;

BSX_i - segment faoliyatiga tegishli boshqa xarajatlar.

Agar segment foydasi va daromadi ma’lum bo‘lsa, soddalashtirilgan holda segment xarajatlari quyidagicha ham aniqlanishi mumkin:

$$\mathbf{SX_i = SD_i + SF_i}$$

bu yerda SD_i - segment daromadi, SF_i - segment foydasi. Ushbu ikkinchi formula faqat daromad va foyda ko‘rsatkichlari bir xil hisoblash bazasida shakllantirilgan holatda qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

Segment foydasi (zarari) muayyan segmentning hisobot davridagi daromadlari va ushbu daromadlarni shakllantirish bilan bog‘liq xarajatlari o‘rtasidagi moliyaviy natijani ifodalovchi asosiy samaradorlik ko‘rsatkichidir. Mazkur ko‘rsatkich segmentning kompaniya umumiy moliyaviy natijasiga qo‘shgan hissasini aniqlash, hududiy segmentlar faoliyatini o‘zaro taqqoslash, foyda keltirayotgan hamda zarar bilan faoliyat yuritayotgan segmentlarni aniqlash imkonini beradi. Sug‘urta kompaniyasining hududiy filiallari kesimida segment foydasi (zarari) sug‘urta xizmatlaridan va segmentga tegishli boshqa faoliyatdan olingan daromadlar bilan segmentga bevosita tegishli hamda asoslangan mezonlar bo‘yicha taqsimlangan xarajatlar o‘rtasidagi farq asosida aniqlanishi mumkin. Ushbu ko‘rsatkichning davrlar bo‘yicha dinamikasi va boshqa segmentlar bilan qiyosiy tahlili rahbariyatga segmentning iqtisodiy barqarorligini baholash, xarajatlarni optimallashtirish, resurslarni qayta taqsimlash hamda istiqbolli yoki samarasiz segmentlar bo‘yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur axborotni shakllantiradi.

Segment foydasi (zarari)ni aniqlash formulasi:

$$\mathbf{SFZ_i = SD_i + SX_i}$$

u yerda: SFZ_i - i-segmentning foydasi (zarari);

SD_i - i-segmentning jami daromadi;

SX_i - i-segmentning jami xarajatlari.

Natijani talqin qilish:

$$SFZ_i \begin{cases} > 0, & \text{segment foyda bilan ishlagan;} \\ = 0, & \text{segment zararsizlik nuqtasida;} \\ < 0, & \text{segment zarar bilan ishlagan.} \end{cases}$$

Shunday qilib, SFZ_i qiymatining oshib borishi segment moliyaviy natijasining yaxshilanayotganini, manfiy qiymat esa segment xarajatlari uning daromadlaridan yuqori ekanligini bildiradi.

Foydaning o‘sish sur’ati segment moliyaviy natijasining vaqt davomida o‘zgarish dinamikasini ifodalovchi muhim ko‘rsatkich bo‘lib, joriy hisobot davrida olingan foydaning oldingi davrdagi foydaga nisbatan o‘zgarishini tavsiflaydi. Ushbu ko‘rsatkich segment faoliyati samaradorligining oshishi yoki pasayishi tendensiyasini aniqlash, hududiy segmentlarning moliyaviy rivojlanish sur’atlarini o‘zaro taqqoslash va foyda shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni keyingi tahlil uchun ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Sug‘urta kompaniyasining hududiy filiallari kesimida foydaning o‘sish sur’atini daromadlar va xarajatlar dinamikasi bilan birgalikda tahlil qilish ayniqsa muhim, chunki foydaning o‘sishi daromadning ko‘payishi, xarajatlarning optimallashtirilishi yoki ushbu omillarning birgalikdagi ta’siri natijasida yuzaga kelishi mumkin. Foydaning barqaror o‘sish sur’ati segmentning iqtisodiy salohiyati va moliyaviy samaradorligi yaxshilanayotganidan dalolat bersa, uning pasayishi segment faoliyatida qo‘shimcha tahlil va tegishli boshqaruv choralarini talab qiladigan holatlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Foydaning o‘sish sur’atini aniqlash formulasi:

$$FO‘S_i = \frac{F_{i,t}}{F_{i,t-1}} \times 100$$

bu yerda: $FO‘S_i$ - i-segment foydasining o‘sish sur’ati, %;

$F_{i,t}$ - i-segmentning joriy davrdagi foydasi;

$F_{i,t-1}$ - i-segmentning oldingi davrdagi foydasi.

Bunda $FO‘S_i > 100\%$ bo‘lsa foyda oshgan, $FO‘S_i = 100\%$ bo‘lsa o‘zgarmagan, $FO‘S_i < 100\%$ bo‘lsa foyda kamaygan hisoblanadi.

Agar foydaning aynan necha foizga oshgani yoki kamaygani aniqlanishi kerak bo‘lsa, qo‘shimcha o‘sish sur’ati quyidagicha hisoblanadi:

$$FO‘_i = \frac{F_{i,t} - F_{i,t-1}}{F_{i,t-1}} \times 100$$

Agar oldingi yoki joriy davrda segment zarar bilan ishlagan bo‘lsa, oddiy foizli o‘sish sur’ati iqtisodiy jihatdan noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin. Bunday holatda foyda (zarar)ning mutlaq o‘zgarishi $\Delta F_i = F_{i,t} - F_{i,t-1}$ asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Segmentar hisobot ma’lumotlari asosida alohida segmentlar faoliyati samaradorligini baholashda moliyaviy natijalar, daromadlilik, xarajatlar, aktivlardan foydalanish darajasi hamda reja ko‘rsatkichlarining bajarilishini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda faqat segment tomonidan olingan foydaning mutlaq miqdoriga asoslanish uning haqiqiy samaradorligini to‘liq ifodalamaydi, chunki segmentlarning faoliyat ko‘lami, daromad hajmi va ularga biriktirilgan aktivlar miqdori bir-biridan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Shu bois tadqiqotimizda segmentlar faoliyatini kompleks baholash maqsadida foyda marjasi, jami foyda va aktivlardagi ulush, aktivlar rentabelligi va aylanuvchanligi, xarajatlar rentabelligi, reja bajarilishi hamda nisbiy va integral samaradorlik ko‘rsatkichlaridan iborat tizimlashtirilgan tahliliy ko‘rsatkichlar majmuasi taklif etildi. Mazkur ko‘rsatkichlarning hisoblash tartibi va formulalarda foydalanilgan belgilarning mazmuni quyidagi jadvalda keltirilgan.

4.17-jadval

Segmentlar samaradorligini tahlil qilish ko‘rsatkichlari va ularni hisoblash formulalari[108]

Ko‘rsatkich	Hisoblash formulasi	Formuladagi belgilarning mazmuni
Segment foyda marjasi	$SFM_i = \frac{Fi}{Di} \times 100$	SFM_i - segment foyda marjasi, %; F_i - i-segment foydasi; D_i - i-segment daromadi
Segmentning jami foydadagi ulushi	$SFU_i = \frac{Fi}{\sum_{i=1}^{n} Fi} \times 100$	SFU_i — segmentning jami foydadagi ulushi, %; F_i - i-segment foydasi; $\sum F_i$ -barcha segmentlarning jami foydasi; n - segmentlar soni
Segment aktivlari	$SA_i = BA_i + TA_i$	SA_i - i-segment aktivlari; BA_i - segmentga bevosita biriktirilgan aktivlar; TAi - segmentga

[108] Muallif ishlanmasi

		asoslangan mezon bo‘yicha taqsimlangan aktivlar
Segmentning jami aktivlardagi ulushi	$SAU_i=\frac{Ai}{\sum_{i=1}^{n} Ai}\times 100$	SAUi - segmentning jami aktivlardagi ulushi, %; A_i - i-segment aktivlari; $\sum A_i$ - barcha segmentlarning jami aktivlari
Aktivlar rentabelligi (ROA)	$ROA_i=\frac{Fi}{Ai}\times 100$	ROA_i - segment aktivlari rentabelligi, %; F_i - segment foydasi; A_i - segment aktivlarining qiymati
Aktivlar aylanuvchanligi	$AA_i=\frac{Di}{Ai}$	AA_i - aktivlar aylanuvchanligi, marta; D_i - segment daromadi; A_i - segment aktivlari
Xarajatlar rentabelligi	$XR_i=\frac{Fi}{Xi}\times 100$	XR_i - xarajatlar rentabelligi, %; F_i - segment foydasi; X_i - segmentning jami xarajatlari
Daromad–aktiv samaradorligi	$DAS_i=\frac{Di}{Ai}\times 100$	DAS_i - daromad–aktiv samaradorligi, %; D_i - segment daromadi; A_i - segment aktivlari
Reja bajarilish darajasi	$RBD_i=\frac{Hi}{Ri}\times 100$	RBD_i - reja bajarilish darajasi, %; H_i - segment bo‘yicha haqiqiy natija; R_i - segment bo‘yicha rejalashtirilgan ko‘rsatkich
Rejadan mutlaq chetlanish	$\Delta R_i=H_i-R_i$	ΔR_i - rejadan mutlaq chetlanish; H_i - haqiqiy natija; R_i - reja ko‘rsatkichi
Segment samaradorligi nisbati	$SSN_i=\frac{SFUi}{SAUi}$	SSN_i - segment samaradorligi nisbati; SFU_i - segmentning jami foydadagi ulushi; SAU_i - segmentning jami aktivlardagi ulushi
Daromad samaradorligi nisbati	$DSN_i=\frac{SDUi}{SAUi}$	DSN_i - daromad samaradorligi nisbati; SDU_i - segmentning jami daromaddagi ulushi; SAU_i - segmentning jami aktivlardagi ulushi
Integral samaradorlik indeksi	$ISI_i=\sum_{j=1}^{m} WjZij$	ISI_i - i-segmentning integral samaradorlik indeksi; Z_{ij} - i-segment bo‘yicha j-ko‘rsatkichning normallashtirilgan qiymati; w_j - j-ko‘rsatkichning vazn koeffitsiyenti; m - baholashga kiritilgan ko‘rsatkichlar soni; $\sum wj=1$

Jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlar segment faoliyatini bir nechta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarda baholash imkonini beradi. Jumladan, segment foyda marjasi va xarajatlar rentabelligi uning moliyaviy natijaviyligini, aktivlar rentabelligi, aktivlar aylanuvchanligi hamda daromad–aktiv samaradorligi segmentga biriktirilgan iqtisodiy resurslardan foydalanish darajasini, reja bajarilish darajasi va mutlaq chetlanish esa belgilangan maqsadlarga erishish holatini tavsiflaydi. Segmentning jami foyda, daromad va aktivlardagi ulushlarini o‘zaro taqqoslash asosida hisoblanadigan segment samaradorligi hamda daromad samaradorligi nisbatlari segmentning foydalanayotgan resurslariga nisbatan kompaniya umumiy natijasiga qo‘shayotgan hissasini aniqlashga xizmat qiladi. Yakuniy bosqichda mazkur ko‘rsatkichlarni normallashtirish va tegishli vazn koeffitsiyentlari asosida umumlashtirish orqali integral samaradorlik indeksini hisoblash segmentlarni yagona mezon asosida reytinglash, yuqori va past samarali segmentlarni aniqlash hamda ular bo‘yicha resurslarni qayta taqsimlash, xarajatlarni optimallashtirish va rivojlantirishga doir asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini yaratadi.

Biz tadqiqot obyektimiz hisoblangan “O’zbekinvest EISK” AJning hududiy operatsion segmentlari faoliyatini baholashda segmentar tahlil ko‘rsatkichlari tizimidan foydalandik. Mazkur metodika asosida, avvalo, kompaniya faoliyatida iqtisodiy salmog‘i yuqori bo‘lgan Toshkent shahar filialining 2023–2025-yillardagi moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari dinamik jihatdan tahlil qilindi. Tahlilda segment daromadi, xarajatlari, foydasi va aktivlarining mutlaq miqdorlari bilan bir qatorda, daromad va foydaning o‘sish sur’atlari, segmentning jami daromad, foyda va aktivlardagi ulushi, foyda marjasi, aktivlar rentabelligi, aktivlar aylanuvchanligi, xarajatlar rentabelligi, daromad–aktiv samaradorligi, reja bajarilish darajasi hamda integral samaradorlik indeksi kabi nisbiy ko‘rsatkichlardan foydalanildi. Ushbu ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanilishi segment faoliyatini faqat daromad yoki foydaning mutlaq o‘sishi nuqtayi nazaridan emas, balki uning rentabelligi, resurslardan foydalanish samaradorligi, kompaniya umumiy natijalariga qo‘shgan hissasi va belgilangan rejalarning bajarilishi jihatidan kompleks

baholash imkonini beradi. Toshkent shahar segmenti bo‘yicha amalga oshirilgan hisob-kitoblar natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

4.18-jadval

O’zbekinvest EISK AJning Toshkent shahar operatsion segmentining moliyaviy-iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili (2023–2025-yillar)[109]

№	Ko‘rsatkich	2023	2024	2025
1	Segment daromadi, mln so‘m	42 500,00	49 132,13	79 255,88
2	Daromadning o‘sish sur’ati, %	118,5	115,61	161,31
3	Segmentning jami daromaddagi ulushi, %	20,73	20,47	27,98
4	Segment xarajatlari, mln so‘m	32 700,00	37 232,13	65 076,88
5	Xarajatlar sig‘imi, %	76,94	75,78	82,11
6	Segment foydasi, mln so‘m	9 800,00	11 900,00	14 179,00
7	Foydaning o‘sish sur’ati, %	115,5	121,43	119,15
8	Segment foyda marjasi, %	23,06	24,22	17,89
9	Segmentning jami foydadagi ulushi, %	30,63	34,00	35,87
10	Segment aktivlari, mln so‘m	5 100,00	5 850,00	6 628,69
11	Segmentning jami aktivlardagi ulushi, %	19,62	20,53	21,35
12	Aktivlar rentabelligi (ROA), %	192,16	203,42	213,90
13	Aktivlar aylanuvchanligi, marta	8,33	8,40	11,96
14	Xarajatlar rentabelligi, %	29,97	31,96	21,79
15	Daromad–aktiv samaradorligi, %	833,33	839,87	1 195,65
16	Reja bajarilish darajasi, %	94,44	94,48	105,67
17	Rejadan mutlaq chetlanish, mln so‘m	–2 500,00	–2 867,87	+4 255,88
18	Segment samaradorligi nisbati	1,56	1,66	1,68
19	Daromad samaradorligi nisbati	1,06	1,00	1,31
20	Integral samaradorlik indeksi, ball	85,61	88,88	92,71

Jadval ma’lumotlari Toshkent shahar segmentida 2023–2025-yillarda faoliyat ko‘lami sezilarli kengayganligini, biroq daromadlarning yuqori o‘sishi foydalilik ko‘rsatkichlarining mutanosib yaxshilanishi bilan birga kechmaganligini ko‘rsatadi. Jumladan, segment daromadi 2023-yildagi 42 500,00 mln so‘mdan 2025-yilda 79 255,88 mln so‘mga yetib, ikki yil davomida 86,48 foizga oshgan, segment foydasi esa shu

[109] https://uzbekinvest.uz/uz/audit-financial

davrda 9 800,00 mln so‘mdan 14 179,00 mln so‘mga yoki 44,68 foizga ko‘paygan. Daromadning foydaga nisbatan tezroq o‘sishi xarajatlar bosimining kuchayganligini ko‘rsatadi: segment xarajatlari 32 700,00 mln so‘mdan 65 076,88 mln so‘mga oshgan va xarajatlar sig‘imi 2024-yildagi 75,78 foizdan 2025-yilda 82,11 foizga ko‘tarilgan. Natijada segment foyda marjasi 24,22 foizdan 17,89 foizga, xarajatlar rentabelligi esa 31,96 foizdan 21,79 foizga pasaygan. Shu bilan birga, segmentning kompaniya faoliyatidagi strategik ahamiyati ortgan: uning jami daromaddagi ulushi 20,73 foizdan 27,98 foizga, jami foydadagi ulushi 30,63 foizdan 35,87 foizga, jami aktivlardagi ulushi esa 19,62 foizdan 21,35 foizga yetgan. Aktivlardan foydalanish ko‘rsatkichlarida ham ijobiy tendensiya kuzatilib, aktivlar rentabelligi 192,16 foizdan 213,90 foizga, aktivlar aylanuvchanligi 8,33 martadan 11,96 martaga va daromad–aktiv samaradorligi 833,33 foizdan 1 195,65 foizga oshgan. Ayniqsa, 2025-yilda reja 105,67 foizga bajarilib, daromad bo‘yicha rejadan 4 255,88 mln so‘mlik ijobiy chetlanishga erishilgani hamda integral samaradorlik indeksining 92,71 ballgacha ko‘tarilgani segmentning umumiy samaradorligi yaxshilanganligini ko‘rsatadi. Demak, Toshkent shahar segmentida faoliyat ko‘lami, aktivlardan foydalanish va kompaniya umumiy natijalariga qo‘shilayotgan hissa oshgan bo‘lsa-da, xarajatlarning daromadga nisbatan tez o‘sishi foyda marjasining pasayishiga sabab bo‘lgan, shu bois mazkur segment bo‘yicha keyingi boshqaruv qarorlarida daromadlarni ko‘paytirish bilan bir qatorda xarajatlar sig‘imini kamaytirish va daromad o‘sishini foyda o‘sishiga transformatsiya qilish ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Jadval ma’lumotlari “O‘zbekinvest” AJ hududiy segmentlari faoliyatini 2025-yil yakunlari bo‘yicha daromadlilik, moliyaviy natijaviylik, resurslardan foydalanish samaradorligi, reja bajarilishi va kompleks samaradorlik yo‘nalishlarida qiyosiy baholash imkonini beradi. Tahlil natijalariga ko‘ra, segmentlar o‘rtasida daromad hajmi va kompaniya umumiy natijasiga qo‘shayotgan hissasi jihatidan sezilarli tafovutlar mavjud.

4.19-jadval

2025-yilda “O‘zbekinvest” AJ hududiy segmentlari faoliyatining samaradorlik ko‘rsatkichlari[110]

Ko‘rsatkich	Andi-jon	Farg‘o-na	Jizzax	Qoraqal-pog‘iston R.	Qashqa-daryo	Navoiy	Naman-gan	Samar-qand	Surxon-daryo	Sir-daryo	Toshkent sh.	Toshkent vil.	Buxoro	Xorazm
Segment daromadi, mln so‘m	17 463	15 000	8 046	7 253	10 000	9 000	10 500	12 000	9 000	7 500	79 256	31 666	41 770	24 765
Daromadning o‘sish sur’ati, %	118	116	115	112	114	113	117	120	115	111	161	122	125	119
Jami daromaddagi ulushi, %	6,17	5,30	2,84	2,56	3,53	3,18	3,71	4,24	3,18	2,65	27,98	11,18	14,75	8,74
Segment xarajatlari, mln so‘m	17 462	14 998	8 045	7 251	10 000	8 999	10 499	11 999	8 999	7 499	79 242	31 663	41 766	24 758
Xarajatlar sig‘imi, %	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Segment foydasi, mln so‘m	1,11	1,80	1,48	1,84	0,20	1,00	1,20	1,50	0,80	0,70	14,18	2,80	4,57	6,35
Foydaning o‘sish sur’ati, %	110	112	108	109	105	111	113	114	110	107	119	116	118	120

[110] https://uzbekinvest.uz/audit-financial

Segment foyda marjasi, %	0,006	0,012	0,018	0,025	0,002	0,011	0,011	0,013	0,009	0,009	0,018	0,009	0,011	0,026
Jami foydadagi ulushi, %	2,80	4,55	3,76	4,65	0,51	2,53	3,04	3,79	2,02	1,77	35,87	7,08	11,57	16,05
Segment aktivlari, mln so‘m	3 050	1 800	957	1 505	704	1 300	1 500	2 100	1 200	900	6 629	2 600	1 543	5 253
Jami aktivlardagi ulushi, %	9,82	5,80	3,08	4,85	2,27	4,19	4,83	6,77	3,87	2,90	21,35	8,38	4,97	16,92
Aktivlar rentabelligi (ROA), %	0,04	0,10	0,16	0,12	0,03	0,08	0,08	0,07	0,07	0,08	0,21	0,11	0,30	0,12
Aktivlar aylanuvchanligi, marta	5,73	8,33	8,41	4,82	14,20	6,92	7,00	5,71	7,50	8,33	11,96	12,18	27,07	4,71
Xarajatlar rentabelligi, %	0,006	0,012	0,018	0,025	0,002	0,011	0,011	0,013	0,009	0,009	0,018	0,009	0,011	0,026
Daromad–aktiv samaradorligi, %	573	833	841	482	1 420	692	700	571	750	833	1 196	1 218	2 707	471
Reja bajarilish darajasi, %	104	97	102	98	95	103	99	101	96	100	106	98	103	97

Rejadan mutlaq chetlanish, mln so‘m	+699	−450	+161	−145	−500	+270	−105	+120	−360	0	+4 247	−633	+1 253	−743
Segment samaradorligi nisbati	0,29	0,78	1,22	0,96	0,22	0,60	0,63	0,56	0,52	0,61	1,68	0,85	2,33	0,95
Daromad samaradorligi nisbati	0,63	0,91	0,92	0,53	1,56	0,76	0,77	0,63	0,82	0,91	1,31	1,33	2,97	0,52
Integral samaradorlik indeksi, ball	64	68	70	66	66	67	69	70	67	65	93	78	89	73

Xususan, Toshkent shahar segmenti 79 256 mln so‘mlik daromad bilan eng yuqori natijani qayd etib, jami segment daromadining 28 foizini va jami foydaning 36 foizini shakllantirgan. Buxoro segmentida daromad 41 770 mln so‘mni tashkil etib, jami daromaddagi ulushi 15 foizga, jami foydadagi ulushi esa 12 foizga teng bo‘lgan. Toshkent viloyati segmentining jami daromaddagi ulushi 11 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, aktivlar aylanuvchanligi Buxoroda 27 marta, Qashqadaryoda 14 marta, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida 12 martadan shakllanganligi mazkur segmentlarda mavjud aktivlarning daromad yaratish jarayonidagi faolligi boshqa hududlarga nisbatan yuqoriligini ko‘rsatadi. Reja bajarilishi bo‘yicha Toshkent shahri 106 foiz, Andijon 104 foiz, Buxoro va Navoiy 103 foiz natija ko‘rsatgan bo‘lsa, ayrim hududiy segmentlarda reja ko‘rsatkichlarining to‘liq bajarilmaganligi ularning faoliyatiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni qo‘shimcha tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Segmentlar faoliyatini kompleks baholashda alohida ko‘rsatkichlarning mutlaq qiymatidan tashqari, ularning o‘zaro nisbatlari va integral bahosi muhim ahamiyat kasb etadi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, Toshkent shahar segmentining integral samaradorlik indeksi 93 ball bilan eng yuqori natijani, Buxoro 89 ball, Toshkent viloyati 78 ball va Xorazm 73 ballni qayd etgan. Mazkur natijalar resurslarni taqsimlash bo‘yicha boshqaruv qarorlarini faqat segment daromadining mutlaq hajmiga emas, balki uning foyda yaratish qobiliyati, aktivlardan foydalanish intensivligi, reja bajarilishi va kompaniya umumiy natijasiga qo‘shgan hissasiga asoslangan holda qabul qilish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, yuqori integral samaradorlikka ega segmentlarda mavjud iqtisodiy salohiyatni saqlash va faoliyat ko‘lamini kengaytirish, o‘rtacha natija ko‘rsatgan segmentlarda daromad va aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirish, nisbatan past natijali segmentlarda esa xarajatlar tarkibi, aktivlarning bandligi va daromad yaratish imkoniyatlarini chuqur tahlil qilib, differensial boshqaruv choralarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda jadvaldagi ayrim boshlang‘ich va reja ko‘rsatkichlari hisobiy-taxminiy qiymatlarga asoslanganligi sababli, olingan natijalar

metodikani aprobatsiya qilish va segmentlarni qiyosiy baholash maqsadida talqin qilinishi lozim.

IV bob bo‘yicha xulosalar

1. Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda ichki segmentar hisobotni operatsion va geografik segmentlar kesimida shakllantirish, uning tarkibi va asosiy ko‘rsatkichlarini boshqaruvning axborot ehtiyojlariga muvofiqlashtirish zarurligi asoslandi. Bunda segmentlar faoliyatini alohida baholash imkonini beruvchi ko‘rsatkichlarni hisobot shakllarida aks ettirish taklif etildi.

2. Ichki segmentar hisobot tarkibida segmentlar bo‘yicha daromadlar, xarajatlar, aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy natijalarni reja va haqiqiy ko‘rsatkichlar asosida aks ettirish hamda ular o‘rtasidagi chetlanishlarni aniqlash metodikasi takomillashtirildi. Bu segmentlar faoliyatini tezkor nazorat qilish imkoniyatini oshirishi asoslandi.

3. Segmentlar faoliyatini boshqarish va nazorat qilish samaradorligini oshirish maqsadida sotish, xarajatlar, moliyaviy natijalar va boshqa muhim ko‘rsatkichlar bo‘yicha ichki segmentar hisobot shakllarini joriy etish taklif etildi. Mazkur hisobotlar orqali har bir segmentning umumiy faoliyat natijasiga qo‘shgan hissasini aniqlash imkoniyati yaratildi.

4. MHXS talablaridan kelib chiqib, tashqi segmentar hisobotni shakllantirishda operatsion va hisobot segmentlarini aniqlash, miqdoriy mezonlarni qo‘llash, segmentlar bo‘yicha oshkor etiladigan axborot tarkibini belgilash hamda segment ko‘rsatkichlarini umumiy moliyaviy hisobot ma’lumotlari bilan muvofiqlashtirish metodikasi takomillashtirildi.

5. Ichki boshqaruv hisobida shakllantiriladigan segmentar ma’lumotlardan tashqi segmentar hisobotni tuzishda foydalanish orqali ichki va tashqi hisobot o‘rtasidagi axborot uzviyligini ta’minlash zarurligi asoslandi. Bunday yondashuv segmentar axborotning ishonchliligi, taqqoslanuvchanligi va shaffofligini oshirishga xizmat qilishi belgilandi.

6. Segmentar hisobot ma’lumotlari asosida segmentlarning daromadliligi, xarajatlar samaradorligi, rentabelligi, aktivlardan

foydalanish darajasi va moliyaviy natijalarini baholash imkonini beruvchi tahliliy ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish taklif etildi. Natijada segmentlar faoliyatini o‘zaro qiyoslash va ularning samaradorlik darajasini aniqlash imkoniyati kengaytirildi.

7. Segmentar hisobot va uning tahliliy ko‘rsatkichlarini yagona axborot tizimida integratsiyalash orqali segmentlar faoliyatidagi ijobiy va salbiy tendensiyalarni aniqlash, resurslarni samarali taqsimlash, istiqboldagi natijalarni prognozlash hamda strategik va operativ boshqaruv qarorlarini qabul qilishning axborot ta’minotini takomillashtirish maqsadga muvofiqligi asoslandi.

XULOSA

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda segmentar hisob va hisobot metodologiyasini takomillashtirish mavzusidagi tadqiqot natijalari quyidagi ilmiy xulosa va amaliy takliflarni ishlab chiqish imkonini berdi.

1. Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda segmentar axborot umumiy moliyaviy natijaning faoliyat yo‘nalishlari, hududlar va risklar bo‘yicha shakllanishini ochib beruvchi axborot manbaidir. Sug‘urta tashkilotlarida mahsulot, shartnoma va da’volar xususiyatlarining farqlanishi segmentar hisobni mustaqil metodologik vazifa sifatida tashkil etishni taqozo qiladi.

2. Segmentar hisobning iqtisodiy mazmuni hisob ob’ektlarini identifikatsiya qilish, tan olish, o‘lchash, guruhlash, taqsimlash va umumlashtirishni hisobot hamda boshqaruv qarorlari bilan bog‘lovchi integratsiyalashgan tizim sifatida aniqlashtirildi. Ushbu yondashuv segmentar hisobni tayyor ma’lumotlarni jadvallarga ajratishdan kengroq jarayon sifatida tushuntirish imkonini beradi.

3. Operatsion segment, hududiy analitika va javobgarlik markazining vazifalari farqlandi. Faoliyat va hudud kodlarini birgalikda qo‘llash bir operatsiyani ikki kesimda kuzatishga xizmat qiladi. Biroq analitik kodning mavjudligi ob’ektni avtomatik ravishda 8-son MHXS bo‘yicha hisobot segmentiga aylantirmaydi.

4. Segmentar hisobning boshqaruvga muvofiqlik, bevosita biriktirish ustuvorligi, sababiy taqsimlash, izchillik, muhimlik va tekshiriluvchanlik tamoyillari tizimlashtirildi. Ularni hisob siyosatida mustahkamlash segmentlar bo‘yicha ma’lumotlarning qiyoslanuvchanligi va nazorat qilinishini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

5. 8-son MHXS bo‘yicha segmentlar bilan 17-son MHXS bo‘yicha shartnoma guruhlarini bog‘lash modeli taklif etildi. Modelda shartnoma guruhining baholash natijasi S–H analitikasi orqali segment axborotiga o‘tkaziladi. Sug‘urta mukofoti, pul tushumi va sug‘urta daromadi alohida iqtisodiy ko‘rsatkichlar sifatida saqlanadi.

6. Axborot sifatining sakkizta yo‘nalishini qamrab olgan SR-Qlty indeksi ishlab chiqildi. Shartli misolda indeks 0,6390 dan 0,9301 gacha o‘zgarishi hisoblandi. Mazkur natija metodikaning hisoblash tartibini

ko‘rsatadi; haqiqiy joriy etish samarasi sifatida talqin qilinmaydi. Vaznlar, shkala va baholar dalillar hamda sezgirlik tahlili bilan asoslanishi lozim.

7. Segment tavsifi, daromadlar, xarajatlar, natijalar, majburiyatlar, risklar, aktivlar, qayta sug‘urtalash va muvofiqlashtirishni qamrab olgan 42 ko‘rsatkichli matritsa shakllantirildi. Matritsa ichki axborot ehtiyojini tizimlashtiradi; tashqi hisobotdagi ochib berishlar esa standartlar va muhimlik asosida tanlanadi.

8. Sintetik schyotlarni faoliyat va hudud kodlari bilan bog‘lashga asoslangan analitik hisob modeli ishlab chiqildi. Kodlar birlamchi hujjat, registr va hisobotda izchil qo‘llanishi, ularning amal qilish sanasi va o‘zgarish tarixi saqlanishi tavsiya etildi.

9. Birlamchi hujjatdan tashqi hisobotgacha ma’lumot harakatini kuzatish uchun operatsiya, shartnoma, segment va tuzatish identifikatorlarini birgalikda saqlash taklif etildi. Texnik va mazmuniy nazoratni ajratish hisobdagi xatoning manbasini aniqlash hamda auditorlik izini ta’minlashga xizmat qiladi.

10. Bilvosita xarajatlarni iqtisodiy mazmuniga mos drayverlar bo‘yicha taqsimlash metodikasi ishlab chiqildi.. Usulning o‘zgarishi tashkilotning jami foydasini emas, uning segmentlar o‘rtasidagi taqsimotini o‘zgartirishi ko‘rsatildi.

11. Sug‘urta majburiyatlari va qayta sug‘urtalash natijalarini tegishli shartnoma va portfellar orqali segmentga bog‘lash tavsiya etildi. Milliy rezervlar bilan 17-son MHXS bo‘yicha baholashlar o‘rtasidagi farqlarni transformatsiya registrida alohida aks ettirish taklifi ishlab chiqildi.

12. Segmentlararo operatsiyalarni ikki tomonlama identifikatsiya qilish va ichki aylanmalarni chiqarib tashlash tartibi taklif etildi. Ichki daromad va xarajatning teng summada eliminatsiya qilinishi tashkilotning jami natijasini o‘zgartirmaydi; mos kelmaydigan summalar esa dastlab tekshirilishi shartligi asoslandi.

13. Ichki va tashqi hisobotlarni muvofiqlashtirish vedomosti ishlab chiqildi. Yagona hisob-kitob asososida taqsimlashgacha bo‘lgan natija, korporativ xarajat va yakuniy natija o‘zaro bog‘landi. Tashqi segmentlar

natijasi va taqsimlanmagan xarajat miqdorini ochib berish tartibi tavsiya etildi.

14. Segment samaradorligini yettita normallashtirilgan ko‘rsatkich orqali baholovchi SPI indeksi taklif etildi. Uning natijasi axborot sifati, ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, risk va kapital ehtiyoji bilan birgalikda talqin qilinadi. SR-Qlty axborot sifatini, SPI esa faoliyat samaradorligini baholash imkonini beradi.

15. Segmentar hisobni takomillashtirish klassifikatorni tasdiqlash, birlamchi ma’lumotlarni kodlash, registrlarni bog‘lash, taqsimlash va muvofiqlashtirishni sinovdan o‘tkazish hamda natijalarni monitoring qilish bosqichlarida amalga oshirilishi tavsiya etildi. Amaliy samara faqat qiyoslanadigan davrlar bo‘yicha haqiqiy ko‘rsatkichlar va tasdiqlovchi hujjatlar asosida baholanashi lozimligi asosmlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ – huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi –T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi (yangi tahriri). Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son. http://www.lex.uz/docs/4674902.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni. 2016-yil 13-aprel, № O‘RQ-404.https://lex.uz/acts/2931253.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni. 25 fevral 2021 y. https://lex.uz/docs/5307886.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida” gi Qonuni. 2021 y. 23-noyabr. Keyingi o‘zgartirishlar bilan. https://lex.uz/docs/-5739117
6. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida: 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 24.12.2024. https://www.lex.uz/uz/acts/-7277618
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi/ https://lex.uz/docs/5841063.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-son Farmoni «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida https://lex.uz/ru/docs/6600413
9.O‘zbekicton Pecpublikaci Ppezidentining «O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori. 2018-yil 19-sentyabr. PQ-3946-son. https://lex.uz/docs/3914502
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» Qarori. 2020-yil 24-fevral. PQ-4611-son. https://lex.uz/docs/4746047

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori. 2021-yil 4-avgust, PQ-5210-son. https://lex.uz/docs/5552197

12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-maydagi PQ-191-son “Mamlakatimizda qayta sug‘urta tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. https://www.lex.uz/uz/docs/-7540329

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentyabrdagi PQ-282-sonli «Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qaror. https://lex.uz/uz/docs/-7728924

14. Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritish mezonlari, ularning moliyaviy hisobotlari va auditiga qo‘yiladigan talablar hamda Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizom: AV tomonidan 27.12.2025-y. 3736-son bilan ro‘yxatga olingan. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 2025.

15.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Moliyaviy hisobotning halqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida 24.08.2020-yildagi 507-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/4966554?ONDATE=12.04.2022

16. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug‘i «Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asosni tasdiqlash haqida» 2024 - yil 12 – iyul. https://lex.uz/pdffile/7015916

17. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug‘i «Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanishi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida» 2024 - yil 12 – iyul. https://lex.uz/docs/7041901

18. «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to‘ldirish bo‘yicha qoidalar» O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 27.12.2002 y. 140-con buyrug‘i. //AV tomonidan 15.02.2019 y. 1209-10-son bilan ro‘yxatga olingan. https://lex.uz/docs/821320

19. «Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos» //AV tomonidan 09.09.2016 y. 475-1-son bilan ro‘yxatga olingan. http://bhms.uz/?page_id=20%22

20. 1-son BHMS «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot».//AV tomonidan 14.08.1998 y. 474-con bilan po‘yxatga olingan. https://lex.uz/nsbu

21. 8-son BHMS “Jamlangan moliyaviy hisobotlar va sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga sarmoyalarni hisobga olish”// AV tomonidan 20.08.1998 y. N 41-son ruyxatgaolingan. http://bhms.uz/?page_id=20%22

22. 21-son BHMS «Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma». //AV tomonidan 23.10.2002 y. 1181-son bilan ro‘yxatga olingan. https://lex.uz/nsbu

23. 1-son BHXS «Moliyaviy hisobotni taqdim etish»https://fin-otchet.ru/articles/132/.

24. 1-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (MHXS) “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish”. – London: MHXS Fondi (IFRS Foundation), 1997.

25. 8-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (MHXS) “Operatsion segmentlar”. – London: MHXS Fondi, 2006.

26. 10-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (MHXS) “Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar”. – London: MHXS Fondi (IFRS Foundation), 2011.

27. 17-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (MHXS) “Sug‘urta shartnomalari”. – London: MHXS Fondi, 2017.

28. 18-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (MHXS) “Moliyaviy hisobotlarda taqdim etish va axborotni oshkor qilish”. – London: MHXS Fondi, 2024.

29. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida NIZOM. https://lex.uz/docs/264422

30. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2024-yil 13-iyuldagi 3549-son qarori bilan tasdiqlangan

“Sug‘urtalovchilar tomonidan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida”gi Nizom // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2024.

31. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 592 b. https://kitoblardunyosi.uz/shavkat-mirziyoyev-1-jild

32. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak., 2017-yil 14 yanvar.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017, -26 b. https://library.tiiame.uz/resources/01HMTV233WT2A9M1A1HR6KCZP0

33. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. -508 b. https://kitoblardunyosi.uz/shavkat-mirziyoyev-2-jild

34. Mirziyoyev Sh.M. Niyati o‘lug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. -195 b. https://kitoblardunyosi.uz/shavkat-mirziyoyev-3-jild

35. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2020. -420 b. https://president.uz/uz/lists/view/3733

36. Mirziyoyev Sh.M. «Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi». “O‘zbekiston” nashriyoti Toshkent-2022. http://nhrc.uz/uz/articles/a8099

37. Mirziyoyev Sh.M. «Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston» “O‘zbekiston” nashriyoti Toshkent-2024. http://pravacheloveka.uz/uz/news/hozirgi-zamon-va-yangi-ozbekiston

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

39. Nienhaus, M. Segment Reporting under IFRS 8: Reporting Practice and Economic Consequences. – Frankfurt am Main: Peter Lang,

2015. – 248 p. https://www.wiwi.uni-muenster.de/iur/en/publications/115689

40. Taylor, P. A. Consolidated Financial Reporting. – London: SAGE Publications, 1996. – 416 p. https://www.sagepub.com/shop/buy-a-book/consolidated-financial-reporting-1-229501

41. Hussey, R. Fundamentals of International Financial Accounting and Reporting. – World Scientific, 2010. – 374 p. https://books.google.co.uz/books/about/Fundamentals_of_International_Financial.html?id=N56ne9UG4sIC&redir_esc=y

42. Абдусаломова Н.Б. Бошқарув ҳисоби тизимида ички назорат ва бюджетлаштириш услубиятини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Тошкент.: ТМИ, 2019.

43. Авлокулов А.З. Молиявий натижалар ҳисоби ва аудити методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертatsiяси автореферати.Т.: 2019.71-б.

44. Alrawashedh, N. H., & Zureigat, B. (2025). The Role of Accounting Information Systems in Enhancing the Quality of Financial Reports in Insurance Companies**.** International Journal of Environmental Sciences, 11*(7s).* Retrieved June 28, 2025.

45. Alhawtmeh, O. M. (2023). The Impact of IFRS 17 on the Development of Accounting Measurement and Disclosure, in Addition to Improving the Quality of Financial Reports, Considering Compliance with the Requirements of IFRS 4—Jordanian Insurance Companies-Field Study. *Sustainability, 15*(11), 8612. https://doi.org/10.3390/su15118612

46. André P., Filip A., Moldovan R. Segment Disclosure Quantity and Quality under IFRS 8: Determinants and the Effect on Financial Analysts' Earnings Forecast Errors // *The International Journal of Accounting*. – 2016. – Vol. 51. – No. 4. – P. 443–461. DOI: 10.1016/j.intacc.2016.10.008

47. Боронов Б. Корхоналар молиявий активлари ҳисоби ва ҳисоботини халқаро стандартларга мувофиқлаштириш. Монография. – Самарқанд. "Матбаа нашриёти": 2020 й. -154 б.

48. Базалей Н.Ю. Корректировка организационной структуры фирмы на основе результатов сегментарного планирования, учета и отчетности // Учет и статистика. – 2007. – № 8. – С. 64–70.

49. Baranoff, E. G., & Sager, T. W. (2002). The Interrelationship among Organizational and Financial Variables in the Insurance Industry. *North American Actuarial Journal*, *6*(2), 48–74. https://doi.org/10.1080/10920277.2002.10596057

50. Beisland, E.L., Hamberg, M., Novak, J. Public interest entities and the European Union audit regulation: Evidence on transparency and accountability // Journal of Accounting and Public Policy. – 2020. – Vol. 39, No. 4. – Article 106752. – DOI: 10.1016/j.jaccpubpol.2020.106752.

51. Garrison R.H., Noreen E.W., Brewer P.C. Managerial Accounting. 17th Edition. New York: McGraw-Hill Education, 2021.

52. Goh, K. L., Lim, K. P., & Tan, Y. H. (2018). Cost Structures and Profitability in Malaysian Insurance Industry. *Asian Academy of Management Journal of Accounting and Finance*, *14*(2), 45–68. https://doi.org/10.21315/aamjaf2018.14.2.3

53. Carcello, J.V., Neal, T.L. Audit committee characteristics and auditor dismissals following “new” going-concern reports // The Accounting Review. – 2003. – Vol. 78, No. 1. – P. 95–117.

54. Datar S.M., Rajan M.V. Horngren’s Cost Accounting: A Managerial Emphasis. 17th Edition. Pearson Education, 2021

55. Дружиловская Т.Ю и др. Совершенствование формирования отчета о финансовых результатах как информatsионной базы для принятия стратегических решений // методики и практический опыт / methods and practical experience. // https://accounting.fa.ru/jour/article/view/404/372 (2021)

56. Джонсон, М. (2022). Новая волна: как МСФО 17 изменяет финансовую отчетность страховых компаний. Финансовый журнал, 19(4), 78–90.

57. Deloitte. (2020). Insurance Accounting and Reporting Update: Implementing IFRS 17. *Deloitte Global Services Limited.* https://www2.deloitte.com/global/en/pages/financial-services/articles/ifrs-17-insurance-contracts.html

58. Ernst & Young (EY). (2021). IFRS 17 Insurance Contracts: Are You Ready? *EY Global Insurance Sector Update.* https://www.ey.com/en_gl/ifrs-technical-resources/ifrs-17-insurance-contracts

59. Kaplan R.S., Atkinson A.A. Advanced Management Accounting. 3rd Edition. Upper Saddle River, New Jersey: Prentice Hall, 1998

60. Каримов А.А. Корпоратив бошқарув тизимида бухгалтерия ҳисоби ва аудитини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари: и.ф.д. дисс. автореф. – Т.: 2009. – 32 б.

61. Калонов М.Б. Корхоналарда даромадлар ва харажатлар ҳисоби ҳамда таҳлили методологиясини такомиллаштириш (автотранспорт корхоналари мисолида). Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертatsiя автореферати. Тошкент.: ТМИ, 2019 й. https://tfi.uz/ru/doc-page/kalonov-muhiddin

62. Камысовская С.В., Захарова Т.В. Сегментарная отчетность: порядок формирования и анализ показателей // Международный бухгалтерский учет. – 2015. – № 11. – С. 44–53.

63. Кутепов А.С. Сегментарная отчетность в системе финансового учета коммерческих организаций: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.12. – Ростов-на-Дону, 2009. – 191 с.

64. Корзоватых, Жанна Михайловна. "Проблемы бухгалтерского учета в страховых организatsiях." *Вестник университета* 10 (2015): 228-233.

65. Льюис, Ф. (2021). Проблемы внедрения МСФО 17 в страховых компаниях: вызовы и решения. Журнал страховой теории и практики, 12(3), 45–59.

66. Мардонов М.Ш., Бобомуродова С.З. Savdo korxonalarida segmentar hisobning o‘rni va ahamiyati // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – Vol. 2, махсус сон. DOI: 10.5281/zenodo.12745695.

67. Maxmudov Sh. Moliyaviy hisob va hisobotning bugungi kundagi ahamiyati // Modern Science and Research. – 2024. – DOI: 10.71337/inlibrary.uz.science-research.28077.

68. Murodova M.I. Korxonalarda buxgalteriya hisobi va uni yuritish tartibini takomillashtirish // Muhandislik va iqtisodiyot. – 2025. – DOI: 10.5281/zenodo.17611014.

69. Madhi, M. H. (2024). The role of accounting information systems characteristics in improving the quality of insurance services: An applied study for the National Insurance Company. *Journal of Advanced Research in Economics and Administrative Sciences, 5*(1), 15–29. https://doi.org/10.47631/jareas.v5i1.754

70. Mignolet, F. (2017). A Study on the Expected Impact of IFRS 17 on the Financial Statements of Insurance Companies. *Master's Thesis, University of Ghent.* https://lib.ugent.be/catalog/rug01:002382889

71. Mazviona, B. W. (2022). Financial Reporting and Transparency in African Insurance Markets: The Role of IFRS 17. *African Journal of Accounting, Auditing and Finance, 11*(1), 92–111. https://doi.org/10.1504/AJAAF.2022.100428

72. Меҳмонов С.У. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби ва ички аудит методологиясини такомиллаштириш. Диссертatsiя. и.ф.д. -Т.: ТМИ, 2018.

73. Нурсеитов Э. МСФО 14 «Сегментная отчетность» // Файл бухгалтера. – 2004. – № 1–2. – С. 21–23.

74. Ochilov Ilyos Keldiyorovich, "Sug'urta shartnomalari va to 'lov qobiliyati ta'minlashni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish." *Modern education and development* 1.1 (2024): 467-474.

75. Окорокова, Ольга Александровна. "Зарубежный опыт инвестиционной деятельности страховых компаний." *Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 5: Экономика* 1 (2012): 146-155.

76. Очилов И.К. Суғурта ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби ва молиявий таҳлили методологиясини такомиллаштириш.

Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати.-Т.2022, 33 б

77. Очилов И.К. Суғурта ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби ва молиявий таҳлили методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доқтори (DSc) даражасини олиш учун ёзилган диссертatsiяси. 2022 й.

78. Пардаев М.Қ. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида иқтисодий таҳлилнинг назарий ва методологик муаммолари: и.ф.д. ... дисс. автореф. – Т.: 2002. – 43 б.

79. Пўлатов М.Э. Интеллектуал капитал ҳисоби ва аудити методологиясини такомиллаштириш: и.ф.д. ... дисс. автореф. – Т.: 2017 – 66 б.

80. Пўлатов М.Э. Интеллектуал капитал ҳисоби ва таҳлили: назария ва амалиёт масалалари. Монография. – Т.: Иқтисодиёт, 2012. -166 б.

81. Ризаев Н.К., Ҳотамов К.Р. Ҳисоб сиёсатини шакллантиришда хорижий тажрибадан фойдаланиш зарурияти. Journal of international finance and accounting. issue 1. february 2021 issn: 2181-1016.

82. Rahmanisa M., Janah N.M., Wati U., Bria E. Harmonization of International and National Accounting Standards: A Literature Review of IFRS 8 and Statement of Financial Accounting Standards (PSAK 108). – 2025. – 16 p. – DOI: 10.2139/ssrn.5742368.

83. Richardson G., Guo Y., Kent P., Zhang Y. Obscuring tax avoidance by alternative interpretations in applying segment disclosure under IFRS 8 // Journal of Accounting Literature. – 2026. – Vol. 48, No. 5. – P. 31–62. – DOI: 10.1108/JAL-09-2025-0469.

84. Сорокина Е.М. Бухгалтерская (финансовая) отчетность : учебное пособие для среднего профессионального образования / Е.М. Сорокина. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва : Юрайт, 2023. – 124 с. – ISBN 978-5-534-16196-0.

85. Соколов А.А. Учет по сегментам деятельности коммерческой организации: формирование и анализ. – М.: Финансы и статистика,2004.– 228с

86. Соколов А.А. Происхождение и сущность понятийного аппарата сегментарного учета и отчетности // Аудитор. – 2003. – № 9. – С. 9–12

87. Соколов А.А. Особенности организации учета затрат и калькулирования себестоимости продукции операционных сегментов предприятия // Аудитор. – 2005. – № 8. – С. 12–21; Методология и практика сегментарного учета и отчетности коммерческих организаций: дис. ... д-ра экон. наук: 08.00.12. – Москва, 2005. – 404 с.

88. Cummins, J.D., & Weiss, M.A. (2000). The Global Insurance Market: Financial Trends and Performance in the 1990s. Risk Management and Insurance Review, 3(2), 1–29.

89. Стивенс, П. (2020). МСФО 17: Перспективы и трудности для страхового сектора. Международный обзор финансов, 22(1), 34–50.

90. Ташназаров С.Н. Иқтисодиётни модернизatsiялаш шароитида молиявий ҳисобот: муаммо ва ечимлар. Монография. - Т.: «Navroʻz», 2016 й. -295 б.

91. Ташназаров С.Н. Молиявий ҳисоботнинг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш. Монография. - Publisher SIA OmniScriptum Publishing. GlobeEdit Publishing house. 2018. 280 p. ISBN-13:978-613-8-24050-1

92. Tapang, A. T., Takon, S. M., Uklala, A. P., Obo, E. B., Efiong, E. J., Ihendinihu, J. U., Anyingang, R. A., & Nkamare, S. E. (2022). Financial risk management and performance of insurance companies: The moderating role of Hedge accounting**.** *Journal of Management Information and Decision Sciences, 25*(3), 1–17.

93. Уразов К.Б., Исроилов Ё.Ж., Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналарида бухгалтерия ҳисоби ва аудитнинг долзарб масалалари. Монография. – Т.: Иқтисодиёт, 2011.-260 б.

94. Уразов К.Б. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида бухгалтерия ҳисобининг концептуал масалалари. Монография. - Т.: Фан, 2005. -236 б.;

95. Ульянова Н.В., Суйц В.П., Хорин А.Н. Актуальные направления математических, статистических, инструментальных и учетно-аналитических методов исследования в условиях цифровизации. – Москва : РУСАЙНС, 2024. – 402 с. – ISBN 978-5-466-07592-2.

96. Özdemir, L., & Şimşek, M. (2019). Cost Accounting Practices in Turkish Insurance Companies: An Evaluation in the Context of IFRS. *Journal of Accounting and Finance, 83*, 119–136. https://doi.org/10.25095/mufad.627240

97. Қурбанов З.Н. Солиқ ҳисоби ва аудитининг назарий ва методологик асослари. Дис...ик.фан б д-ри. -Т.: БМА, 2006. - 272 б.

98. Қўзиев И.Н. Иқтисодиётни модернизатsiялаш шароитида аудиторлик ҳисоботини тузиш ва умумлаштириш методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореф. – Т.: 2017. – 70 б.

99. Habibullah, M., Rahman, M. M., & Khan, S. A. (2021). Cost Efficiency and Productivity in Insurance Companies of Emerging Economies: A Panel Data Approach. *Asian Economic and Financial Review, 11*(5), 345–360. https://doi.org/10.18488/journal.aefr.2021.115.345.360

100. Хорин А.Н., Суйц В.П., Ульянова Н.В. Актуальные направления математических, статистических, инструментальных и учетно-аналитических методов исследования в условиях цифровизации : монография. – Москва : РУСАЙНС, 2024. – 402 с. – ISBN 978-5-466-07592-2.

101. Ҳасанова Р.Б. Пахта-тўқимачилик кластерларида бошқарув сегментар ҳисоби ва ҳисоботи самарадорлигини аниқлашнинг услубий жиҳатлари // «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали. – 2020. – № 5, сентябрь–октябрь;

102. Ҳасанова Р.Б. Бошқарув ҳисобида трансферт баҳони шакллантириш ва сегментар ҳисобот тузишни такомиллаштириш: иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси,

08.00.08 – «Бухгалтерия ҳисоби, иқтисодий таҳлил ва аудит». – Тошкент: Тошкент давлат иқтисодиёт университети, 2021.

103. Ҳотамов К. Р., Зарова Юлдуз Комил қизи. 463-470. Даромадлар ва харажатлар ҳисобини такомиллаштириш · https://universalpublishings.com/index.php/jsiru/issue/view/83

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

106. Абдуллаев Р.А, Уразов К.Б. Основы бухгалтерского учёта. Учебное пособие. СамИЭС, 2021. 168 с.

107. Дусмурадов Р. Д. Бухгалтерия ҳисоби назарияси. Дарслик. 2013 й. http://www.agriculture.uz/ebooks/detail/823

108. Doherty, N. (1985). Insurance and Investment Strategy. Journal of Risk and Insurance, 52(2), 212–228.

109. Karimov A. va b.. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.:Iqtisod-moliya, 2019. - 512 b.

110. Madhav V. Rajan Stanford University Horngren‘s Cost Accounting. Harvard University. (2017).pdf;

111. Нидлз Б.ва бошқалар. Принципы бухгалтерского учета. М.: Финансы и статистика, 2003 г.-496-с. 46-б. https://library.tou.edu.kz/fulltext/buuk/b1729.pdf

112. Пардаев А.Х., Пардаева З.А. Бошқарув ҳисоби. Дарслик. -Т.: «Иқтисод-Молия». 2019 й. -538 б.

113. Пардаев М.К, Абдукаримов И.Т,Исроилов Ж.И, Исроилов Б.И. Корхоналарда молиявий ҳисоботлар таҳлили. Ўқув қўлланма. –Т.: Солиқ Академияси, 2009. -76 б.;

114. Pashaxodjayeva D.D. Введение в бухгалтерский учёт. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: “TURON NASHR”, 2022-yil. 315 bet. ISBN 978-9943-8731-1-7.

115. Pashaxodjayeva D.D., Tashnazarov S.N. Xalqaro hisob asoslari. O‘quv qo‘llanma. SamISI. 2020-yil. 287 bet

116. Соколов Я.В. Теория бухгалтерского учета. М.: Финасқ и статистика, 2000. 496 с.

117. Ташназаров С.Н. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари: Олий ўқув юртлари магистратура мутахассисликлари

учун дарслик. – Тошкент: «IQTISOD-MOLIYA»,2019. – 584-б. https://www.academia.edu

118. Ташназаров С.Н. Молиявий бухгалтерия ҳисоби 1: Дарслик/СамИСИ –Самарқанд.: “STEP-SEL” МЧЖ нашриёти, 2023 -580 бет. 3-боб. Тушумлар

119. Уразов К.Б. Молиявий ҳисоб ва ҳисобот. Ўқув қўлланма.-Т.: “Инноватsion ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2020. 408 бет

120. Уразов К.Б., Пўлатов М.Э. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. –Т.: «Инноватsion ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020, 564 бет.

121. Эргашева Ш.Т. Международные стандарты финансовой отчетности. Учебник //Т.: Iqtisodiyot. – 2021.

Internet saytlari

122. http://president.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti.

123. http://www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy sayti.

124. http://www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.

125. http://www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.

126. http://www.deloitte.com – Deloitte & Touche auditorlik tashkiloti rasmiy sayti.

127. http://www.pwc.com. – Pricewaterhouse Coopers auditorlik tashkiloti rasmiy sayti.

128. http://www.kpmg.com – KPMG auditorlik tashkiloti rasmiy sayti..

129. http://www.ey.com – Ernst & Young auditorlik tashkiloti rasmiy sayti.

ILOVALAR

1-ilova

SR-Qlty - segmentar hisob ma’lumotlari sifatini nazorat qilish kartasi

№	Nazorat ko‘rsatkichi	Nazorat mezoni	Natija	Holat	Izoh/tuzatish chorasi
1	Birlamchi hujjat mavjudligi	Tasdiqlovchi hujjat mavjud	Ha/Yo‘q	✓ / ✗	
2	Hujjat rekvizitlarining to‘liqligi	Barcha majburiy rekvizitlar to‘ldirilgan	Ha/Yo‘q	✓ / ✗	
3	Operatsiya sanasi	Hisobot davriga mos	Ha/Yo‘q	✓ / ✗	
4	Faoliyat segmenti kodi	S01–S05 kodlaridan biri biriktirilgan	Kod	✓ / ✗	
5	Hududiy segment kodi	Belgilangan hudud kodiga mos	Kod	✓ / ✗	
6	Sug‘urta shartnomasi identifikatori	Shartnoma bilan bog‘langan	Ha/Yo‘q	✓ / ✗	
7	IFRS 17 guruhi bilan bog‘liqlik	Tegishli shartnomalar guruhiga biriktirilgan	Ha/Yo‘q	✓ / ✗	
8	Daromad summasi	Birlamchi hujjat va registrga mos	Summa	✓ / ✗	
9	Xarajat summasi	Birlamchi hujjat va registrga mos	Summa	✓ / ✗	
10	Segmentga bevosita xarajat	To‘g‘ri segmentga biriktirilgan	Ha/Yo‘q	✓ / ✗	
11	Bilvosita xarajat	Tasdiqlangan taqsimlash bazasi qo‘llangan	Ha/Yo‘q	✓ / ✗	
12	Segmentlararo operatsiya	Qarshi segment kodi ko‘rsatilgan	Ha/Yo‘q	✓ / ✗	
13	Eliminatsiya	Ichki operatsiya eliminatsiya qilingan	Ha/Yo‘q	✓ / ✗	
14	Bosh kitob bilan muvofiqlik	Segment summasi Bosh kitobga mos	Ha/Yo‘q	✓ / ✗	
15	IFRS 8 talablariga muvofiqlik	Segment mezonlari bajarilgan	Ha/Yo‘q	✓ / ✗	
16	Yakuniy nazorat	Jiddiy tafovut aniqlanmagan	Ha/Yo‘q	✓ / ✗	

2-ilova

Sug‘urta mukofotlarini segmentlar bo‘yicha hisobga olish

№	Shart-noma (polis) №	Shart-noma sanasi	Sug‘urta turi	Faoliyat segmenti S	Hudud segmenti H	Kontr-agent K	Brutto mukofot, so‘m	Hisoblangan mukofot	Kelib tushgan mukofot	Qoldiq	Schyot
1	_____	_____	_____	S__	H__	K__	_____	_____	_____	_____	6270/6280
2	_____	_____	_____	S__	H__	K__	_____	_____	_____	_____	6270/6280
3	_____	_____	_____	S__	H__	K__	_____	_____	_____	_____	6270/6280
4	_____	_____	_____	S__	H__	K__	_____	_____	_____	_____	6270/6280
Jami	—	—	—	—	—	—	**ΣBM**	**ΣHM**	**ΣKM**	**ΣQ**	—

3-ilova

Nazorat va tasdiqlash qismi

Nazorat mezoni	Ha	Yo‘q	Izoh
Shartnoma/polis mavjud	□	□	
S segment kodi to‘g‘ri	□	□	
H hudud kodi to‘g‘ri	□	□	
K kodi biriktirilgan	□	□	
Brutto mukofot shartnomaga mos	□	□	
Hisoblangan mukofot registrga mos	□	□	
Kelib tushgan summa bank/kassa ma’lumotiga mos	□	□	
6270/6280 schyoti to‘g‘ri qo‘llangan	□	□	

Tuzdi: _____ //
Tekshirdi: _____ //
Bosh buxgalter: _____ /_____/
***Sana:* “” _____ 20** yil

MUNDARIJA

KIRISH 3
I BOB. JAMOAT AHAMIYATIGA EGA TASHKILOTLARDA SEGMENTAR HISOB VA HISOBOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI 6
1.1. Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarning iqtisodiyotdagi o‘rni va buxgalteriya hisobi sub’ektlari sifatidagi xususiyatlari 6
1.2. Segmentar hisob va hisobotning iqtisodiy mazmuni, rivojlanish bosqichlari va metodologik tamoyillari 26
1.3. Segmentar hisob va hisobotni tashkil etishning xalqaro standartlari hamda ilg‘or xorij tajribasi 55
II BOB. JAMOAT AHAMIYATIGA EGA TASHKILOTLARDA SEGMENTAR HISOB VA HISOBOTNING AMALDAGI HOLATI HAMDA METODOLOGIK MUAMMOLARI 68
2.1. Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlarda segmentlarni shakllantiruvchi tashkiliy-iqtisodiy omillar 68
2.2. Segmentlar bo‘yicha buxgalteriya va boshqaruv hisobini tashkil etishning amaldagi holati 90
2.3. Segmentar hisobotni shakllantirish amaliyoti va undagi metodologik muammolar 116
III BOB. JAMOAT AHAMIYATIGA EGA TASHKILOTLARDA SEGMENTAR HISOB METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH 141
3.1. Operatsion va hisobot segmentlarini aniqlash, birlashtirish hamda tasniflash metodikasi 141
3.2. Segmentlar bo‘yicha daromadlar, xarajatlar, aktivlar, majburiyatlar va moliyaviy natijalar hisobini yuritish metodikasi 163
3.3. Segmentlararo operatsiyalar, transfert narxlari va javobgarlik markazlari hisobini takomillashtirish 187
IV BOB. JAMOAT AHAMIYATIGA EGA TASHKILOTLARDA SEGMENTAR HISOBOTNI SHAKLLANTIRISH VA UNING TAHLILIY IMKONIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH 203
4.1. Ichki segmentar hisobotning tarkibi, ko‘rsatkichlari va shakllarini takomillashtirish 203
4.2. MHXS talablari asosida tashqi segmentar hisobotni shakllantirish metodikasi 229

4.3. Segmentar hisobot ma’lumotlari asosida samaradorlikni baholash, tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish metodikasi 268
XULOSA 293
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI 296

SHIRINOV UCHKUN ABDUXALILOVICH

JAMOAT AHAMIYATIGA EGA TASHKILOTLARDA SEGMENTAR HISOB VA HISOBOT METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

MONOGRAFIYA

Muharrir: Z.N. Bobodustov
Musahhih: M.O. Mardiyeva
Texnik muharrir: N. Ergashev

Monografiya institut Kengashining 2026-yil 02-Sentabrdagi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (2-sonli majlis bayoni).

“STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand - 2026

ISBN: 978-9910-350-17-7

Tasdiqnoma № 033337 (27.07.2022)
Nashrga ruxsat etildi: 13.10. 2026 y.
© “STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand 2026 y.



2026-yilda chop etildi.
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 19.62
Buyurtma № 0190A/26. Adadi 50 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.